



*Naila Nazirovna Azizzxo'jaeva*


Pedagogika fanlari doktori, professor, Xalq ta'limi sohasida xizmat ko'rsatgan arbob, Xalqaro pedagogik va maxsus fanlar akademigi N.N.Azizzxo'jaeva O'zbekiston Respublikasining uzlusiz ta'lim tizimi o'quvtarbiyaviy jarayoniga pedagogik texnologiyalarini tatbiq etish va o'rganish mabtabini yaratdi.

N.N.Azizzxo'jaeva tomonidan tashkil etilgan innovatsiya texnologiyalari markazi ko'plab OTM, o'rta maxsus, kasbhunar kollejlari o'qituvchilariga yangi pedagogik texnologiyalarini o'zlashtirishlariga imkoniyat beradi.

O'quv qo'llanmada respublikamiz oliy maktablarida magistrantlarni samarali kasbiy faoliyatga tayorlashning asosiy muammolarini hal etish borasida so'z boradi.

*N.N.Azizzxo'jaeva*

# **PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI


A-11  
N.N. AZIZZO'JAYEVA

# PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT

Oliy va o'rtta maxsus ta'limgazalar uchun  
yo'naliishing barcha sohalari magistratura talabalari uchun  
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti

TOSHKENT-2006



**N.N.AZIZXO'JAYEVA**

Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma.  
I.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti.  
2006, 160 b.

Mazkur o'quv qo'llanma xalq ta'limi sohasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi N.N. Azizzodjeva tomonidan yozilgan bo'lib, oliy maktab o'qituvchilari pedagogik mahorati va pedagogik texnologiyalar zamonaviy muammolarini ochib beradi.

O'quv qo'llanmada «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»dagi vazifalardan kelib chiqib oliy maktabda ta'lim jarayoni tahlil qilingan. Ta'limning mohiyati, tamoyillari va mazmunni asosiy nazariyalari ko'rib chiqilgan.

Oliy maktabda o'qishni tashkil qilish shakllari va metodlariga zamonaviy talablar hamda talabalarning bilim olish faoliyatları o'rGANILADI. Pedagogik texnologiyalar ilmiy-nazariy asoslariga alohida e'tibor qaratiladi, ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyalar beriladi. Pedagogik texnologiyalarni amaliyotda aniq foydalananish o'qituvchining pedagogik mahorati bilan bog'lanadi.

Pedagogik mahorat asoslari, o'qituvchining pedagogik faoliyati turlari, pedagogik munosabat va pedagogik madaniyat masalalari ochib beriladi. Oliy maktab magistraturasining barcha ixtisosliklari uchun tavsija etilgan.

© O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi  
Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006

**MUNDARIJA****MUQADDIMA.....5**

I BOB. OLIV MAKTABDA TA'LIM JARAYONI .....	8
1.1. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va O'zbekiston Respublikasida oliy maktab taraqqiyoti.....	8
1.2. Oliy maktab ta'lif mazmuni .....	10
1.2.1. Ta'lif mazmunini shakllantirishning mohiyati va nazariyasi .....	10
1.2.2. Ta'lif mazmunini tanlash tamoyillari va me'yordi .....	12
1.3. Oliy maktabda o'qitishni tashkil etishning shakl va metodlariga qo'yiladigan talablar .....	14
1.3.1. Asosiy qoidalar .....	14
1.3.2 Oliy maktabda o'qitish shakllari .....	16
1.3.3. Oliy maktabda o'qitish metodlari .....	23
1.4. Bilish faoliyati to'g'risida sharq mutafakkirlarining ilmiy-pedagogik qarashlari .....	29
1.5. Oliy maktab talabalarining bilish faoliyati .....	32
O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar .....	37
ADABIYOTLAR .....	38

**II BOB. TALABA SHAXSI RIVOJLANISHI TAVSIFI .....** 39

2.1. Shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlar .....	39
2.2. O'smirlilik davrida shaxsning shakllanishi .....	44
2.3. Talabaning aqliy faoliyat xususiyatlari .....	46
O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar .....	49
ADABIYOTLAR .....	50

**III BOB. OLIV MAKTAB O'QITUVCHISINING INNOVATSION FAOLIYATI .....** 51

3.1. Innovatsion faoliyatining nazariy omillari .....	51
3.2. O'qituvchining innovatsion faoliyati tuzilmasi .....	55
3.3. O'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish shartlari .....	59
O'z-o'zini nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar .....	62
ADABIYOTLAR .....	63

<b>IV. BOB PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING ILMY-NAZARIY ASOSLARI</b>	64
4.1. Pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari	64
4.2. Muammoli o'qitish texnologiyasi	70
4.3. O'yinli texnologiyalar	91
4.4. Tanqidiy fikrlashni o'stiruvchi faol metodlar	109
4.5. Mutiliflik texnologiyasi	118
4.5.1. Shaxsni ko'zda tutishga asoslangan pedagogik texnologiyalar	118
4.5.2. O'qitishni jadallanshtirish texnologiyasi	118
4.5.3. O'quv jurnayomini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga qurilgan pedagogik texnologiyalar	119
4.5.4. O'qitishni tabaqalashtirish	123
4.5.5. Oqitishning individyallashdirish texnologiyasi	125
4.5.6. Dasturlashtirilgan o'qitish texnologiyasi	127
O'z o'zini nazorat qilish uchun savollar va vazifalar	129
<b>ADABIYOTLAR</b>	134
<b>V. BOB PEDAGOGIK MAHORAT ASOSLARI</b>	136
5.1. Pedagogik mahorat haqida tushuncha	136
5.2. Oliy mabkat o'qituvchisining kasbiy-pedagogik faoliyati	141
5.2.1. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar	141
5.2.2. Pedagogik qobiliyat	141
5.2.3. O'qituvchi faoliyati turlari	142
5.3. ADABIYOTLAR	144
XULOSA	146
Axoyi foydalanishidan adabiyotlar ro'yxati	147
Pedagogik terminologiyining qisqacha lug'ati	148
	149

## Muqaddima

O'zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lini tanlagan va amalga oshirib kelmoqda. Respublikamizdagi amalga oshirilayotgan qayta qurishdan asosiy maqsad va uning harakatlantiruvchi kuchi inson, shaxsning har tomonlama rivojlanishi va farovonligi hisoblanadi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining muhim sharti kadrlarni tayyorlash tiziminining mukammal bo'lishi, zamonaviy iqtisod, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalar asosida rivojlanishi hisoblanadi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» uzluksiz ta'lim va kadrlarni tayyorlash tizimlarini tubdan isloh qilishga qaratilgan.

«Milliy dasturni» amalga oshirishda mavjud ta'lim va kadrlarni tayyorlash tizimlarini tubdan o'zgartirish zamonaviy ilmiy fikrlar yutuqlari va ijtimoiy tajribalarga, ta'lim jarayonini hamma bosqichlarida, uzluksiz ta'lim tizimi ta'lim muassasalarining hamma shakli va turlarida ilg'or-metodik ta'limlarga tayangan holda amalga oshiriladi.

Hozirgi zamonaviy bosqichda pedagogik dolzH vazifalarga fan, texnika, ilg'or texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish asosida shaxsni t'Hiyalash, o'qitish va rivojlantirish maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini ilmiy ta'minlash kiradi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimini orqali har tomonlama rivojlangan shaxs – fuqaroning tashkil topishni ko'zda tutadi. U ushu ta'lim tizimida va kadrlar tayyorlashda ta'lim xizmatlarining ist'emolchisi, buyurtmachisi sifatida va xuddi shunday ishlab chiqaruvchi sifatida ishtirot etadi.

SHaxs ta'lim jarayonining ishlab chiqaruvchisi sifatida ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmatlar sohasi faoliyatida bilish va tajribalarni berishda ishtirot etadi. Respublikamizda shaxsga o'zining ijodiy imkoniyatlarini amalga oshirish uchun professional ta'lim dasturini tanlash huquqini bergan.

Uzluksiz ta'lim tizimida oliy ta'lim alohida o'r'in egallaydi. Oliy

U'lim umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi asosida ozluksiz ta'lim tizimining mustaqil turi hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi va «Kadrlash tayyorlash milliy dasturi» qonunlariga binoan amalga oshiriladi.

«Kadrlash tayyorlash milliy dasturi»da oliy ta'limning asosiy vazifalari belgilab berilgan. Oliy ta'limning eng muhim vazifalaridan biri zamonaviy o'quv dasturlari asosida yuqori natijali o'qitish va malakali kadrlar tayyorlashni ta'minlash hisoblanadi. Oliy ta'limni istoh qilishning hozirgi bosqichi oliy ta'lim maktabi o'qituvchisining vazifasini ham o'zgartiradi.

Oliy muktab o'qituvchisining faoliyat shaxsnинг o'quv jarayonida ta'lif olishi, talab va qobiliyatlarining shakllanishi uchun sharoitlar yaratib berishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Oliy muktabning har bir o'qituvchisi malakasining ikki qirrasi bor: ular ikki fanlar bilan yoritiladi – maxsus va pedagogik. Oliy muktab o'qituvchisiga har doim nima uchun o'qitish kerak? Nimalarni o'qitish kerak? Qanday o'qitish kerak? kabi savollarga javob izlashga to'g'ri keladi.

Bu masalalarning to'g'ri yechimlarini topish kerak. Bunday yechimlar pedagogik fanning asosiy qonunlari va qoidalarini bilish, o'quvchilarining xususiyatlariga qarab, ularni tushuntirishga asoslangan bo'lishi kerak.

Chuqur ijtimoiy o'zgarishlar hozirgi paytda pedagogik konsepsiyalarni qayta ko'rib chiqishni, insonga, shaxsga, individga pedagogika fanini faol rivojlantirishni talab etadi. Pedagogikaning yangi prinsiplarida tashkil topishi, muhim muammosi pedagogik jarayonning mezonlari nazariyasini ishlab chiqish hisoblanadi, u o'qituvchining mutaxassisligi asosini tashkil etishi kerak.

O'qituvchi mutaxassisligi bo'yicha uning ilmiy bilimlaridan qat'iy nazar, o'quv jarayoniga kirishar ekan, kerakli pedagogik minimumga, pedagogik va psixologik bilimlar miqdoriga, dars berish metodikasini va texnologiyasini egallagan bo'lishi kerak.

Shulardan kelib chiqib, oliy muktab o'qituvchilarini tayyorlashda asosiy masalalar belgilanadi:

1. *O'quv jarayoni samaraliligini ta'minlovchi pedagogik malakani shakllantirish.*

2. *Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni anglab yetishga qaratilgan vangi pro-fessional fikrlashni yuzaga keltirish.*

3. *Pedagogik bilimlar tizimini o'qituvchining faoliyati metodologik asosi sifatida egallab olishi.*

4. *O'qitish texnologiyasi o'quvchilar professional faoliyatiga eng vaqin metodlar sifatida o'zlashtirish.*

Taklif etilayotgan o'quv qo'llanma O'zbekiston oliy maktablari oldiga qo'yilgan masalalarni hal etishga katta yordam ko'rsatishi kerak.

## I BOB OLIY MAKTABDA TA'LIM JARAYONI

### 1.1. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va O'zbekiston Respublikasida olyi maktab taraqqiyoti

Ochiq bozor iqtisodiga asoslangan demokratik, huquqiy jamiyat barpo etishning asosiy tamoyillarini shakllantirar ekan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov davlatning ustuvor tamoyillaridan biri sifatida uzlusiz ta'limgiz tizimini rivojlantirishni belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'limgiz to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga binoan olyi ta'limgizning maqsadi, hozirgi davr talablariga javob beradigan, ilmiy-texnik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishni ta'minlay oladigan hamda yuksak ma'naviy va axloqiy sifatlarga ega bo'lgan yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar bilan ta'minlashdir.

#### Olyi ta'limgizning asosiy vazifalari quydagiilardir:

- yuksak ko'rsatkichli ta'limgizni ta'minlash va davlat ta'limgiz standartlariga muvofiq ravishda hozirgi zamondagi tamoyilli va kasbiy dasturlar asosida malakali kadrlar tayyorlash;
- jamiyat talablariga javob beradigan istiqboldagi taraqqiyotiga, mamlakatning iqtisodiy ijtimoiy taraqqiyotiga, zamonaviy fan, texnika, texnologiya va madaniyat yutuglariga asoslangan holda kadrlar tayyorlashni tashkil etish va uni muntaзам takomillashtirish;
- yoshlarni milliy istiqbol mafkurasi, umuminsoniy qadriyatlarni bilish asosida, mustaqillik ideallariga sadoqat, vatanga, oilaga, atrof-muxitiga muhabbat ruhida tarbiyalash;
- axloqiy, madaniy va ilmiy qadriyatlarni saqlash hamda ularni boyitish;
- shaxsnинг intellektual, madaniy va axloqiy rivojlanish talablarini qondirish;
- o'quv jarayoniga yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalarini, ta'limgiz fan va ishlab chiqarish bilan integrasiyalashuvining joriy mexanizmlarini kiritib borish;
- fan, texnika, texnologiya ravnaqi, ilmiy pedagogik kadrlar hamda ta'limgiz oluvchilarining ilmiy tadqiqotlari samaradorligi va ijodiy faoliyatini o'strish, olingan natijalardan ta'limgiz jarayonida foydalananish;
- olyi malakali ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash;
- respublika olyi ta'limgiz tizimiga byudjetdan tashqari vositalarni, shu jumladan, xorijiy investisiyalarni jaib qilish;
- yuksak taraqqiy eitan mamlakatlar bilan olyi ta'limgiz sohasida o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish;

#### Olyi ta'limgiz tizimiga quydagilar kiradi:

- mulkchilik shakllari va bo'yishinidan qatil nazar davlat ta'limgiz standartlariga muvofiq kasbiy ta'limgiz dasturini amalga oshiruvchi olyi ta'limgiz muassasalar;
- olyi ta'limgizning rivojlanishiga xizmat qiladigan tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy pedagogik muassasalar;
- olyi ta'limgizning boshqaruvi organlari va uning tasarrufidagi korxona, muassasa va tashkiloitlar.

#### Olyi ta'limgiz sohasidagi davlat siyosati quydagi tamoyillarga asoslangan:

- ta'limgiz va tarbiyaning insoniylik, xalqchillik xarakteri;
- universitet ta'limgizning ustuvorligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar, olyi va olyi ta'limgizdan keyingi ta'limgiz uchuklighi hamda uziyligi;
- ta'limgizning dunyoiy xarakteri;
- davlat ta'limgiz standartlari negizida ta'limgizning hammabopligi;
- o'quv dasturlarining yagonaligi va ularni tanlashga differensial vondashish;
- qobiliyat va iste'dod egalarini rag'batlantirish;
- olyi ta'limgiz tizimida davlat va jamiyat boshqaruvi birligi;
- olyi ta'limgiz hamda fan va ishlab chiqarish integrasiyasи.

#### Olyi ta'limgiz ikki bosqichga ega - bakalavriat va magistratura.

**Bakalavriat** — mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'limgiz muddati kamida 4 yil davom etadigan tayanch olyi ta'limgiz.

**Magistratura** — aniq ixtisoslik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan olyi ta'limgiz.

O'zbekiston Respublikasida olyi o'quv yurtlarining quydagi turlari belgilanadi:

- **universitet**. U bilim sohalari va yo'nalishlarining keng tarmoqlari bo'yicha olyi va olyi o'quv yurtidan keyingi ta'limgiz dasturini amalga oshiradi;

- **akademiya**. U bilim va yo'nalishlarning muayyan sohasi bo'yicha olyi va olyi o'quv yurtidan keyingi ta'limgiz dasturini amalga oshiradi;

- **institut**. U bir bilim sohasi miqyosida muayyan yo'nalish olyi, shuningdek, olyi o'quv yurtidan keyingi ta'limgiz dasturini amalga oshiradi.

Xotima. O'zbekiston Respublikasidagi olyi maktabning hozirgi davrdagi taraqqiyoti davlat islohotlari bilan amalga oshiriladi. Olyi maktab islohotlari esa "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" bilan belgilanadi. Bu dasturga muvofiq ravishda respublikadagi olyi ta'limgizning yangi maqsadi, vazifalari va tamoyillari aniqlangan.

Olyi ta'limgiz tizimi tuzilmasi ham o'zgarishga yuz tutdi, unda ikki bosqich joriy etildi: bakalavriat va magistratura.

## 1.2. Oliy məktəb tə'lim mazmuni

### 1.2.1. Tə'lim mazmunini shakllantırışının möhiyati və nazariyası

Oliy məktəb tə'lim jarayonu o'zining mazmuni bilan bo'lajak mutaxassis shaxsini shakllantırışga qaratılğan vazifəni amalga oshıradı. Unga ilmiy yondashuvlar esa tə'lim mazmunini bilimlər, malaka və ko'nikmalar, qarashlar hamda e'tiqodlar, shuningdek, biliş nazariyasi kuchi, amaliy təyyorgarlıklar rivojlanışının muayyan darajası tiziminin yig'indisi sifatida izohlaydi.

Tə'lim mazmuninin möhiyati unga bo'lgan turli yondashuvlar bilan belgilənədi.

**Bilimgə yo'naltırılgan yondashuvda** bilim insoniyatının bütün tarixiy təjribalarında to'plangan boy ma'naviy mülk sifatı diqqət markazda bo'ladi. Biroq bu yondashuvning ma'lum salbiy jihatları ham bor. Bilim bunda mutlaq darajaga ega bo'ladi. Shu sabablı shaxs jilovlanadi va ikkinchi darajaga o'tib qoladi. Bu esa akademizmga berilishning ilmiy asosını qoidalashtırışga olib kelədi.

Hozirgi davrda **ta'limni insonparvarlaşdırış və tə'lim mazmunun möhiyatını shaxsga yo'naltırılgan yondashuvini** maydonga olib chiqdi. Bu yondashuv markazında shaxs turadı. Bunday yondashuv tə'lim mazmununu erkin tanlash imkoniyatını beradi. Shaxsga yo'naltırılgan yondashuvni amalga oshıriş jarayonunda shaxsnıgın tə'limi, ma'naviy, madaniy və hayotiy tələbləri qondırılatdı. Eng muhim, shaxsga nisbatan insonparvarlıq munosabatı namoyon bo'ladi, madaniy-tə'limi şaroitda o'qış individuallığı və mustaqil harakat qila olish imkoniyatı shakllanadı.

Shaxsga yo'naltırılgan yondashuv insonning tabiiy, ijtimoiy və madaniy xüsusiyyətləri birligi rivojlanışına qaratılğan bo'ladi. Bunday yondashuv namoyandaları I.Ya. Larner, M.N. Skatkin, V.S. Lednev, B.M. Bim-Bada, A.V. Petrovskiylardır.

Tə'lim mazmuni tarixiy xarakter ham kasb etədi.

Jamiyat rivojlanışının har bir bosqichida tə'lim mazmuni muayyan məqsad və vazifələrgə ega bo'ladi. Tə'lim mazmuni dəvr tələbi, nazariy bilim və ishləb chiqarış təraqqiyotı darajasığa mos ravishda o'zgarıb turadı.

Tə'lim mazmuni ijtimoiy hodisa sifatıda maydonga kələdi və u o'zining boshlangıçlı davrda amaliy ahamiyət kasb etən, ya'ni insonlarning hayotiy ehtiyojları üçün zarur hisoblangan bilimlərin nisbatan tələbini qondırıgan.

Ijtimoiy təraqqiyot tə'liminə **madaniyatshunoslik funksiyasını** yuzaga keltirdi.

Tə'limin rivojlanışına boshqa ijtimoiy omillər ham tə'sir ko'rsatdı, natijada hukmron sinfları umummadanı və takomillashıb boruvchi bilimgə o'z monopoliyasını o'mata boshladılar, aholinə asosiy qatlamları esa kundalık keltirdi.

təmənlikdə zarur bo'ludan amaliy bilimlərinə egalladılar.

XVIII-XIX asrlar uyg'onish davridə **insonparvarlıq** g'oyası qaror topdı. V. de Feltre "Məktəb quvonchi" asarında erkin jismoniy və aqliy rivojlanış haqida yozgan edi. J.J. Russo bəla rivojlanışında uning tabiatidagi spontan bolatları kuzatış lozimligini uqtiradi I.I. Pestalossi insonni faol hayotga torish orqali shakllantırıdığın barcha ahamiyətga molik kuchlarnı to'la rivojlanış g'oyasını olg'a suradı. Ushbu g'oya tə'sirida Fransiya, Shveysariyada yangi məktəblər, AQSh, Germaniya, Avstriyada sara (elita) məktəblər paydo bo'ladi. Ularda shaxsnıgın tə'lim və tarbiyəsi tabiiy erkin rivojlanış, bəla və kattalar orasındagi tabiiy munosabatlar bilan bog'lanadı.

Tə'lim mazmunun asosiy nazariyaları XVIII asır oxiri və XIX asır boshlarında paydo bo'lidi. Pedagogika fani tə'lim mazmunun material və formal nazariyasını belgiləb berdi. Tə'lim mazmunun material nazariyası əvvəl manbalarda **didaktik materializm** yoki **qomusiylik** (ensiklopedizm) dey yuritildi.

Bu nazariyanıq asosiy məqsadi fanning turli sohalarından mümkün qadar ko'p miqdorda bilim berishidir. Bunday qarashni Ya.A. Komenskiy ham voqlagan u o'zining darslığında o'quvchılarga zarur bo'lgan barcha bilimlərni təyin etmişdir. Bunday qarashni Ya.A. Komenskiyning "Aməndöshi" ingiliz shoiri və tarixchisi Djon Milton (1608-1674) ham tə'lim mazmununu shunday tushungan.

**Formal nazariya** yoki **didaktik formalizm** tə'lim mazmununu qobiliyyatlar və bilishga bo'lgan qızılıqishni o'stirish vəsítəsi sifatida tushuntiradi. Didaktik formalizmning nazariyə asosını bir faoliyat sohasında əlingen bilim və ko'nikmaları ikkinchisiga ko'chirish holati təşkil etdi.

Qadımiyi yunon olimi Geraklı didaktik formalizm tarafdırı bo'lgan. Ünингcha, "Ko'p bilim aql o'rgata olmayıdi". Siseron ham shunday fikrdədir.

Yangi davrga kəlib, I.I. Pestalossi hamda I. Kant falsafəsi neogumanizm o'yoysiga asoslangan holda, didaktik formalizm nazariyasını olg'a suradı. Ularning fikricha, o'qitishning bosh məqsadi "o'quvchining to'g'ri fikrlash roki formal tə'limi"ni kuchaytirışdan iborat. Bunga yaqın fikrləri A. Disterverg o'zining "Nemis o'qituvchilariga qo'llanma" sida (1850) ham bayon qılğan edi.

Tə'lim mazmuni formal nazariyası o'qituvchilarının xizmatları shunda ediki, ular tə'lim oluvchilarının qobiliyyəti, bilishga qızılıqishları, ularning beqəti, xotirası, tasavvuri, təfakkurunu o'stirish zarurligiga diqqətni qaradılar. Bu nazariyanıq ojizligi esa ularning tə'lim dasturlarında ko'proq ko'rgazmali predmetləri (til, matematika)ning aks etgənligida edi.

Har ikkala nazariya K.D. Ushinskiy tomonidan qattıq tanqid qılındı. Ünündə yozgan edi: "Aqlning formal rivojlanishi bu muhim bo'lmagan deydi, chunki aql haqiqiy real bilimlarda rivojlanadi" (K.D. Ushinskiy, "Aqlın to'plamı", 8-jild, 661-b.)

K.D. Ushinskiy fikriga, maktab insonni bilimlar bilan boyitishi va ayni zamonda bu boylikdan soydalanishni o'rgatishi lozim. U didaktik formalizm va didaktik materializm birligi g'oyasini yoqlab chiqdi.

XIX va XX asr oralig'ida AQShda **didaktik utilitarizm konsepsiysi** paydo bo'ldi. Bu g'oya amerikalik pedagog Dj. Dyuiga tegishlidir. Yevropada bu yo'naliш bo'yicha taniqli nemis pedagogi R. Kershenshteyn fikr bayon qilgan.

Dj. Dyuining aytishicha, alohida olingen o'quv fanlari mazmuni orasidagi aloqalarning manbai ta'limga oluvchilarining individual va ijtimoiy faoliyat hisoblanadi. Bu faoliyat turlari optimal dasturni o'quv fanlarining ketma-ketligi va uzyiyligi asosida emas, balki o'quvchining erkinligida, uning tajribalarini bilan bog'langan xulqining yangi munosabatlari va tiplarini shakllantirish asosida ta'minkaydi.

Didaktik utilitarizm amerika maktablarining ham ta'limga mazmuniiga, ham o'quv ishlari metodlariga kuchli ta'sir etdi. Buning natijasi o'laroq ta'limga oluvchilarga maksimal darajada erkinlik berildi. Jumladan, majburiy va fakultativ fanlar sifatida ajratilgan o'quv fanlarini tanlab o'qitishga ijozat berildi. O'quv-tarbiya jarayoni o'quvchilarining individual tanlovlari (tanlovlariga)ga moslashtirildi.

Polshalik olim V. Okun **funksional materializm** deb nomlanuvchi ta'limga mazmuni nazariyasini ishlab chiqdi. Bu nazariya asosida esa bilimning faoliyat bilan integral aloqasi qoidasi yotar edi. Bu nazariyada jamiyatning ta'limga qo'yiladigan talablari va o'quvchilarining individual tanlovlari birligi sezilib turadi.

50-yillar o'rtilarida dasturlashtirilgan ta'limga yuzaga kelishi munosabati bilan ta'limga mazmunining **operatsional strukturizatsiya** nazariyasi ishlab chiqilgi. Bu nazariya qay tarzda o'qitish kerak degan savolga javob berishga qaratilgan. Bu nazariya tarafdarları o'quv fanlari mazmuni va ular orasidagi bog'lanishni sinchiklab tahlil qilish zarurligini uqtiradilar. Bu tahlil programmalashtirilayotgan matnni oldindan aniq va konkret belgilash imkonim beradi.

### 1.2.2. Ta'limga mazmuniini tanlash tamoyillari va me'yorlari

Pedagogika nazariyasida ta'limga mazmuniini shakllantirishning asosiy tamoyillari V.V. Kraevskiy tomonidan ishlab chiqilgan. Ular quyidagilardir:

1. *Ta'limga mazmuniining jamiyat, fan, madaniyat va shaxs muvofiqligi tamoyili*. Bu tamoyil ta'limga mazmuniga zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarini, shuningdek, jamiyat, madaniyat va shaxs imkoniyatlari rivojlanishining zamonaviy darajasini aks ettiruvchi bilimlarni kiritishni ko'zda tutadi.

2. *O'qitishning mazmun protsessual jihatlarining yagonaligi tamoyili*. Bu

tamoyil o'quv jarayonining konkret xususiyatlari, uning tamoyillari, ularni amalga oshirish texnologiyalari va o'zlashtirish darajasi birligini aks ettiradi.

3. *Turli sathlardagi ta'limga mazmuni tuzilmasining yagonaligi tamoyili*. Buni shakllantirish nazariy tasavvur, o'quv fanlari, o'quv materiallari, ta'limga oluvchining shaxsi kabi qismlarning muvofiqlashtirilishini taqozo qiladi.

4. *Ta'limga mazmuniini insonparvarlashtirish tamoyili*. Bu tamoyil shaxsning umuminsoniy madaniyati, uning ma'nnaviy ehtiyoji va qobiliyatlarining faol qodiy va amaliy o'zlashtirilishiga shart-sharoit yaratishni taqozo qiladi.

5. *Ta'limga mazmuniining asoslanganligi tamoyili*. Bu gumanitar va tabiiy-ilmiy bilimlarni integratsiyalash, uzyiylik va fanlararo aloqalarni o'rnatishni talab qiladi.

6. *Ta'limga mazmuni asosiy komponentlarining shaxs ichki (tayanch) mudaniyati tuzilmasiga muvofiqligi tamoyili*.

Zamonaviy pedagogika fani ta'limga mazmuniining quyidagi komponentlarini belgilaydi:

- shaxsning kognitiv tajribasi;
- amaliy faoliyat tajribasi;
- ijod tajribasi;
- shaxs munosabatlari tajribasi.

**Shaxsning kognitiv tajribasi.** Bu komponent tabiat, jamiyat, tafakkur, texnika, faoliyat usullari to'g'risidagi bilimlar tizimini o'z ichiga oladi. Bu asosiy komponent hisoblanadi. Chunki shaxs shakllanishining asosini *bilim* tashkil etadi. Bilimlar borliqni, tabiat, jamiyat, tafakkurning rivojlanishi qomunklarini bilish natijasi sifatida belgilanadi. Bilimlarning asosiy funksiyalari dunyoning umumiyl manzarasini yaratish, bilim va amaliy faoliyatni tajminlash, yagona ilmiy dunyoqarashni yaratishdan iboratdir.

Ta'limga mazmuniining **amaliy komponenti** malaka va ko'nikmalarini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Tashqi yoki amaliy, ichki yoki intellektual malaka va ko'nikmalar mavjud.

Malaka va ko'nikmalar barcha o'quv fanlari uchun umumiyl bo'lishi mumkin. U har bir o'quv fani uchun o'ziga xos va xarakterli bo'ldi. Malaka va ko'nikmalar muayyan faoliyat turining asosini tashkil etadi. Faoliyatning esa bilish, mehnat, badiiy, ijtimoiy, qadriyatlarga yo'naltirilgan va kommunikativ turlarini qayd qilish mumkin.

**Ijodiy faoliyat tajribasi.** U yangi muammolarni hal qilish va vogelikni modiv qayta yaratishga tayyor bo'lishda namoyon bo'ldi.

**Shaxs munosabatlari tajribasi.** Bu asoslash (motivatsiya) — baholash, hoziylik, nekkalik munosabatlari tizimida iboratdir. Bu tajriba dunyoga, vogelikka, odintunga, habo berish munosabatida namoyon bo'ldi.

**Notima.** *Mutaxassis shaxsi rivojlanishining asosiy vositalaridan biri va ularning chuqur fundamental bilim hamda amaliy tayyorgarligi olyi*

*maktabdagagi ta'lim mazmuni bilan belgilanadi.*

*Ta'lim mazmunining rivojlanishi shuni ko'rsatadiki, u ta'lim oluvchining ijtimoiy va individual talablarini hisobga oladi hamda tobora takomillashtirib borish, tarbiyalash hamda bilish ahamiyatini kasb etadi.*

*Pedagogika nazarasiyasi ta'limning bir necha shakllanish tamoyillarini asoslab berdi. Ular: ta'lim mazmunining jamiyat, fan, madaniyat, shaxs rivojlanishi talablariga muvofiqligi tamoyili, ta'limning yagona mazmun va protsessual jihatlari mazmuni, turli sathlarda ta'lim mazmuni tuzilmasining yagonaligi, ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish, ta'lim mazmunining asoslanganligi, ta'lim mazmuni asosiy komponentlarining shaxs ichki (tayanch) madaniyati tuzilmasiga muvofiqligi.*

*Ta'lim mazmunining asosiy komponenti quyidagilar: shaxsning kognitiv tajribasi, amaliy faoliyat tajribasi, ijod tajribasi, shaxs munosabatlari tajribasi.*

### **1.3. Oliy maktabda o'qitishni tashkil etishning shakl va metodlariga qo'yiladigan talablar**

#### **1.3.1. Asosiy qoidalar**

Har bir fan obyektiv voqelikni o'rganish qonunlarini belgilab beradi. Didaktik qonunlar o'qitish va ta'lim birligi hamda ularning o'zaro aloqadortligida o'rganiladi.

**Hozirgi oliy maktab didaktikasida qanday o'qitish jarayoni qonuniyatlarini mavjud?**

Oliy maktabdagagi o'quv jarayoniga sistem-struktur yondashuv nuqtai nazaridan qaralganda uning o'zaro bog'langan ikki tizimi amal qiladi.

**Birinchidan,** o'quv jarayoni o'zining o'qitish maqsadi, o'qitish va o'quv faoliyati, ta'lim mazmuni, o'qitish vositalaridan iborat **murakkab tizim** sifatida namoyon bo'ladi. Ular o'zaro bir-biri bilan bog'lanib ketgan.

**Ikkinchidan,** o'quv jarayoni nisbatan yirik tizim bo'lgan pedagogik jarayonning tagtizimidir. Bu tagtizim o'qitish, ta'lim berish va tarbiya jarayoni birligi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga bu tizim salmoqli tizim sifatida oliy o'quv yurti o'quv jarayoni rivojlanishi qonuniyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy jarayonlar va talablar tizimi ham mavjud.

Shunday qilib, o'quv jarayonining muhim tashqi va ichki bog'liqligini farqlash lozim. Shu asosda ta'lim qonunlari tasniflanadi. Didaktikaning o'z qonuniyatlarini silatida o'quv jarayoni komponentlari orasidagi zaruriy, takrorlanuvchi va muhim bog'lanishlarni ko'rsatish mumkin.

**Sotsial-pedagogik qonuniyatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:**

- oliy o'quv yurtidagi ta'lim jarayoni jamiyat ishlab chiqarish taraqqiyotini aks ettiradi;

• oliy o'quv yurtidagi ta'lim jarayoni tarbiya jarayoni va talabalar rivojlanishi bilan qonuniy bog'langan;

- oliy o'quv yurtidagi o'quv jarayoni tashqi sharoitga ham qonuniy bog'liq;

- oliy o'quv yurtidagi o'qitish va o'rgatish jarayonlari yaxlit o'qitish jarayoni bilan, muayyan ta'lim mazmuni bilan, ikki tomonlama qonuniy aloqani tashkil etadi;

- talabani u yoki bu faoliyatga o'rgatish uni shu faoliyatga, maqsadga muvofiq jalb qilish orgali amalga oshiriladi;

- o'qitish maqsadi va oliy o'quv yurti ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari va shakllari o'rtaida qonuniy bog'liqlik mavjud;

- o'quv jarayoni talaba maqsadlarining o'qituvchi maqsadlariga muvofiq kelgani taqdiridagina davom etadi. Bunda o'qituvchi faoliyati o'zlashtirilishi lozim bo'lgan mazmunga mos bo'lishi shart;

- ta'lim mazmunining o'zlashtirilish surati va mustahkamligi o'qituvchi tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan o'quv faoliyatiga talabalarining bilishga bo'lgan qiziqishini ta'mintash bilan proporsionaldir;

- o'qitish va rivojlantirishning muvaffaqiyatligi va tezligi talabani u o'zlashtirishi mumkin bo'lgan o'quv-bilish jarayoniga jalb qilinishiga bog'liq;

- anglab olingan o'quv materiali mazmunining mustahkamligi ushbu mazmuni doimo to'liq va qisman takrorlashdan hamda, uni avval o'zlashturilgan bilmlar tizimiga kiritishdan ko'ra muhimdir.

O'quv jarayoni qonuniyatlarini asoslash yo'lli bilan qo'lg'a kiritilgan nazarini bilmlar o'quv jarayonini kelgusidagi takomillashtishiga xizmat qilishi lozim. Buning uchun esa o'qitishning ilmiy tavsifidan uni loyihalashga, va in nazaridan amaliyotga o'tkazish lozim bo'latdi.

**O'quv jarayonida bilish qonuniyatlaridan qanday foydalanish mumkin?**  
Buning uchun didaktik tamoyillarga amal qilish zarur.

**Didaktik tamoyillar.** Bu idrok qilingan didaktik qonuniyatlarining metodologik in'akosi, bu – amaliyotning doimiy me'yoriy sifatida foydalanishga monetik qilinaydigan shakldagi o'qitishning maqsadi, mohiyati, mazmuni, tuzilmasa to'g'radaga bilim.

Demak, oliy maktabdagagi o'qitish nazarivasining didaktik qonuniyatlarini tizimiga o'quv jarayonini tashkil etish va regalashtrish uchun zarur bo'lgan ekanay qondalar salishda qatnashadigan didaktik tamoyillar tizimi muvofiq keladi.

Didaktik tamoyillar V.I. Zagyyavuzskiy, L.I. Grisenko, M.A. Danilov, I.I. Kobilyanskiy, M.G. Garunovlar tomonidan ishlab chiqilgan.

O'qitishning tamoyillarini asoslashda oliy maktab didaktikasi quyidagilarni nuzunda tutadi:

- jamiyat talablariga muvofiq keluvchi o'qitishning maqsadi;
- o'qitishning obyektiv qonuniyatlar;

- o'quv jarayoni borishining konkret sharoiti.
- Oliy məktəb didaktikası o'qitish tamoyillarını asoslashga turlıcha yondashuvlar mavjud. Ular quyidagilar:
  - o'quv ishlarini ilmiy ishlarga yaqinlashtirish;
  - mustaqil o'qish – bilish faoliyatida talabalarning yuqori faolligini ta'minlash.

Yuqorida bayon qilinganlardan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- asosiy didaktik tamoyillar məktəb va oliy məktəb üçün umumiylər bo'lsa-da, ularda məktəbda va oliy məktəbda amal qılış farqlıdır;

- oliy məktəb sharoitida amal qılıdigan maxsus tamoyillar ham mavjud.

Shunday qilib, oliy məktəb didaktik tamoyilları tizimini yaratışda unga xos bo'lgan o'qitishning umumiyyətini qonuniyyatları bilan birgə umuman o'qitish nazariyasının qoidalarını ham hisobga olish zarur.

Oliy məktəb amaliyotida qanday didaktik tamoyillar amalga oshırıla?

Oliy məktəbdəgi didaktik tamoyillar tizimiga quyidagilar kiradi: ilmiylik, qulaylik, izchillilik, uzviylik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi, onglilik, faoliyot va mustaqillik, ko'rgazmalilik, mustahkamlik, guruh qilib o'qitish hamda unda individual yondashishni qo'shib olib borish, o'qitishning tarbiyalovchi va takomillashtiruvchi xarakteri, o'qitishning kasbiy yo'naltirilganligi.

### 1.3.2 Oliy məktəbda o'qitish shakllari

Oliy məktəbdəgi o'qitish jarayoni o'qitishning shakl va metodlarini tashkil qılıshning ko'pqirrali yagona tizimi ramkasida amalga oshırıla.

Oliy məktəbdəgi o'qitishning shakl va metodları yig'indisi o'quv jarayonining obyektiv qonuniyyatları bilan belgilanadigan yagona didaktik kompleksni tashkil etadi.

Oliy məktəbdəgi o'qitishning shakl va metodları tasnifi o'zaro bog'langan va o'zaro shartlangan ikki faoliyatga tayanadi:

- o'quv jarayonini boshqarish va tashkil etish bo'yicha o'qituvchilarning faoliyati;

- talabalarning o'qish va bilish faoliyati.

Oliy məktəbdəgi o'quv jarayoni shakllariga leksiya, seminar va amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya mashg'ulotları, o'quv anjumanları, maslahatlar, ekskursiya, ekspeditsiya, o'quv ishləb chiqarish pedagogik amaliyoti, kurs va diplom ishləri, talabalarning mustaqil təhsili.

**Leksiya** – u yoki bu ilmiy masalani to'g'ri, mantiqiy izchillikda va aniq izohlab berish.

S.I. Arxangelskiyning ta'kidlashicha, leksiya o'qituvchi shaxsining barcha boyligi: ongi, hissiyoti, irodasi, tuyg'usi, e'tiqodi orqali talabalar ichki dunyosi bilan muloqotda bo'lishining eng samarali, jonli shaklidir. Bunda

oming, yo'naltiruv, axborot berish, metodologik va tarbiyalov funksiyalarini to'vobga chiqarishga yordam beradi.

Leksiyaning **yo'naltiruv funksiyasida** talabalarning diqqatini o'quv materialining asosiy qoidalari, uni o'rganishdagi hamda bo'lg'usi kasbiy faoliyatidagi roli, ahamiyati va uni o'zlashtirish metodlariga jalb qilinadi. Leksiyaning **axborot berish funksiyasi** o'qituvchi tomonidan asosiy ilmiy faktlar, qoidalari, xulosalarning mohiyatini ochish chog'ida amalga oshırıla. O'qitishning **metodologik funksiyasini** qo'llash tadqiqot metodlarini qiyoslash, chog'ishtirishga hamda ilmiy izlanishning tamoyillari va yondashuvlarini aniqlashga yordam beradi. O'qitishning **tarbiyalov funksiyasi** leksiya jarayonida o'quv materialiga hissiy baho berish munosabatlарını ovg'otish, qiziqishlarini o'stirish, mantiqiy fikrlash va isbotlashni oydinlashtirish yo'li bilan amalga oshırıla.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, leksiya hal qilinadigan **asosiy vazifalar** quyidagilardan iborat:

- ilmiy bilimlarning muayyan miqdori bayon qilinadi;
- talabalarga fan va tadqiqotlarning metodologiyasi tanishtilrildi;
- o'quv faoliyati va o'quv mashg'ulotlarning barcha turlari orasidagi metodik aloqalar ko'rsatiladi.

Leksiyaning didaktik maqsadi, o'qitish jarayonidagi o'rni va axborotlarni bayon qılısh metodlariga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

**Didaktik maqsadiga (yo'nalgaligiga)** ko'ra kirish va tematik hamda umumiy - yakuniy leksiylar farqlanadi.

**Kirish (muqaddima) leksiyada** kurs (bo'lim, mavzu) ning ilm-fan tizimidagi o'rni, ushbu materialni amaliyotda qo'llash imkoniyatlari, kurs (bo'lim, mavzu) mazmumini o'rganish metodlari ochib beriladi. Bunday leksiyaning muhim xususiyati shundaki, unda o'qituvchi asosiy masalaning u yoki bu tomonlarigagina to'xtaladi va bu masalalar keyinchalik albattha detalma-detal yoritib beriladi.

**Tematik leksiylar** ayniqsa, keng tarqalgan. Bunday leksiya u yoki bu mavzuga bag'ishlangan bo'lib, unda faktlar, ularning tahlillari, xulosalar mazmuni bayon qilinadi va konkret ilmiy qoidalari isbotlanadi.

**Umumiy-yakuniy leksiya** avval o'rganilgan materiallarni qaytadan umumilashtirishga qaratilgan bo'ladi. Uning mazmuni avval bayon qilingan mazmunga o'xshamaydi, balki talabalar tomonidan o'zlashtirilgan axborotlarni yüksək abstraksiyalash bosqichida tizimga tushiriladi. Bunday leksiya dörd talabalar biliminin chuqurlashishida va o'quv fani metodologiyasini yaybu tasavvur qılıshda alohida ahamiyatga molik bo'ladi.

**Axborotlarning bayon qilinishiga** ko'ra **leksiylar dogmatik, axborot va nomenish qılısh va muammoli leksiylardan** iborat bo'ladi. Lekin shuni ta'kidlash joizki, har bir leksiyaning o'ziga xos xususiyatlarını qayd qilgan holda, ulardagı umumiy jihatlarını ham farqlash lozim. Chunki leksiya o'qish

va uni loyihalash jarayonida ularni amalga oshirmsadan bo'lmaydi. Ular quyidagilar:

- *ilmilik;*
- *qulaylik;*
- *kasbiy yo'naltirilganlik;*
- *ogibatl aloqani amalga oshirish.*

Oly maktab o'qitish tizimiga leksiya bilan birqalikda **amaliy** (mashq, seminar va laboratoriya) mashg'ulot turlari ham kirdiki, ular ta'limiylar, tarbiyaviy hamda nazariyani amaliyot bilan bog'lash funksiyalarini bajaradi.

"Amaliy mashg'ulot" termini pedagogikaga oid adabiyotlarda ham keng, ham tor ma'nda izohlanadi. "Amaliy mashg'ulot" termini keng ma'nda mashq, seminar (ularning barcha turlari) va laboratoriya mashg'ulotlarini umumlashtiradi. Amaliy mashg'ulotlarning leksiyadan farqlanadigan asosiy me'yorlaridan biri o'quv jarayoni qatnashchilarining birqalidagi harakatlarida o'ziga xos xarakter bilan namoyon bo'lishidir. Ular vazifalariga ko'ra ham farqlanadi. Agar leksiyada ilmiy bilimtar asosi bayon qilinadigan bo'lsa, amaliy mashg'ulotlarda esa bilimlar chuqurlashtiriladi, kengaytiriladi va detallashtiriladi. Eng muhimmi, amaliy mashg'ulotlar talabalar bilimini sinash uchun ham xizmat qiladi.

Amaliy mashg'ulot shakllaridan biri **seminardir**. Seminar mashg'ulotlari quyidagi vazifalarni yechishga qaratilgan bo'ldi:

- *leksiyada bayon qilingan nazariy qoidalarni mustohkamlashi;*
- *fan bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;*
- *talabalarning ilmiy-tadqiqot va biliish qobiliyatlarini o'stirish;*
- *nazariy o'qitish jarayonida egallangan bilimlarning amaliyotda tan olinishi.*

Pedagogika nazariyasi va amaliyotida seminar mashg'ulotlarining uch turi farqlanadi: *seminaroldi mashg'uloti hamda seminar va maxsus seminar*.

**Seminaroldi** mashg'ulotlari, asosan, talabalarni mustaqil ishning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish maqsadida o'tkaziladi. Unda adabiyotlar, ma'lumotnomma-adabiyotlar va boshqa manbalar bilen ishlash usullari o'tgatiladi, talabalarni boshlang'ich shaklda ilmiy-tadqiqot ishlariga o'tishga hozirlaydi. Seminaroldi masng'ulotlari seminar mashg'ulotlarining tayyorgartlik shakli hisoblanadi va odatda birinchi kurslarda o'tkaziladi.

Seminaroldi mashg'ulotlarida o'qituvchi yetakechilik qiladi. Chunki talabalar muayyan ixtisoslik bo'yicha o'quv ishlariga kam e'tibor beradilar, shuning uchun ham yetarli darajada tashabbus ko'rsata olmaydilar.

**Seminar mashg'ulotlarida**, seminaroldi mashg'ulotlariga nisbatan o'ta muhim vazifalar hal qilinadi. Masalan, ayrim seminarlar tematik bog'langan muayyan muntazam kursni chuqur o'rghanishni maqsad qilib qo'yadi. Boshqalari esa biror mavzuni yoki kursning alohida va niroyatda muhim va umumiyl bo'lgan mavzularini metodologik jihatdan ishlab chiqishga

ba'ishlangan bo'ldi.

**Maxsus seminarlar** leksiya mavzulariga aloqador bo'lmaydi va biror tunning dastur mazmuniga kirmaydi. U odatda fanning xususiy masalalarini chuqur o'rghanish maqsadini ko'zlaydi.

Seminar mashg'ulotlari davomida o'qituvchi va talaba o'rtasida yaqin aloqa, ya'ni ular o'rtasida ikki tomonlama aloqa o'rnatiladi. Bu esa tarbiyaviy dhamiyatga molik bo'lib unda o'qituvchi talabalar bilan uzoq vaqt yaqin aloqida bo'ldi, leksiya guruhlariga nisbatan talabalar kichik bo'lgan guruhlarida joni suhbat olib boradi, o'zaro fikr almashadi, turlicha qarashlarini bayon etish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Seminar jarayonida o'qituvchining o'rnii juda yuksak, ya'ni o'qituvchi talabaning o'miga javobni aytib bermaydi, balki muhokamalarni tashkil etadi, unga derijyorlik qiladi.

Seminarda o'qituvchining kirish so'zi konkret sharoitga qarab talabani muammoga jalb qiladi, hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar doirasidagi tavollar bo'yicha aniqliklar kiritadi. Ba'zan esa oldindi mashg'ulotlardagi tikrlar esga tushiriladi. O'qituvchining seminardagi kirish so'zi aniq, keng qamirovli va qisqa bo'lishi lozim.

Talabalarning ma'ruzalari bo'yicha izohlar quyidagicha bo'lishi kerak:

- *mustaqil fikrlashga yo'naltirib turish;*
- *tavsiya etilayotgan masalaning mohiyati va shaklini aniglash;*
- *talabalar bahsidagi nuqtai nazarlarni darrov farqlab olish;*
- *masalaning nostandard hal qilinishini rag'batlanitirish.*

Bunday izohlarda o'qituvchi muhokama jarayonida befarq turmayotganligini va har bir seminar ishtirokchisining bildirgan nuqtai nazariga e'tibor berayotganligini namoyon qilib turishi lozim.

O'qituvchi har bir seminar mashg'ulotiga yakun yasaydi. Unda quyidagilar e'tiborga olinadi:

- *zamonaviy fan erishgan muammo muhokamasining holati va umumiyl durajasiga tavsif berish;*
- *ayrim talabalarning chiqishlarini tahlil qilish va baholash;*
- *mashg'ulotga umumiyl baho berish (talabaning faolligi, uning tayyorgarlik va o'sish darajasi, madaniyati hamda fikrlashdagi xususiyatlari).*

Ta'kidlash joizki, seminar mashg'ulotlarida talabalarni faollashtirish, maqsadida ular tomonidan referatlar yozish va ularni muhokama qilish hamda taqrizdan o'tkazishga jalb etiladi.

**Laboratoriya mashg'ulotlari.** Laboratoriya mashg'ulotlarining asosiy tavsifi shundaki, unda talabalar mustaqil ravishda vazifa bajaradilar yoki eksperiment o'tkazadilar.

Ilmiy-teknik taraqqiyot sharoitida laboratoriya ishlari talabaga nazariy bilimlarni qo'llash mexanizmini chuqur va ko'rgazmali o'rghanish imkonini beradi. Laboratoriya mashg'ulotlari talabada tadqiqot o'tkazish ko'nikmalarini

shakllantiradi, fan va texnikaga ijodiy yondashishni ta'minlaydi va eksperimentning umumiyl metodikasini egallashga imkon beradi.

Laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- *laboratoriya mashg'ulotlarini rejalashira olish va o'tkaza olish;*
- *laboratoriya mashg'ulotlarining maqsadini aniq belgilab olish;*
- *fan va ishlardan chiqarish bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;*
- *talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;*
- *talabani nazariy jihatdan tayyorlash;*

*Laboratoriya mashg'ulotlari nafaqat aniq mavzu bo'yicha bilimlarni yakunlash, balki talabalarini tarbiyalash manbai hamdir.*

Mutaxassislar tayyortash tizimini tubdan qayta qurishda, o'quv-tarbiya jarayonining alhamiyatini oshirishda **talabalarning mustaqil ishlari** muhim o'rinnegallaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ishlar deganda shunday o'quv faoliyat tushuniladiki, unda bilimlar egallanishi bilan birga, ko'nkmalar shakllantirilish ham mustaqil tashkil etilishi ta'minlanadi. Bu esa amaliyotda xususiy-didaktik maqsadlarga bog'liq ravishda 4 ta mustaqil ish tipida amalga oshadi.

**Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining birinchi turi** – bu sirtdan qaraganda faoliyatning algoritmi ma'lumotlari va vazifalar sharoitidan iborat, ya'ni dastlabki bilimlarning (bilimlarning birinchi bosqichi) shakllanishi omillari asosida talabalarda shakllanadigan va ulardan talab qilinadigan malakalarni aniqlashdir. Bu maqsadga yetish uchun talabalar tomonidan idrok qilinadigan vazifalarini yechish zarurligi ko'zda tutiladi.

**Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining ikkinchi tipida** esa o'zlashtirilgan axborotlar xotirada qaytaishlanishigavati pikk vazifalarini, ya'ni bilimlarning ikkinchi bosqichini bajarishga qaratilgan bilimlar shakllanadi.

Bu maqsadga idrok qilinadigan masalalarini yechish chog'ida talabalardan yo tanlab olingen faktlarni taysiflash asosida obyektlar va hodisalarini aniq bayon qilish yoki o'rganilayotgan obyekt va hodisalardagi o'zgarishlarning sababini asoslash hamda uni ifodalash orqali yetish mumkin. Unisini ham, bunisini ham talabalar avval egallangan va shakllangan bilimlari tizimini to'g'ri jalb qila olishlari va faollashtira olishlari asosida bajarilish lozim. Talabalarning bilish (idrok qilish) faoliyati avval o'zlashtirilgan o'quv axborotining mazmuni, tuzilmasini qayta ishlash, qisman qayta loyihalash va yangilashdan iborat bo'ladi. Bunday qayta loyihalash va yangilash taysif qilinayotgan obyektni tabib qilish, vazifani turli yo'llar bilan bajarish, ulardan eng to'g'ri yoki mantiqiy izchilligini topish kabi yechish usullarini tankash zarudligini keltirib chiqqradi.

Mustaqil ishlarning ikkinche tipi barchaturularining umumiyl taysifnomasi

shundaki, bunday ishlarda vazifalarning hal qilinish g'oyasi (tamoyili) e'lon qilinadi, talabalardan ushbu g'oyani (tamoyilni) rivojlantirib, konkret sharoitga tatbiq etish usul va usullari talab qilinadi.

**Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining uchinchi tipi** talabalarda uchinchi bosqich – tipik bo'Imagan vazifalarini bajarish chog'ida shakllanadigan bilimlardan iboratdir.

Bu maqsadga talabalardan o'rganilayotgan obyektdagi o'zgarishlar tabablarining algoritm asoslarini tuzishni talab qiladigan bilish (idrok qilish) masalalarini yechish jarayonida erishish mumkin.

Mustaqil ishlarning uchinchi tipini bajarishdagi bilish faoliyati umuman olganda bilim, malaka, ko'nkmalarini ko'chirishni amalga oshirish yo'lli bilan avval o'zlashtirilgan vaqolip (muayyan algoritm harakatlari tajribasi)ga tushgan tajriba asosida yangi faoliyat tajribasini to'plash va namoyon qilishdan iborat bo'ladi. Bu tipdagisi ishlar vazifasining mohiyati izlanish, yechimlar o'yasini ifodaqilish, amalgaoshirishdan iboratdir. Bu qolipgatushgan tajribalar doirasidan doimo chetga chiqadi va fikr lashning jonli jarayonida talabalardan topshiriqlarni avval o'zlashtirilgan o'quv axborotlari, ularga yangi nuqtai nazaridan yondashish (muayyan topshiriqlar talablari nuqtai nazaridan) asosida turlanadi.

**Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining to'rtinchi tipi** ijodiy faoliyatga omillar yaratishdir.

Bunday ishlarni bajarishdagi talabalarning bilish faolligi shundan iboratki, bunda talabalar muhokama qilinayotgan obyekt mohiyatiga tobora chuqur kirib boradilar va zarur bo'lgan yangi, oldindan noma'lum bo'lgan g'oyalarni topish hamda yangi axborotlarni yuzaga keltirish tamoyillarini hal qilish uchun zarur bo'lgan yangi aloqalar munosabatlarni o'rnatadilar. Bunda har bir talaba vazifalarini bajarishning hamda bosqichida o'zi yaratishi lozim bo'lgan, uning uchun yangi bo'lgan harakatlar mohiyati u yoki bu axborot xarakteri ustida bosh qotirishga majbur bo'ladi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda mustaqil ishlarning quyidagi turlari qayd qilinadi:

- *namunalar bo'yicha mustaqil ishlar;*
- *rekonstruktiv-variativ;*
- *evristik (qisman, ijodiy);*
- *ijodiy tadqiqot.*

**Namunalar bo'yicha mustaqil ishlar** deganda tipik vazifalarini va turli mashqlarni namuna asosida yechish tushiniladi. Ular materialni o'zlashtirishga omil bo'ladi, lekin talabalarning ijodiy faolligini o'stirmaydi.

**Rekonstruktiv-variativ mustaqil ishlar** nafaqat bilimlarning amaliy taysifnomasini, balki bilimlar tuzilmasini qayta ishlardan chiqishni hamda masala va muammo kabilarni yechishda mavjud bilimlarni jalb qilishni ko'zda totadi.

**Evristik mustaqil ishlar** leksiya, laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar, seminarlarda qo'yilgan ayrim masala va muammolarni hal qilish bilan bog'liqdir.

**Tadqiqiy mustaqil ishlar**, tadqiqot muammosini ko'ra olish malakasini, uni mustaqil ifodalay olish, farazni belgilab olish va muammoning hal qilinish rejasini ishlab chiqish hamda uni hal qilishni mo'ljallaydi.

**Ijodiy tadqiqot ishlari**. Bunday ishlarda vazifa muammoli vaziyatning yuzaga kelishini taqozo qiladigan sharoit yaratishdan iborat bo'ladi. Talaba o'z faoliyatida tayyor namunalardan ozod bo'lgan holda masalaning hal qilinish yo'llarini qidiradi va tadqiq qiladi. Bunday ishlar sirasiga eksperiment qo'yish, jihozlar, maketlar va dastgohlarni loyihalash bilan bog'liq bo'lgan vazifalar kiradi.

Shunday qilib, mustaqil ishlar, o'qitishning eng muhim metodi bo'lib, unda talabalarning mashg'ulotlarga tayyorlanish, olingan bilim, malaka va ko'nikmalarini mustahkamlash jarayonida ularning individual faoliigi oshadi.

Mustaqil ishlami samarali tashkil etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

- *mustaqil ishlarning ilmiyligi, uning tadqiqiy xarakteri;*
- *mustaqil ravishda o'z bilimlarini yanada oshirib borishga bo'lgan ehtiyojning shakllanishi;*
- *mustaqil ishlar vazifalarini individuallashtirish;*
- *mustaqil ishlarni tashkil etishga metodik rahbarlik qilish.*

Oliy maktabdag'i o'quv jarayoni **mustaqil tahsilni** tashkil etilishini ham ko'zda tutadi. Talabalarning mustaqil tahsili ularning o'z bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, mavjud malaka va ko'nikmalarini takomillashtirish hamda ularning yangilarini o'zlashtirishga bo'lgan intilishi sifatida qaraladi.

Mustaqil tahsilning asosiy maqsadi talabalarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini o'stirishdir.

Mustaqil tahsilning vazifalari: *shaxsnинг intellektual imkoniyatlarini yangilash, ularning g'oyaviy-nazariy saviyasini oshirish, kasbiy mahorati va madaniyatini takomillashtirish kabilarni ichiga oladi.*

Oliy maktabdag'i o'quv jarayoni mustaqil tahsilga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi va talabalarning o'z-o'zini baholay olishini, ularning fayyorgarligini, yangi bilimlarni egallashga bo'lgan ongi munosabatini aniqlab berishi kerak. Mustaqil tahsil bo'yicha mashg'ulotlarning izechilligini va maqsadga muvofiqligini ta'minlash maqsadida uning rejasi tuziladi.

Rejaga quyidagi talablar qo'yiladi:

- *rejalashtirayotgan ishlarning hajmi va oldinma-keyinligi;*
- *ularning bajarilish muddatlari;*
- *mustaqil faoliyatning har bir turiga maqsadli ko'rsatmalar berish.*

Mustaqil tahsil jarayoni uning aniq shakli, metodlari va usullarini qamrab olishi shart.

Mustaqil tahsilning asosiy metodi **adabiyotlar ustida individual ishslashdir**. Bu metod axborotlar oqimida eng muhim axborotni topish, unga to'g'ri bulo berish, ushbu axborotdan o'zining kasbiy faoliyatida foydalanish malakasini shakllantiradi. Qo'iga kiritilgan axborotlar asosida mustaqil mashq qilish metodlaridan foydalanish imkonini beradi. Bu metoddan foydalanish amaliy faoliyatda zarur bo'ladigan sifat ko'rsatkichlarini ta'minlaydi.

Shuningdek, mustaqil tahsilga amaliy abumiyatga molik bo'lgan vazifalarni tuzish va audiovizual uskunalar bilan ishslash ham kiradi.

Mustaqil tahsilning muhim metodlaridan biri ularning **muloqotidir**. Mustaqil tahsilning pirovard maqsadi talabalarni ijodiy izlanishga, o'zi ustida ishslash va har tomonlama tadqiqot yuritishning mohiyatini anglashga tortishdir.

### 1.3.3. Oliy mакtabda o'qitish metodlari

Pedagogikaga oid adabiyotlarda o'qitish metodlariiga katta ahamiyat beriladi. Didaktika bilan shug'ullanuvchilar metodni o'quv jarayonining o'zagi, ko'zlangan maqsad va pirovard natijani bog'lovchi vosita deb izohlaydilar.

#### **O'qitish metodi «o'qitishning maqsadi – mazmuni, metodi, shakli, usullari» tizimida muhim o'rinnegallaydi**

Metod deganda, ta'limda maqsadga erishish, masalalarni hal qilish yo'llari, usullari tushuniladi. O'qitish metodi tarkibida usullar alohida ajralib turadi. **Usul** – metodning unsuri bo'lib, uning tarkibiy qismi, metodni amalga oshirishda bir martagina qo'llanadi va alohida qadam hisoblanadi.

**O'qitish metodi** – murakkab, ko'p qirrali, ko'p sifatlarga ega bo'lgan ta'limdir.

O'qitish metodida o'qitishning obyektiv qonuniyatları, maqsadları, mazmuni, tamoyillari, shakllari o'z aksini topadi. Metodlar boshqa didaktik kategoriyalarga dialektik bog'liq va biri boshqalarini taqozo qiladi, ya'ni o'qitishning maqsadi, mazmuni, shakli hosilasi sifatida metodlar didaktik kategoriyalarga aks ta'sir ko'rsatadi.

Metodlar tuzilmasida *obyektiv va subyektiv jihatlar* ajralib turadi.

Metodlarning *obyektiv jihatlarida* barcha didaktik qoidalar, qonunlar va qonuniyatlar, tameyillar va ta'rislar, shuningdek, mazmun butunligining dominiy komponentllari, o'quv faoliyatining shakllariga xos bo'lgan umumiy nhatlar aks etadi.

Metodlarning *subyektiv jihat* pedagog shaxsi, ta'lim oluvchilarining o'ziga xosligiga va konkret sharoitga bog'liq bo'ladi.

O'qitish metodlarining ko'p o'chovliligi ularning ko'plab tasnifini

keltirib chiqardi.

O'qitish metodlari tasnifi - bu muayyan belgilar asosida tartibga solingan tizimdir.

Didaktik tadqiqotlar o'qitishni dialektik jarayon sifatida o'rganadi. Bunga ko'ra o'qitish metodlari tizimi dinamikada, harakatda, ta'lif mazmunida yuz berayotgan barcha o'zgarishlarni hisobga olingan holda deb qaraladi.

Eng asoslangan o'qitish metodlari tasniflariga quyidagilar kiradi:

**1. An'anaviy metodlar.** Bu metodlarning ibtidosini ilk falsafiy va pedagogik tizimlar tashkil etadi. Hozigi davrda ulardan beshtasi inobatga olinadi: *amaliy, ko'rgaznali, ifodali, kitob bilan ishlash va video metodlar*.

**2. Maqsadiga ko'ra metodlar tasnifi:** (M.A. Danilov, B.P. Yesinov)

- *bilimlarni egallash;*
- *malaka va ko'nikmalarни shakllantirish;*
- *bilimlarni qo'llash;*
- *ijodiy faoliyat;*
- *mustahkamlash metodlari;*
- *bilim, malaka va ko'nikmalarни tekshirish metodlari.*

**3. Idrok etish-bilish faoliyati xarakteriga ko'ra metodlar tasnifi:**

• *tushuntirish – illyustrativ (axborot – retseptiv).* Ularning xarakterli xususiyatlari; bilimlar "tayyor holda" tavsiya etiladi; bu bilimlarni idrok qilish tashkil etiladi; bilimlar idrok (retsepsiya) qilinadi va tushunib olinadi, xotiraga joylashtiriladi;

• *reproduktiv metod:* bilimlar tayyor holda tavsiya etiladi, bilim nafaqat bayon qilinadi, balki tushuntiriladi; bilimlar ongli o'zlashtiriladi, ularning tushunilishi va eslab qolinishiga erishiladi hamda bilimlarning mustahkamligi tez-tez takrorlash yo'li bilan ta'minlanadi.

• *muammoli bayon qilish metodi;*

• *qisman ijodiy (evristik) metod.* Bilim tayyor holda tavsiya etilmaydi, balki u mustaqil ravishda egallanadi; yangi bilimlarni qidirish, izlash tashkil etiladi; bilish vazifalari bo'yicha mustaqil fikr yuritiladi, muammoli vaziyatlar yaratiladi va hal qilinadi;

• *tadqiqiy metod.* Bunda muammo belgilab olinadi, muammoning tadqiqoti jarayonida bilim egallanadi.

**4. Didaktik maqsadi bo'yicha** (T.I. Shukina, I.T. Ogorodnikov i dr.) quyidagilar farqlanadi:

- *ilk bor bilimlarni o'zlashtirish metodlari;*
- *egallangan bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish metodlari.*

**5. O'qitish metodlarining binar (qo'sh) va poliar (ko'pgirrali) tasnifi.**

M.I. Mahmutovning binar tizimi *dars berish metodi* va o'ngatish metodi majmuidan iborat (1.01. - jadval).

### O'qitish metodlari (M.I. Mahmutov)

(1.01. - jadvali)

Dars berish metodi	O'rGANISH metodi
Axborot berish – bayon qilish	Ijro etish
Tushuntirish	Reproduktiv
Ko'matma berish – amaliy	Produktiv – amaliy
Tushuntirish – ishontirish	Qisman ijodiy
Ishontirish	Ijodiy

O'qitishning polinar tasnifi V.F. Palamarchuk va V.I. Palamarchuk tomonidan ishlab chiqilgan. Bu tasnif bilimlar manbai, bilish faolligi darajasi, o'quv bilimlarining mantiqiy yo'llari yig'indisidan tarkib topadi. Didaktika bo'yicha nemis mutaxassis L. Klinberg o'z tasnifida metodlarni o'qitishdagi hamkorlik shakllari bilan birga olib qaraydi. (1.02. - jadvali).

### O'qitish metodlari (L. Klinberg)

(1.02. - jadvali)

Monologik metodlar	Hamkorlik shakllari	Dialogik metodlar
Leksiya Hikoya namoyish qilish	Individual Guruh Frontal Kollektiv	Suhbat

Akademik Yu.K. Babanskiy o'qitish metodlarining uch guruhini belgilaydi:

• *o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari* (1.03. - jadval)

• *o'quv-bilish faoliyatini motivatsiyalash va stimullash metodlari* (1.04. - jadval)

• *o'quv-bilish faoliyatining samaradorligini nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish* (1.05. - jadval).

### O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari

1.03. – jadval

Ifodali Ko'rgaznali Amaliy	Induktiv va deduktiv	Reproduktiv va muammoli – ijodiy	O'qituvchi rabbarligida mustaqil ish metodlari
Manbalari	Mantiq	Tafakkur	Boshqa'ruv

## O'quv-bilish faoliyatini motivatsiyalash va stimulash metodlari

1.04. – jadval

Organishga qiziqish uyg'otishni stimulash va motivatsiyalash metodlari	Organishda burch va rms'uliyati stimulash va motivatsiyalash metodlari
--	--

## O'quv-bilish faoliyatini samaradorligini nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish

1.05 – jadvali

Og'zaki nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari	Yozma nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish	O'z-o'zini nazorat qilishning laboratoriya-amaliy metodlari
---	---	---

Didaktikada ishlab chiqilgan metodlar, funksional yondashuv metodlar tizimini yaratish uchun asos bo'lgan bo'lib, unda metodlar didaktik maqsadlarga erishishning nisbatan alohida yo'llari va usullari sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, tarixiy meros, pedagogik hayot, chet el va o'z tadqiqotchilarimizning ilmiy mahsulotlari o'qitishning quyidagi metodlarini belgilash mumkinligini ko'rsatadi: (1.06. - jadval).

## O'qitish metodlari va ularning funksiyalari

1.06-jadval

O'qitish metodlari	Funksiyalar bajarilishiga yaroqli nazoriy mezonlar				
	O'qituv	Takomillashib borish	Tarbiyalov	Ishontirish	Nazorat qilish va tuzatish
Bayon qilish	+++++	+++++	+++++	+++++	++
Suhbat	+++++	+++++	+++++	+++++	++
Leksiya	+++++	+++++	+++	+++++	+
Munozara	+++	+++++	+++++	+++++	++++
Kitob bilan ishlash	+++++	+++++	+++++	+++++	+++++
Namoyish qilish	+++++	+++++	+++++	+++++	++
Illiustrasiya	+++++	+++++	+++++	+++++	++
Video metodi	++++	++++	+++++	+++	+++++
Mashq	+++++	+++++	+++++	+++++	+++++
Laboratoriya metodi	+++++	+++++	+++	+++++	+++
Amaliy metod	+++++	+++++	+++++	+++	+++
Bilish (idrok qilish) o'yinlari	++++	+++++	+++++	+++++	++++
Programmalashtirilgan o'qitish metodlari	+++++	+++	+++	++++	+++++
O'rgatuvchi nazorat	++	++	++	+++++	+++++
Vaziyat metodi	+++	+++++	+++++	+++++	+++

Oliy maktabdagi o'qitish metodlari muammosi ko'p sonli tadqiqotlarning mavjudligiga qaramasdan hali to'la hal etilganicha yo'q. Bu o'qitish metodlarining dialektikligi, oliy maktabdagi ta'limgazmunining takomillashuvi, ilmiy-texnik taraqqiyotning o'sib borishi bilan izohlanadi.

Oliy maktabdagi o'qitish metodlari muammosini hal qilishdan avval oliy maktabdagi o'qitish metodlarining o'ziga xosligini asoslash o'rinni bo'ladi. I.T. Ogorodnikov o'z tadqiqotlarida oliy maktabdagi o'qitish metodlarining o'ziga xosligi deganda, uning ilm o'rganish metodlari bilan yaqinlashuvidan deb biladi. S.I. Arxangelskiyning fikricha esa, oliy maktabdagi o'qitish metodlari nafaqat dars berish usullari va uslublarini birlashtiradi, balki u bilishning o'quv va ilmiy faoliyatga yo'naltirilgan tizimi ekanligini qayd qiladi. Shunday qilib, oliy maktabdagi o'qitish metodlari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Endi shunday savol tug'iladi: Oliy maktab metodlari maktab metodlaridan qaynhatlari bilan farqlanadi?

Maktabda fan asoslari o'rganiladi, umumiy ta'limgaz beriladi. Oliy maktabda talaba zamonaliv fanni o'rganadi va ixtisoslik bo'yicha ta'limgaz oladi. Shuning uchun ham oliy maktab metodlari bilimlarni yetkazish va anglashning usullarigina emas, balki fan taraqqiyoti jarayoniga tobora kirib borish, uning metodologik va g'oyaviy asosini ochish metodi hamdir.

Oliy maktabdagi o'qitish metodlarini asoslashda didaktika bilan shug'ullanuvchi olimlar oliy maktabdagi o'quv jarayonining xususiyatlari va talabalarning bilish faoliyatini qamrab oladilar hamda talabalarning kasbiy va shaxsiy tayyoragarligi masalalariga katta ahamiyat beradilar. Talabalarning faol ijodiy bilish faoliyati hamda ularning mustaqil ishlardan iborat oliy maktab jarayoni ikki guruh o'qitish metodlarining farqlanishini taqozo qiladi: *o'qitish metodlari va o'rganish metodlari*.

**O'qitish metodlari** bilimlarni berish usullari sifatida qaraladi va talabalarning ilmiy bilish faoliyatiga rahbarlik qilishga qaratilgan bo'ldi hamda o'quv jarayonda olim pedagogning talabalarga ta'sir ko'rsatishini shakllantiradi.

**O'rganish metodlari** bilim, malaka va ko'nikmalarni ijodiy egallashga hamda metodik va g'oyaviy-siyosiy e'tiqodlarni ishlab chiqishga qaratilgan talabalarning ilmiy bilish faoliyati usuli sifatida belgilanadi.

Oliy maktabdagi ta'limgaz xususiyati o'quv jarayonini tashkil etishda ko'rindadi. Maktab ta'limgaz metodlarni belgilash va o'qitish shakllarini tashkil qilishni tavsya etadi. Oliy maktabda esa o'qitish metodlari va shakllari qo'shilib ketadi, ya'ni oliy maktabdagi dars berish metodi ayni zamonda o'qitishning tashkiliy shakli ham hisoblanadi. Oliy maktabdagi o'qitish metodlari o'ziga qo'shimcha yuklanma — mashq'ulotni tashkil etishni ham oladi.

Oliy maktabdagi o'qitish metodlari tasnifi masalasi o'zining dolzarbigini saqlab qoladi. Oliy maktabdagi o'qitish metodlari tasnifining didaktik yondashuvlari, umumdidaktik yondashuvlarga monelik qilmaydi, balki ularni rivojlantiradi. Ular oliy maktabdagi o'quv jarayonining xususiyatlari, ularning

didaktik vazifalari xarakteriga asoslanadi.

Oliy maktabda o'qitish va o'rganish metodlari quyidagi guruhlardan iborat keng tarqalgan tasniflarga borib taqaladi.

**1. Bilimlarni berish, idrok etish va o'zlashtirish hamda e'tiqodni shakllantirishni ta'minovchi metodlar.** Metodlarning bu guruhiiga leksiya, talabalarning mustaqil ishlari, mustaqil tahsil olish bo'yicha ishlar, ishlab chiqarish jarayonlarini kuzatish, maslahatlar, ko'rsatma berish, ommaviy axborot, programmalashtirilgan materiallarni idrok etish va boshqalar kiradi.

**2. Bilimlarni tafbiq etish va mustahkamlash, malaka va ko'nikmalarini hosil qilish hamda e'tiqodni chuqurlashtirish metodlari.** Bu guruhga seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, nazorat ishlarini bajarish, programmalashtirilgan o'qituv kabinetlaridagi mashg'ulotlar va ishlab chiqarish amaliyoti kiradi.

**3. Bilimlar, e'tiqodlarni shakllantirish va talabalarning kasbiy tayyorligini aniqlash metodlari.** Bu o'quv jarayonining reyting baholari, kollogiumlar, suhbat o'tkazish, kurs va diplom ishlari loyihalari hamda davlat attestatsiyasi natijalarini baholashdir.

Bu tasnif konkret materiallar imkoniyatlarini belgilovchi eng muhim sifatlar asosiga qurilgan.

Birinchi guruhdagi shunday sifatlarga bilimlarni idrok qilish va o'zlashtirish, ikkinchi guruhga – tafbiq etish va mustahkamlash, uchinchchi guruhga esa – **attestatsiya va bilimlarni aniqlash** taalluqlidir.

Oliy maktabdagagi o'qitish metodlari tizimiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- *metodlar tizimi ta'limiy funksiyaga ega bo'lishi lozim.* Bu didaktik maqsadlar va o'qitish vazifalariga erishishning eng qulay usulidir;
- *metodlar tizimi tarbiyalov-takomillashuv funksiyasiga ega bo'lishi lozim.*

Bunda talabalarning mustaqil ishlari, vazifalari, ularning ishga ijodiy yondashuvi hal qilinadi, talabalarning shaxsiy sifatlari, bilim, malaka va ko'nikmalar egallahsha bo'lgan ehtiyojlari shakllanadi hamda ularning diqqati, irodasi, hissiyoti, xotirasi, tafakkuri o'sadi.

Eng jiddiy didaktik muammolardan biri **ta'lim metodlarini tanlash nimaga bog'liq** degan masaladir.

Didaktikaga oid adabiyotlarda o'qitish metodlarining quyidagi bog'liqliklari qayd qilinadi:

- *birinchidan, o'quv mashg'ulotlarining didaktik maqsadlari va vazifalariga bog'liq;*
- *ikkinchidan, bayon qilinadigan materialning xarakteriga bog'liq;*
- *uchinchidan, ta'lim oluvchilarining bilimi va rivojlanish darojasiga bog'liq;*
- *to'rtinchidan, o'quv jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarining muayyan (hozirgi) davrdagi metodlariga bog'liq;*
- *beshinchidan, oliy o'quv yurti yoki kafedranging sharoitlariga bog'liq;*

- *oltinchidan, o'quv jarayonining moddiy-texnik ta'minoti bilan bog'liq;*
- *yettinchidan, o'qituvchining pedagogik mahorati, uning tayyorgarligi va o'quv jarayonini tashkil etish darajasi hamda o'qituvchining hozirgi zamон metodlari bo'yicha bilimlariga bog'liq.*

Shunday qilib, oliy maktabdagagi o'quv jarayoni, o'qitishning shakl va metodlarda tashkil etiladigan ko'pqirrali yaxlit tizim doirasida amalga oshiriladi. Bunda har bir shakl o'z oldiga qo'ygan vazifalarni bajaradi, lekin shakl va metodlar to'plami yagona didaktik majmuani (kompleksni) hosil qiladi. Didaktik majmuuning amalga oshirilishi esa, o'quv jarayonining psixologik-pedagogik qonuniyatlarini bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasidagi oliy ta'limni isloh qilishning dolzarb vazifasi talabalarning o'quv-bilish faoliyatini jolnantirish, o'quv jarayoniga yangi texnologiyalarni tafbiq etishga xizmat qiladigan o'qitishning shakl va metodlarini takomillashtirishdan iboratdir.

#### **1.4. Bilish faoliyati to'g'risida sharq mutafakkirlarining ilmiy-pedagogik qarashlari**

Oliy maktabdagagi ta'lim mazmunini qayta qurish, mutaxassislar tayyorlashning yangi, samarali shakllarini izlab topish bevosita talabalarning bilish faoliyatini jolnantirish bilan bog'langandir.

**Hozirgi davrda talabalarning bilish faoliyatini jolnantirish muammosi o'z mohiyatiga ko'ra falsafa, sotsiologiya, pedagogika, psixologiya, xususiy metodika fanlari vakillarining dolzarb ilmiy-tadqiqot obyekti bo'lib golmoqda.**

Biroq bu muammoni, o'rta asr qomusiy olimlarning qarashlari va ta'limotini o'rganmasdan turib to'la yoritish mumkin emas. O'zbek olimi X.X. Tlashedvning tadqiqotlarida o'rta asr olimlarning didaktik qarashlari umumallashtirilgan holda tahlil qilib berilgan. Xorazmiy, Kindiy, Farobi, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Hayyom va ularning boshqa zamondoshlarining ilmiy dunyoqarashi hamda bilimlar manbai va obyekti tahlilidan ayon bo'ladi. Bilish jarayoni qanday bosqichlardan tashkil topgan hamda bilish va amaliy faoliyat o'rtasida qanday munosabatlar mavjud degan savol ularni doimo qiziqtirib kelgan.

Shu ma'noda sharq mutafakkirlarining asarlari alohida qiziqish uyg'otadi. Jumladan Al-Xorazmiy Muhammad ibn Musoning matematikaga oid risolasi, Al-Kindiyning "Arastuning kitoblari miqdori va yana falsafani o'zlashtirish uchun nima zarurligi haqida risola"si, "Dastlabki falsafa to'g'risida", "Besh mohiyat to'g'risida kitob", "Paydo bo'lish va yo'q bo'lishning yaqin tasvirlari izohi", Al-Farobiyning "Aql ma'nolari to'g'risida", "Fozil odamlar shahri", "Baxt-saodatga erishuv to'g'risida", "Ilmlarning kelib chiqishi", "Almagestr

Ptolomeyga izoh”, “Ixso-ul-ulum”, Ibn Sinoning “Kitob ash ishorat va at tibiqot”, “Donishnoma” (mutlaq baxt ham, mutlaq baxtiqarolik ham yo‘q), “Hay ibn Yaqzon” va boshqa asarlarida, Abu Rayhon Beruniy “Masud qonum”, “Dorivor o’simliklar haqida kitob”, “Saydana”, “Munajjimlik san’atidari boshlang‘ich tushunchalar”, “Yodgorliklar”, Abdurahmon Jomiyuning “Musika” risolasi hamda Alisher Navoiyning “Mahbubul qulub” kabi asarlar katta qiziqish uyg‘otadi.

Xorazmiy bilish faoliyatini nazariyasiga ulkan hissa qo’shgan. U bilishning tajriba-kuzatuv va eksperiment metodiga asos solgan. Xorazmiy tomonidan quyidagi umumididaktik tamoyillar hamda metodlar va shakllar asoslab berilgan: mustaqallik; ijodiy faoliyk; kuzatilgan faktlarni va hodisalarini tasvirlash va uni muntazam bayon qilish; tajriba-kuzatuv; eksperiment metodi; induksiya va deduksiya aspektida yakkalik va umumiylilik birligi tamoyili; o’qitishning savol-javob shakli.

Xorazmiyning salati Al-Kindiy mohiyatni barcha nazariy bilimlarning bosh mavzusi, deb qaraydi. U avvalo miqdor va sifatni hissiy idrok qilish zarurligini ta’kidlaydi.

Kindiy ilmiy bilishning uch pog‘onali konsepsiyasini ilgari suradi: tabiiy fanlar, mantiq va matematikadan bilimlar metafizika muammofiga olib keladi. Kindiy o‘z falsafiy qarashlarini asoslashda ilmiy bilishni diniy bilimlarga qarama-qarshi qo‘ygan holda matematika va tabiiy fanlarga alohida ahamiyat beradi. Kindiy inson bilimlari hissiy va aqliy bilimlarga bo‘linadi, deb hisoblaydi. Uningcha, hissiy bilimlar o‘z predmeti bilan bog‘langan bo‘lib, uning obyekti inson tanasi va barcha materiallardir. U ta’kidlaydi, agar hissiy bilimlar yakka bilimlardan iborat bo‘lsa, aqliy bilimlar esa umumiylilik bilimlardir. Kindiy fikricha, haqqoniylilikni bilish va o‘zining xattiharakatlarni haqqoniylilik bilan muvofiqlashtirishda, kishi ongidagi uning sabablarini aniqlash kaliti yordam ko‘rsatadi.

U shunday yozadi: “Sababini topgan holatdagina biz haqiqatning tagiga yeta olamiz. Har qanday narsaning mohiyatini anglash esa haqiqatni bilish uchun zarurdir. Negaki mavjud narsalarning barchasi haqiqatdan iboratdir. Haqiqatni idrok etsa bo‘ladi, binobarin, mavjud narsalarni hammasini anglamoq mumkin”.

Bilish jarayoniga Farobiy alohida ahamiyat beradi. U o‘zining “Aql ma’nolari to‘g‘risida” va “Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risida” asarlarida insonlarning bilunga bo‘lean intilishlarini har tomonlama keng yoritishga harakat qiladi. U shunday yozadi: “Kishi biror buyum haqida bilishni istasa, uning qandaydir bu holatini biladi va ongini o’sha predmet shaklidagi bilimga yo‘naltiradi. Bu o‘zi intilgan haqiqatni qidirish demakdir”.

Farobiyning ilmuy g‘oyalarni umumlashtirgan holda X.X. Tlashev uning bilish to‘g‘risidagi nazary asoslarga bag‘ishlangan ishlari, xususan, mantiq fanida bilish jarayoni va bilish shakllari, kabi qarashlarida birinchi marta

uning mohiyati ochib berilganini ta’kidlaydi. Bu jarayonlar, mantiqda unga rioya qilish, tafakkurni takomillashtirish va murakkab bilish jarayonida qo‘pol xatolarning oldini olish qonunlari sifatida aks etadi.

Farobiy fikrlash faoliyatini jonlantirishning didaktik tamoyillari va metodlarini asoslab berdi. Unga o‘qitishning amaliy yo‘nalganligi; nazariy bilimlar uzluksizligi va bilish metodlari; mantiqiylik va uzyviylik, hukm metodlari va usullari; induksiya va deduksiya metodlari kiradi.

Farobiyning bilish jarayoni haqidagi qarashlarini Abu Ali ibn Sino ham tasdiqlaydi. Uning tushunishicha, mantiq inson bilimlarining asosi sifatida qoida va me’yorlarni belgilab beradi; insonning bilish faoliyatini jonlantiradi hamda uning to‘g‘ri fikrlashini o’sтирди. Farobiy tomonidan ishlab chiqitgan fanlar tasnifi ilmiy bilimlar g‘oyasining rivojlanishini ta’minlaydi. U shunday yozadi: “Fanlar tasnifi insonga fanlarni o‘zaro qiyoslash, ulardan qaysi birlari zarur, foydali, tugallangan, haqqoniy va kuchli va qaysi birlari u qadar zarur emas va kuchsizroq, shuningdek, o‘rganish uchun nimadan boshlash, xususan nimani o‘rganish, nima yaroqli, qaysi biri yaroqsiz va qay darajada uni egallahash kabi masalalarda yordam beradi. Shunday qilib, uning fanga bo‘lgan munosabati ko‘rlikka, nodonlikka emas, balki bilim va donolikka asoslanadi”.

O‘rta asr olimlari o‘z asarlarida inson faoliyatining ikki turi haqida fikr yuritadilar. Bu mehnat va bilish faoliyatidir. Ular shuni ta’kidlaydilar: “Bilim – bu biluvchining qalbidagi bilinadigan timsoldir. Bilingki, fanni o‘qitish va o‘zlashtirishsiz bilim bo‘lmaydi. O‘qitish – bu qalbdan chiqadigan, qalb uchun dolzarb, ichki bilishga asoslangan e’tiqod. Bilimlarni o‘zlashtirish – bu bilim shakllarini qalbdan idrok etishdir. Bilingki, galb bilish predmetlari shakllarini uch tomonlama qabul qiladi: birinchidan, his qilish orqali, ikkinchidan, dalillar orqali, uchinchidan, fikr yuritish va mushohada qilish orqali”.

Kaykovusning “Qobusnomha” asarida bilimning foydasi haqida quyidagicha yoziladi: “Agar molsizlikdan qashshoq bo‘lsang, aqdan boy bo‘lmogga sa’y ko‘rguzgilki, mol bila boy bo‘lg‘ondan, aql bila boy bo‘lg‘on yaxshiroqdur. Nedinkim, aql bila mol jam etsa bo‘lar, ammo mol bila aql o‘rganib bo‘imas. Bilg‘il, aql bir moldurki, uni o‘g‘ri ololmas, u o‘tda yonmas, suvda ogmas”.

Farobiy o‘z asarlarida bilish faoliyatini tashkil etish tavsiyalarini ishlab chiqqan. Unda uch shart belgilanadi:

- muayyan fan asosida yotgan barcha tamoyillarni yaxshi bilish;
- muayyan fan ma ‘lumoitlari, ya’ni hukm chiqarish qoidalari egallahsha aloqador tamoyillar va ma ‘lumoitlar asosida zarur xulosalar chigara olish;
- yanglish nazariyalarni inkor eta olish, yolg‘ondan haqiqatni ajratib ola bilish va xatolarni tuzata olish uchun boshqa mualiflarning fikrlarini tahlil qila olish.

Beruniy bilish obyektiga bo‘lgan ilmiy-falsafiy va konkret-metodologik

yondashuv munosabatlariga e'tibor qaratish lozimligini uqtiradi.

Beruniy hissiy bilishga alohida diqqat qaratadi. U shunday yozadi: "Bilim sohalari ko'pdur, tobora rivojlanayotgan davr insonlar aql-zakovatining unga qo'shilib borishi bilan ular yanada ko'payadi, uning belgisi insonlarning fanga intilishi, uni e'zozlashi, san kishilarini e'zozlashidadir".

Vogelikning noma'lum tamoyillarini bilish haqida: "Bilinishi lozim bo'lgan barcha hodisalarning yo'li borki, uning vositasida bilimlarga erishish mumkin", - deydi.

Abu Ali ibn Sinoning aql taraqqiyoti bosqichlari haqidagi fikrlari ham kishida qiziqish uyg'otadi. Unda uchta bosqich belgilanadi: **Birinchi bosqich** – aqliy idrok bo'lib, unda aqliy kategoriyalar tushuniladi. **Ikkinchi bosqich** – ikki tomonlama idrokdir. **Uchinchi bosqich** – fikran idrok qilinadigan bilimlar o'zlashtirib olinganda namoyon bo'ldi.

Umar Hayyom o'z ta'lomitida ilmiy bilishga alohida diqqat e'tibor qaratadi. U shunday deydi: "Aql-zakovat narsa va hodisalarning xususiy tasodiflarini umumlashtirmasa, u haqda tasavvur hosil qila olmaydi hamda narsa va hodisalardan ajralib qolgan mavhumlikni umuman aks ettermaydi".

O'rta asrlar qomusiy olimlarining qarashlari tahlilidan shunday xulosa qilish mumkinki, ularning ilmiy dunyoqarashi mavjud tashqi olam va uning kishilar ongida aks etishini tan olishlari tufayli yuzaga kelgan. Ular bilishning manbaini real vogelik deb hisoblaganlar. ularning fikricha, inson bilimlarni uni o'rab olgan olamdan oladi va ular (bilimlar) ushbu olamning inikosidir.

Yaqin va o'rta sharq qomusiy olimlarining pedagogik qarashlari tahlili bu qarashlarning yaxlitligini, ularning ilmiy bilish, insonga bo'lgan munosabat va uning amaliy faoliyatni shakllanishi va rivojlanish usullari bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

### 1.5. Oliy maktab talabalarining bilish faoliyati

Oliy maktabda mutaxassislar tayyorlash jarayonini faqat muayyan fanlar bo'yicha bilim, malaka va ko'nikma olish bilan chegaralab bo'lmaydi. Shu tufayli hozingi sharoitda o'quv jarayonini sifat jihatdan jiddiy qayta qurish lozim bo'ldi. Shu munosabat bilan oliy maktabda talabalarining **bilish faoliyatini** jonlantirish muammosi alohida ahamiyat kasb etadi.

Bilish faoliyati masalaari taniqli psixolog va pedagog P.P. Blonskiyning ijodida yoritib berilgan.

P.P. Blonskiy ilk bor pedagogik psixologiyada mantiqiy hukm turlarining shakllanishi (muammoli, oldindan ko'ra bilish) va xulosa chiqarish planida ta'lim oluvchining fikrleshini tahlit qilib berdi. U bilish faoliyatini psixologik hodisalar – xotira, iroda, idrok bilan dialektik aloqadorlikda deb qaraydi va xotira nazariyasini shakllantirar ekan, xotiraning fikrlesh va nutq bilan ichki aloqasini ochib beradi. P. Blonskiyning o'rganishga qiziqtirish asosida

faollik va mustaqillikka undash, mustaqil faoliyat yuritish, ta'lim oluvchilarning bilish qobiliyatlarini o'stirishni tashkil etish to'g'risidagi g'oyalari samarali hisoblanadi.

Bilish faolligi muammosi bo'yicha L.P. Aristova, M.A. Danilov, B.P. Yesipov, I.Ya. Larner, R.S. Noga, M.N. Skatkin, M.I. Maxmutov, I.T. Ogorodnikov kabi pedagog va psixolog olimlar tadqiqot ishi olib borganlar.

Didaktika va psixologiyaga oid adabiyotlar tahlilidan "bilish" va "o'qitish" degan tushunchalarni farqlash lozimligi ko'rindi.

"Bilish faoliyati" tushunchasi "o'quv faoliyati" tushunchasidan ancha keng. Bilish faoliyatining mazmuniy tomoni o'quv dasturlariga asoslangan formal o'qitish doirasidan chiqadi. Bilish faoliyati inson qurullanishi uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar, shuningdek, unga zarur bo'lgan ijtimoiy faollik va mohiyatnigina emas, balki bilimlarni mukammallashtirish, takomillashtirish ehtiyojlariga bog'liq ravishda uni tanlay olish hamda tashkil eta olish va uni hayotga tatbiq etishni shakllantirishdir.

Pedagogika nazariyasi bilish faoliyatini jonlantirish masalasiga xilma-xil omillar majmui nuqtai nazaridan qaraydi: ijtimoiy omillar (obyektiv va subyektiv shakkarda) va subyektda muayyan ma'naviy ehtiyojning mayjudligi omili.

Talabalarning bilish faoliyatini jonlantirish uchun ularda quydagilarni shakllantirish zarur:

- *bilishga tayyorlik;*
- *bilish faoliyatining malaka va ko'nikmalar;*
- *bilish faoliyatiga ehtiyoj.*

Talabalarda bilish faoliyatiga bo'lgan barqaror ehtiyojni shakllantirish jarayoni bu faoliyatning psixologik dalilanishiga asoslanadi.

S.A. Rubinshteyn ta'kidlaydi: "Fe'l-atvordagi barqarorlikka ega bo'lgan har bir intilish, bu bo'lg'usi xarakterning qirralaridan biridir. Xarakter esa birin-ketin inson xatti-harakatlarida namoyon bo'lib, unga singishib, shaxsiy hislatga aylanadigan intilishlar majmuidir".

Bilish faoliyatining faol qo'zg'atuvchilari quydagilardir:

- *konkret faoliyatga bevosita, faol qiziqish;*
- *axloqiy – estetik va ruhiy qoniqish (motivlari).*

A.K. Gromsevaning tadqiqotlari shuni ko'rsatadi, bilish faoliyatini motivatsiyalash o'smirlik yoshida ongli xarakterga ega bo'ldi.

Yu.V. Sharov bilish ehtiyojlarini rivojlanishining bir necha bosqichlarini ishlab chiqqan:

- *elementar ilmiy-tadqiqot faoliyati yo'nalishi bosqichi va tashqi tussurotlarga ehtiyojni shakllantirish;*
- *o'rab olgan olamni bilishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish bosqichi;*
- *bilish usulini egallash faoliyati sisatida mashq qilish ehtiyojni shakllantirish bosqichi;*
- *bilish ehtiyojlarini tanlashga yo'nalanligini shakllantirish bosqichi;*

- mustaqil tahlilga bo'lgan ehtiyojni rivojlantirish bosqichi.

Bilish faoliyatini jonlantirish faqat bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaxshilashgagina emas, balki shaxsning eng muhim sifati bo'lgan faollik va mustaqillikning shakllanishiga ham yo'naltirilgan bo'lisi zarur.

Talabalar oliv o'quv yurtida o'qib turgan vaqtida bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashda barcha turdag'i o'quv jarayoniga jalb qilinadilar. Bu davrda ular shaxsining asosiy qiyofalari shakllanadi. Faoliyatining bu shakllarida ularning ehtiyojlar, qiziqishlari, moyilliklari, hissiyotlari, motivlari, shuningdek, umumiy va xususiy qobiliyatlar paydo bo'ladi va rivojlanadi.

Olimlarning isbotlashlaricha, har qanday faoliyatning tarbiyaviy samaradorligi ko'proq uning tashkil etilish darajasiga bog'liq. Qachonki, yosh xususiyatlari faoliyat turlarining galma-galligi, me'yoriyligida amalga oshadi.

Bilish faoliyatini jonlantirishda qiziqish alohida ahamiyatga ega.

**O'rganishga bo'lgan qiziqishni** olimlar ijobji, hissiy bo'yoqqa ega bo'lgan, bilim, malaka va ko'nikmalarga bo'lgan alohida munosabat deb baholaydilar.

**Bilishga bo'lgan qiziqish** – o'qitishdagi o'ziga xos qiziqish turidir.

G.I. Shukina bilishga bo'lgan qiziqishni, insонning predmet va atrof-muhit hodisalariga bo'lgan murakkab munosabati va ularning muhim xususiyatlarini har tomonlama, chuqur o'rganish va bilishi, deb qaraydi.

Bilishga bo'lgan qiziqish saralab olishga yo'naltirilgan va u shaxsning ehtiyojlaridan kelib chiqadi.

Bilishga bo'lgan qiziqish, bilish faoliyati mohiyati, fikrlarning obyektga bo'lgan betinim yaqinligi bilan bog'langandir.

Bilimga bo'lgan qiziqishning belgilari quyidagilardir:

- intellektual xarakterda bo'lisi;
- ijodiy xarakterda bo'lisi.

Bilimga bo'lgan qiziqishning rivojlanish bosqichlari:

- qiziqsinish – mo'ljalining elementar darajasi – "mo'ljallangan qiziqish";
- qiziquvchanlik – bilishga bo'lgan ehtiros, quvonch bilan obyekt chegarasiga kirib borish;
- bilishga bo'lgan qiziqish – hodisalarning mohiyatiga kirib borishga intilish, haqiqatni qidirish;
- nazariy qiziqish – vogelikka faol ta'sir etish orgali nazariy asoslar, qonuniyatlarni bilishga intilish;

Qiziqishning paydo bo'lisi va rivojlanishini shartli ravishda quyidagicha satlarga ajratish mumkin:

- yangi faktlarga, mashg'ulotlarda olinadigan axborotlarda gavdalananadigan mashg'ulotlarga bevosita qiziqish hamda har xil sharoitlarda harakat qiluvchi narsa va hodisalarning muhim xususiyatlarini bilishga qiziqish;

• o'rganishga bo'lgan barqaror qiziqish. U talabalarga ta'lim berishda muhim xarakterga ega va unda bilishga bo'lgan qiziqish tashqi omillarga muhtoj hamda u real o'quv jarayoni shart-sharoiti va usullari bilan bog'liq bo'ladi.

Bilishga bo'lgan barqaror qiziqishga quyidagilar kiradi:

- intellektual faollik (ko'rsatkichlari – savol va javob mustaqilligi, jonli faoliyatga o'z tashabbusi bilan kirishishga intilish);

• malaka va ko'nikmalardan faol soydalanish, ularning faol aks ta'siri (bilimlar yangi bilimlarni egallash metodlariga aylanadi, aksincha, bilishga bo'lgan qiziqish o'zining eng yuqori rivojlanish darajasiga ko'tariladi);

• hissiyotni namoyish qilish (nafrat, quvonch, bezovta bo'lism, intellektual holatdagi hissiyot);

• irodani namoyish qilish – jiddiy diqqat qilish, kuchsiz chalg'ish, o'quv ishlarini tugallashga intilish;

• o'z xatti-harakatlarni erkin tanlash – o'quv mashg'ulotlaridan boshqa vaqtarda u yoki bu mashg'ulotlarni erkin tanlay olish.

Talabalarning bilishga bo'lgan qiziqishi shakllanishining muhim shartlaridan biri hissiy vaziyat, bilishga bo'lgan ehtiyoj va ongli fikrlashni rivojlanishni yaratish bo'lisi ham mumkin.

Talabalarning bilish faoliyati tuzilmasiga **faollik** kiradi, ya'ni bu shunday ish faoliyatiki, unda bilish faoliyatini jonlantiradigan intellektual, irodaviy, hissiy jarayonlar birligida namoyon bo'ladi.

Jonli bilish faoliyati uchun, bilimga bo'lgan har tomonlama, chuqur qiziqish, muayyan kuch sarf qilinishi, diqqat, belgilangan maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan aqliy va jismoniy kuchlar qaratilgan bo'lisi lozim.

Bilish faolligi individual bo'ladi, u shaxsning tug'ma qobiliyati emas, balki uning xatti-harakatlari jarayonida shakllanadi.

Talabalarning jonli bilish faoliyati uchun quyidagilar xosdir:

- bilimga va o'quv maqsadlariga bo'lgan chuqur, har tomonlama qiziqish;
- aqliy, jismoniy va intellektual kuchlarni faol namoyon qilish;
- diqqat, xotira, iroda va boshqa ruhiy sifatlarni toplash.

Bilish faolligi jarayonida quyidagi 4 sath ajratiladi:

- reproduktiv faollik. Bunda "tayyor bilimlar"ni egallashga tayyorlik, qizg'in qayta ishlash faoliyati kabilar amal qiladi;

• applikativ faollik – unga qizg'in tanlov-yaratish faoliyatiga tayyorlik xarakterlidir;

• izohlashdagi faollik – ma'no-mazmunni qizg'in izohlash, tushuntirish ochib berishga tayyorlik;

• produktiv (samarali) faollik – unga yangilikni qizg'in ijod qilishga tayyorlik xarakterlidir.

Bilish faolligi rivojlanishi bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- mustaqil xatti-harakatlarga intilishda namoyon bo'ladigan amaliy

*faoliyatdagi faoliyk;*

- *o'rganilayotgan hodisalarining mohiyati va tamoyillarini qo'lga kiritishdagi intilish;*
- *ijodiy faoliyk oly bosqich bo'lib, u sabab-oqibat bog'tanishidan, ijodiy fikrlarning haqqoniyligiga, uning hayotiy va bilish qimmatiga ishonch hosil qilishdan tarkib topadi.*

Pedagogika va psixologiyaga oid adabiyotlar tahlili shunday xulosa qilishga izn beradi: o'qitishda bilish faoliyatini jonlantirish deganda tom ma'noda sikrash ishining faolligi tushuniladi.

Fikrash faolligi bilish faoliyatida maqsadga muvofiq analiz va sintezda, o'quv materiallarini konkretlashtirish va bir tizimga keltirishda, induksiya va deduksiyani qo'llashda, bilimlar tizimini egallahda, dunyoqarash hamda tasavvurlar va tushunchalarni ishlab chiqishda namoyon bo'ladi.

Talabalarning ijodiy faolligi rivojlanishi shaxsning o'rganilayotgan narsa va hodisalar mohiyatiga chuqur kirib borishga intilish va bilish faoliyatiga yangilik va ijodiylik unsurlarini olib kira olishi qobiliyati bilan xarakterlanadi.

Talabalarning faolligi ularning mustaqilligi bilan tig'iz bog'langan. Bu tushunchalar bir-birini to'ldiradi. Chunki mustaqil harakatlarning o'zidayoq shaxsning faolligi namoyon bo'ladi, aksincha, faoliyk ko'pincha mustaqil harakatlarni taqozo qiladi.

Bilish mustaqilligi quyidagi belgilarga ega:

- *mustaqil fikrlay olish va unga intilish;*
- *yangi vaziyatlarda mo'ljahli ola bilishsa yoki yangi vazifalarni yechishga o'z yondashuvini topa bilish qobiliyati;*
- *o'zlashtirilayotgan bilimlarni nafaqat tushunishni istash, balki uni qo'lga kiritish usullarini topish;*
- *boshqa ishlarni baholashda tanqidiy yondashuv;*
- *o'z hukmlarining erkinligi.*

B.P. Yesipov mustaqil ishlarni bilimlarni izlab topish, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash, bilimlardan yangi sharoitlarda foydalana olish hamda bilimlarni amaliy qo'llash kabi didaktik vazifalar bilan bog'laydi.

G.I. Shukina bilish mustaqilligida bilish va yangi amaliy vazifalarni belgilash, uni hal qilish usulini topish qobiliyatlari bilan ajralib turadigan aslida esa mustaqil tafakkur sifatida xarakterlanadigan o'rganishni motivatsiyalash va undan foydalanish (operasiya) birligini ta'kidlaydi.

Psixologiya va pedagogikaga oid adabiyotlarda bilish faoliyatining quyidagi tiplari farqlanadi:

- *perseptiv;*
- *reproduktiv;*
- *produktiv.*

**Perseptiv bilish faoliyati** – bu faoliyatning shunday namunasiki, unda predmet, voqeja, hodisa va ular haqidagi ayrim ma'lumotlar belgilari va

mazmuni og'zaki va yozma nutq vositasida aks ettiriladi. Perseptiv faoliyat sezgidan boshlanadi va tasavvurlarni ifodalash bilan yakunlanadi.

**Reproduktiv bilish faoliyati** – bu faoliyat bilimlarni amaliy va ijodiy faoliyatda pirovard natijada qayta ishlab chiqish bilan bog'langandir. Bilish faoliyatining bu namunasi bilimlarni o'zlashtirish, ularni ijodiy ishda qo'llash va o'quv faoliyatining turli usullarini egallahni qamrab oladi.

**Produktiv bilish faoliyati** – u faoliyatning shunday namunasiki, unda turli toifadagi ijodiy vazifalar hal qilinishga qaratilgan. Produktiv bilish faoliyatining turlaridan biri – evristik faoliyatdir. Evristik faoliyat talabalarning mustaqil ishlari bilan birga amalga oshiriladi.

Talabalarda perseptiv, reproduktiv va produktiv bilish malaka, ko'nikma va qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun o'quv jarayonida ularning har biriga xos bo'lgan faoliyatning shakl va mazmunini tashkil etish, ularni o'zaro bog'lash, ularning galma-galligini ta'minlash va ulardan yaxlitlik holida foydalanish zarur.

Bilish faolligi ham, faoliyat maqsadi ham, unga erishish vositasi ham uning, natijasi sifatida qaraladi.

"Bilish faolligi" tushunchasida motivatsiya, intellektual va hissiy-irodaviy komponentlar farqlanadi.

**Xotima.** Talabalarning bilish faoliyatini jonlantirish deganda, o'qituvchining talabalar tomonidan bilimlarni egallah, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish, ulardan amaliyotda foydalanishga qiziqish uyg'otish faolligini, ijodkorligini, mustaqilligini oshirish maqsadida ta'limning mazmuni, shakli va usullari, metod va vositalarini takomillashtirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

### O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini isloh qilish qay tarzda amalga oshiriladi?

2. Oliy maktabdagagi ta'lim mazmuni deganda nimani tushunasiz?

3. Ta'lim mazmunining mohiyatini belgilashda qanday yondashuvlar mavjud?

4. Ta'lim mazmunini shakllantirishda qanday nazariyalarga amal qilinadi?

5. Hozirgi zamон oliy maktabi didaktikasida o'qitish jarayonining qanday qonuniyatlar bo'r?

6. Oliy maktabda o'quv jarayonining qanday shakllari amalga oshiriladi?

7. Leksiya, seminarlar, laboratoriya ishlari, mustaqil ishlar, mustaqil tabsilning tasniflari, vazifalari va mazmunini so'zlab bering.

8. O'qitish metodlari tasnifini so'zlab bering.

9. Oliy maktabda o'qitish metodlarining qanday tasniflari mavjud?

10. Bilish faoliyati to'g'risida Sharq qomusiy allomalarining ilmiy

pedagogik qarashlarini so'zlab bering.

11. Bilish va o'quv faoliyati deganda nimani tushunasiz?
12. Bilish faoliyatining rivojlanishidagi qanday bosqichlarni bilasiz?
13. Bilish faoliyatini jondorlantirish usullarini so'zlab bering.
14. Bilish faoliyatining asosiy tiplarini so'zlab bering.

## ADABIYOTLAR

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии в подготовке учителя. Ташкент, 2000.
2. Аллаёрнов И.А. Дидактические основы активного обучения управлеченческим дисциплинам. – Ташкент: Фан, 1994.
3. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М., 1995.
4. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М., 1989.
5. Бордовский Г.А., Извозчиков В.А. Новые технологии обучения: Вопросы терминологии// Педагогика. – 1993.-№5.
6. Гальперин П.К. К теории программированного обучения. – М., 1967.
7. Кларин М.В. Инновации в мировой педагогике. – Рига, 1995.
8. Кларин М.В. Педагогическая технология. – М., 1989.
9. Курдяев П.О. Проблемное обучение. Истоки и сущность.: Знание, 1991.
10. Молибог А.Г. Программирование обучения. – М., 1967.
11. Пидкасистый И.И. и др. Технология игры в обучении и развитии. – М.: РПА, 1996.
12. Самоунина Н.В. Организационно обучающие игры в образовании. – М.: Народное образование, 1996.
13. Селевко Г.К. и др. Дифференциация обучения. – Ярославль, 1995.
14. Селевко Г.К. Опыт разработки теории педагогики сотрудничества. Методические рекомендации. Ч. I, II. – Ярославль, 1988, 1989.
15. Селевко Г.К., Тихомирова Н.К. Педагогика сотрудничества о перестройке школы. – Ярославль, 1990.
16. Унт Инге. Индивидуализация и дифференциация обучения. – М.: Педагогика, 1990.
17. Шаталов В.Ф. Педагогическая проза. – М.: Педагогика, 1980.
18. Эльконин Д.В. Психология игры. – М., 1979.
19. Юдин В.В. Педагогическая технология. – Ярославль, 1997.

## II BOB TALABA SHAXSI RIVOJLANISHI TAVSIFI

**Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy komponentlari: shaxs - uzlusiz ta'lif - fan - ishlab chiqarish - davlat va jamiyat.**

Kadrlar tayyorlashning bosh obyekti va subyekti shaxsdir.

Shaxs - ta'lif sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov Oliy majlisning XIV sessiyasidagi ma'rzasida jamiyatimizni isloh qilishning va qayta qurishning ustuvor yo'nalişlaridan biri «jamiatning tobora ma'naviy yangilanishi» deb ko'rsatgan edi. I.A.Karimov o'z nutqida ma'naviyat haqida to'xtalar ekan, uning insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iyomon-e'tiqodini, irodasini mustahkamlaydigan, ijodini uyg'otadigan qudratli botiniy kuchini e'tirof etadi.

«Ma'naviyat, - degan edi I.A.Karimov, - bu o'zligini, o'zining jamiatdagi o'rmini tobora chiqur bilishga intilishdir. Bu kishilarning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy bilim saviyalarini oshirishdir. Kishilar, ayniqsa yoshlar ongida mustahkam axloqiy va ruhiy tushunchalar, insonparvarlik va demokratik qadriyatlarni qaror toptirishdir.»

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonning intellektual va ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan uzziy bog'liq ravishda uzlusiz ta'lif tizimi orqali har tomonlarga rivojlangan shaxsni tarkib toptirishni ko'zda tutadi.

Shaxs ta'lif xizmatlarning iste'molchisi sifatida davlat tomonidan sifatli ta'lif va kasbiy tayyorgarlik olishga kafolatlangan.

Shaxs ta'lif xizmatlarning yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta'lif, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi va unda o'z bilimi va tajribasini o'ngatishda ishtiroy etadi.

Shundan kelib chiqqan holda, oliy maktab oldida nafaqat bo'lg'usi mutaxassisning kasbiy sifatlari, balki uning shaxsiy sifatlarini shakllantirishdek bosh vazifa turadi. Bu vazifa o'zaro aloqada va yaxlitlikda hal qilinishi hamda uning hal qilinishiga oliy maktabning barcha o'quv-tarbiya jarayoni bag'ishlanishi lozim.

### 2.1. Shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatları

Shaxs – muayyan ijtimoiy guruhning vakili bo'lgan, biror faoliyat turi bilan shug'ullanadigan, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'la oladigan, o'ziga xos individual – psixologik xislatlarga ega bo'lgan konkret inson.

**Shaxsnинг psixologik xislatlariga** quyidagilar taalluqli: xarakter, temperament, qobiliyat, kuchli hissiyotlari va motivlari, shuningdek, psixik jarayonlarning kechish xususiyatlari yig'indisi (majmui).

Har bir kishidagi bu takrorlanmas individual xislatlar to'plami (majmui) undagi barqaror yaxlitlikni vujudga keltiradi. Bu yaxlitlik shaxsnинг nisbiy turg'un psixologik qiyofasi va boyligi sifatida qaratadi. U psixik holatlar va jarayonlarning to'xtovsiz o'zgarib turishiga qaramasdan saqlanib qoladi.

Shuningdek, shaxsnинг psixik boyligi shaxsnинг yashash sharoiti va ijtimoiy tarbiya jarayonlarida yuz berayotgan o'zgarishlarning oqibati sifatida ma'lum darajada harakatchanligini hamda o'zgaruvchanligini saqlab qoladi.

**Shaxs atrof-muhit, insonlar bilan faol aloqada bo'llish jarayonida shakllanadi.** Shaxs faolligining manbai bo'lib inson shaxsiy ehtiyojlarining ko'p qirraliligi, u o'zi mansub bo'lgan jamiyat, jamaoa el'tiyojlari hisoblanadi.

Murakkab hosila ehtiyojlariga qiziqish, moyillik, did, ko'rsatma, e'tiqod, istak kiradiki, ular yig'indisi «motivatsiya doirasi»ni, shaxsnинг «yo'nalgaligi»ni hosil qiladi.

Shaxs voqeitkka bo'lgan obyektiv va subyektiv munosabatlarni ifoda qiladi. Shaxs bir butun holdagi ichki shart-sharoitlar yig'indisi bo'lib, tuning vositasida tashqi ta'sirlarning inikosi yuz beradi.

**Shaxsnинг rivojlanishi uning faoliyatida amalga oshiriladi.** Bu rivojlanish shaxsga xos va uning uchun muhim hisoblangan motivlar tizimi bilan boshqariladi.

**Shaxsni harakatga keltiruvchi kuch tobora ko'payib boradigan ehtiyojlar** va ularni qanoatlantridigan real imkoniyatlar orasidagi ichki ziddiyatlar hisoblanadi. Ehtiyojlar esa shaxs rivojlanishining omillari va natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

A.V.Petrovskiyning tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, inson shaxsining xarakterli tomonlaridan biri uning individualligidir. A. V. Petrovskiy shaxs tuzilmasidaunga xos bo'lgan xarakter, temperament, psixik jarayonlarning kechish xususiyatlari, faoliyatning kuchli hissiyotlari va motivlari yig'indisi, shakllangan qibiliyatlari zahirasidagi bilim va ko'nikmalarining betakror uyg'unligi qayd qilinadi. Inson individ sifatida jismoniy va psixik mazmun kasb etadi. Tadqiqotlarning ko'rsatilishicha, inson psixikasi emotsiya va onga bo'linadi.

Ong insonni dunyonni miyasida aks ettirishi bilan uni hayvondan farqlaydi. Onggina shaxsnинг o'zligini tashkil etadi.

G.K.Selevkoning aniqlashicha, **shaxs umumlashtirilgan xilma-xil sifatlar tizimida ko'rinaligan insonning psixik, ma'naviy mohiyatidir.**

Bunday sifatlar tizimiga quyidagilar mansub:

- inson xislatlarining ijtimoiy ahamiyatga molik sifatlari yig'indisi;
- dunyoga bo'lgan va dunyo bilan, o'ziga va o'z-o'zi bilan munosabatlari tizimi;

• ijtimoiy vazifalar, axloqiy ko'rinishlar yig'indisini amalga oshiradigan faoliyat tizimi;

• dunyoni va undagi o'zini anglashi;

• ehtiyojlar tizimi;

• qobiliyatlar, ijodiy imkoniyatlar yig'indisi;

• tashqi sharoitga bo'lgan e'tiborlar yig'indisi.

Psixologiya va pedagogika bo'yicha tadqiqotlar shaxs rivojlanishini uch omilga - *irsiyat, muhit va tarbiyaga bog'laydilar*.

**Irsiy omil** ota-onalardagi ayrim sifat va xususiyatlarning bolalarga o'tishidir. Irsiyatni genlar vujudga keltiradi. Hozirgi fan organizm xususiyatlarda, uning to'g'risida axborotlar saqlanadigan va uzutiladigan o'ziga xos gen kodlari aks etganligini isbotlagan. Genetika inson rivojlanishining irsiy dasturini ochib bergen.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, inson biologik tur sifatida insonlarga ma'lum bo'lgan tarixiy davr taraqqiyotida sezilarli bo'limagan darajada o'zgarishga uchragan.

**Inson ijtimoiylashish jarayonidagina,** ya'ni muloqot, boshqa kishilar bilan aloqalarda, shaxs bo'lib shakllanadi. Tadqiqotlarning guvohlik berishicha, ma'naviy, ijtimoiy va psixik rivojlanish, kishilik jamiyatjisiz faoliyatda bo'lomaydi.

#### **Muhit shaxs rivojlanadigan real voqeikdir.**

Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi **tashqi sharoitlarga** olimlar geografik, ijtimoiy muhit, mакtab va oilani keltiradilar.

**Yaqin va yiroq muhit** farqlanadi. Yaqin muhitga uy sharoiti, uzoq muhitga esa ijtioiy muhit kiritiladi.

**Ijtimoiy muhit ijtimoiy tuzum, ishlab chiqarish munosabatlari tizimi,** hayotning moddiy shart-sharoiti, ishlab chiqarish va ijtimoiy jarayonlar oqimi xarakterini o'z ichiga oladi.

**Yaqin muhitga oila, qarindoshlar, o'rtoqlar** kiradi.

K.K.Platonov tadqiqotlari ko'rsatadiki, shaxs tuzilmasidagi biologik va sotsial omillar nisbati shaxs sifatlarining to'rtta pog'onaviy sathini farqlashga imkoniyat beradi:

**1.Irsiyat bilan bog'langan sifatlarni birlashtirgan temperament sathi.** Unga shaxsnинг ehtiyoj va instinct xususiyatlari hamda jinsiy, yosh, milliy va boshqa sifatlarini kiritadi.

**2.Psixik jarayonlar xususiyatlari sathi.** Bu sath sezgi, idrok, xayol, diqqat, xotira, tafakkur, hissiyot, irodaning individual xarakterini o'z ichiga oladi. Shuningdek, bu sathga olimlar tafakkurning mantiqiy aks etishi: assotsiasiya, qiyoslash, abstraksiyalash, induksiya, deduksiyalarni ham kiritadilar.

**3. Shaxs tajribasi sathi.** Bu sath bilim, malaka, ko'nikma, odat (qiliq) kabi sifatlar bilan belgilanadi.

**4. Shaxsning yo'nalganlik sathi.** Bu shaxsning shunday sifatiki, unda insonning atrof-muhitga munosabati aniqlanadi va u uning xulqi asosini tashkil etadi. Bularga qiziqish, nuqtai nazar, e'tiqod, ijtimoiy ko'rsatmalar, o'ta muhim yo'nalmalar, axloqiy-etik tamoyillar va dunyoqarash kiradi.

Shaxs sifatlarining bu sathlari uning tarqoqligini bildirmaydi. Shaxsning barcha sifatlari murakkab yaxlit tizimni tashkil etib, o'zaro tig'iz bog'langan, shartlangan hamda ko'pincha ular bir-birining o'mini bosadi.

Demak, shaxs tashqi va ichki omillar ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi.

Psixolog olimlar tashqi omillarga shaxsning *ijtimoiy tabiat*, *mukammalligi* va *pog'onalligini* kiritadi.

**Shaxsning ijtimoiy tabiat** ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi: ishlab chiqarishdagi munosabati, moddiy boylikni ishlab chiqarish va iste'mol qilish hamda muayyan ijtimoiy guruhgaga bo'lgan siyosiy munosabati.

**Shaxsning bir butunligi** uning normal va har tomonlama rivojlanishini belgilovchi tashqi ta'sirlar majmuidir.

**Pog'onallilik** - insonning shaxs sifatida ma'lum davrlarda yosh va ijtimoiy shakllanishi.

Shaxs va uning rivojlanishi muammosi ko'plab psixologlar, sosiologlar va pedagoglarning tadqiqot obyekti bo'lib kelmoqda. Bu tadqiqotlar tahlili unga bo'lgan bir qator yondashuvlarni keltirib chiqardi:

**1. Sotsiogenetik yondashuv** shaxs rivojlanishini jamiyatning tuzilmasi, ijtimoiylashuv usullari, uning atrof-muhit bilan aloqasidan kelib chiqqan holda tushuntiradi. Bunday yondashuvda *ijtimoiylashuv*, *o'rganish*, *ijtimoiy vazifa nazariyalari* amal qiladi.

**Ijtimoiylashuv nazariyasi** ta'kidlaydiki, inson biologik hosila sifatida dunyoga kelib, ijtimoiy shart - sharoitlar ta'siridagina shaxs bo'lib yetishadi.

**O'rganish nazariyasi** (E. Torndayk, B. Skinner va b.) ga ko'ra shaxs hayoti, uning munosabatlari, tahsil ko'rish, o'rganishni mustahkamlash, bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish natijasidir.

**Rol bajarish nazariyasining** mazmuni shundan iboratki, shaxsga jamiyatda muayyan ijtimoiy rol (barqaror xulq usullari to'plami) tayin qilinadi. Bu rol shaxs xulqining xarakterini, uning boshqa insonlarga bo'lgan munosabatini belgilaydi.

Bu nazariyalarning kamchiligi shundaki, u inson hayotining obyektiv, ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarini hisobga olmaydi.

**2. Biogenetik yondashuv** shaxs rivojlanishida organizm yetilishidagi biologik jarayonlarni asos qilib oladi. Bu yo'nalishda Z. Freyd tadqiqotlari ajralib turadi. Uningcha, shaxs xulqi insonning fiziologik, beixtiyor mayllari, havaslari bilan bog'langan. E. Krechmer shaxs tiplarini insonning gavda tuzilishi xususiyatlaridan keltirib chiqaradi. S.Xoll ta'kidlashicha esa, shaxs

rivojlanishi doira shaklida, ya'ni yig'inlar, ishtiyoqlar shaklidagi jamiyatning bosqichli rivojlanishidir.

**3. Psixogenetik yondashuv** na biologiya va na muhit ahamiyatini inkot etmaydi, balki psixik jarayonlarning rivojlanishini birinchi o'ringa qo'yadi. Bu yondashuvda psixodinamik, kognitiv va personologik nazariyalar amal qiladi.

**Psixodinamik yo'nalish** (E. Erikson). Bunda shaxs xulqi emotsiya, ishtiyoq va boshqa psixikaning ratsional bo'lmagan komponentlari orqali tushuntiriladi. Psixikasining intellektual - bitish doirasi xususiyatlariga suyanadilar.

**Kognitiv nazariya** vakillari esa shaxs rivojlanishiga yaxlit holda qaraydilar (E. Shpranger, A. Maslau va b.). Bu borada B.G. Ananey, K.A. Abulxanova, A.N. Leontev, A.V. Petrovskiy, V.V. Myasishev, K.K. Platonov, D.N. Uznadze, D.I. Feldshteyn ishlari e'tiborlidir.

**B.G. Ananey** shaxsga 4 tomon birligi nuqtai nazardan qaraydi: 1) *insonga biologik tur sifatida*; 2) *individ sifatida ontogenetik va insonning hayot yo'li*; 3) *insonga shaxs sifatida*; 4) *insonga insoniyatning bir qismi sifatida*.

**K.A. Abulxanova** shaxsni hayot yo'li subyekti va faoliyat subyekti sifatida tasavvur qiladi. Uning rivojlanishi asosida *faoliyk* (tashabbus, ma'suliyat), *tashkily* va *qigiga nisbatan qobiliyat*, *ijtimoiy tafakkur* kabi sifatlar yotishini ta'kidlaydi.

**A.N. Leontev** va **A.V. Petrovskiy**lar bu yondashuvga binoan har qanday psixik hodisalarini tushuntirishda, shaxs *ichki sharoitlarning bir butun tizimi* sifatida gavdalananadi, deb hisoblaydilar. Binobarin, uning vositasida barcha tashqi ta'sirlar aks etadi va bu esa shaxsda umumiylilik hamda turg'unlikning har xil komponentlari o'chovlarini farqlash imkonini yaratadi.

**V.V. Myasishchev** shaxs yadrosini insonning atrof - muhitni ongida aks ettirish orqali shakllanadigan tashqi olam va o'ziga bo'lgan munosabatlar tizimi deb tushunadi.

**K.K. Platonov** fikricha esa, shaxsning dinamik funksional tuzilmasi *yo'nalganlik*, *tajriba*, *psixik jarayonlar* va uning biopsixologik xususiyatlaridan iboratdir.

**D.N. Uznadze** shaxsni motivlari va xulqi anglanmas xarakterdagи *bir butun va manaviy tuzilma*. tushuniłmasligi mumkin bo'lgan xislat deb qaraydi. D.N. Uznadze maqsadga muvofiq faolligi jarayonida shaxs psixikasining shakllanishi va rivojlanishini yoritib beruvchi umumpsixologik konsepsiysi sifatida ko'rsatish nazariyasiga asos solgan.

**D.I. Feldshteyn** fikriga ko'ra, ontogeneza shaxs ijtimoiy yetuklilikning turli bosqichlarini bosib o'tish jarayonida rivojlanadi. Uning shakllanishida ijtimoiy ahamiyat kasb etgan faoliyat bosh omil bo'lib hisoblanadi.

Demak, shaxs faol va ongli mavjudot sifatida belgilanadi. U faqat ijtimoiy munosabatlar obyekti emas, balki subyekti hamdir. Shaxs ishlab chiqarish va moddiy manfaatlarni qabul qilish jarayonida shakllanadi.

## 2.2. O'smirlik davrida shaxsnинг шакланishi

Sotsiologlar shaxsga, umuman, jamiyatga aniq ijtimoiy guruhga aloqador ijtimoiy ahamiyatga molik xislat va xususiyatlarning ko'rinishi jihatidan qarash lozimligini uqtiradilar. Ijtimoiy muhit shaxsnинг asosiy ijtimoiy funksiyalarini belgilaydi.

O'smirlik davri o'ziga xos ijtimoiy guruhni tashkil etadi. U hayot, mehnat va tajribalarning muhim sharti, ijtimoiy xulq va psixologiyasi, yo'nalganlikning muhim tizimi sifatida tavsif qilinadi.

O'smirlik jismoniy yetuklik davridir. Bu davrda organizmning tez o'sishi va rivojlanishi tugallanadi, jismoniy rivojlanishning nisbiy turg'un davri boshlanadi. O'smirlik davrida gavdaning o'sishi sekinlashadi, sezilarli darajada muskul kuchlari va ish qobiliyati oshadi, ko'krak qafasi kengayadi, skeletning qotishi tugallanadi, to'qimalar va organlar shakllanadi va funksional rivojlanadi.

O'smirlik davrida insonning hayot va mehnat faoliyatini belgilab olinadi. U mustaqil mehnat faoliyatiga esa, to'laqonli qobiliyatlari psixik, g'oyaviy va fuqaroyiv yetuklik darajasiga erishadi.

O'smirlar va qizlar shaxsi o'zları o'ren egallay boshtagani jamiyat, jamoa, ijtimoiy munosabatlari tizimidagi yangi muhit ta'sirida qaror topadi.

O'smirlik davridagi asosiy faoliyat turi **o'rganish, ta'lim olish, ishlab chiqarish mehnatidir**. Bu jarayonda o'smirlar va qizlarning aqliy rivojlanishida xarakterli o'zgarishlar yuz beradi, mehnat va o'rganishga bo'lgan ongi munosabat ham oshadi, kelgusidagi mehnat faoliyatida olingen bilim, malaka va ko'nikmalar unda to'laqonli qatnashish uchun zatur shartlardan biri degan onglilik shakllanadi.

O'smirlik yoshi uchun qiziqishning kengligi va turli - tumanligi ham xarakterlidir. Bilishga bo'lgan qiziqishlar keng, barqaror va shijoatli tus otadi. Bilish faoliyatiga qaratilgan va u bifan bog'langan o'qish, mutolaa qilishga qiziqish rivojlanadi, ishda fikri jamlash malakasi, mantiqiy eslab qolishning turli usullaridan foydalanish shakllanadi. Aqliy ishlari xarakteri o'zgaradi. Aqliy faoliyat nisbatan faol, mustaqil va ijodiy xarakter oladi.

**Fikrlash faoliyati** - umumlashtirish va abstraksiyalashning oliy darajasiga ko'tariladi, hodisalarning sababi bog'lanishlari yo'nalishini oshiradi, unda ahvolni asoslash va isbotlash malakasi shakllanadi, fikrlashda tanqidiylik rivojlanadi. Fikrlash faoliyatining rivojlanishi nazariy tafakkurning shakllanishiga, tabiat va jamiyatning umumiyligini qonunlarini bilishga, falsafiy kategoriyalarni o'zlashtirishga bo'lgan qobiliyatning shakllanishiga omil bo'ladi.

O'smirlik yoshidagi psixik rivojlanishining asosiy xislatlaridan biri dunyoqarashning shakllanishidir, shuningdek, turli bilim sohalari va faoliyatning har xil turlarida ijodning rivojlanishi ham ajralib turadi.

O'smirlik davri hayotning xilma-xil jihatlariga bo'lgan hissiy va emotsiyon

munosabatlarning boyligi va rang-barangligi bilan ham xarakterlidir.

V.G.Krisko nazariyasiga ko'ra, o'smirlik davri psixik rivojlanishining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- *atrof-muhitga erkin, ongi munosabatda bo'lish;*
- *bosh miya faoliyatining emotsiunal - irodaviy doirasining murakkablashuvi;*
- *vogelikning abstrakt-logik tushunilishi;*
- *shaxs faoliyatini birin-ketin intellektuallashtirish;*
- *ijtimoiy va kasbiy muhitga moslashish.*

O'smirlik davri xususiyatlari tahlilida faoliyatga alohida ahmiyat beriladi.

**Faoliyat deb insonning ehtiyojlari va qiziqishlarini qondirishga qaratilgan xatti-harakatlari yig'indisiga aytildi.**

Psixologiya faoliyatning o'yin, o'rganish, mehnat turlarini qayd qiladi.

**O'yin** - shartli vaziyatlarda ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat turi.

**O'rganish** - bu mehnat faoliyatini bajarish uchun zatur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarini muntazam egallash jarayonidir.

**Mehnat** - insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiruvchi ijtimoiy foydali mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyatdir.

Sotsiologlar faoliyatning quyidagi asosiy guruhlarini ajratadilar: *ijtimoiy xarakter, maqsadga muvofiqlik, rejalilik, izchillik*.

O'smirlik davri faoliyatining **ijtimoiy xarakteri** shundaki, ular bu davrda jamiyat tarixiy rivojlanishi, ijtimoiy mehnat jarayonida erishilgan barcha bilimlarni o'zlarining sa'y-harakatlari bilan o'zlashtiradilar va takomillashtiradilar.

**Faoliyatning maqsadga muvofiqligi** esa o'zining asosiy maqsadi, ya'ni kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarini egallash uchun ongi va muntazam intilishni bildiradi.

**Faoliyatning rejaliligida** esa barcha sa'y-harakatlar shunday tizimga ega bo'ladiki, unda ular o'zaro bog'langan, ma'lum bir tartibda joylashgan, muvofiq ravishda reja asosiga qurilgan bo'ladi.

**Faoliyatning izchilligi** doimiy ravishda ma'lum bir vaqt jadvali asosida, kasbiy faoliyatga tayyorlashdan iboratdir.

Shaxs faoliyatida uning **yo'nalganligi** muhim o'ren egallaydi. Psixologlarning aniqlashlaricha, shaxsnинг yo'nalganligi, bu shunday psixik xislatki, unda ehtiyojlar, motivlar, dunyoqarash, yo'l-yo'riq, hayot va faoliyat maqsadlari ifodalananadi.

Shaxsnинг yo'nalganligi tuzilmasidagi talabalarning asosiy ehtiyojlarini bilimlar, kasbiy malaka va ko'nikmalarini egallash bilan xarakterlanadi.

O'smirlik davri **ehtiyojlar** doim o'sib borish xarakteriga ega. ular nafaqat o'quv faoliyatini, balki ma'naviy va moddiy hayotni qamrab oladi. Bundan

kelib chiqadigan ziddiyatlar talaba shaxsining harakatga keltiruvchi kuchlari bo'lib xizmat qiladi.

**Motivlar** - bu ichki kuchlar bo'lib, ehtiyojlar bilan bog'langan va u shaxsni belgili faoliyatga undaydi.

O'smirlik davrining yo'l-yo'rqliari u yoki bu faoliyat turini amalga oshirishning ichki shaylididan iboratdir.

**Maqsad** shaxs uchun ahamiyatlari bo'lgan predmetlar, hodisalar, vazifalar va obyektlarga yetishish bilan xarakterlanadi.

**Shaxsning dunyoqarashi** tabiat, jamiyat, insoniyatga bo'lgan e'tiqodlari, ilmiy qarashlari asosida yuzaga kelgan tizimdir. Dunyoqarash shaxsning botinini holati, hayot maqsadlari, qiziqishlari, munosabatlari, tutgan mavqelari bilan belgilanadi.

Demak, o'smirlik shaxsning shakllanishida muhim davr hisoblanadi.

O'smirlar va qizlar hayoti va faoliyatining yangi sharoiti, ularning faol o'quv ijtimoiy, mehnat faoliyatlari bo'lgan usi mutaxassis shaxsining shakllanishida o'z ta'sirini o'tkazadi. Nazariy bilimlarning oshib, muloqot doirasining kengayib, turmush tajribalarining boyib borishi esa dunyoqarashning shakllanishiga ta'sir etadi.

### 2.3. Talabaning aqliy faoliyat xususiyatlari

Pedagogika nazariyasida aqliy tarbiya shaxsni hayotga va mehnatga tayyorlashning muhim jihatni sifatida belgilanadi. Uning mohiyati shundaki, intellektual faoliyatga qiziqish uyg'otish, bilimlar bilan qurollanish, ularni qo'llga kiritish va amaliyotda qo'llash metodlari, aqliy mehnat madaniyatini joriy qilish orqali aql va bilish qobiliyatlariga rahbarlik qilishdir.

Pedagogika va psixologiyaga oid tadqiqotlarda aqliy tarbiya muammosini tushunish bo'yicha ikki muhim konsepsiya mayjud.

**Ulardan biri** o'qitish jarayonida kishilar tomonidan to'plangan va bir tizimga keltirilgan bilimlarni egallashdan iboratdir. Bu qarash Platon davridan boshlab aksariyat falsafa va pedagogika namoyandalari tomonidan rivojlantirilgan (Ya.A.Komenskiy, Dj. Lakk, I.F.Gerbert va b.) Bu konsepsiya namoyandalari aqliy tarbiyaning belgilashda insoniyatning ijtimoiy tajribasiga asoslandilar. Bu esa so'zsiz bu konsepsiyaning ijobiy jihatni edi. Lekin bu konsepsiya da ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari, so'rovlar, qiziqishlari hisobga olinmagan edi.

**Boshqa konsepsiya tarafdarları** (J.J.Russo va uning izdoshlari) bolaning aqli hammadan avval uning o'z tabiiy faoliyatida rivojlanadi degan qoidaga asoslanadilar. Ta'limi oluvchiga ishlash, harakat qilish, mustaqil bo'lishga to'la imkoniyat yaratilishi zarur. Bunda fan ikkinchi navbatga surib qo'yilgan. Bu konsepsiya ijobiy va salbiy jihatlarga ega.

Faol mustaqil faoliyat jarayonida aqliy tarbiya to'g'risidagi g'oya ijobiydir, biroq unga qolda sifatida qarashning o'zi yetarli emas. Fanda to'plangan

va insoniyatning tizimga tushirilgan tajribalarini inkor etib bo'lmaydi.

Pragmatika nazariysi tarafdarları tizimga tushirilgan bilimlarni o'zlashtirish konsepsiyasini qattiq tanqid ostiga oldilar. Dj.Dyui ta'kidlaydiki, muktabdag'i shaxs rivojlanishi, hayoti va tajribasi o'rgанилиши lozim bo'lgan va tizimli bilimlar doirasini belgilaydigan o'quv dasturlariga bo'ysundirilgan, zero ular o'lik, mexanik va formal manbalardir. U «maktab fanlari»ning an'anaviyligidan voz kechishni taklif qiladi va o'qitishga «sun"iy jarayon» ning kiritilishini talab qiladi.

Aqliy tarbiyanı rivojlantirish jarayonida, bu konsepsiyanı boyitishga harakat qilingan. K.D.Ushinskiy aqlini ham formal, ham real rivojlantirish mumkin deb hisoblaydi.

Demak, turilcha yondoshuvlar, aqliy rivojlanishga bo'lgan amaldagi munosabatlari bilan zinch aloqada, deb qarashga imkoniyat beradi.

Shaxsning amaldagi munosabatlari deganda uning tabiat, jamiyat va jamoa, san'atga bo'lgan munosabati tushuniladi. Bu munosabatlarda insoniyatning ko'p asrlik tajribasida to'plangan va tizimga tushirilgan ilm-fanni egallash katta ahamiyatga molikdir.

Bunda faqat bilimlarni egallashga erishishgina emas, balki ularning mohiyatiga chuqur kirib borish, ularni egallash hamda qo'llash metodlarini o'rganish, bilimlarni e'tiqodga, fikrlash va faoliyat quroliga aylantirish ham zarur.

**Aqliy rivojlanish bilimlarni o'zlashtirishning faqat hajmi va sifati** emas, **balki fikrlash jarayoni tuzilmasi, mantiqiy ish yuritish va aqliy harakatlarning boyligi hamda uni to'g'ri qo'llash bilan ham belgilanadi.**

Aqliy tarbiyaning umumiy sharti keng qamrovli faoliyatdir. Faoliyatning xarakteri ham muhim ahamiyatga molik. O'zi asoslanadigan ilmiy asoslarning kengayishi jarayonida aqliy rivojlanish intensivlashadi. Bunga faoliyatsiz holat va maqsadsiz vaqt o'tkazish zid turadi. U intellektual ojizlikni, qoloqlikni vuzaga keltiradi.

Aqliy rivojlanishning asosiy jarayonlari L.S.Vigodskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, N.A.Menchinskaya, L.V.Zankov, M.A.Danilov, B.P.Esinov, M.N.Skatkin tadqiqotlarda yoritib berilgan. Ularda **aqliy rivojlanish o'rganish, mehnat, o'yin, hayotiy vaziyatlarda takomillashib boruvchi to'xtovsiz jarayon ekanligi** ta'kidlanadi.

**Aqliy rivojlanish bilimlarni faol o'zlashtirish va ijodiy qo'llash jarayonida juda intensiv yuz beradi.**

Aqliy rivojlanishining xarakterli xislatlari quyidagilarni kiritish mumkin:

- *atrof-muhiitga faol munosabada bo'lish;*
- *o'ziga ma'lum bo'lganlar chegarasidan chiqishga intilishi;*
- *nazariy va amaly maqsadlarda bilimlarini oshirish va ularni ijodiy qo'llashning doimiy zaruriyat;*
- *kuzatuvchanlik, hodisalar va faktlarning eng mohiyatlari jihatlarini va aloqalarini ajrata olish qobiliyatini;*

479. 1106.

Elibi hujadiga ziddiyatlar talaba shaxsining harakatga keltiruvchi kuchlari bo'lib xizmat qiladi.

**Motivlar** - bu ichki kuchlar bo'lib, ehtiyojlar bilan bog'langan va u shaxsan belgili faoliyatga undaydi.

O'smirlik davrining **yo'l-yo'rqliari** u yoki bu faoliyat turini amalga oshurishning ichki shayligidan iboratdir.

**Maqsad** shaxs uchun ahamiyatli bo'lgan predmetlar, hodisalar, vazifalar va obyektlarga yetishish bilan xarakterlanadi.

**Shaxsning dunyoqarashi** tabiat, jamiyat, insoniyatga bo'lgan e'tiqodlari, ilmiy qarashlari asosida yuzaga kelgan tizimdir. Dunyoqarash shaxsning botiniy holati, hayot maqsadlari, qiziqishlari, munosabatlari, tutgan mavqe'lari bilan belgilanadi.

Demak, o'smirlik shaxsning shakllanishida muhim davr hisoblanadi.

O'smirlar va qizlar hayoti va faoliyatining yangi sharoiti, ularning faol o'quv ijtimoiy, mehnat faoliyatlari bo'lg'usi mutaxassis shaxsining shakllanishida o'z ta'sirini o'tkazadi. Nazariy bilimlarning oshib, muloqot doirasining kengayib, turmush tajribalarining boyib borishi esa dunyoqarashning shakllanishiga ta'sir etadi.

### 2.3. Talabaning aqliy faoliyat xususiyatlari

**Pedagogika nazariyasida aqliy tarbiya shaxsni hayotga va mehnatga tayyorlashning muhim jihatni sifatida belgilanadi. Uning mohiyati shundaki, intellektual faoliyatga qiziqish uyg'otish, bilimlar bilan qorollanish, ularni qo'lga kiritish va amaliyotda qo'llash metodlari, aqliy mehnat madaniyatini joriy qilish orqali aql va bilish qobiliyatlariga rahbarlik qilishdir.**

Pedagogika va psixologiyaga oid tadqiqotlarda aqliy tarbiya muammosini tushunish bo'yicha ikki muhim konsepsiya mavjud.

**Ulardan biri** o'qitish jarayonida kishilar tomonidan to'plangan va bir tizimga keltirilgan bilimlarni egallashdan iboratdir. Bu qarash Platon davridan boshlab aksariyat falsafa va pedagogika namoyandalari tomonidan rivojlantirilgan (Ya.A.Komenskiy, Dj. Lakk, I.F.Gerbert va b.) Bu konsepsiya namoyandalari aqliy tarbiyaning belgilashda insoniyatning ijtimoiy tajribasiga asoslandilar. Bu esa so'zsiz, bu konsepsiyaning ijobiy jihatni edi. Lekin bu konsepsiya da ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari, so'rovlar, qiziqishlari hisobga olinmagan edi.

**Boshqa konsepsiya tarafdarlari** (J.J.Russo va uning izdoshlari) bolaning aqli hamidan avval uning o'z tabiiy faoliyatida rivojlanadi degan qoidaga asoslanadilar. Ta'lim oluvchiga ishlash, harakat qilish, mustaqil bo'lishga to'la imkoniyat yaratilishi zarur. Bunda fan ikkinchi navbatga surib qo'yilgan. Bu konsepsiya ijobiy va salbiy jihatfarga ega.

Faol mustaqil faoliyat jarayonida aqliy tarbiya to'g'risidagi g'oya ijobiyidir, biroq unga yagona qoida sifatida qarashning o'zi yetarli emas. Fanda to'plangan

va insoniyatning tizimga tushirilgan tajribalarini inkor etib bo'lmaydi.

Pragmatika nazariyasi tarafдорлari tizimga tushirilgan bilimlarni o'zlashtirish konsepsiysini qattiq tanqid ostiga oldilar. Dj.Dyui ta'kidlaydiki, maktabdag'i shaxs rivojlanishi, hayoti va tajribasi o'rganilishi lozim bo'lgan va tizimi bilinadilar doirasini belgilaydigan o'quv dasturlariga bo'ysundirilgan, zero inde o'lik, mexanik va formal manbalardir. U «maktab sanlari»ning in manaviyligidan voz kechishni taklif qiladi va o'qitishga «sun“iy jarayon» nomi kiritishini talab qiladi.

Aqliy tarbiyanı rivojlantirish jarayonida, bu konsepsiyanı boyitishga turakat qilungan. K.D.Ushinskiy aqlini ham formal, ham real rivojlantirish imkonim deb hisoblaydi.

Demak, turlicha yondoshuvlar, aqliy rivojlanishga bo'lgan amaldagi munosabatlari bilan zinch aloqada, deb qarashga imkoniyat beradi.

Shaxsning amaldagi munosabatlari deganda uning tabiat, jamiyat va jamoa, san'atga bo'lgan munosabati tushuniladi. Bu munosabatlarda insoniyatning ko'prosiflik tajribasida to'plangan va tizimga tushirilgan ilm-fanni egallash katta shartuyatga molikdir.

Bundi faqat bilimlarni egallashga erishishgina emas, balki ularning mohiyatiga choqir kimb borish, ularni egallash hamda qo'llash metodlarini o'rganish, boluntum e'tiqodga, fikrlash va faoliyat quroliga aylantirish ham zarur.

**Aqliy rivojlanish bilimlarni o'zlashtirishning faqat hajmi va sisati** ovays, balki fikrlash jarayoni tuzilmasi, mantiqiy ish yuritish va aqliy harakatlarning boyligi hamda uni to'g'ri qo'llash bilan ham belgilanadi.

Aqliy tarbiyaning umumiy sharti keng qamrovli faoliyatdir. Faoliyatning su'nateni ham muhim ahamiyatga molik. O'zi asoslanadigan ilmiy asoslarning tajribalari jarayonida aqliy rivojlanish intensivlashadi. Bunga faoliyatsiz holat, imdadaksiz vaqt o'tkazish zid turadi. U intellektual ojizlikni, qoloqlikni yaratishga keltiradi.

Aqliy rivojlanishning asosiy jarayonlari L.S.Vigodskiy, S.L.Rubinshteyn, V.N.Leontev, N.A.Menchinskaya, L.V.Zankov, M.A.Danilov, B.P.Esinov, M.N.Skatkin tadqiqotlarida yoritib berilgan. Ularда **aqliy rivojlanish o'rganish, mehnat, o'yin, hayotiy vaziyatlarda takomillashib boruvchi to'xtovsiz jarayon** ekranligi ta'kidlanadi.

**Aqliy rivojlanish bilimlarni faol o'zlashtirish va ijodiy qo'llash** jarayonida juda intensiv yuz beradi.

Aql rivojlanishining xarakterli xislatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- *astro-muhitga faol munosabata bo'lish;*
- *o'rjiga ma'lum bo'lganlar chegarasidan chiqishga intilishi;*
- *nazariy va amaliy maqsadlarda bilimlarini oshirish va ularni ijodiy*  
*oprashching doimiy zaruriyat;*
- *kuzatuvchanlik, hodisalar va faktlarning eng mohiyatli jihatlarini va*  
*shingalarini airata olish qobiliyat;*

47) 1.06.

- muammolarni ratsional hal qilish uchun zarur bo'lgan vazifalar va vositalar o'rtaqidagi aloqalarni ta'minlovchi harakatlar va izlanishlarning izchilligi;
- ishdagi aniqlik va natijalarni qo'lga kiritishdagi ishonchlilikni ta'minlovchi intizomililik;
- aqliy kenglik - bu aqliy faoliyat va xotira rivoji izchilligiga asoslangan hosila sifatdir;
- keng ilmiy axborotlarga asoslanish qobiliyati;
- keng ilmiy usq, texnik va kompyuter vositalaridan foydalanish malakasi;
- real voqelik jarayonlarini to'xtovsiz aks ettiruvchi tushunchalarini o'zlashtirish va foydalanishga moyillik;
- aqliy faoliyatning dinamikligi;
- mustaqililik va ijodiy xarakter.

Rivojlangan aqlning eng oliy shakli ijodiy tafakkurdir. U insonning bilish bosqichi va obyektiv voqelikni aks ettirish jarayonining oliy shaklidir. Ijodiy tafakkur faollikning va kishining mustaqil faoliyatining oliy shakli sifatida ijtimoiy ahamiyat va betakrorlik kasb etadi. *U ijodiy javob talab qilinadigan masalaning qo'yilishi; muammoni ko'ra olishi; oldindan qo'yilgan gipoteza va masalani yechish yo'llari va usullarini aniqlash uchun zarur bo'lgan bilimlarni safarbar qilish; maxsus kuzatuvalar va eksperimentlar natijasida tug'ilgan fikrlarni ifodalashni aks ettiradi.*

#### **Rivojlangan aql uchun, kuzatib borilgan faktlar negizida sharoitni sinchiklab tahlil qilish va mantiqiy asoslangan sintezdan iborat mantiqiy tafakkur xosdir.**

G.Selevkoning ta'kidlashicha, tafakkur atrof-muhitdagi obyektlar va hodisalar, ular orasidagi bog'lanishlar, hayotiy muhim vazifalarni yechish, noma'lumni axtarish, kelajakni ko'ra olishdagi insonning bilish jarayonlarini bildiradi. G. Selevko tomonidan tavsiya etilgan aqliy faoliyat tasnifi quydagilardan iborat:

- *fikrlash vositalari xarakteriga ko'ra: predmetli, harakatli, ko'rgazmali, obrazli, abstrakt, hissiy;*
- *mantiqiy sxema jarayoniga ko'ra: qiyos, tahlil, abstraksiyalash, umumlashtirish, sintez, tasnif, induksiya, deduksiya, inversiya, refleksiya, antisipatsiya, gipoteza, eksperiment va b.;*
- *natija shakliga ko'ra: yangi namuna yaratish, tushunchani aniqlash, hukm, xulosa chiqarish, teorema, qonuniyat, qonun, nazariya;*
- *mantiqiy fikrlash tipiga ko'ra: aqliy-hissiy va faxmiy-nazariy yoki, V.V.Davidov belgilashiga ko'ra, dialektik-mantiqiy.*

I.S.Yakimanskaya «o'quv ishlari usullari»ni ishlab chiqqan. Bu tushuncha o'tganish jarayonining samaradorligini belgilaydigan malaka jarayoniga oid

sohoni o'z ichiga oladi. Shundan kelib chiqqan holda ishlarning umum bilim usullarini farqlaydi:

- o'quv faoliyatini rejalashtirish malaka va ko'nikmasi;
  - o'quv faoliyatini tashkil etish malaka va ko'nikmasi;
  - axborotni idrok qilish malaka va ko'nikmasi;
  - fikrlash faoliyati malaka va ko'nikmasi;
  - o'quv faoliyati natijalarini baholash va anglash malaka va ko'nikmasi.
- Talabalarning fikrlash faoliyati jarayonida bosh natija bilim, malaka va ko'nikmalarning shakllanganligidir.

G.Selevko tavsiya etgan tasnidda **bilim** aks etish shakli, yoritilishni chegaralash, bilish sohasi va predmeti, psixologik va umumlashtirish darajasiga ko'ra ajralib turadi.

Aks etish chegarasiga ko'ra quyidagilar farqlanadi:

- *individual bilimlar* - voqelik bilan o'zaro aloqasi, uning shaxsiy tajribasi, mehnati va dunyonи bilishda yuzaga keladigan hissiy va aqliy timsollar va ularning o'zaro bog'lanishlari yig'indisi;

- *ijtimoiy bilimlar* - fan, texnika, moddiy va ma'naviy qadriyatlarda aks etgan atrof-muhit umumlashmalari hosilasi va bilish natijalari.

Aks etish shakliga ko'ra quyidagilar farqlanadi:

- *ishoraviy, verbal bilimlar yoki nazariy bilimlar;*
- *obrazli* - hissiy organlarda idrok qilingan va timsollarda tavsiya etilgan bilimlar;

- *moddiy* - mehnat, san'at predmetlarida mavjud bo'lgan bilimlar;

- *tadbiri* - insonlarning joriy faoliyatida qayd qilingan bilimlar.

Bilish sohasi va predmeti bo'yicha quyidagilar farqlanadi: *gumanitar va aniq matematik fanlar, salsafa, jonli va jonsiz tabiat, jamiyat, texnika, san'at.*

Psixologik darajasiga ko'ra quyidagilar farqlanadi: *tanish, tiklash, tushunish, qo'llash, avtomatik harakat qilish, munosabat va bilim - ehtiyoj.*

Umumlashtirish darajasiga ko'ra fakt - hodisalar, tushuncha-terminlar, aloqa-qonuniyatlar, gipoteza - nazariyalar, metodologik bilimlar, baholash bilimlari.

Bularning barchasi, amaliyotda sinalgan **bilimlar**, atrof-muhitni bilish natijalari, uning inson ongida haqiqiy aks etishidir, deyishga imkoniyat beradi.

**Malaka** - mavjud bilimlar asosida o'zgarib turuvchi yoki yangi sharoitda shaxsning muayyan faoliyatni samarali bajarishga qaratilgan qobiliyati sifatida belgilanadi.

**Ko'nikmalar** - avtomatik tarzda biror harakatni bajarish qobiliyati.

#### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

1. Shaxs rivojlanishining qanday umumiy qonuniyatları bor?

2. Shaxs rivojlanishini harakatga keltiruvchi qanaga kuchlar mavjud?
3. Shaxs rivojlanishining asosiy psixologik va pedagogik omillari.
4. Ijtimoiy guruh sifatida talabalikka balo bering.
5. Talabalar psixik rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari deganda nimani tushunasiz?
6. Talaba shaxsining yo‘naligani haqida so‘zlab bering.
7. Talabolarning aqliy faoliyat xususiyatlari qanday izohlanadi?

## ADABIYOTLAR

1. Азизхонжаева Н.Н. Педагогические технологии в подготовке учителя. Ташкент, 2000.
2. Алиеворов И.А. Дидактические основы активного обучения управлеченческим дисциплинам. – Ташкент: Фан, 1994.
3. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М., 1995.
4. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М., 1989.
5. Бордовский Г.А., Извочиков В.А. Новые технологии обучения: Фотопроцессы терминологии// Педагогика. – 1993.-№5.
6. Гальперин П.К. К теории программированного обучения. – М., 1967.
7. Кларин М.В. Инновации в мировой педагогике. – Рига, 1995.
8. Кларин М.В. Педагогическая технология. – М., 1989.
9. Кудрявцев П.О. Проблемное обучение. Истоки и сущность.: Знание, 1991.
10. Молнибог А.Г. Программированное обучение. – М., 1967.
11. Пидкасистый И.И. и др. Технология игры в обучении и развитии. – М.: РПА, 1996.
12. Самоунина Н.В. Организационно обучающие игры в образовании. – М.: Народное образование, 1996.
13. Селевко Г.К. и др. Дифференциация обучения. – Ярославль, 1995.
14. Селевко Г.К. Опыт разработки теории педагогики сотрудничества. Методические рекомендации. Ч. I, II. – Ярославль, 1988, 1989.
15. Селевко Г.К., Тихомирова Н.К. Педагогика сотрудничества о перестройке школы. – Ярославль, 1990.
16. Уит Ингэ. Индивидуализация и дифференциация обучения. - М.: Педагогика, 1990.
17. Шаталов В.Ф. Педагогическая проза. – М.: Педагогика, 1980.
18. Эльконин Д.В. Психология игры.- М., 1979.
19. Юдин В.В. Педагогическая технология. – Ярославль, 1997.

## III BOB OLIY MAKTAB O‘QITUVCHISINING INNOVATSION FAOLIYATI

Hozirgi davr ta’lim taraqqiyoti yangi yo‘nalish - innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. «Innovatsion pedagogika» termini va unga xos bo‘lgan tadqiqotlar G‘arbiy yevropa va AQShda 60-yillarda paydo bo‘ldi. Innovatsion faoliyat F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, V.A. Slastenin, A.I.Shcherbakov ishlardida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg‘or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazardan yoritilgan.

X.Barnet, Dj. Basset, D. Gamilton, N.Gross, R. Karlson, M. Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem ishlarda innovatsion jarayonlarni boshqarish, ta’limdagisi o‘zgarishlarni tashkil etish, innovatsiyaning «shayoti va faoliyat» uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar masalalari tahlil qilingan.

Yangilik kiritishning sotsial-psixologik aspekti amerikalik innovatik I.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifa(tip)lari tasnifini, uning yangilikka bo‘lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi.

Oliy maktab o‘qituvchisining innovatsion faoliyati, oliy maktab pedagogikasining bosh muammolaridan biridir.

Shu jihatdan ushbu bobda oliy maktab o‘qituvchisi innovatsion faoliyatining shakllanish konsepsiysi, innovatsiyaning ijtimoiy-madaniy va hayot-faoliyati aspektlari haqida bahs yuritiladi.

### 3.1. Innovatsion faoliyatining nazariy omillari

**Innovatsiya** (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir.

A.I. Prigojin **innovatsiya** deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg‘un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvoofiq o‘zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.

Tadqiqotchilar (A.I. Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy, A.G.Kruglikov, A.S.Axiezer, N.P.Stepanov va boshqalar) innovatsion jarayonlar tarkibiy qismalarini o‘rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: *yangilikning individual mikrosathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o‘zar o‘siri mikrosathi*.

Birinchi yondashuvda hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g‘oya yoritiladi.

Ikkinchi yondashuvda alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o‘zar o‘siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birining o‘rnini ikkinchisi egallashidir.

Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyiliqi konsepsiyasini farqlaydilar.

Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o‘lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoni sxemasi beriladi. 1)

quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Yangi g'oya tug'ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish bosqichi.
2. Kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.
3. Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.
4. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi.
5. Yangilikni yoyish, uni keng tadbiq etish bosqichi.
6. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.
7. Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi.

7. V.A.Slastenin yangilik kiritishni maqsadga muvosiq yo'naltirilgan yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi esa insonlarning ehtiyoji va irtilishlarini yangi vositalar bilan qondirish deb biladi.

Yangilik kiritishning tizimli konsepsiysi mualliflari (A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy) innovatsion jarayonlarning ikki muhim shaklini farqlaydilar.

**Birinchi shaklga** yangilik kiritish oddiy ishlab chiqish sifatida kiritiladi. Bu ilk bor mahsulot o'zlashtirgan tashkilotlarga taalluqlidir.

**Ikkinci shaklga** yangilikni keng ko'lamma ishlab chiqish taalluqlidir.

**Yangilik kiritish ham ichki mantiq, ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o'zaro ta'sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir.**

Pedagogik innovatsiyada «yangi» tushunchasi markaziy o'rinn tutadi. Shuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va sub'ektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi.

**Xususiy yangilik** V.A. Slastenining aniqlashicha, joriy zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko'zda tutadi.

Murakkab va progressiv yangilanishga otib keluvchi ma'lum unsurlarning yig'indisi **shartli yangilik** hisoblanadi.

**Mahalliy yangilik** konkret obyektda yangilikning foydalanishi bilan belyulmadi.

**Subyektiv yangilik** ma'lum obyekt uchun obyektning o'zi yangi bo'lishi bilan belyuluvadi.

Ilmiy xo'mishlarda **yangilik** va **innovatsiya** tushunchalari farqlanadi. **Yangilik - bu** vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar.

V.t.Zapovednikov yangi tushunchasiga ta'rif berib, pedagogikadagi yangi bu faqatma y'oya em em, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar,

texnologiyalardir. Lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmuu yoki dolinda olingan unsurlari bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoitda va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg'or boshlanmalarini o'zida idet ettiради.

R.N.Yusufbekova **pedagogik yangilikka**, o'qitish va tarbiya berishda avval ma'lum bo'Imagan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi inziriya va amaliyatga eltuvchi pedagogik voqelikning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni sifatida qaraydi.

Pedagogik innovatsiyada R.N.Yusufbekova *innovatsion jarayon o'rulmasining uch blokini farqlaydi:*

**Birinchi blok** - pedagogikadagi yangini ajratish bloki. Bunga pedagogikadagi yangi, pedagogik yangilikning tasnifi, yangini yaratish shart-sharoiti, yangilikning me'yordari, yangining uni o'zlashtirish va foydalanishga tayyorligi, in'ana va novatorlik, pedagogikadagi yangini yaratish bosqichlari kiradi.

**Ikkinci blok** - yangini idrok qilish, o'zlashtirish va baholash bloki: pedagogik hamjamiyatlar, yangini baholash va uni o'zlashtirish jarayonlarining raqib-barangligi, pedagogikadagi konservatorlik va novatorlik, innovatsiya mohit, pedagogik jamiyatlarning yangini idrok etish va baholashga tayyorligi.

**Uchinchi blok** - yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, ya'ni yangini tadbiq etish, foydalanish va keng joriy etish qonuniyatları va turlaridir. M.M.Potashnikning innovatsiya jarayonlari talqinlari kishi e'tiborini o'ziga torradi. U innovatsiya jarayonining quyidagi tuzilmasini beradi:

- *faoliyat tuzilmasi - motiv - maqsad - vazifa - mazmun - shakl - metodlar - metodika komponentlari yig'indisi;*
- *subyektiv tuzilma-innovatsion faoliyat subyektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa satlari;*
- *sathiy tuzilma-innovatsion faoliyat subyektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa satlari;*
- *mazmun tuzilmasi - o'quv-tarbiyaviy ishlar, boshqaruv (va b.)da yangilikning paydo bo'lishi, ishlab chiqilishi va o'zlashtirilishi;*
- *bosqichlilikka asoslangan hayot davriylik tuzilmasi - yangilikning paydo bo'lishi - ildam o'sish - yetulklik - o'zlashtirish - diffuziya (singib ketish, tarqalish) - boyish (to'yinish) - qolqollik - inqiroz - urudiasiya(aldanish) - zamonaviylashtirish;*
- *boshqaruv tuzilmasi - boshqaruv harakatlarining 4 ta turining o'zaro aloqasi: rejalantrish - tashkil etish - rahbarlik qilish - nazorat qilish;*
- *tashkiliy tuzilma - diagnostik, oldindan ko'ra bilish, sof tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi, tafbiq etuvchi.*

**Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iboratdir.**

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayoni kechishining 4 ta fasiy qonuniyati farqlanadi:

• pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bemaromlik qonuni;

• nihoyat amalga oshish qonuni;

• qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni;

• pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonuni;

Ayovsiz bemaromlik qonunida pedagogik jarayon va hodisalar to‘g‘risidagi yaxlit tasavvurlar buziladi, pedagogik ong bo‘linadi, pedagogik yangilik baholanadi va u yangilikning ahamiyati va qimmatini keng yoyadi.

Nihoyat amalga oshish qonuni yangilikning hayotiyligi bo‘lib, u erta yo kech, stixiyali yoki ongli ravishda amalga oshadi.

**Qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni** shundan iboratki, unda pedagogik innovatsiya fikrashni bir qolipga tushirish va amaliy harakatga o‘tish tendensiyasiga ega bo‘ladi. Bunday holatda pedagogik qolip (stereotip) qolqolikka, boshqa yangiliklarning amalga oshish yo‘liga to‘siq bo‘lishga majbur bo‘ladi.

**Pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonunining mohiyati** shundaki, unda yangilik yangi sharoitlarda qayta tiklanadi.

Pedagogik innovatsiya tadqiqotchilarini innovatsiya jarayonining ikki tipini farqlaydilar:

**Innovatsiyaning birinchi tipi** stixiyali o‘tadi, ya’ni innovatsion jarayonda unga bo‘lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, uni amalga oshirishning barcha shart sharoitlari tizimi, usullari va yo‘llariga ongli munosabat bo‘lmaydi.

**Innovatsiyaning ikkinchi tipi** ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsulidir.

Oliy maktabdagagi innovatsion jarayonlar V.A.Slastenin, M.M. Levina, M.Ya.Vilenskiy va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Oliy maktab innovatsion jarayonlari negizida quyidagi yondashuvlarni belgilash mumkin:

- madaniyatshunoslik jihatidan (insonni bilishning ustuvor rivojlanishi) yondashuv;

- shaxsiy faoliyat jihatidan (ta‘limdagi yangi texnologiyalar) yondashuv;

- ko‘p subyektlari (dialogik) yondashuv, ya’ni kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish;

- individual - ijodiy (o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro munosabatlari asosida) yondashuv.

Oliy maktabda innovatsion faoliyatning subyekti o‘qituvchi va uning shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga molik bo‘ladi.

S.M.Godninning ishlarida *talabaning shaxsiy xislatlari pedagogik jarayonning subyekti sifatida yoriladi*. Unga quyidagilarni kiritadi: o‘qitishning hozirgi va kelgusi bosqichlari uchun qabul qilingan o‘quv - tarbiya jarayonining maqsadi, vazifasi va ko‘rsatmalarini anglay bilish; intellektual mehnatning

yangi tadbirlarini egallash; maqsadga muvofiq kasbiy o‘z-o‘zini tarbiyalash va mustaqil tahsil olish, qiyinchiliklarni a’lo darajada yenga bilish, o’sish va mustahkam o‘rin egallashning kengayayotgan intellektual va kasbiy imkoniyatlari, istiqbollari bilan qoniqish, o‘zining sotsial roli funksiyasini bajarishida faol munosabatda bo‘lish va hokazo.

Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlari *shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishi va o‘zini- o‘zi safarbar qila olishi hisoblanadi*. Uning eng muhim yo‘nalishlaridan biri **talabalarning bilish faoliyatini rivojlanтирish**.

Bunday yo‘nalish talabalarning o‘quv ishlarini faollashtirish, ularning turibi xitsoslashishini aniqlab olish faoliygini o‘z ichiga oladi.

**Tayanch yo‘nalishlar** - ta‘lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi, ularning o‘zaro aloqalarida yangi tamoyillarga o‘tish.

Shunday qilib, innovatsion faoliyat omillari nazariyasi tahlili uning eng muhim yo‘nalishi **gumanistik aksiologiya** ekan, degan xulosaga olib keladi.

Innovatsion faoliyatga aksiologik yondashuv insonning o‘zini yangilik yaratish jarayoniga baxshida qilishi, uning tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlar jamul-jamini anglatadi.

**Aksiologiya insonga oliy qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning birdan-bir maqsadi sifatida qaraydi.**

### 3.2. O‘qituvchining innovatsion faoliyatni tuzilmasi

O‘qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi.

V.A.Slastenin o‘qituvchining innovatsion faoliyatini tuzishda unga akmeologik jihatdan yondashadi.

Akmeologiya (akme) - yunoncha oliy nuqta, o‘tkir, gullagan, yetuk, eng yaxshi davr degan ma’nolarni bildiradi.

B.G. Ananev, N.V.Kuzmina, A.A.Derkach va boshqalar kasbiy faoliyatning samarasini oshirish bilan yo‘g‘rilgan inson hayotining eng radiy davrlari, yetuklik bosqichlari to‘g‘risida fikr yuritadilar. Ular yetuk insonlarning professionalizmi, shaxs rivojlanishining gullagan davridagi psixik imkoniyatlari, professionalizmga yetishdagi balandliklardan o‘ta olish masalalari turan shug‘ullanganlar.

V.A.Slastenin akmeologiyaning yuksak professionalizmga, mutaxassisning turq ijodiy umr ko‘rishiga olib keladigan subyektiv va obyektiv omillarini bildiradi. Obyektiv omillarga olingan ta‘limning sifatini, subyektiv omillarga esa insonning iste’dodi va qobiliyatini, ishlab chiqarish vazifalarini shaxsaro hal qila olishidagi ma’suliyatini, mutaxassislarga yondashuvini bildiradi.

Yuksak professionalizmga erishishning omillari sifatida quyidagilar matiladi:

- iste'dod nishonalar;
- uquvlilik;
- qobiliyat;
- iste'dod;
- oila tarbiyasi sharoiti;
- o'quv yurti;
- o'z xatti-harakati.

Akmeologiya ilmiy nuqtai nazardan professionalizm va ijod munosabatida olib qaraladi. Bunda quyidagi kategoriyalar farqlanadi:

- ijodiy individuallik;
- o'zining o'sish va takomillashish jarayoni;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajribasi.

O'qituvchining ijodiy individualligi quyidagilardan iborat:

- intellektual - ijodiy tashabbus;
- bilimlar kengligi va chuqurligi intellektual qobiliyati;
- ziddiyatlarga nisbatan xushyorlik, ijodga tanqidiy yondashuv, vujudan yaratuvchilikka kurashchanlik qobiliyati;
- axborotlarga tashnalik, muammolardagi g'ayri odatiylikka va yangilikka bo'lgan his-tuyg'u, professionalizm, bilishga bo'lgan chanqoqlik (N.V. Vishneкова).

**V.A.Slastenin ijodiy individualizmni ro'yobga chiqarishning asosiy vazifalarini quyidagicha belgilaydi:**

- ijtimoiy mohiyat kasb etgan madaniyatni boyitish;
- pedagogik jarayon va shaxs bilimlarini yangilab turish;
- samarali va ahamiyatli meyorlarni belgilaydigan yangi texnologiyalarni topish;
- shaxsning o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini o'zi namoyon qila olishi asosida o'z rivojlanishini ta'minlash;

**Shu tariqa o'qituvchining ijodiy individualligini shakllantirish shaxs rivojlanishi va yangilanishining dinamik innovatsion jarayoni sifatida tushuniladi.**

Ijodiy individuallikni xarakterlaydigan samarali o'z-o'zini anglash quyidagilarni qamrab oladi: o'zini boshqalarga qiyos qilish asosida o'z shaxsining betakror ekanligini anglay olishi; o'zi to'g'risidagi kreativ ko'rinishlar va tasavvurlari to'plami; individual kreativ o'ziga xosliklarning bir butunligi va uyg'unligi, ichki birligi; shaxsning o'z rivojlanishidagi dinamiklik va doimiylik jarayoni va uning ijodkor sifatida shakllanishi; shaxs o'zini namoyon qila olishi va o'zining muayyan ishlarni amalga oshirishga hozir turganligi; ijodkor sifatida o'zini baxshida qila olishi va shaxsiy hamda ijtimoiy vaziyatlarda o'zining o'rnini anglay olishi (V.A.Slastenin).

Innovatsion faoliyat tuzilmasi tahlilida akmeologik yondashuv

o'qituvchining kasbiy mahorati cho'qqilariga erishuvida uning shaxsi rivojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beradi.

O'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim tavsifi kreativlikdir.

**Kreativlik** termini angliya-amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi.

1) individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatalini bildiradi.

J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- fikrning ravonligi;
- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi;
- o'ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish, fantastlik (fantaziya).

**M.N.Gnatko kreativlikni kishining ijodiy imkoniyati, sotsial – ijodiy faoliytkni namoyon qila olish qobiliyati bilan shartlangan kishi individularining qandaydir maxsus xislati deb qaraydi.**

Ijod tushunchasini belgilashda u jarayon – natija tavsifidan, kreativlikni belgilashda esa subyekt – shartlik tavsifidan foydalananadi.

Ijod mezonlari, uning psixologik mexanizmlari, ijodiy tafakkurning rivojlanish texnikasi V.A.Kan-Kalik, Ya.A.Ponomarev, S.Yu.Stepanov, T.V.Frolov va boshqalarning ishlarida tadqiq etilgan.

D.B. Bogoyavlenskaya ishlarida ijod tahtili birliklari belgilab berilgan. Bunday birlik sifatida muallif intellektual faoliytkni ko'rsatadi hamda uning uchta bosqichini ajratadi:

• rag'batlantirishning samarali yoki sustkashlik bosqichi. Shaxsning bu bosqichiga, unga tashqaridan berilgan vazifalarini tashabbussiz qabul qilish varakterlidir;

• intellektual faoliytkning evristik bosqichi. Bu bosqichda o'z faoliyati tarkibi va tuzilmasini tahlil qilish davom etadi, yangilik ochish, ogilona hal qilishga imkoniyat beradigan ayrim vazifalar qiyoslanadi;

• intellektual faoliytkning kreativ bosqichi. Bu bosqichda qo'lga kiritilgan empirik qonunlar kelgusi tadqiqotlar uchun maqsad bo'lib goladi.

Rag'batlantiruvchi, samarali va evristik bosqichga qoloq (ekstensiv) aqliy faoliyat, kreativ bosqichga intellektual faoliyat xosdir.

N.M. Gnatko kreativlik mexanizmlarini quyidagi bo'limlarga bo'lib o'rganishni taklif etadi:

- potensial kreativlik;
- faoliyatdagagi kreativlik.

**Potensial kreativlik** N.M. Gnatkoning fikricha, muayyan tashqi sharoitlarda faol kreativlikka aylanishga nazariy tayyor shaklda namoyon bo'ladigan individuumning potensial joylashishini anglatuvchi kreativ

faoliyatdir. Potensial kreativlik ijodning zaruriy subyektiv shartidir.

Faoliyatdagি kreativlik - faoliyatning biror turida ijodiy faollik ko'rsatuvchining bevosita tayyorgarligini ta'minlaydigan faoliyatning u yoki bu turi tavsifli potensial kreativ individualumning individual tavsiflari aloqalarini yuzaga keltiradi. Faol kreativlik ijodning eng muhim subyektiv shartidir (N.M.Gnatko).

Tadqiqotlar ko'rsatadiki, potensial kreativlik, amalga oshirish mumkin bo'lgan kreativlikdir. Uni faoliyatdagи kreativlikka o'tkazish muayyan faoliyat turini tashuvchi (subyekt) tomonidan uning o'zlashtirilishida tub o'zgartirishlar qilish orqali amalga oshadi.

V.A. Slastenin, N.M.Gnatkonining potensial kreativlikni muntazam faoliyatdagи kreativlikka taqlid qilish asosida o'zgartirib borish haqidagi qarashlariga qo'shilgan holda uni to'ldirib, kreativlik taqlid qilish, nusxa olish yo'li bilan rivojlanadi hamda taqlid qilish asosidagi ijod, haqiqiy ijodga olib keladi, deb hisoblaydilar.

O'qituvchi faoliyatidagi kreativlikning bir necha bosqichlarini belgilash mumkin:

**Birinchi bosqichda** tayyor metodik tavsyanomalar tuzukkina ko'chiriladi; **ikkinchi bosqichda** mavjud tizimga ayrim moslamalar (modifikatsiyalar), metodik usullar kiritiladi; **uchinchi bosqichda** g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari, shakli to'la ishlab chiqiladi; **to'rtinchi bosqichda** esa o'qitish va tarbiyalashning o'z betakror konsepsiysi va metodikasi yaratiladi.

O'qituvchining innovatsiya faoliyati tuzilmasidagi eng muhim komponent bu refleksiyadir.

Refleksiya o'qituvchining o'z ongi va faoliyatini belgilash va tahlil qila olish deb qaratadi (o'z fikri va harakatlariiga tashqaridan nazar. V.A.Slastenin).

Pedagogikaga oid adabiyotlarda reflektiv jarayonlarni izohlashning ikki an'anasi mayjudligi aytildi:

- obyektlar mohiyatini izohlashga va ularni konstruksiyalashga olib keladigan ongning reflektiv tahlili;
- shaxslararo mulogot ma'nosini tushunish refleksiysi;

Bu bilan bog'liq ravishda pedagog olimlar quyidagi reflektiv jarayonlarni farqilaydilar:

- o'z-o'zini va boshqalarni tushunish;
- o'z-o'ziga va boshqalarga baho berish;
- o'z-o'zini va boshqalarni izohli tahlil qilish.

Refleksiya (otincha Reflxio- ortga qaytish ) subyektning o'z (ichki) psixik tuyg'u va holatlarni bilish jarayoni sifatida qaratadi.

Falsafa va pedagogikaga oid adabiyotlarda refleksiya shaxsning o'z ongidagi o'zgarishlarni fikrash jarayoni, deb yoziladi.

Psixologik lug'atda shunday izoh beriladi: «Refleksiya - faqat sub'ektning

o'z-o'zini bilishi va tushunishi emas, balki boshqalar uning shaxsiy xislatlari, his qilish tuyg'usi va bilish (kognitiv) tasavvurlarini bilish hamda tushunishini aniqlab olishini ham anglatadi.

V.A.Lefevr ta'kidlagan ediki, inson o'zining xatti-harakatlariiga, fikrlariga nisbatan kuzatuvchi, tadqiq qiluvchi bo'lib qolmasligi, balki boshqa personajlar, ularning xatti-harakatlarini o'rganuvchi mavqeini egallashi ham kerak.

M.V.Klarin ijodiy tafakkur xususiyatlarini refleksiya bilan bog'laydi. Bunday o'zaro aloqalarda refleksiya o'zida xulosa chiqarish, umumlashtirish, analogiya, qiyoslash va baholash hamda muammolarni eslash, yenga olish va hal qilishlarni birlashtiradi.

V.A.Petrovskiy refleksiya faoliyati tahlilida uning ikki turini farqlaydi:

- retrospektiv;
- prospektiv.

V.A.Petrovskiyning aniqlashicha, retrospektiv refleksiya bu «sodir etilgan faoliyat tarixining retrospektiv tiklanish shaklidagi refleksiyasidir».

**Prospektiv refleksiya** - bu faoliyatning amalga oshishiga bo'lgan talabning bukm surish dinamikasi.

S.Yu. Stepanov, I.N. Semenov ishlarida intellektual va shaxsiy refleksiyalar farqlanadi. V.V.Davidov o'z tadqiqotlarida formal va mazmun refleksiyasini asoslab berdi. I.S.Ladenko analitik va sintetik refleksiyani farqlaydi.

Demak, o'qituvchining innovatsion faoliyati tuzilmasi motivasion, kreativ, texnologik va reflektiv komponentlardan iboratdir.

/ Innovatsion faoliyat tuzilmasi haqidagi muhim tizimli tasavvurlar, ularning vazifalarini asoslash, ularning shakllanganlik me'yorlari va sathlari ularni oliy maktab amaliyotiga tatbiq etishning zarur omili hisoblanadi. /

### 3.3. O'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish shartlari.

**Innovatsionlik** pedagogik jarayonni ifodalab, nafaqat uning didaktik qurilmasiga, balki o'qituvchining ijtimoiy mohiyatli natijalari va ruhiy qiyofasiga ham taalluqlidir.

**Innovatsionlik** ochiqlikni, boshqalar fikrining tan olinishini bildiradi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to'qnashuviga va o'zaro boyitilishi dinamikasida amalga oshishini ko'zda tutadi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga o'qituvchining tayinli mufoqoti, aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o'qituvchi o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv)ga ega bo'ladi.

O'qituvchi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkortigi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi kabi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Yangilik kiritishning muhim sharti *muloqotning yangi vaziyatini* tug'dirishdir.

**Muloqotning yangi vaziyati** - bu o'qituvchining o'z mustaqillik mavqeini, dunyoga, pedagogik fanga, o'ziga bo'lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir. O'qituvchi o'z nuqtai nazarlariga o'ralashib qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali ochilib, mukammallashib boradi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchining fikrlash usullari, aqliy madaniyati o'zgarib boradi, hissiy tuyg'ulari rivojlanadi.

Keyingi sharti - bu o'qituvchining *madaniyat va muloqotga shayligi*.

**O'qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o'zgartirishga, uning muammolari va usullarini yechishni aniqlashga qaratilgandir.**

**O'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot namunasining o'zgarishi, innovatsion faoliyat shartlaridan biridir.**

Yangi munosabatlar, an'analarda bo'lganidek, qistovlar, hukmga bo'ysunish kabi unsurlardan holi bo'lishi lozim. Ular tenglarning hamkorligi, o'zaro boshqarilishi, o'zaro yordam shaklida qurilgan bo'lishi darkor. Ular munosabatlaridagi eng muhim xususiyat bu o'qituvchi va talabaning ijoddagi hamkorligidir.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

- *kasbiy faoliyatning ongli tahlili;*
- *me'yirlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;*
- *kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;*
- *dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo'lish;*
- *o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatda mujassam qilish.*

Demak, o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida o'qituvchi innovatsiya faoliyatiga bo'lgan zaruriyat quyidagilar bilan o'lchanadi:

- *ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi, metodologiya va o'quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchining innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi;*
- *ta'lim mazmuninini insonparvarlashtrish, doimo o'qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;*
- *pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining munosabati xarakteri o'zgarishi.*

O'qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan me'yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yirlarga - yangilik, maqbullik (optimalnost), yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi

**Yangilik** pedagogik yangilik me'yori sifatida o'zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagog olimlar yangilikning qo'llanish mashhurligi darajasi va sohasiga ko'ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, subyektiv darajalarini farqlaydilar.

**Maqbullik me'yori** o'qituvchi va talabaning natijaga erishish uchun sarflangan kuch va vositalarini bildiradi.

**Natijalilik** o'qituvchi faoliyatidagi muayyan muhim ijobiy natijalarni bildiradi.

**Pedagogik yangilik** o'z mohiyatiga ko'ra ommaviy tajribalar mulki bo'lib qolishi lozim. Pedagogika yangilikni dastlab ayrim o'qituvchilarning faoliyatiga olib kiradi. Keyingi bosqichda - sinalgandan va obyektiv baho olgandan so'ng pedagogik yangilik ommaviy tatbiq etishga tavsija etiladi.

V.A.Slastenin o'tkazgan tadqiqotlar o'qituvchining innovatsion faoliyatga kusbiy tayyorgarligini aniqlash imkoniyatlarini beradi. Ular quyidagi tafsiflardan iborat:

- *mo'ljalangan yangilikni yalpi va uning alohida bosqichlari muvaffaqiyatini bashorat qilish;*
- *kelgusida qayta ishlash maqsadida yangilikning o'zidagi va uni tatbiq qilishdagi kamchiliklarni aniqlash;*
- *yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan qiyoslash, ularдан samaradorlarini tanlab olish, ularning eng ahamiyatli va pishiqlik darajasini aniqlash;*
- *yangilikni tatbiq etishning muvaffaqiyatlitlik darajasini tekshirish;*
- *yangilikni tatbiq etadigan tashkilotning innovatsiya qobiliyatiga baho berish.*

O'qituvchining innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalgalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berish kabilarni qamrab oladi.

Innovatsion faoliyatning samaradorligi pedagog shaxsiyati bilan belgilanadi.

V.A.Slastenin tadqiqotlarida o'qituvchining innovatsion faoliyatga bo'lgan qibiliyatlarning asosiy xislatlari belgilab berilgan. Unga quyidagi xislatlar tutiluqli:

- *shaxsning ijodiy-motivasion yo'nalganligi. Bu - qiziquvchanlik, ijodiy jo'npish; ijodiy yutuqlarga intilish; peshqadamlikka intilish; o'z kamolotiga malish va boshqalar;*
- *kreativlik. Bu - hayolot (fantastlik), faraz; qoliplardan holi bo'lish, savakkal qilish, tanqidiy fikrlash, baho bera olish qobiliyati, o'zicha misshohuda yurish, refleksiya;*
- *kashbiy faoliyatni baholash. Bu - ijodiy faoliyat metodologiyasini egallash qobiliyati; pedagogik tadqiqot metodlarini egallash qobiliyati; mualliflik va qayrivaqsi faoliyat texnologiyasini yaratish qobiliyati, ziddiyatni yodli*

*bartaraf qilish qobiliyati; ijodiy faoliyatda hamkorlik va o'zaro yordam berish qobiliyati va boshqalar;*

- o'qituvchining individual qobiliyati. Bu - ijodiy faoliyat surasi; shaxsning ijodiy faoliyatdagi ish qobiliyati; qatiyatilik, o'ziga ishonch; ma'suliyatilik, halollik, haqiqatgo'ylik, o'zini tuta bilish va boshqalar.

Innovatsion faoliyat tadqiqotlari o'qituvchining innovatsion faoliyatga hozirligi me'yorlarini belgilashga imkon berdi (V.A. Slastenin):

- innovatsion faoliyatga bo'lgan zaruriyatni anglash;
- ijodiy faoliyatga jalb qilinishiga shaylik;
- shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashadirish;
- ijodiy muvaffaqiyatsizliklarni yengishga shaylik;
- innovatsion faoliyatni ijro etish uchun texnologik shaylik darajasi;
- innovatsion faoliyatning kasbiy mustaqillikka ta'siri;
- kasbiy refleksiyaga bo'lgan qobiliyat.

Oliy maktabdagagi innovatsiya jarayonlari xarakteri kiritilgan yangiliklar xususiyatlari, o'qituvchilarining kasbiy imkoniyatlari, yangilik kiritish tashabbuskorlari va ishtirokchilarining innovatsion faoliyatları xususiyatlari bilan belgilanadi.

Innovatsion faoliyatda eng muhim masalalardan biri o'qituvchi shaxsidir. O'qituvchi-novator sermahsul ijodiy shaxs bo'lishi, kreativlikni, keng qamrovli qiziqish va mashg'ullikni, sevuvchi ichki dunyosi boy, pedagogik yangiliklarga o'ch bo'lishi lozim.

O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo'nalishda amalga oshirilishi lozim:

- yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish;
- yangicha harakat qila olishga o'rgarish.

Innovatsion faoliyatni tashkil etishda talabalarning o'quv-bilish faoliyati va uni boshqarish alohida ahamiyatga ega.

Innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish oliy muktab o'quv jarayonini zamонавиј pedagogika hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

#### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar**

1. Ta limda «innovatsion jarayonlar» termini nimani anglatadi?
2. Innovatsion faoliyatdagi akmeologik yondashuvga izoh bering.
3. Innovatsion faoliyatdagi «kreativlik» deganda siz nimani tushunasizo?
4. Innovatsion faoliyat tarkibidagi «refleksiya»ni tushuntirib bering.
5. Innovatsion faoliyatni shakllantirish shariflari izohlab bering.

#### **ADABIYOTLAR**

1. Н.В. Вишнякова. Креативная психопедагогика. - Минск, 1995.
2. С.М. Годник. О сущности профессионально-педагогической деятельности. Воронеж, 1992.
3. В.И. Загвязинский. Инновационные процессы в образовании и педагогическая наука. - Тюмень, 1990.
4. Инновационная обучение: стратегия и практика. - М., 1994.
5. Инновационные методы обучения в вузе. Сборник научных трудов. Мурманск, 1993.
6. Кан-Калик В.А., Никандров Н.Д. Педагогическое творчество. - М., 1990.
7. Кларин М.В. Инновационные модели учебного процесса в современной зарубежной педагогике - М., 1994.
8. Сластенин В.А., Кодымова Л.С. Педагогика: Инновационная деятельность. - М.: Магистр, 1997

## IV BOB

### PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING ILMYI-NAZARIY ASOSLARI

Ilmiy-texnik taraqqiyot nafaqat aksariyat ishlab chiqarish sohasiningina texnologiyalashtiramoqda, balki u madaniyat, ta'lim sohalariga ham kirib bormoqda. Bugungi kunda informatsion axborot tibbiyot, ta'lim va boshqa texnologiyalar to'g'risida fikr yuritish mumkin.

#### **Texnologizatsiyalash-bu obyektiv jarayon bo'lib, ta'lim evolyutsiyasining yangi vazifalarini sifatli hal qilish uchun tayyorlarlik davri**

( Tarixan texnologiya tushunchasi texnik taraqqiyot bilan bog'liq ravishda yuzaga kelgan va bu tushuncha san'at, hunar va fan haqidagi ta'limotga muvofiq keladi.

Texnologiya deganda, odatda ashyolarni qayta ishslash metodlari va ishlab chiqarish jarayoni hamda ularning ilmiy tavsiyalarining majmui tushuniladi. Siyosiy lug'at (M., 1989)da texnologiyaga shunday izoh beriladi: 1) ishlab chiqarish jarayonida ashyolar, materiallar, yarim tayyor ashyolarni *qayta ishslash, tayyorlash holati, xususiyati, shaklining o'zgarish metodlari yig'indisi*; 2) *ashyolar, materiallar va yarim xom ashyolarga muvofiq ishlab chiqarish qurollari orqali ta'sir o'tkazish usullari to'g'risidagi fan*.

«Qomusiy lug'at»da ham shunga yaqin izoh beriladi, lekin unda birmuncha kengroq yoritiladi: «*Fan sifatida texnologiyaning vazfasi har tomonlama samarali va tejamli ishlab chiqarish jarayonlarini aniqlash va amaliyotda undan foydalanish maqsadida fizika, kimyo, mexanika va boshqa qonuniyatlarini bajarish.*» (M., 1979)

Texnologiya grekcha so'z bo'lib, **texnos**- san'at, mahorat, **logos**- ta'limot degan ma'nolarni bildiradi.

**Pedagogik texnologiya pedagogning talabalarga ta'sir qilishni tashkil etish bo'yicha kasbiy ahamiyatga molik malakalar tizimini aniqlab beradi, pedagogik faoliyatning texnologikligini anglash usullarini taklif etadi.**

Hozirgi davr ta'lim texnologiyalari muammosi, pedagogik innovatsiya tajribalari ularni bir tizimga tushirish va aniqlashtirishni talab qildi. Oliy muktab oldida pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari, ularning tasnifi, mohiyatini ochib berish va o'quv jarayonining texnologikligi muammollarini ta'minlash masalasi turibdi.

#### **4.1. Pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari**

Pedagogikaga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi davrda

**pedagogik texnologiya** tushunchasi ta'lim amaliyoti va nazariyasi ilmidan nuustahkam o'rinn egalladi, lekin uni pedagogikaning mukammal lug'atlari (tezaurus)dagi o'rni hali noma'lumligicha qolib kelmoqda.

Pedagogik texnologiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi tarixida turli qarashlar mavjud bo'lgan: u texnik vositalar haqidagi ta'limot deb, hamda o'qitish jarayonini loyihalashtirilgan holda izchil va muntazam tashkil etish deb talqin qilingan. Hozir pedagogik texnologiyalarning bir qancha ta'riflari mavjud.

V.P. Bespalko pedagogik texnologiyani *amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi* sifatida belgilaydi. U pedagogik tizim texnologiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'ladi, deb hisoblaydi. Bunda asosiy diqqat o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratiladi, **didaktik vazifa va o'qitish texnologiyalari** tushunchasidan foydalilanadi. Shu tariqa V.P. Bespalko o'quv jarayonini loyihalash g'oyasini ilgari suradi. Afsuski, hozirigi qadar pedagogik **texnologiya va loyiha** tushunchalari haqida aniqlik yo'q.

Pedagogik texnologiya ta'lim jarayoniga jadallik bilan kirib borayotgan bo'lsa ham, uning maqomi noaniqligicha qolib ketmoqda. Tadqiqotchilarining ishlariada fan va amaliyot oralig'idan o'rinn egallamoqda.

N.F.Talizina har bir pedagog real pedagogik jarayonni tashkil etishdan oldin o'quv jarayoni haqida *texnologik darajada bilimlar tizimini bilib olgan bo'lishi shart* deb hisoblaydi. U fan va amaliyot oralig'ida tamoyillarni olg'a suruvchi, metodlar ishlab chiquvchi, ularni izchil qo'llash kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi alohida fan bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Ular siz pedagogik jarayon **texnologiya** real o'qitish jarayoni sifatida asoslanmay qoladi.

Ayrim mualliflar o'qitish texnologiyalariga fan va san'at oralig'idagi fan deb qaraydilar, boshqalari uni loyihalash bilan bog'laydilar.

Shunday qilib, bir yondashuvda o'qitish texnologiyalari o'qitishning barcha vositalarini qamrab olgan qandaydir jihozlash sifatida ham belgilanadi. Unda texnologiya o'quv jarayonini texniklashtirishni taqozo qiladi.

Boshqa yondashuvda texnologiyaga ta'lim amaliyotini yangi yoki zamonaivylashtirilgan bilimlar bilan ta'minlashning usuli sifatida qarashga imkoniyat beradi. Bunda texnologiyaga ta'limning ilmiy tamoyillari va amaliyotini tadbiq etish sifatida qaraladi.

Texnologiya tushunchasi 60-yillardagi Amerika va G'arbiy yevropada ta'limni isloh qilinishi bilan bog'liq ravishda kirib keldi. B.Blui, J. Koroll, P.Ya.Galperin, V.I.Davidov, N.A.Menchinskaya, Z.I.Kalmikova, L.I.Zankov texnologiyalari mashhur. O'qitishni tashkil qilishning texnologik yondashuvlari V.P.Bespalko, N.F.Talizina, L.M.Fridman, Yu.N.Kulyutkina, G.S.Suxobskoy, T.V.Kudryavsev, A.M. Matyushkin, M.I.Maxmutov kabi aksariyat psixolog va didaktikachilarga taalluqlidir.

Texnologik yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadi, aksariyat o'qitish texnologiyalari bo'sh texnologiyalanganligi bo'yicha qolib ketmoqda. Bir qator texnologiyalarda nazariy asoslar kuchaytirilgan bo'lib, amaliy tomoni u qadar oydinlashtirilmagan.

T.A.Ballo texnologiyaning bir tomonini, ya'ni o'qitishda topshiriqli yondashuvni yoritadi. Boshqalarida yo kompyuter orqali dasturlashtirilgan o'qitish yoki o'qitishning muammoli tuzilmasi ajralib turadi.

L.V. Zankov, T.Ya.Galperin, V.I.Davidov tadqiqotlarida bosqichli o'qitishning yaxlit texnologiyalari haqida fikr yuritildi.

1. Pedagogik texnologiyada hali ko'p aniqlanmagan masalalar bor. Bu muammoni tadqiq etish, o'qitish texnologiyasining tushunchasi va metodologik mohiyatini aniqlash bilan bog'liq.

**Pedagogik texnologiya o'ziga xos va potensial yaratiladigan pedagogik natijalarga erishish uchun, pedagogik tizimning barcha tashkiliy tomonlariga aloqador nazariy va amaliy (ta'lism doirasida) tadqiqotlar sohasi sifatida belgilanadi.**

Pedagogik texnologiya mohiyatini yoritish uchun pedagog-didaktikachilar tomonidan berilgan ta'riflarga to'xtalishni maqsadga muvofiq deb topamiz.

«**Pedagogik texnologiya** – psixologik va pedagogik o'gitlar yig'indisi bo'lib, shakllar, metodlar, usullar, o'qitish yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus to'plamidir. Ayni zamonda u pedagogik jarayonning tashkiliy-metodik omilini ham bildiradi» (B.Lixachev).

«**Pedagogik texnologiya** – o'quv jarayonini amalga oshirishning mazmuniy texnikasi» (V.P. Bespalko).

«**Pedagogik texnologiya** – rejlashtirilgan o'qitish natijalariga erishish jarayoni tavsifi» (I.P. Volkov).

«**Texnologiya** – ishlov berish, holatni o'zgartirish san'ati, mahorati, malakasi va metodlar yig'indisi» (V.M. Shepel).

«**Pedagogik texnologiya** – talaba va o'qituvchining ufarga zarur sharoit yaratish orqali o'quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha ular pedagogik faoliyatining har tomonlama o'ylangan modelidir.» (V.M. Manaxov).

«**Pedagogik texnologiya** – bu ta'lum shakllarini jadallashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birligidagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir» (YuNESKO).

«**Pedagogik texnologiya** – pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan shaxsiy imkoniyatlar, jihozlar va metodologik vositalarda amalda bo'lishning tizimli yig'indisi va tartibini bildiradi» (M.V. Klarin).

«**Pedagogik texnologiya** – o'zida turli mualliflar (mambalar)ning barcha

ta'riflari mazmunini qamrab olgan mazmuniy umumlashma hisoblanadi». ((I.K. Selevko).

Bu ta'riflар tahlilidan **pedagogik texnologiya natijani qo'lga kiritish uchun ta'lum doirasida zarur bo'lgan vositalar tizimini rejlashtirish va tatbiq etish degan xulosaga kelish mumkin.**

Ta'lum texnologiyasi deganda ta'larning belgilangan maqsadi va talabaning bilim darjasiga ko'ra o'quv faoliyatini boshqarishning nazariy loyihasi va pedagogik tizimning amalda bo'lishini ta'minlovchi zarur vositalar tizimi tushuniladi.

**O'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyasi** biror nazariya va maqsad asosida ishlab chiqiladi. Pedagogik tizimning amalda bo'lishi, uning moslanuvchanligi hamda talabaning shaxsiy xususiyatlari, ularning texnologik va individual me'yordari bilan bog'langan. Bunda ushbu texnologiyalarning moslashuvchanligi, ularning variativligi, talaba xatti-harakatlarining bosqichliligi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qitish texnologiyasi sathida o'quv jarayonining barcha komponentlari yoritiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiya asosida talabalarning intellektual va emotisional-motivatsion rivojlanishi, bilim va kasbiy malakalar shakllanishi, ta'lum jarayoniga qadriyat sifatida yondashish munosabatini ta'minlash, faoliykn oshirish, o'z-o'zini anglash va mustaqilligini shakllantirish yotadi.

Bu tadqiqotlarni tahlil qilgan holda ushbu ta'rifni berish mumkin:

**Pedagogik texnologiya ta'lum maqsadlariga erishish va shaxsning rivojlanishiga qaratilgan pedagogik faoliyatni muttasil ravishda rivojlantirish tizimi loyihasidir.**

Oliy ta'lumi isloh qilish, bu masalalarga ilmiy asoslangan nuqtai nazardan yondashishga majbur etadi. Har qanday loyihalash, o'qitishning ilmiy asoslangan vositalari bo'lgani holda, uning texnologikligi hisoblanmaydi.

**Loyihalash metodologik funksiya bajaradi.** U talabaning psixik rivojlanish qonuniyatları, o'quv jarayonining rivojlanish xususiyatlari va pedagogik boshqaruv usullarining tadqiqot vositasi sifatida maydonga chiqadi.

Oliy o'quv yurtida ta'lumi takomillashtirish maqsadida pedagogik muloqotning yangi shakllari, axborotlarning tarkibiy qismalarini qayta ishlab chiqish, o'quv faoliyatini boshqarishning yangi shakllari talab qilinadi.

Texnologik taraqqiyot, bugungi kunda ijtimoiy jarayonlarni kuzatib borishga qodir eng muhim komponentlardan biridir. Pedagogik ta'lum texnologiyasini yaxshilash jamiyat madaniy savyasini va uning iqtisodiy qurvatini

shakllantirish shartidir.

O'qitish texnologiyasi ta'limga faoliyatini ta'minlaydi, bilimlarni mehnat jarayonigatbatiq etishni ta'minlaydi, pedagogning ong'liligini qolipga tushiradi, uning jadal harakat qilishiga va hayot yo'liga ta'sir ko'rsatadi.

Kasbiy o'qitish texnologiyasi shaxsnı intizom, iroda va ixtisoslikka bo'lgan qiziqishni yuzaga keltiradi. Mutaxassisiga bo'lgan har tomonlama talabni qanoatlantirishga qaratilgan ta'limga texnologiyalari pedagog va talabaning hamkorligiga tezlikda moslangan psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirishga yo'naltiradi.

**Mutaxassislarni kasbiy tayyorlash texnologik tamoyili** bo'lajak kasbiga qaratilgan maqsadlar, mazmun funksiyalari, o'qitish metodlaridir. Shundan kelib chiqqan holda pedagogik texnologiyalar ishlab chiqiladi.

Pedagogik texnologiyalar ta'riflariga bo'lgan turli yondashuvlar shuni ko'rsatadi, haqiqatdan ham o'qitish texnologiyalari fan va ishlab chiqarish hamda o'quv-pedagogik jarayon oralig'idan o'rinn oladi. Bu kasbiy didaktik tayyorgarlik tizimidagi bilimlarning mustaqil sohasi bo'lib, u o'qitishning didaktika nazariyasi va amaliyoti bilan chambarchas bog'langan. U o'quv faoliyatini boshqarish jarayonini loyihalash va konstruksiyalash funksiyalarini o'zida qamrab oladi.

O'qitish texnologiyasi tarkibiga o'kuv jarayonini boshqarishning aniq usullari, boshqarish va o'qitishning ayni istiqbolli tadbirlari haqidagi ham nazariy, ham amaliy bilimlar kiritiladi. O'quv jarayonining borishi sharoitlari mos ravishda ularning izchilligi belgilanadi.

**O'qitish texnologiyasi, o'qitish nazariyasi, o'qitish texnikasi.** Ular o'quv faoliyatini boshqarish haqidagi pedagogik sohalardir. Ular umumlashtirilgan darajasiga ko'ra amalga oshiriladi.

**Pedagogik texnologiya** ta'limga istiqbolining jarayonlashtirilgan aspektidir.

**O'qitish texnologiyasini belgilash** – bu kasbiy faoliyat sohasidagi ta'limiylar va takomillashish samarasini ta'minlovchi o'quv jarayonini me'yoriy boshqarib turishdir.

Ilmiy adabiyottarda **pedagogik texnologiyaning uch aspekti** to'g'risida fikr yuritiladi: *ilmiy, tavsifiy, amaliy*.

**Ilmiy aspektida** o'qitishning maqsadi, mazmuni va metodlari ilmiy asoslanadi hamda pedagogik jarayon loyihalashtiriladi.

**Tavsifiy aspektida** rejalashtirilgan o'qitish natijalariga erishishning maqsadi, mazmuni, metodlari va vositalarining ishtiroti asosida algoritm jarayoni ishlab chiqiladi.

**Amaliy aspektida** pedagogik texnologiya jarayoni amalga oshiriladi.

Ta'limga amaliyotiga nisbatan pedagogik texnologiyaning uch sathi belgilanadi: *umumpedagogik, xususiy metodik, lokal (modul)*.

**Umumpedagogik texnologiya** yaxlit ta'limga jarayonini ifoda qiladi.

**Xususiy metodik texnologiya** bir fan doirasidagi o'quv -tarbiya jarayonini

amalga oshirish metodlari va vositalaridan iborat bo'ladi.

**Lokal (modul) texnologiya** o'quv tarbiya jarayonining maxsus bo'limlariga texnologiyani tatbiq qilishni ifoda qiladi. Bu texnologiya xususiy didaktik va tarbiyaviy vazifalarni hal qilishga qaratiladi.

Pedagogikada, o'qitish texnologiyalari bilan birga ta'limiylar texnologiyalar ham o'rinn olgan. Ta'limiylar texnologiyalar mazmun-axborot aspektini bildirsar, o'qitish texnologiyasi jarayonga aloqador deb hisoblanadi, ya'ni ular orasida bali ham aniq farqlar belgilanmagan.

Pedagogik texnologiya talabalarning tayyorgarlik darajasiga, ularning axborotlari bilan tanishganlik va amaliy tayyorgarligiga moslangan bo'lishi lozim.

Kasbiy ta'limga tizimida o'qitish texnologiyalari fundamental va amaliy bilimlarning o'zlashtirilishini, harakatlarning reflektivligini aks ettiradi va o'z kasbiy faoliyatini shakllantiradi.

Pedagogik texnologiya o'qituvchi va talaba faoliyati bilan belgilanadi. Faoliyatning bunday turlariga ko'ra pedagogik texnologiyaning tuzilmasi aniqlanadi.

**Pedagogik texnologiyaning tuzilmasi.** *U konseptual asos, ta'limga jarayoni mazmuni va texnologik jarayondan* iborat bo'ladi.

Har bir pedagogik texnologiya **muayyan ilmiy konsepsiya** asoslanadi.

Pedagogik texnologiyaning **ilmiy konsepsiyasini** ta'limga maqsadlariga erishishning falsafiy, psixologik, ijtimoiy-pedagogik va didaktik asoslashlarni qamrab oladi.

**Ta'limga jarayoni mazmuni** ta'limga jarayonining umumiylari va aniq maqsadlari, o'quv materiali mazmunidan iborat bo'ladi.

**Texnologik jarayon** o'quv jarayonini tashkil etish, o'qituvchi faoliyati, talaba faoliyati, o'quv jarayonini boshqarish usullari, o'quv jarayoni diagnostikasini qamrab oladi.

Tadqiqotchilar har qanday pedagogik texnologiyalarni qanoatlantiradigan mezonlarni belgilaydilar.

**Izchillik** pedagogik texnologiyaning mezonlari sisatida jarayonning mantiqiyligi, pedagogik texnologiyaning barcha qismalarining o'zaro bog'likligi, vuxlitligani o'z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiyaning mezonlaridan biri, uning **boshqaruvgasi** asoslanganligidir. U o'quv jarayoni diagnostikasi, uni rejalashtirish va amalga oshirishni loyihalash, undagi o'qitish metodlari va vositalari bilan o'zgartirib turishdan iborat bo'ladi.

Pedagogik texnologiyaning **samaradorlik** mezonini ta'limga jarayonining konkret sharoitlarida olinadigan yuksak natijalarni ko'zda tutadi.

**Qayta tiklash** pedagogik texnologiyalar mezonlaridan biridir. Unda pedagogik texnologiyalarni boshqa o'quv yurtlarida qo'llash imkoniyati tushuniladi.

Shunday qilib, oliy maktabda mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi murakkab va doimiy harakatdagi tizimni tashkil etadi. Bu tizimda bo‘lg‘usi o‘qituvchining texnologik tayyorgarligi alohida o‘rin tutadi. U bo‘lg‘usi pedagogning intellektual rivojlanishi, faol o‘qishi, ijodiy shaxsning rivojlanishi, tafakkurning kasbiy yo‘nalganligini idrok qilish, o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etishda tadqiqiy (ilmiy) tamoyillarni amalga oshirish bilan bog‘langan.

Bo‘lg‘usi pedagogning texnologik tayyorgarligi, oliy o‘quv yurtida pedagogik texnologiyalarni amalga oshirishni talab qiladi. Oliy o‘quv yurti ta‘lim jarayonida foydalilanidigan va keng tarqalgan pedagogik texnologiyalar: muammoli o‘qitish, o‘qitishning tabaqalashtirilgan va individual texnologiyasi, programmalashtirilgan o‘qitish texnologiyasi, kompyuter axborot texnologiyasi, mualliflik texnologiyasidir.

#### 4.2. Muammoli o‘qitish texnologiyasi

##### , Muammoli o‘qitish bu takomillashgan o‘qitish texnologiyasidir

Hozirgi oliy maktabdagi samarador o‘qitish texnologiyasi — bu muammoli o‘qitishdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o‘qitish ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi.

Muammoli o‘qitish jarayonida talabaning mustaqilligi o‘qitishning reproduktiv shakllariga nisbatan tobora o‘sib boradi.

Hozirgi pedagogikaga oid adabiyotlarda muammoli o‘qitishning turli ta’rif va tavsiflari bor. Bizningcha, nisbatan to‘liq va aniq ta’rif M.I. Maxmutova tomonidan berilgan bo‘lib, unda muammoli o‘qitish mantiqiy fikrlar tadbirdi (tahlil, umumlashtirish) hisobga olingan o‘rgatish va dars berish usullarini qo‘llash qoidalari va talabalarning tadqiqot faoliyatlarini qonuniyatlarining (muammoli vaziyat, bilishga bo‘lgan qiziqish, talab v.s.k) tizimi sifatida izohlanadi.

Muammoli o‘qitishning mohiyatini, o‘qituvchi tomonidan talabalarning o‘quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o‘quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish bo‘yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o‘zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Ma’lumki, o‘qitishning har qanday asosida, inson faoliyatining muayyan qonuniyatlar, shaxs rivoji va ular negizida shakllangan pedagogik fanning tamoyillari va qoidalari yotadi. Insonning bilish faoliyati jarayoni mantiqiy bilish ziddiyatlarini hal qilishdagi obyektiv qonuniyatlar hamda didaktik tamoyil — muammolikka tayanadi.

O‘qitishning hozirgi jarayoni tahlili, psixolog va pedagoglarning fikrlash

muammoli vaziyat, kutilmagan xayrat va mahliyo bo‘lishdan boshlanadi, degan xulosalari haqiqatga yaqin ekanligini ko‘rsatadi. O‘qitish sharoitida muammolining o‘sha psixik, emotsiunal va hissiy holati unga fikrlash va aqliy o‘tlash uchun o‘ziga xos turki vazifasini bajaradi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o‘ziga xos o‘qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o‘yinligan mavzular xususiyatlardan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni vazifashuning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. Shunday qilib, o‘qitishda muammoli vaziyat shunchaki «fikr yo‘lidagi kutilmagan to‘siq» bilan bog‘langan aqliy mashaqqat holati emas. U bilish maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. **Bunday vaziyat negizida avval o‘zlashtirilgan bilim izlari va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi.** Bunda har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog‘liq bo‘la bermasligini ta‘kidlash o‘rinli bo‘ladi. Yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog‘lanmasa, aqliy mashaqqat muammoli bo‘lmaydi. Bunday mashaqqat aqliy izlanishni kafolatlamaydi. **Muammoli vaziyat** har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda talaba mashaqqat talab qilgan obyekt (tushuncha, fakt)ning unga avval va ayni vaqtida ma’lum bo‘lgan vazifa, masala bo‘yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab yetadi.

Shunday qilib, **muammoli vaziyatning** mohiyati shuki, u talaba tanish bo‘lgan ma’lumotlar va yangi faktlar, hodisalar (qaysiki, ularni tushunish va tushuntirish uchun avvalgi bilimlar kamlik qiladi) o‘rtasidagi ziddiyatdir. Bu ziddiyat bilimlarni ijodiy o‘zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuchdir.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar:

- *talabaga notanish faktning mayjud bo‘ishi;*
- *vazifalarni bajarish uchun talabaga beriladigan ko‘rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi.*

Muammoli vaziyatdan chiqa olish, hamma vaqt muammoni, ya’ni nima nomalum ekanligini, uning nutqiy ifodasi va yechimini anglash bilan bog‘langan bo‘ladi.

Muammoli vaziyatni fikriy tahlil qiladigan bo‘lsak, u avvalombor talabalarning mustaqil aqliy faoliyatidir. U talabani intellektual mashaqqat keltirib chiqargan sabablarni tushunishga, unga kirish, muammoni so‘z bilan ifodaish, ya’ni faol fikr yuritishni belgilashga olib keladi. Bu o‘rinda izchillik yorqin ko‘rinadi: avvalo muammoli vaziyat yuzaga keladi, so‘ng o‘quv muammo shakllanadi.

O‘qitish amaliyotida boshqa variant — o‘sha muammo tashqi ko‘rinishda muammoli vaziyat yuzaga kelishiga muvofiq kelganday bo‘ladigan variant ham uchraydi. Faktlar, hukmlar nazariy qoidalari ziddiyatlari mazmunidagi savollar ko‘rinishidagi muammoning ifodasi odatda «nimaga» savoliga javob bo‘ladigan muammoli vaziyatning mavjudligini aks ettiradi.

Muammo uch tarkibiy qismidan iborat: ma'lum (berilgan vazifa asosida), noma'lum (ularni topish yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladi) va avvalgi bilimlar (talabalar tajribasi). Utar noma'lumni topishga yo'nalgan qidiruv ishlarini amalga oshirish uchun zarurdir. Avvalo talabaga noma'lum bo'lgan o'quv muammosi vazifasi belgilanadi va bunda uning bajarilish usullari hamda natijasi ham noma'lum bo'ladi, shunda talabalar o'zlaridagi avval egallangan bilim va ko'nikmalarga asoslanib turib kutilgan natija yoki yechilish yo'lini izlashga tushadi.

Shunday qilib, talabalar biladigan vazifa va uni mustaqil hal kilinish usuli o'quv muammosi bo'la olmaydi, ikkinchidan, biror vazifaning yechilish usullarini va uni izlash vositalarini bilishmasa ham o'quv muammosi bo'la olmaydi.

#### O'quv muammosining muhim belgilari quyidagilar:

- yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladigan noma'lumning qo'yilishi;
- talabalarda noma'lumni topish yo'lida izlanishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan muayyan bilim zahirasining ho'lishi.

O'quv muammosini yechish jarayonida talabalar aqliy faoliyatining muhim bosqichi uning yechilish usulini o'ylab topish yoki gi potezaqo'yish hamda gi potezani asoslashdir.

**O'quv muammosi muammoli savollar bilan izchil rivojlantirib boriladi** va bunda har bir savol uning hal qilinishida bir bosqich bo'lib xizmat qiladi.

Muammoning tarkibiy qismlari, ma'lum va noma'lumning o'zar munosabati xarakteri bilimga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi va faol bilishga bo'lgan izlanishga undaydi.

Ta'kidlash joizki, **muammoli o'qitishning zaruriy sharti talabalarda haqiqatni va uning natijasini izlash jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabatni vujudga keltirish hisoblanadi.**

Talabalarning muammoli o'qitishdagi ijodiy va qidiruv bilish faoliyati muammoli vaziyat paydo qilinganda talabalar mashg'ulotda **muammoli ifodalab berishidan** iborat bo'ladi, ya'ni bilishdagi qiyinchiliklarning paydo bo'lishi mohiyatini (ya'ni ushbu damda unga nima ma'lumi bo'lsa) so'z bilan ifodalab beradi/so'ngra muammoning yechilish usullarini qidiradi va bunda turli tahminlarni olg'a suradi, talabalar haqiqiy deb topgan taxminlardan birini faraz sifatida asos qilib oladi va uni isbotlaydi. Izlanish muammo yoki vazifa bajarilgandan so'ng tugallanadi.

Shaxs bilish faoliyatining izlanish davrini maxsus sxemalarda ifodalash mumkin: **muammoli vaziyat – o'quv muammosi – o'quv muammosini yechish uchun izlanish – muammoning yechilishi.**

Muammoli o'qitish mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishning muhim tomoni shundaki, bunda o'qituvchi uning ham ta'limi, ham tarbiyaviy funksiyasini yaxshi anglab olgan bo'lishi talab qilinadi. O'qituvchi hech

qechon talabalarga tayyor haqiqatni (echimni) berishi kerak emas, balki uloga bilimlarni olishga turki berishi, mashg'ulotlarda va hayot faoliyatlarida surʼ bo'lgan axborot, voqe, vaqt va hodisalarini ongida qayta ishlashtirliga yordam berishi lozim bo'ladi.

Muammoli o'qitish bilimlarni ongli va mustahkam o'zlashtirish, atrofimliqda o'ziniging faol munosabatini belgilab olishda talabalar bilish faoliyatini shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega.

Muammoli o'qitishda o'qituvchi talabalarining bilish faoliyatini tashkil etadi, shundagina talabalar fanlarni tahlil qilish asosida mustaqil ravishda intellektual mashaqqatlarni hal qilish, xulosa chiqarish va umumlashtirish, qomuniyatlarni shakllantirish hamda qo'nga kiritilgan bilimlarni yangi vaziyatga ttabiq etishga intiladi.

**Ayrim hollarda o'qituvchi talabalarda nafaqat qiziqish uyg'otishi** kerak, balki o'quv muammosini o'zi hal qilib qo'ymasligi va boshqa hollarda talabalarining o'quv muammosini yechishdagi mustaqil ishlariga rahbarlik qilishi lozim, natijada talabalarda bilimlarga mustaqil erishish qobiliyati shakllanadi hamda gi poteza qo'yish va uni isbotlash orgali yangi aqliy harakat usullarini topadi hamda bilimlarni bir muammodan boshqasiga ko'chirish ko'nikmasini hosil qiladi, diqqat va tasavvurtari rivojlanadi. Talabalar muammoli o'qitish jarayonida muammoli vaziyatda o'quv materiallarini idrok qilish orgali bilim va aqliy harakat usullarini o'zlashtirir ekan, o'rganilganlarni mustaqil tahlil qilar ekan, gi potezalar qo'yish va ularni isbotlash orgali o'quv muammolarini shakllantirir va yechar ekan, bunda talabalarining intellektual faoliygi ta'minlanadi.

Shunday qilib, muammoli o'qitishning vazifasi, talabalar tomonidan bilimlar tizimi va aqliy hamda amaliy faoliyatları usullarini samarali o'zlashtirishga hamkorlik qilish, ularda yangi vaziyatda olingan bilimlarni ijodiy qo'llash malakasini hosil qilish, bilish mustaqilligi hamda o'quv va tarbiya muammolarini hal qilishdir.

O'quv jarayonining amaliy tahlili muammosi o'qitishning o'ziga xosligini belgilash imkoniyatini ochadi. Muammoli o'qitishning mohiyati, ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan axborotlarni o'qituvchining maxsus tashkil qilishidan iboratdir.

**Muammoli o'qitishni tashkil etishning birinchi sharti o'quv axborotlarining takomillashib borishi tizimidir.**

**Muammoli o'qitishning ikkinchi shartida** muammoli o'qitish amalga oshiriladi va unda axborotning o'quv vazifasiga o'tkazilishi vaqtida uni yechish usulini tanlash imkoniyati ko'zda tutiladi.

**Muammoli o'qitishning uchinchi sharti** ta'lim oluvchining subyektiv mavqe, ularning bilish maqsadlarini anglab yetishi va qaror qabul qilishi, masalani hal qilish va natijani qo'nga kiritish uchun o'zlarining ihmoyorida bo'lgan vositalarni baholay bilishidir.

Muammoli o'qitishga asoslangan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi unda qo'llanadigan metodlarni asoslab berishni talab qiladi. Bunda ijodiy, qisman-ijodiy yoki evristik, axborotlarni muammoli bayon qilish, axborotni muammoli boshlash orqali bayon qitish asosiy metodlari hisoblanadi.

**Ijodiy metod** ta'lif oluvchining ijodiy mustaqilligini to'la amalga oshiradi. Unda talaba o'qituvchining bergan vazifasini bajaradi, ayni vaqtida o'zini ham o'quv muammosini shakllantiradi, o'zi mustaqil gi potezani yechishiga harakat qiladi, izlanishni amalga oshiradi va provard natijaga erishadi. Shu tariqa ijod metodi qo'llash bilan talabalar faoliyati, olimlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yaqinlashadi. O'qituvchi faqat talabalarning ilmiy izlanishlariga umumiylah rabbarlik qiladi. Vazifalar esa ularning mustaqil o'quv bilish xatti-harakatlarining to'la davriyligini ko'zda tutadi: yo'nalishiga axborotlar yig'iladi yoki yechilishiga qadar o'quv muammosi qo'yiladi hamda yechimlar tekshirib ko'rildi va yangi bilimlar joriy qilinadi.

Ijodiy metoddan o'rganilayotgan kursning umumiy asoslarini qamrab olgan eng muhim mavzularni o'tishda foydalanish tavsiya etiladi. Bu esa boshqa barcha materiallarning tobora ongli o'zlashtirilishiga olib kelishi lozim. Shuningdek, bunday metodda mashg'ulot o'tkazish uchun o'qituvchi tanlangan bo'lim yoki mavzu talabalarning idrok qilishlariga qulay bo'lishini nazarda tutishi lozim bo'ladi.

Ijodiy metod ta'lif oluvchidagi uzoq vaqtini va maxsus sharoit yaratishini talab qiladi.

Talabalarning ijodiy ishlari shakliy jihatdan rang-barangdir; Ular ma'tuza matnini tayyorlash va seminarga tayyorgarlik ko'rish, u yoki bu masalalarning nazariy holatini (adabiyotlar bilan birma-bir ishslash, hujjalarni arxivda o'rganish) o'rganish, ko'rgazmali qurollar, didaktik materiallarni tayyorlantirishni boshqalardir.

Qisman ijodiy metod murakkab muammoni bo'laklarga ajratib, uning qulay masalalarini bosqichma-bosqich aniqlab olishda qo'llanadi va unda hal qilingan har bir bosqich (qadam) masalaning keyingi bosqichini yechishda asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda talabalar o'quv mummosining qo'yilishida, gi potezani taxmin qilish vaisbotlashda faol qatnashdilar. Ularning faoliyati reproduktiv va ijodiy unsurlarni o'zida qamrab oladi. Bunda o'qitishning qidiruv (izlanish) suhibati, talabalarning javoblari va to'ldirishlariga qo'shimcha qilgan holda o'qituvchining bayoni, faktlarni kuzatish va umumlashtirish usullari qo'llanadi. Bu hollarda talabalarning reproduktiv va qidiruv (izlanish) faoliyatining muvofiqligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ular biror bosqichdagi o'quv muammosining mustaqil hal qilinishidan to'ulardan aksariyati yechilgunga qadar kuchli o'zgarib turishi mumkin.

Mashg'ulotlarda ijodiy suhbatni qo'llash maqsadga muvofiq topiladi. Talabalar bunday suhbat jarayonida o'zlarida avvaldan mavjud bo'lgan

tutudan qo'diy mohiyati tajribasiga asoslangan holda o'qituvchi rahbarligida muonidomu rivo'ydi va mustaqil ravishda uning yechimini topadi. Talabalar nafaqahdan tur bilan savollarga javob beradilar yoki o'z chiqishlarida turli muotolari duniy bildiradilar, muammoning yechilishidagi o'z variantlarini ilo'viy o'zoldilar, hodisalar o'rtasidagi rang-barang aloqalarni qayd qiladilar, halibek holdan, hodisalarining fikriga tanqidiy munosabat bildiradilar. Bu tayyorlashda o'qituvchining talabalarga yordam berish darajasi, ularning muo'ribatini yaxshi tayyorgarlik ko'rish darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ijodiy metoddan tayyorlashda o'qituvchining unga o'ta ma'suliyat bilan qurib to'liq bilab qilinadi. O'qituvchi bunday suhbatga oldindan jiddiy tayyorlashda lozim: avvaldan shunday savollar o'ylab topishi kerakki, olib kelishuvni u yoki bu hodisaning mohiyatini o'ylashga majbur etsin. Ijodiy suhbat yo'naliishi va gi potezaning ehitimol ko'rilgan variantlari va uning o'sebiyligi yo'llarini bashorat qila olsin. O'qituvchi talabalarning umuman muonidomu yechish uchun yetarli darajada tayyorgarlik ko'rib kelmasligini temidiga shi tutishi va bunday vaqtida sodda va murakkablashtirib boruvchi qo'shimcha savollarni tayyorlab qo'yishi lozim. Bunday savollar orqali talabalar o'qodiy hal qilishi shart bo'lgan vazifalarni qismalgara ajratish ham qidiruvda o'qituvchi, ya'ni muammo kichik muammolarga bo'linadi va muammoli vazifani yechishda. O'qituvchi bunday vaziyatda vazminligini saqlashi, talabalarga tayyorlashda suhbatni berish, kamchiligini tuzatish va yanglish fikr bildirganlarga qaror qabul qilishga erishishi maqsadga muvofiqdir.

Ijodiy suhbat davomida kamroq tayyorgarlik ko'rgan, jonli fikr olib borish, shuningdek, indamaslikni xush ko'radian talabalarga alohida qidiruv, ut berish lozim. Bunday talabalarning hulqlarini ko'zda tutgan holda obudan ham esado chiqishiiga erishish maqsadida ular uchun ham avvaldan ijodiy suhbat qo'yish ma'qul bo'ladi.

Bunday xarakterdagи suhbat o'quv-tadqiqot ishlarining zaturiy bosqichi ta'sidida. Bunda talabalarning o'zida tadqiqot ishlari unsurlari mayjud bo'lgan paxta o'qodiy faoliyatning bajarilishini talab qiladigan muammoli xarakterdagи suhbat qo'yishda diqqatni jaib qiladi.

**Materialni muammoli bayon qilish.** Bunda ijod o'qituvchi tomonidan suhibati, rivo'ydi va tobora faollashtirib boriladi. O'qituvchi yangi materialni tayyor qilishda, uning yechilishini o'zi ta'minlaydi. Bunda o'qituvchi rivo'ydi suhibati ta'kidlaydi, uni barchaga eshitirib muhokama qiladi, o'z modeli materialni bildiradi, haqiqatni faktlar, mantiqiy isbotlar tizimi yordamida tayyorlaydi. O'qituvchi bu tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshira olsa, talabalar o'qodiy bilishiga diqqat bilan qo'shilib boradi, muammolarning o'qodiy oqimiga qo'shilib ketadi hamda birga fikr yuritadi. Birqa tayyorlashda suhibati, shu tariqa mashg'ulotning qatnashchisiga aylanadi. Bunda tayyorlashda talabalarning bilish jarayonini savollar berish, savolga savol berish

yo‘li bilan boshqaradi va shu orqali auditoriyadagi o‘nganilayotgan materialni bo‘yicha ziddiyatlarga diqqatni jalb qiladi va talabalarни o‘ylab fikr yuritish majbur qiladi. O‘qituvchi tushunilmagan savolni hal qilishidan oldin talabalar o‘zlaricha o‘z javoblarini tayyorlab qo‘yadilar va uni ma’lum muddat o‘tgach o‘qituvchining fikri va xulosasi bilan taqqoslaydilar.

Materialni muammoli bayon qilish axborotni bayon qilishdan tohuq qiladi. Chunki unda u yoki bu hodisaning belgilari, xossalari, tushunchalari, qoidalari shunchaki tasvirlab beriladi, tayyor xulosalar buyin qilinadi.

O‘quv axborotlarining muammoli bayoni metodidan foydalanishning boshqa varianti, fan taraqqiyoti tarixidagi u yoki bu qonunning olindan tomonidan kashf etilishi yo‘lini yoritib berish bo‘lishi ham mumkin.

O‘quv jarayonida keng tarqalgan metodlardan biri – **shartli ravish** o‘quv axborotlarining bayonini muammoli boshlash deb nomlanadigan metoddir. Materialni muammoli bayon qilish metodidan bu metod muammoli vaziyat faqat materialni bayon qilish boshidagina yaratilishi bilangina farqlanadi. Keyinchalik material axborot usulida bayon qilinadi. Albatta, bu metod yuqorida talabaning ijodiy izlanish faoliyati, ayniqsa, ijodiy metodida ko‘ringan ko‘nikmalarni hosil qilishga imkoniyat bermaydi. Lekin talabalarning mashg‘ulot ibtidosida olgan ilxomlari barcha materialni faol idrok qilishga, unga yuqori qiziqish uyg‘otishga bevosita turki berindi. Yuqoridagi barcha metodlar orasida bu metod o‘zining oddiyligi bilan ajralib turadi.

Muammoli vaziyatni tashkil qilishda quyidagi ehtimol ko‘ringan didaktik maqsadlarni hisobga olish zarur: o‘quv materialiga talabalar diqqatini juhb qilish, ularning bilishga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish, talabalarning bilish faoliyatini jondantirish, ularni intellektual zo‘riqish mashaqqatlariga olib kelish, talabalar tomonidan egallangan hozirgi bilim, malaka va ko‘nikmalar kelajakda yuzaga keladigan bilishga bo‘lgan talablarini qondira olmasligini ko‘rsata bilish hamda talabalarga o‘quv muammolarini tahlil qilishga, uning yechilishidagi eng ratsional yo‘llarni aniqlashda yordam berish kerak.

O‘quv jarayonidagi muammoli vaziyatning bir necha turlari farqlanadi:

1. Talabalar qo‘ylgan vazifaning yechilish usulini bilmaydilar, muammoli savolga javob berolmaydilar.
2. Talabalar avval olgan bilimlarini yangi sharoitda, holatda foydalanish zaruriyatiga dueh ketadilar.
3. Vazilaning nazariy jihatdan yechilishi mumkin bo‘lgan yo‘li va tanlangan usulning amaliy jihatdan qo‘llash qiyinligi orasida ziddiyat yuz beradi.
4. Vazifaning bajarilishiha natijaga amaliy erishish va talabalarda uni nazariy jihatdan asoslashga bilim yetishmasligi o‘rtasida ziddiyat yuz beradi.

Adabiyotlarda muammoli vaziyat yaratishning quyidagi ko‘p uchraydigan

#### **Shartli ravish**

1. Talabalar o‘nganilayotgan tushunchalar mohiyatini tushuntirish uchun amalni qo‘yish;

2. Shunchalarning amaliy tadbiqi usullarini topish uchun muammoli ravish;

3. Talabalarini hodisalar va faktlar orasidagi ziddiyatlar va

4. Tushunchalarini tushuntirib berishlariga undash;

5. Tushunchalarini tahlil qilishga undash;

6. Tushunchalarini tahlil qilishga undash;

7. Tushunchalarini qo‘vo tushunib bo‘lmaydigan xarakterdagi va fan tarixida amalni qo‘yish;

8. Muammoli vaziyatni vujudga keltirishning yuqorida keltirilgan usullari amalga oshirish uchun amalga oshirilgan bilish;

9. Muammoli vaziyatni vujudga keltirishning yuqorida keltirilgan usullari amalga oshirish uchun amalga oshirilgan bilish;

10. Muammoli vaziyatni vujudga keltirishning yuqorida keltirilgan usullari amalga oshirish uchun amalga oshirilgan bilish;

11. Muammoli vaziyatni vujudga keltirishning yuqorida keltirilgan usullari amalga oshirish uchun amalga oshirilgan bilish;

12. Muammoli vaziyatni vujudga keltirishning yuqorida keltirilgan usullari amalga oshirish uchun amalga oshirilgan bilish;

13. Muammoli vaziyatni vujudga keltirishning yuqorida keltirilgan usullari amalga oshirish uchun amalga oshirilgan bilish;

14. Muammoli vaziyatni vujudga keltirishning yuqorida keltirilgan usullari amalga oshirish uchun amalga oshirilgan bilish;

15. Muammoli vaziyatni vujudga keltirishning yuqorida keltirilgan usullari amalga oshirish uchun amalga oshirilgan bilish;

16. Muammoli vaziyatni vujudga keltirishning yuqorida keltirilgan usullari amalga oshirish uchun amalga oshirilgan bilish;

17. Muammoli vaziyatni vujudga keltirishning yuqorida keltirilgan usullari amalga oshirish uchun amalga oshirilgan bilish;

18. Muammoli vaziyatni vujudga keltirishning yuqorida keltirilgan usullari amalga oshirish uchun amalga oshirilgan bilish;

bilimlar doirasini faollashtirmasdan turib, muammoni qo'yib bo'lmaydi. Muammoli vazifalarni tashkil qilishdan oldin talabalarning sabab-oqibat aloqalarini o'rнata olish usullarini egallaganligiga ishonch hosil qilish, talabalarning muammoli vaziyatni tahsil qila olish darajasini o'rganish shartdir. Shuningdek, o'qituvchi talabalar e'tiboriga faqat ular uchun qulay bo'lgan muammolarni qo'ymasligi ham mumkin. Shu bilan bingalikda muammoning yechilishi uni to'g'ri qo'ya bilishga ko'p jihatdan bog'liq ekanligini unutmaslik zarur.

Bu qoidalarni amalgalashish, avvalo o'quv materialining mazmun xususiyati bilan bog'liqidir. Uning tarkibi va tuzilmasiga qator talablarni qo'yish mumkin.

O'quv materiali quyidagi mazmunni qamrab oladi:

- *yangilik unsurlari (yangi tushunchalar, yangi belgilari, xususiyatlar, nomalum tushunchalarning jihatlari, yangi aloqalar, harakatlanishning yangi usullari);*

- *faktlar, bilish vazifalari va masalalari, ziddiyatlari ko'rinishidagi materiallarni qamrab olgan ma'lum va yangi bilim o'rtaсидagi ziddiyat;*

- *umumpedagogik va didaktik tamoyillarni hisobga olgan pedagogik nazariyaning metodologik asoslarini materialini mantiqqa muvofiq bayon qilish.*

Shuni ta'kidlash lozimki, o'qitish jarayoni faqat «muammoli» yoki «nomuammoli» metodlar yordamidagina amalgalashish oshmaydi, balki uning samarali borishi uchun xil metodlarni qo'llash maqsadga muvosiqadir. O'qituvchi mashg'ulotning maqsadi, o'quv materiallarining mazmunini to'plash, auditoriyada qatnashgan talabalarning xarakteri, ularning tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda ularni tinglash hamda birini ikkinchisi bilan bog'lashni amalgalashish oshiradi. Shundagina o'quv jarayonining yuqori samaradorligi ta'minlanadi. Shuningdek, muammoli o'qitishning samaradorligi ko'p jihatlardan talabalarning ijodiy faoliyatiga, muammoni ifodalash va yechishga bo'lgan tayyorgarligiga bog'liq bo'ladi. Ularni ijodiy faoliyatga jalb qilishda muammoli boshlash bayonidan asta-sekin tadqiqot ishlari gacha o'tish tavsiya etiladi. Shuningdek, muammoli o'qitishning barcha metodlari zanjirida asta-sekin oddiydan murakkabga o'tish kerak bo'ladi.

Pedagogikaga oid adapbiytlarda talabalarning ijodiy faoliyati reproduktiv, qayta ishlab chiqish metodlarini shakllantirmasdan avval amalda bo'la olmasligi ta'kidlanadi. Agar o'rganilayotgan kursning (bo'lim, mavzuning) mohiyatini, ulardan foydalananing zarur metodik materiallari va qoidalarni talabalar bilmasa va anglamasa, o'qituvchi ularning ijodiy faoliyatini tashkil eta olmaydi.

Demak, muammoli o'qitish yetarli darajada samarali bo'lishi uchun u yaxlit o'quv-tarbiya jarayonining uzviy qismi bo'lishi kerak.

Muammoli leksiyalar o'tkazish jarayonida talabalarda ijodiy faoliyatga zatur bo'lgan motivlar, qimmatli yo'l-yo'riqlar va yo'llanmalarning

shakllanganligi muhim o'rinni egallaydi.

Ta'kidlash joizki, o'quv faoliyati motivlarining doirasi juda ko'p motivlar yig'indisi bo'lsa-da, ulardan ikki guruhi belgilovchi hisoblanadi.

**Birinchi guruhg'a maxsus motivlar taalluqli.** Ular talabalar tomonidan barcha hayotiy ehtiyojlarni chuqur anglash, mutaxassis bo'lib yetishishi uchun bilimlarni egallashning ijtimoiy zarurligini tushunishni qamrab oladi. Bu guruh motivlarini o'qituvchi kursning amaliy xarakteri va kasbiy yo'nalganligini namoyish qilish orqali talabalarning tushunchalarini amalda qo'llash yo'li bilan kuchaytirishi mumkin.

**Ikkinci guruhg'a motivlari** o'quv fanlari va bilishga bo'lgan qiziqish bilan bog'langan. Bu guruh motivlari mohiyatini o'qituvchi talabalar dagi o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishni bilish to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish orqali kuchaytirishi mumkin. Buning uchun leksiya jarayonida xatti-harakatlarning umumiy usullari, tushunchalar tizimining mantiqiy usullari, anglamalar, xislatlar va boshqa isbotlovchi qurilmalarning «tushunchalar asosida xulosalar» xatti-harakatlari shakllanishining didaktik qimmatini belgilovchi o'quv materialiga urg'u beriladi.

Talabalarda yuqorida bayon qilingan malakalarni shakllantirish uchun leksiyanı o'tkazish uchun shunday tayyorgarlik ko'rish ko'zda tutilishi ketakki, ular tayyor bilimlarni chaqqonlik bilan harakat usullariga aylantira olib. Bu didaktik maqsadga erishish uchun talabalarning yechimlarni qanday shakllantirishlariga, tushunchalar yechimining qanday usullari borligiga, u yoki bu ifoda qaysi talablar asosida qoniqtirilayotganiga, dastlabki omil, argumentlar hamda xulosalarga diqqatni jalb qilish lozim.

O'qitishning bu metodini leksiya o'qishning axborot — tasviriy vondashuvdan, qisman ijodiy va ijodiy metodga o'tish orqali amalgalashish mumkin. Ular talabalarda leksiyaning turli bosqichlarida va sharoitlarida muayyan bilish mashaqqatlarini tug'diradiki, ular o'qitish jarayonida avval shakllangan bilim va ko'nikmalarni joriy etish hamda qayta ishlash asosida muvaffaqiyatli hal kilanadi.

Talabalarni ijodiy faoliyatga tayyorlash tizimida o'qituvchining leksiya jarayonida ularga e'tibor qaratishi, o'quv-bilish faoliyatiga mos ko'rsatmalarni bera olishi muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda leksiyada o'quv fani mazmunining umumiyyatlimiy qimmatini isbotlash bilan birga uning shaxs intellekti, dunyoqarashi, bilimlarni tasniflash va qo'llash usullari, ulardan temamlili foydalananish hamda to'g'ri baholay olish tarbiyasiga ta'sir etishni ham isbotlash lozim bo'ladi.

Shuningdek, bunday eksperiment (amaliyot), egallangan bilimlar,zikrlarni (xukmlarni) qurish usullarining haqiqiyligini tasdiqlashga qaratilganligi ta'kidlanishi lozim. O'quv mashg'ulotlarining bunday borishi talabalarda ilmiy-nazariy tadqiqot va eksperiment o'tkazish malakasini shakllantiradi. Bu bilan ular ilmiy ijod kengligiga, ishchanlik muloqotiga

chiqadi, tadqiqotning bosqichlarini rejashtiradi, uning maqsad va vazifalarini ifodalaydi, metodikasini ishlab chiqadi.

Muammoli o'qitishning talablar darajasidagi sifatini ta'minlash, talabalar tomonidan o'zlashtirilgan axborotlar bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish maqsadida **seminarlar** o'tkazish mumkin.

Ma'lumki, bunday seminar o'tkazishning dastlabki maqsadi ma'ruza yoki axborotni jamoa bo'lib muhokama qilishdir. **Seminarning samaradorligi** albatta talabalarni unga tayyorlash sifatiga bog'liq. Ayniqsa, ma'ruza va axborot tayyorlayotgan talabalar bilan ishlash muhim ahamiyatga ega.

Talabalarni seminarga tayyorlash bosqichma-bosqich tashkil etiladi.

**Birinchi bosqichda** o'qituvchi talabaning seminar mavzusini aniqlab beradi. Mavzuni tarlash va bo'lg'usi ma'ruza yoki axborotni tayyorlashda ularga nisbatan shunchaki o'qituvchi, talaba deb qaramaslik kerak, balki ularni seminarda muhokama qilinadigan mavzuning ahamiyatini, dolzarbigini fikrlashga, o'quv fanini keyinchalik muvaffaqiyatlari egallash uchun uni chuqur o'rganishi lozimligini anglashga, bo'lg'usi kasbiy faoliyatining hozirgi ijtimoiy, ilmiy muammolarini rejashtira olish darajasiga olib kelish zarur. Bunda vaqtini tejash, tashkiliy ishlarni olib borishni jadallashtirish uchun talabalarga mavzu bo'yicha adabiyotlarni, imkonli boricha, mavzulari, paragraflari va sahisalarini ko'rsatgan holda tavsiya etish lozim. Talabalarni ma'ruza va axborotlarga tayyorlashning birinchi bosqichida uning mavzusini bo'yicha referatning batafsil rejasini tuzish vazifasi yuklanadi.

**Ikkinci bosqichda** talabalarni ma'ruza qilishga tayyorlashda o'qituvchi u bilan birga referat rejasini muhokama qiladi, uning ayrim o'rinnarini tuzatadi. Bu o'z navbatida dastlabki fikrlarni tezlikda tuzatish, aniqlik kiritish, to'ldirish imkonini beradi va u pirovard natijada bo'lg'usi ma'ruzaning sifatini oshiradi.

**Uchinchi bosqichda** o'qituvchi talaba tayyorlab kelgan referatning mazmuni bilan tanishadi. Zaruriyat tug'ilganda, unga savollar qo'yish, talaba esa bu subbatdan so'ng tegishli tuzatishlar qilishi lozim bo'ldi. Shuningdek, shunday savollarni ham berish kerakki, talaba bu savollarga o'z chiqishida javob bersin. Ayni o'rinda talabaning seminarda ma'ruza qilish uslubi ham muhokama qilingani ma'qul.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, faqat ma'ruza bilan qatnashadigan talabalar bilan ishlab, boshqa talabalar nazardan chetda qolmasin. Balki guruhdagi barcha talabalar oldindan muhokama qilinadigan mavzular bilan tanish bo'lishi, seminar mavzusi bilan aloqador leksiya va qo'shimcha materiallarni mazmuni ustida ishlagan bo'lishi, mavzuga muvofiq ravishda olinayotgan bilimlarni nazorat qilishga va mavzuni muhokama qilishga tayyor bo'lishlari lozim. Bunday seminar mashg'uloti odatda muhokama qilinadigan mavzuning molivati va dolzarbli leksiya materiali bilan bog'lashni eslatish bilan boshlanadi. Shundan so'ng talabalar o'rganilayotgan masalani muhokama qilishga holtashtiriladi, bilimlarni namoyish qila olishi aniqlanadi.

Bu ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: yo qisqacha javoblar talab qiluvchi va oldindan tayyorlab qo'yilgan savollar bo'yicha suhbat shaklida yoki tuzatish (korreksiya) test savollari asosida nazorat qilish orqali. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bu har ikkala bilimlarni yuzaga chiqarish usuli tezkor usul bo'lib, seminarning ushbu bosqichini o'tkazishning muhim samarali sharti hisoblanadi. Talabalar bilimlarni yuzaga chiqarish jarayonida ularning egallagan bilimi keyingi seminarlarda va muhokamalarda qatnashishlari uchun yetarli o'rnligi aniqlanadi. Talabalarda muhokamadan so'ng ham bilimlar yetarli bo'lmasa, o'qituvchining bayoni orqali yoki talaba bilan individual suhbat shaklida tushuntiriladi. Ulardan qay biri samara bersa, shunisidan foydalilanlgani ma'qul. Keyingi variant nisbatan samarali bo'lishi mumkin.

Bilimlari yuzaga chiqarilgan va ayrim tuzatishlar qilingandan so'ng, talabalarning ma'ruza va axborotlar bilan chiqishlari tashkil etiladi. O'qituvchi talabaning materialni mantiqiy bayon qila olishini, uni bayon qilish usulini, talabalarning unga bo'lg'an e'tiborini kuzatib boradi. Ma'ruzaning mazmunini bayon qilish yoki muhokamaning borish jarayoni talabalarni zeriktirib qo'yganda yoki aksincha, undagi ayrim masalalarga qiziqish kuchli bo'lganda hamda uni muhokama qilish zaruriyati tug'ilganda, hurmatini saqlagan holda ma'ruzachini biroz to'xtatib, seminarни jamoa muhokamasiga aylantirish maqsadga muvofiqdir.

**Ma'ruzani guruh bo'lib muhokama qilish** pedagogik aspektida seminarning eng ahamiyatli qismi hisoblanadi, binobarin, seminarda talabalar jonli talish faoliyatiga jalb qilinadilar. O'qituvchi avvalo ma'ruza va axborot mazmunini muhokama qilishga o'tar ekan, bu mazmun qanchalik talabalar darajasida o'rnligini baholay olishi lozim. Ma'ruza mazmunining tushunilishi ma'ruzachiga shu seminar qatnashchilarining bergen savollari va talabalarning o'qituvchi tomonidan qo'yilgan savollarga (o'qituvchi odatda ularning o'zları uvol bermagan taqdirda yoki ularning savollari mavzu mazmunining bir tomonigagina aloqador bo'lganda talabalarga savol bilan murojaat qiladi) to'hu berishlari chog'ida baholanadi.

Ma'ruza mazmuni bo'yicha beriladigan savollarni ikki guruha ajratish mumkin: mazmunni oydinlashtiradigan savollar va mazmunni rivojlantirishga qaratilgan savollar. Mazmunni oydinlashtiradigan savollarga javoblar ma'ruza bayonidagi ayrim o'rinnarni takrorlashni talab qiladi, mazmunni rivojlantirishga qaratilgan savollar esa ma'ruzani yanada to'ldirishni talab spladi. O'qituvchi avvalo birinchi guruh savollarni tashkil etadi, undan so'ng ikkinchi guruh savollarga jamoa bo'lib javob qidiradi. Mazmunni rivojlantirishga qaratilgan savollarni muhokama qilish ko'pincha talabalarda turli, muqobil javoblarni ham yuzaga keltiradi. Bunday javoblarning bo'lishi shuning -xil nuktai nazarlarining to'qnashuviga sabab bo'ldi va u seminarning munozaraga aylanishiga olib keladi. Seminar ni munozara shaklida tashkil etish o'qituvchining muhim vazifasi hisoblanadi. Munozara shaklida seminar

o'tkazish talabaning fikrlash va muloqot qobiliyatlarining shakllanishi uchun tezkor omil sifatida katta ahamiyatga molikdir.

Seminardagi munozara quyidagilarni ko'zda tutadi:

- seminar jarayonida qo'yilgan savollarga javob berishda talabalarning erkin fikr bildirish va asoslay olishlarini ta'minlash;
- taalluqli javoblarning boshqa talabalar tomonidan tushunilishini ham ta'minlash;
- nuqtai nazarlarga tangidiy mulohazalar bildirishni tashkil etish, ularni oydinlashtirish, to'ldirish, o'zgartirish;
- oydinlashtirilgan, to'ldirilgan, o'zgartirilgan fikrlarning tushunilishini ta'minlash;
- qo'yilgan savollarga yakdil isbotlar asosida javoblar berishga ko'nikma hosil qilish.

Munozarani shu jarayonda qo'yilgan savollarga berilgan javoblardan iborat xulosalarni shakllantirish va shunday muammolarni belgilash orqali yakunlash kerakki, ular keyingi seminarlar yoki talabalarning mustaqil ishlariда hal qilinadigan bo'lsin.

Har bir ma'ruba muhokamasi uning asosiy qoidalari va muhokama (munozara) natijalarini qayd qilgan holda qisqacha umumlashtirish bilan yakunlanishi lozim. Seminar mavzusining mazmunini xulosalash, ma'ruzachilar va seminar qatnashchilarining tayyorgarlik darajasini, ularning seminar davomidagi faoliyitini baholash hamda seminar samaradorligining umumiyo bahosi va keyingi seminar mashg'ulotiga maqsad qo'yish bilan tugallanadi.

Shunday qilib, bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha seminarlar quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Seminar mavzusining dolzarbligini asoslovchi o'qituvchining kirish suhbatи;
2. Seminar mavzusi mazmunini tushunish uchun zarur bo'lgan bilimlarni yuzaga chiqarish;
3. Tayyorlangan ma'ruzasi bo'yicha talabalarning chiqishlarini tashkil etish va ularning ko'targan masalalarini seminar qatnashchilarining tushunib olishlarini ta'minlash;
4. Seminarga qo'yilgan talabalar ma'ruzalarining muhokamasini tashkil etish;
5. Seminarni yakunlash.

Talabalarning o'z faoliyatlarini tashkil etishni shakllantirish va rivojlanishiga esa bilimlarni egallash, maqsad va vazifalarni qo'yish malakasini hosil qilish, o'z faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholashni ko'zda tutgan seminarkur katta yordam beradi. Bunday malakalarni shakllantirish, odatda, o'quv ishlari mazmunini tashkil etuvchi materiallar, leksiya, ilmiy va o'quv metodiki, adabiyotlarni konsept qilish, ma'ruba va referatlarni yozish,

o'quv va ilmiy axborotlar mazmunini tushunish va eslab qolish asosida analiza oshiriladi.

Bu tajpidagi seminarga tayyorgarlik ko'rishda o'qituvchi talabalar materiali qiladigan materiallar asosida bajariladigan ishlarning tamoyillarini, o'ziga xosligini, metodikasini o'rganadi, ishlarning bajarilish muvaffaqiyatlari to'palishini)ni baholash me'yorlarini to'laligicha yoki ayrim qismilari bo'yicha tajpidab chiqadi va pirovard natijada talablar darajasiga yetkazadi.

- me'yorlarini asosida bajarilgan ishlar natijalarini tahlil qilish va baholash;
- o'z ishlarini takomillashtirish bo'yicha vazifa qo'yish.

Seminarning bu turiga tayyorgarlik ko'rishda talabalar o'qituvchining ishlarning ko'ra o'quv ishlarining u qadar katta bo'Imagan konkret material tajpidagi muayyan turini (masalan, konseptlashtirish) mustaqil bajaradilar.

O'z faoliyatlarini tashkil etish malakalarini shakllantirishda talabalar quyidagi izchillikdagi bloklar harakatlarini bajarishi lozim bo'ladi:

- berilgan o'quv materiallari asosida muayyan o'quv ishlari turlarini bajarish, konseptlashtirish, referat yozish;
- bajarilgan ishlar natijalarini namunaga qiyos qilish va faoliyat materiallarini muvaffaqiyat me'yorlariga ko'ra baholash;
- bu turdagagi ishlarni samarali bajarish metodikasi bilan tanishish;
- tanlangan metodikaga mosligini aniqlash orqali bajarilgan ishlardan foydalanish usullarini tahlil qilish va baholash;
- o'z faoliyatiga baho bergan holda ishlarni samarali bajarish metodikasini oydinlashtirish va yangi material asosida ishning bajarilish rejasini tuzish;
- belgilangan reja asosida ishlarni bajarish, yuz beradigan qiyinchiliklarni aniqlash, ularning sabablarini tahlil qilish va uning oldini olish usullarini qidirib topish (o'qituvchining yordamida);

faoliyatning muvaffaqiyatlari chiqishligi seminar sifatida tavsija etadir.

O'qituvchi seminarni boshlar ekan, talabalarni uning maqsadi va vazifasi bilan tanishtiradi va ular tomonidan bajarilgan vazifalarini tekshiradi. So'ng o'qituvchi talabalarga oldindan tayyorlab qo'ygan vazifalarini bajarish namunalarini ko'rsatadi va talabalar bajargan ish natijalari bilan qiyoslashni tashkil etadi. Talabalar o'z ishlarini namunaga qiyoslash orqali bevosita ular quyidagi farqlarning mayjudligiga ishonch hosil qiladi va o'z malakalarini takomillashtirish zarurligini anglab oladilar. Bajarilgan ishlar natijalarini baholashga aniqlik kiritish maqsadida talabalarning namunaga javob berish me'yorlarini anglashiga erishish lozim. Talabalar bajargan ish natijalari deylulangan me'yorlar tizimiga mosligiga qarab baholanishga ishonch hosil qidirishlari kerak. Talabalar tavsija etilgan me'yorlardan foydalangan holda o'qituvchi rahbarligida avvalgiga nisbatan yana ham jiddiyroq ravishda bajarilgan ishlar natijalarini baholaydilar. Shu tariqa talabalarda o'z faoliyati natijalarini nazorat qilish va baholay olish malakasi poydevori yaratiladi. Bunda talabalarga o'z o'quv (faqat o'quv bo'imasligi ham mumkin) ishlarining natijalarini

yalpi va qismma-qism me'yorlar tizimiga mos ravishda nazorat qilish mumkin va lozim ekanligini tushunishlari ta'mintanishi kerak. Bu o'z navbatida o'tkazilgan ishlar natijalarining qay darajada namunaga mos yoki mos emasligini va o'z faoliyatini takomillashtirish yo'nalishlarini belgilab olish imkoniyatini beradi.

O'qituvchi talabalar tomonidan bajarilgan ishlarni baholab bo'lgach, ularni muayyan ishlarni samarali bajarish metodikasi bilan tanishtiradi. Bu metodikaning har biri kutilgan natijalarni olish nuqtai nazardan zarur bo'lgan, asoslangan xatti-harakatlar izchilligini tavsiflashni taqozo qiladi. Shu metodika tarkibiga kirgan har bir xatti-harakatning bajarilish sifatini baholashga asos bo'ladigan me'yorlari beriladi.

Ishni bajarish metodikasi bilimlariga ega bo'lgan talabalar o'qituvchining topshirig'iغا binoan ularning izchilligini, avval amalga oshirilgan xatti-harakattarini tahlil qiladilar va uning ishlab chiqilgan metodikaga muvofiqligini aniqlaydilar. Natijada har bir talaba o'z faoliyatining samaradorligini oshirish magsadida zarur bo'lgan xatti-harakatlarni belgilab oladi.

Shundan so'ng talabalarga avvalgi seminardagidek, lekin boshqa mazmundagi o'quv ishlari topshirig'i beriladi. Talabalar topshiriqni bajarib bo'lgach, o'qituvchi bajarilgan bir necha ishlar namunasidan olingen natjalarni guruhsa muhokama qilishni tashkil etadi. Muhokamada ya'ni seminar avvalida taklif etilgan baholar me'yordan foydalaniadi. Har bir talaba ishidagi kuchli va kuchsiz o'rnlarni qayd qilgan hamda shu me'yorlarni qo'shagan holda o'zi qo'sha kiritgan natjalarni baholaydi.

**Seminar mashg'uloti unga yakun yasash bilan tugaydi.** O'qituvchi talabalar tomonidan bajarilgan ishlar natijasini baholab u ishda muvaffaqiyatli qatnashiganlarni alohida ta'kidlab o'tadi. Shuningdek, ayrim kamchiliklarga yo'l o'rvganlarni ham qayd qiladi va ishslash usullarini kelgusida takomillashtirish, ya'ni keyingi mashg'ulotlarda qanday vazifalar qo'yilishini belgilab beradi.

Umurian, seminarda talabalarning o'z faoliyatlarini tashkil etish malakalarini jondantirish quyidagi bosqichtarni ko'zda tutadi:

1. Seminarining magsad va vazifalarini shakllantirish;
2. Talabalarning dastlab bajargan ishlari natijalarini o'zlari baholashlari va tahlil qilishlarini tashkil etish;
3. ishni bajarish metodikasi bilan tanishtirish;
4. talabalar tomonidan amalga oshirilgan dastlabki ishlarning bajarilish usullarini tahlilini tashkil etish;
5. yangi mazmundagi ishning rejasini tuzishni tashkil etish;
6. belgilangan reja asosida ishning bajarilishini tashkil etish;
7. bajarilgan ish natijalarini tahlil qilish va baholashni tashkil etish;
8. mashg'ulotga yakun yasash.

Ta'kidlash je'sha, ko'rib chiqitgan seminar tiplari talabalarni muammoli

o'qituvchi tayyorlash uchun zarur bo'lgan va bir qancha pedagogik vazifalarni bo'lgan bu qaratilgan mashg'ulotlar tizimini bildiradi. Bunday o'qitish bevosita muammoli tipdagisi seminarlarda amalga oshirilishi mumkin. Seminar uchun tafsiloting mavzusi zudlik bilan hal qilinishi mumkin bo'lmagan muammoli shaklida berilishi mumkin.

Talibash usullarini rivojlantirishga qaratilgan seminar mashg'ulotlariga bevvoblik ko'rishda o'qituvchi quyidagi masalalarni qamrab olgan va jiddiy shakllantirish ssenariysini ishlab chiqadi:

- talabalarning muammoni yechishda qatnashishi uchun yetarli bo'lgan talabalarini yuzaga chiqarish qobiliyatini hamda bilimlarni yuzaga chiqarish uchun arur bo'lgan vazifalarni tavsiflash;
- talabalardagi bilimlarni yuzaga chiqarish asosida muammoga va muammoni ifodalashga kirishish;
- muammoni to'g'ri hal qilishning so'nggi xulosasi (qarori) – natijasini shakllantirish;
- masalani to'laligicha yechishni ta'minlaydigan muammoni shakllantirish;
- muammo tarkibidagi muammolarga javoblardan iborat oraliq xulosalarni shakllantirish;
- muammo tarkibidagi muammolarning yechilishida to'g'ri javoblarni si'monovchi muammoni savollarini shakllantirish.

**Muammoli savollar tizimini ishlab chiqishda** talabalarni o'ylashga majbur qilib hamda ularning javoblari ehtiromi nazarda tutiladi. Shu bilan bog'liq tizimda mashg'ulot ssenariysi mashg'ulotning biror (ehtirom ko'rildi) surʼuntini aks ettirishi lozim bo'ladi, uning realligi esa o'qituvchining talabalardagi boshlang'ich fikrlash qobiliyati darajasi haqidagi qay darajada bilimya ega bo'lishiga bog'liq. Shu bilan birga, hatto yaxshi ishlab chiqilgan ssenariy bo'lsa-da, seminarning borishida avval o'ylangan rejadan chetga chiqishlar bo'ladi. Chunki talabalarning individual xislatlari, bilimlarining doʻqasi va kengligi har xil bo'ldi. Shu tufayli o'qituvchi seminar ni samarali o'tkazishi uchun mavzuga muvofiq material mazmunini o'zi yuksak darajada o'yllagan bo'lishi shart.

Seminar avvalida o'qituvchi tayyorlab kelgan savollari yoki vazifalaridan toʻdalangan holda, talabalarda seminarda, qatnashish uchun yetarli bo'lgan bilmlarni yuzaga chiqaradi.

Bilimlarni yuzaga chiqarish, bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha seminarlardagi usullar asosida, amalga oshiriladi. So'ng yuzaga chiqarilgan bilimlar asosida o'qituvchi mashg'ulotda hal qilinadigan muammoni talabalarga bildiradi va uni ifodalab beradi. Avval boshdanoq o'qitilgan muammoning talabalar tomonidan qabul qilinishini ta'mintash uchun muammoni qo'yishda uni yechish uchun urinib ko'rishni tashkil etish tavsiya etiladi. Bu bilan o'qituvchi kutilayotgan yechimni talabalar bilan tahlil qiladi, ularda ko'ringan qiyinchiliklarni aniqlaydi. Muammoni

yechishdagи dastlabki urinish natijasida talabalar uni yengilgina yechimungkin emasligini aniqlaydilar. Bunda muammoli vaziyat talabalar uchmuammoni yechish usullarining keyingi izlanishini avj oldirish zarurligini ichki rutiylasoslanishi bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchi muammoni yechish usullarini izlashni tashkil etishga o'ekan, avvalo birinchi muammoni ifoda qiladi, so'ng muammoli savollarni qo'yadi va javoblarni muhokama qilib, tabalabarning bu muammoni yechish usulini izlashga, ya'ni birinchi oraliq xulosani qidirishga undaydi. So'ng shu tahlitda yaxlitligicha muammoni yechish va xotima xulosalarini ifodalar bilan tugallanishi lozim bo'lgan keyingi muammolarning yechilish usulini izlashni tashkil etadi.

O'qituvchi muammoni qo'yishda uning mazmunini oydinlashtiruvchi muammoli savollarni berishdan oldin muammoni to'laligicha yechish urinishni tashkil etilganidek, talabalarning muammo qismlarini yechish urinishlarini tashkil etishi mumkin. Bu urinish muammoni yechishda ikkinch mashaqqatni vujudga keltiradi. Uning talabalar tomonidan anglab yetilish muammoning yechilish usulini qidirishda faol ishtirok etishining qo'shimchasi motivi bo'lishiga olib keladi.

Seminar mashg'ulotining eng muhim bosqichi hamda uning o'z muammoli savolga javob qidirishni tashkil etish. Ma'lumotlari

O'qituvchi muammoli savol qo'yib, unga javob olishi bilanoq to'g'ri va  
noto'g'ri javoblarni baholamasligi, balki talabalardan savollarga har tomonlam  
keng javob talab qilishi kerak. Agar talaba kutilgan muayyan javobni tayinli  
asoslay olmasa, bu javobga xayrihoh bo'lgan boshqa talabalarни ham aniqlab,  
ularga birgalikda shu javobni asoslashni taklif etadi. Agar talabalar u yoki bu  
savolga turli javoblar taklif etsalar, o'qituvchi talabalarning javoblarini  
qiylashga qaratilgan fikrlashga urintirishi lozim bo'ladi. Bunday fikrlash  
ishi murakkab bo'lib, u barcha bildirilgan nuqtai nazarlarni tushunish,  
ularning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash, to'g'ri javobni qidirish  
maqsadida tanqidlarni hisobga olgan holda turli qarashlarni o'zaro nisbatlashni  
ko'zda tutadi.

Shunday qilib, muammoli savolga javob topishni qidirishni tashkil etish o‘zida muntazam qo‘yilgan qadamlar modulini birechtingizdi. Ўнта тақдим этишни келиб берадиганни сизни ташкил этишни мурононга оғизди.

- muammoli savolni qo'yish;
  - qo'yilgan savollarga javob topish va asoslash bo'yicha talabalarning fikrlashga urinishlarini tashkil etish;
  - javoblarning tangidiy tahlilini tashkil etish, ularning kuchli va kuchsiz jihatlarini aniqlash;
  - kelishilgan mavqe (pozitsiya)ni ishlab chiqish – eng to'g'ri javobni konstruksiyalash maqsadida javoblarni o'zaro qiyos qilishni tashkil etish.
  - keyingi muammoli savolni qo'yishga o'tish.

O'tqizuvchi tashkiloti:

O'qituvchi tashkilot etgan bunday mujassamlangan harakatlarni bajarish

**Maʼmumjan Juhaylarning tafakkurlarida rivojlanish yuz beradi.**

Futbolchilarga muammoli savollar qo'yishda muammoli savollarning ularning bajargan ijodiy ish natijalari bilan aloqasini ta'minlash kerak.

1 minnidan, talabalarning fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga bag'ishlangan  
2 xalqda yaxshiqi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

*Turqiy muammosini yechish bo'yicha ijodiy faoliyatda faol ishtirok  
o'sish u bilan omoti yuzaga shigarish;*

Muzummoqqa kirishish va uni ifodalash:

*Muammoniga kiritishni va uni yoddash;*  
*Fakultabarning avval egallangan bilimlari negizida muammoni yechishga  
muhim yostixlik etish;*

1 Muammoni yechish bo'yicha talabalarning keng ijodiy faoliyatini  
kuchilish (muammoni va muammoli savolni qo'yish, muammoli savolga  
yanashishini tashkil etish, oraliq va yakuniy xulosalarni ifodalash);

*Mashig\* ulotga yakun yasash.*

Mu'mumoli o'qitish sharoitidagi o'quv jarayonining mustakamti asosiy sharoiti mustaqil fikrлаshga muntazam tayyorlash, shaxsiy fazilat sifatida o'tishni baholanadigan mustaqillikni shakllantirish va rivojlantirish hisoblanadi. Bu o'qitishdagi mustaqil ishning alohida muhim abamiyati, uni o'quv xurdi pedagogik tizimi markaziga qo'yilishining qonuniyligi, uning o'z tizimi ta'bi hoziruriyatini tashkil etish demakdir. Shu bilan birga ta'kidlash joizki, bu marta hamuzgacha amaliyotda to'la hal qilingan emas.

Amitiy mashg'ulotlar bir necha bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqichda latool u nazorat qilinadiki, ularning mavjudligi mashg'ulotlarda ishlab cheqildigan vazifalarning yechilish metodikasini tushunishga yordam beradi. O'stimchili bilimlar o'zlashtirilishining nazoratini o'tkazib bo'lgach, olib turmani muayyan toifadagi vazifalarini yechish metodikasi bilan tanishtiradi. Bu jumonda o'stimchili metodika tarkibiga kiradigan barcha harakatlarni olib turuga tushuntirishi lozim. O'r ganilgan metodikaga muvoziq ravishda barcha tundatlarni amaliy egallashni tashkil etish uchun o'stimchili talabalarga individual topshiriqlar beradi. Shuningdek, bu topshiriqlarni bajarish jarayonida o'ngli kelgan qiyinchiliklarni o'z vaqtida yengish maqsadida o'stimchili talabatlariga yo'l-yo'riqlar beradi. Bunda o'stimchining vazifasi har bir idduning o'z topshirig'ini ongli ravishda bajarishini ta'minlashdan iborat bo'ladi.

Lopshiriqni bajarish yakunlangach, o'qituvechi uning borishini va talabalar idarasi natijalarini tahlil qiladi, guruh bilan birgalikdati piq qiyinchiliklarni muhokama qiladi, ularni yengish usullarini ko'rsatib beradi va shakllangan matliklarni kelgusida takomillashtirish bo'yicha vazifalar qo'yadi.

hunday qilib, algoritmik tipdagi amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun qidiruvchi algoritmlarni tuzishda foydalanishni surʼatlashtirishga imkon beradi.

*Muayyan toifadagi vazifalarini yechish metodikasini tushunib olishga*

yordam beradigan bilimlar o'zlashtirilishini nazorat qilish;

2. O'zlashtirilish obyekti bo'lgan vazifalarning yechilish metodikasi bilan tanishish;

3. Konkret vazifa materiallari asosida o'rganilan metodikaga muvoziy ravishda talabalarning individual faoliyatini tashkil etish;

4. Tipik qiyinchiliklar va ularni yengish yo'llarini guruh bo'lib muhokama qilishni tashkil etishning talabalar tomonidan bajarilib borishi va natijalarini tahlil qilish, kelgusida egallanishi mumkin bo'lgan malakalarini takomillashtirish bo'yicha vazifa qo'yish.

Muammoli tipdagi amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Muayyan toifadagi vazifalarning yechilish metodikasini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan bilimlarning talabalar tomonidan o'zlashtirilishini nazorat qilish;

2. yechilish metodikasini ishlab chiqishni ko'zda tutgan yangi vazifalarni qo'yish;

3. Qo'yilgan vazifaning yechilish metodikasini ishlab chiqishga qaratilgan talabalarning fikrlashga urinishlarini tashkil etish;

4. Talabalar ishlaring natijalarini tahlil qilish, metodikani ishlab chiqish jarayonida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni guruh bo'lib muhokama qilish, uning sabablari va uni yengish usullarini aniqlash.

Amaliy vazifa va muammolarni yechishdagi talabalarning umumiy faoliyatini tashkil etishning samarali shakli **tadbirkorlik o'yinlaridir**. Ma'lumki, tadbirkorlik o'yinlari talabalarning kollektiv faoliyatini tashkil etishni bildiradi. Bu jarayonda uning bo'lgan kasbiy faoliyatining ashyoviy va ijtimoiy mazmuni yaratiladi.

Tadbirkorlik o'yinlarining pedagogik samaradorligi natijasi ko'p jihatlardan o'yinning ssenariysini ishlab chiqish va uning tayyorlanish sifati bilan belgilanadi. Tadbirkorlik o'yinlari talabani amaliy tayyorlashning pedagogik vazifalari tizimini yechishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bularga birinchi navbatda: real kasbiy faoliyat sharoitida qo'llanadigan amaliy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish; amaliy vaziyatlar va shunga mos harakat usullarini ishlab chiqishni tahlil qiladigan fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish; guruh (jamo) faoliyatida faol ishtirot etishini ta'minlaydigan qobiliyatlarini shakllantirish taalluqlidir.

O'yinning mazmuni va tuzilmasi shunday shakllanishi va shunday tuzilishi kerakki, unda shunga mos malaka va qobiliyatlar har bir ishtirotchida butun o'yin davomida shakllansin. O'yinning pedagogik vazifalari ssenariyada aniq aks etishi shart.

O'quv vaziyatini modellashtirish bo'yicha tadbirkorlik o'yinlarini tayyorlashda murakkab amaliy vazifalarni (muammolarni) yechishga qaratilgan kasbiy faoliyat mazmuni tanlanadi. Bunda mos vazifalarni tahlil qilib chiqish,

oni yechishda ishtirot etadigan rahbarlar va ijomahilarni, ularning vazifalari, o'zaro munosabatlari tartibi, vazifani samarali yechishning ibtidosi, busqichlari va me'yori, unga kerak bo'ladigan texnik vositalar, me'yoriy, chitvoj (spravochnik), metodik va boshqa manbalarni aniqlash zarur.

O'quv jarayonini takomillashtirish metodlari muammoli o'qitish jarayonida samaradorligi bilan alohida ahamiyatga ega. Ulardan talaba ijodiy huissni – bo'lg'usi mutaxassisni shakllantirish nuqtai nazardan soydalanish maqsadga muvoziqdir. Bunday o'qitishda talabalarning bilish mustaqilligini shakllantirish va rivojlantirish katta ahamiyatga ega, chunki u talabalarida bilimga bo'lgan barqaror qiziqishning shakllanganligini, tashabbus va mustaqil faoliyatning muntazamligini, muayyan aqliy harakatlar va aqliy sifatlar izminni ko'zda tutadi.

Ma'lumki, bilish talabalarning tushunishi uchun bo'lgan aniq fan sathida borishlanar va bu bosqichga uning rivojlanishi, qobiliyati mos kelishi, tabiat jarayonlari va hodisalarining ichki mohiyati va haqiqiy mazmuniga yetish va shu tariqa asl ilmiy bilimlar o'zlashtirilar ekan, bu o'rinda o'qitishning taol, muammoli-ijodiy metodlarini qo'llash zarur. Vazifa ilmiy bilimlarni ceallash jarayonida o'z-o'zidan hal bo'lmaydi. Uning yechilishi tafakkurni maxsus mashq qildirishga jalb etadi. Shu ma'noda gap o'quv materialini o'rganishning muayyan obrazi, tashkiliy, pedagogik maqsadga muvoziqligi jarayoni, fikrlashning faol taraqqiy etib borishi, bilish faolligi va talabalarning mustaqilligi haqida boradi.

Demak, muammoli o'qitish bu o'qitishning pedagogik texnologiyasi bo'lib, o'zining mazmuni va tuzilmasi bo'yicha o'qituvchi va talabaning ijodiy jarayonlarini sintezlaydi.

Muammoli o'qitishda pedagogik faoliyatning xususiyatlari o'quv axborotlari mazmuni muammoli vazifalar va muammoli vaziyatlarga ko'chirish orqali maqsadlarni oydinlashtirish jarayonidan iborat bo'ladi.

Ijodiy o'quv faoliyati muammoli o'qitishning asosiy qoidasini saqlagan holda – ma'lum darajada harakatlarga erkinlik berish va bu harakatlarni bilish jarayonining butun tuzilmasi tizimida tartibga tushirish bilan boshqariladi.

Muammoli o'qitishdan soydalangan holdagina talabalarda o'quv muammolari va kasbiy vazifalarini yechishda ilmiy tekshirish jihatdan vondashuvni tarbiyalash, mustaqil bilish malakasi va metodlarini shakllantirish mumkin. Muammoli o'qitishni qo'llash, bilishni tushunishni shakllantirishga yordam beradi, pedagogik ijod va kasbiy mahoratni rivojlantirishga psixologik va kasbiy tayyorlikni shakllantiradi.

Muammoli o'qitish o'quv axborotlarning maxsus tuzilmasini ishlab chiqishni taqqazo qiladi. Muammoli leksiya texnologiyasi savollar, p'ipotezalar tizimi, uning yechimi, nazorat vatuzatuvlarni amalgaoshirish tizimi orqali mazmuni muntazam ochib borishni ko'zda tutadi.

Shuningdek, muammoli leksiyada muammoli vaziyat va uni muammoli

hal qilish tizimi ham kiradi. O'quv jarayonida bunday texnologiyani ~~jarayon~~ qilish qiziqishni uyg'otadi, aqlni rivojlantiradi, bilish qarshiliklarini yengilchadi, uchun yo'lliyo'rniqlar berishni talab qiladi. Shu bilan birga mantiqiy tadqiqatni qilishga yo'llaydi va uni bosqichlar bo'yicha o'rgatadi, tafakkurning nazariy usulularini tarbiyalaydi.

Muammoli leksiyani o'tkazishda o'quv axborotlari tuzilmasi shunday tasvirlanishi mumkin, ya'ni leksiya «O'zbekiston Respublikasida Xalq ta'limi taraqqiyotining hozirgi zamон консепсијаси» kabi muammolarga bag'ishlanishi mumkin. Bu leksiyani tashkil etishda muammoli vaziyat takliflar bo'yicha yechilish usulini tanlash, qo'yilgan muammo yechimi bo'yicha tanlangan usullarni muhokama qilish, yangi axborotni olib kirish tarzida yaratiladi.

Muammoli vaziyatni yaratish uchun talabalarga ikki nazariy qoida taklif etiladi: bu xalq ta'limi bashorat qilish va xalq ta'limi maqsadi. Ularga bu muammolardan birini tanlash, yoki muammoli vaziyat aniqlab berish lozim bo'lган о'зларинга янги назариюннан тузиш тақлиф этилади.

Keyingi bosqichda tanlangan vazifani muhokama qilish tashkil etiladi, uning hal qilinish jarayoni kuzatiladi, axborotlar tahlil qilinadi va tanlangan yechimning to'g'riligi tekshirib ko'rildi. Undan so'ng yangi nazariy nuqtani nazarni tuzishga o'tiladi.

Muammoli leksiya talabalarning faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo'lishini taqozo qiladi. U ilmiy tafakkur uslubini rivojlantiradi. Muammoli vazifalar o'zida operasion-prosessual tarkiblarni birlashtiradi. Ular axborot mazmunini yangilash va yangi bilimlar olish orqali tahlilga, tushunish va izohlashga, o'rganilayotgan ilmiy muammolarni nazariy jihatdan fikrlashga diqqatni jalb qiladi. Muammoli leksiya davomida talabalarda mavjud bo'lган bilimlardan foydalaniladi, ularni yangi axborotlar bilan bog'liq ravishda yangilanishini amalga oshiradi.

#### **Muammoli leksiya bilish faoliyatini samarali boshqarishni ta'minlaydi.**

Shunday qilib, muammoli o'qitish, o'quv jarayonini tashkil etishning shunday shakliki, unda o'qituvchi boshchiligidagi muammoli vaziyat va bu vaziyatning yechilishidagi talabalarning samarali mustaqil faoliyati yuzaga keltiriladi.

Muammoli o'qitishni tashkil etish natijasida talabalarda kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar hamda fikrlash qobiliyatlarini o'stirishning ijodiy imkoniyatlari yuzaga keladi.

Muammoli texnologiyani amalga oshirish uchun quydagilarga rivoja qilish kerak bo'ladi:

- eng dolzarb, ahamiyatli vazifalarni tanlash;
- o'quv ishlarining barcha turlarida muammoli o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash;

- muammoli o'qitishning eng maqbul tizimini ishlab chiqish, darslik, o'quv va metodik qo'llanmalar, tavsiyanomalar yaratish;
- shaxsiy yondashuv va o'qituvchi mahorati.

#### **4.3. O'yinli texnologiyalar**

O'yinli texnologiyalardan foydalananishning asosini talabalarning fikrlashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi.

O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda fikrlashtiruvchi asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mehanizmlari shaxsnинг o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'mini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vazifallarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsnинг o'z xulqini bo'lgarishi shakllanadi va takomillashadi.

D.N. Uznadzening ta'rificha, o'yin shaxsga xos bo'lган ichki immanent psixik (ruhiy) xulq shaklidir.

I.S. Vigodskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy bonyumalarni o'zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi.

A.N. Leontev o'yingga shaxsnинг xayolotdagi amalga oshirib bo'lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni xayolan amalga oshirishdagi o'linligi sifatida qaraydi.


Psixologlar ta'kidlaydilarki, o'yinda kirishib ketish qobiliyati kishi xodriga bog'liq emas, lekin har bir yoshdagidagi shaxs uchun o'yin o'ziga xos bo'ladi.

O'yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag'ishlangan bo'ladi.

Ular quydagilar:

- mastunkorlik;
- kommunikativlik;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- davolovchilik;
- tashxis;
- millatlararo muloqot;
- ijtimoiylashuv.

Tadqiqotchilar o'yin xususiyatlarini ishlab chiqqanlar. O'yinlarning muhim qurralari S.A. Shmakov tomonidan yoritilgan. U erkin rivojlanuvchi faoliyatni tarkaydi. Bunday faoliyat faqat natija (tadbir) tusayli bahra olish uchun emas, balki xohishlariga ko'ra, faoliyat jarayonining o'zidan bahra olish uchun qo'llanadi.



O'yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakterga – «ijod maydoni»ga ega bo'ladi.

O'yin uchun hissiy ko'tarinkilik xosdir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi.

O'yinning o'yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtinchalik izchilligini ko'zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo'lishini ko'rsatadilar.

Tadqiqotchilar nazariy aspektida o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qaraydilar.

O'yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga

oshirish, natijalarini tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs subyekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi.

O'yinli faoliyatni motivatsiyalash o'yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o'zini namoyon qila olishi, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

Jarayon sifatida o'yin tuzilmasi (G.K. Selevko ta'bıricha) quydagilarni qamrab oladi:

- o'yinash uchun olingan rollar;
- bu rollarni ijro etish vositasi bo'lgan o'yin harakatlari;
- predmetlarni, ya'ni haqiqiy narsalarni shartli, o'yin narsalari o'mida qo'llash;
- o'yinda ishtirok etuvchilarning real o'zaro munosabatlari;
- o'yinda shartli ravishda yaratilgan syujet (mazmun) – ijro sohasi.

O'yindan tushunchalar, mavzu va hatto o'quv predmeti bo'limini orzlashtirishda o'qitish metodi va mustaqil texnologiya sifatida foydalaniladi.

O'yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi.

O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarida qo'llaniladi.

O'yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilin, malaka va ko'nikmalarini qo'llash, umumta'lim malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi.

O'yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma'naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommmunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi o'yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, chog'ishtirish, o'xshashini topish, faraz, xayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, o'quv faoliyatini motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi.

Ijtimoiylashuv o'yinlari jamiyatning me'yorlari va qadriyatlariga jalb qilinish, muhit sharoitlariga ko'nikish, ehtiroslarni nazorat qilish, o'z-qizilish, muloqotga o'rgatish hamda psixoterapiyani nazarda tutadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda pedagogik o'yin degan tushuncha mavjud.

Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator metodlari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o'yinlar «o'yinli pedagogik texnologiyalar»ni tashkil etadi.

Pedagogik o'yinda ta'limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo'yildi.

Pedagogik o'yinlar asosida tafabalarni o'quv faoliyatiga yo'llovchi o'yinli usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi.

G.K. Selevko tomonidan pedagogik o'yinlar tasnifi va uni amalga

oshirishning asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

Pedagogik o‘yinlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda bo‘ladi:

- didaktik maqsad o‘yinli vazifa shaklida qo‘yiladi;
- o‘quv faoliyatni o‘yin qoidalariga bo‘ysunadi;
- o‘quv materialidan o‘yin vositasi sifatida foydalaniladi;
- o‘quv jarayoniga didaktik vazifa o‘yinga aylantirilgan tarzda musobaqalashish unsurlari kiritiladi;
- didaktik vazifaning muvaffaqiyatlari bajarilishi o‘yin natijalari bilan bog‘lanadi.

Pedagogik o‘yinlar faoliyat turlari, pedagogik jarayon xarakteri, o‘yin metodikasi, soha xususiyati, o‘yin muhiti bo‘yicha tasnif qilingan (4.01 tablisaga qaratilsin).

Oliy muktab amaliyotida tadbirkorlik o‘yinlariga alohida ahamiyat beriladi. Tadbirkorlik o‘yinlari nazariysi umuman boshqa o‘yin faoliyatini nazariyud bilan bevosita bog‘langan.

Tadbirkorlik o‘yinlari mashhur psixologlar L.S. Vigodskiy, A.N. Leontev, P.Ya. Galperinlarning ishlarida nazariy asoslangan.

Tadbirkorlik o‘yinlari o‘z xarakteriga ko‘ra insонning shaxsiy xislatlarini shakllantirishning amaldagi vositasi hisoblanadi.

Tadbirkorlik o‘yinlari bilish va o‘qitishning vositasi sifatida XX asrning 20-yillarda gurkiranib rivojlandi. Tadbirkorlik o‘yinlariga taqlidiy (imitasion) o‘yinlar bilishning vositasi sifatida asos bo‘ldi. Taqlidiy o‘yinlarga o‘z navbatida harbiy va harbiy-siyosiy o‘yinlar asos bo‘lgan.

A.A. Verbiskiy tadbirkorlik o‘yinlariga o‘qitishning ishoraviy-konteksti shakllari sifatida qaraydi. Uning fikricha, tadbirkorlik o‘yinlarida mashq qilish faoliyatni va bo‘lajak kasbiy faoliyat model yoki uning prototipi, qaysidir suniy va tabiiy tizim sifatida o‘zaro nisbatlanadi. Shu tufayli tadbirkorlik o‘yinlari kasbiy faoliyatning ishoraviy modellari sifatida belgilanadi, uning konteksti (mazmuni) ishora vositalari, ya’ni tabiiy tilni ham hisobga olgan modellashtirish, taqlid (imitasiya) va aloqa yordamida beriladi.

A.A. Verbiskiy oliy o‘quv yurtining vazifasini bunday o‘qitishda, ya’ni talabani bir yetakchi faoliyat tipi (uquv)dan boshqa(kasbiy) tipgafaoliyatning predmeti, motivi, maqsadi, vositasi, usul va natijalarini maqsadga muvofiq yo‘naltirilgan (o‘zlashtirilgan) holda o‘tkazishni ta’milash deb biladi.

Tadbirkorlik o‘yini yangi texnologiya sifatida mohiyatan quyidagilarni bildiradi:

- ishlab chiqarish imitasion modeli sifatida taqdim etilgan o‘quv materiali mazmuning izchilligi;
- o‘yinli o‘quv modelida kelgusidagi kasbiy faoliyatni tarkibiy qismlarini yaratish;
- o‘quv jarayoni tarzini bilimlarga ehtiyojlarni tug‘dirish va ularni amalda qo‘llashning real sharoitlariga yaqinlashtirish;

- o‘yinning ta’limiy va tarbiyaviy samaradorligi yig‘indisi;
- o‘yinni olib boruvchi o‘qituvchining talabalar faoliyatini tashkil etish va boshqarishidan talabalarning o‘z xatti-harakatlarini tashkil etish va boshqarishga o‘tishini ta’milashi.

A.S. va G.F. Arbenevlar tadqiqotlarida tadbirkorlik o‘yini mutaxassisning evistik tafakkurini rivojlantirishning samarali metodlaridan biri sifatida baholanadi.

V.Tyukov fikricha, har qanday o‘yin qay tarzda loyihalashtirishidan qati nazar ularning har biri quyidagi talablarni bajarishi lozim:

- kasbiy doira imitasiyasi yaxlitligi. Bunda o‘yin imitasiyasiga taalluqli boruvjan tuzilma va jarayonlar asosiy vogelikni aks ettiruvchi umumiy syujet va o‘sosiy mavzuga ega bo‘lishi lozim;
- mustaqil tashkil etishga yo‘nalganligi;
- o‘qitishning muammoliligi;
- metodologik, psixologik va texnik jihatdan ta’milanganligi.

Tashkiliy o‘yin aslida tobora takomillashib boruvchi o‘qitishni ta’milashi kerak. Shu maqsadda unda faoliyat rivojlanishining to‘liq davriyiliq imitasiyasi umulga oshiriladi, ya’ni qandaydir vaziyat yechimiga bo‘lgan yondashuvdan topilgan yechimning umumlashtirilgan bahosiga o‘tiladi.

A.A. Tyukov o‘yin davriyigining quyidagi bosqichlarini qayd qiladi:

- vaziyatni va muammolashtirishni tahtil qilish asnosida o‘yinning asosiy mavzusi bo‘yicha o‘yin ishtirokchisining sermahsul mustaqil ijodiy ishi;
- amaliy guruhlarning ish natijalarini umumiy tanqidiy muhokama qilish;
- o‘yin jarayoni va ishtirokchilar xatti-harakatlarini reflektiv tahlil qilish;
- yechimni tashkil etish bosqichi.

Ya.S. Ginzburg va N.M. Koryak o‘yinning quyidagi sotsial-psixologik xususiyatlarini farqlaydi:

- guruh xarakteri;
- yaratuvchilik, shartlilik;
- ramziylik, utilitar bo‘lmaslik xarakteri;
- belgisizlik (mavhumlik), tarqatuvchanlik xususiyati

Tadbirkorlik o‘yini tayyorlashning sotsial-psixologik muammolariga quyidagilar kiradi:

- ishtirokchilarini tanlash;
- rollarni taqsimlash;
- o‘yin rahbarini ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorlash;
- ijtimoiy psixologiya bo‘yicha umumnazariy bilimlarni egallash;
- nazariy bilimlarini amalda qo‘llay olish;
- shaxsiy tayyorgarlik.

I.Olloyorov tadbirkorlik o‘yinlariga o‘quv ishlarini tashkil etishning bir shakli sifatida qaraydi. U o‘yinlar o‘quv jarayonida o‘z o‘rniga ega va o‘quv jarayonining asosiy vazifalari, mohiyati va tuzilmasi hamda

*o'rganilayotgan fanning didaktik tabiatiga bog'liq bo'lgan, aniq belgilangan didaktik funksiyalarni bajarishini ta'kidlaydi.*

*Tadbirkorlik o'yinlarining didaktik funksiyalariga quyidagilar kirdi:*

- *talabalarda aqliy faoliyat usullarining shakllanishi;*
- *bilimlarni mustahkamlash va qo'llash;*
- *o'quv jarayonida bo'lg'usi mutaxassisning faoliyati faqat o'rganish emas,*

*balki uni bajarishga qaratilgan didaktik qoidalar ishlab chiqishdan iborat bo'lishi;*

*• talabalar o'kuv-bilish faoliyatining bo'lg'usi kasbiy faoliyati, xarakteri*

*va tuzilmasiga maksimal darajada yaqinlashib berishi.*

*Tadbirkorlik o'yini ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida quyidagi tayyorlarlik bosqichlariga ega:*

1. O'quv-bilish vazifalarini muammoli vaziyat topshirig'i shaklida qo'yish:
  - *bo'lg'usi tadbirkorlik o'yininining maqsadini aniqlab olish;*
  - *muammoli vaziyatni anglab yetish;*
  - *talabalarga navbatdagi tadbirkorlik o'yini haqida daslabki ma'lumotlar berish;*

2. Navbatdagi vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan va avval egallangan bilimlardan foydalanish:

- *talabalarning o'qituvchidan yoki adabiyotlarni tahlil qilish orqali yangi bilimlarni qabul qilib olishi;*
- *bajarilishi lozim bo'lgan ish to'g'risida talabalarga yo'l-yo'riqlarni ko'rsatish;*
- *olingan bilim, o'zlashtirilgan ilmiy tushunchalar va ishlash metodlarini umumlashtirish;*
- *o'z-o'zini nazorat qilish;*

3. Tadbirkorlik o'yinlarining shartlarini tushuntirish va vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan yangi amaliy bilimlarning axborotini berish.

4. Navbatdagi ishni rejalshtirish:

- *ularga avval ma'lum bo'lganlar asosida uning ayrim bosqichlarini bajarish usullarini tanlash;*
- *avval egallangan bilimlar asosida tushuntirish ishini olib borish va o'z ijodi uchun zarur bo'lgan yangi metodlarni qidirish;*
- *rejalshtirishni mustaqil nazorat qilish.*

5. Vazifa shartlari, ularning bajarilishini tushuntiruvchi qoidalar (materiallar)ni o'rganish va tahlil qilish bo'yicha mustaqil ishlar va tadbirkorlik o'yinlaridagi o'z mavqeini aniqlash.

6. O'zlaridagi bor bilim, malaka va ko'nikmalar asosidagi reja bo'yicha ishlarni bajarish:

- *yangi bilim va malakalarni hosil qilish;*
- *o'z xatti-harakatlari va ularning natijalarini muntazam nazorat qilish;*
- *qayd qilingan kamchiliklar va ularning sabablarini bartaraf qilish;*

**• belgilangan rejalarini (reja oldi ishlari va rejadan tashqari) takomillashtirish;**

**• yakuniy natijalarini tekshirib ko'rish va tahlil qilish.**

7. Talabalar faoliyatini, ularning bilimi, malakasi, ko'nikmalarini nazorat qilish va joriy yo'l-yo'riqlar berish.

8. Talabalarning tadbirkorlik o'yinlariga tayyorligini aniqlash maqsadida ularning mustaqil ishlari natijalarini tekshirib ko'rish.

9. Talabalarga tadbirkorlik o'yinlarini o'tkazish va unda qatnashish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berish, ularni rol o'ynash bo'yicha taqsim qilish, zarurat bo'lganda har biriga qo'shimcha yo'l-yo'riqlar berish.

10. Oldindan ishlab chiqilgan ssenariy bo'yicha talabalarning tadbirkorlik o'yinlari.

11. O'yin ishtirokchilariga joriy yo'l-yo'riqlar berish.

12. O'yin ishtirokchilarining o'yin davomida o'zi o'ynagan rollariga baho berishi hamda o'z-o'zini nazorat qilishi.

13. Tadbirkorlik o'yini natijalarini muhokama qilish va talabaning o'quv-o'yin faoliyatiga baho berish.

**Shunday qilib, tadbirkorlik o'yinlaridan yangi bilimlarni egallash, o'tilgandarni mustahkamlash, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, umumiy malakani shakllantirish kabi bir qator vazifalarni yechishda foydalilanadi.**

**Tadbirkorlik o'yinlarining bir necha modifikasiyalari mayjud:**

**Imitasiyon o'yinlar.**

Bunday o'yinlardan maqsad qaysidir tashkilot, muassasa va uning qismlari lohiyati andoza qilinadi. Voqealar, kishilarning biror faoliyati (ish bitirish majislar), rejani muhokama qilish, subbatlar o'tkazish va b.), faoliyat holati va shartlari andoza qilib olinishi ham mumkin.

Ssenariyda bunday o'yin tuzilmasi to'la yozib chiqiladi va imitasiya qilinadigan obyektlar va jarayonlar belgilanadi.

**Operasion (voqeiy) o'yinlar.** Bunday o'yinlarda aniq o'ziga xos voqeaboldisaning bajarilishi mashq qilinadi. Operasion o'yinlar ish jarayoniga xos modellashtiriladi.

**Rol ijo etish o'yinlari.** Unda konkret shaxsning xulqi, xatti-harakati, o'z vazifalarini va majburiyatlarini bajarilish taktikasi mashq qilinadi.

**Tadbirkorlik teatri.** Bunda qandaydir vaziyat va undagi kishining xulqi o'naladi. Bu o'yinning asosiy vazifasi turli holatlarda mo'ljalni to'g'ri baholay olishni o'rgatish, o'zining xulqiga to'g'ri baho berish, boshqa kishilarning imkoniyatlarini baholay olish va utar bilan muloqot o'rnatma olishga o'rgatishdir.

**Psixodrama va sosiodrama.** Bu ham o'ziga xos «teatr», lekin ijtimoiy psixologik maqsadni ko'zlaydi: Uning asosiy maqsadi jamoada vaziyatni his qila olish, boshqa kishining holatini o'zgartirish va unga baho berish, u buju samarali muloqotga kirisha olishni shakllantirish hisoblanadi.

**Tadbirkorlik o'yinlari texnologiyasi 4-02 jadvalda tasvirlanadi**  
(G.K.Selevko varianti).

Bu texnologiya tayyorgarlik davrini ham o'z ichiga oladi. U ssenariyning yozib chiqish, vaziyat va obyektlarni shartli belgililar asosida tasvirlashadi, boshlanadi. Ssenariy mashg'ulotning o'quv maqsadi, o'rganilayuvchi muammoning tavsifi, qo'yilgan vazifani asoslash, o'yinning rejasi, vaziyati, mazmuni va qatnashuvchi shaxslarning tavsifini o'z ichiga oladi.

**O'yinga kirishish.** Bu bosqichda ish rejimi aniqlanadi, mashg'ulotning bosh maqsadi shakllantiriladi, muammoni qo'yish va vaziyatni tanishmasi asoslanadi.

**O'tkazish bosqichi.** U o'yin jarayonidir. O'yin boshlangach, hech kuchda aralashmaydi va uning borishini o'zgartira olmaydi. O'yinni faqut uchunsa boshqaruvchi tuzatib borishi mumkin.

**Tahlil bosqichi.** O'yin natijalari muhokama qilinadi va baholanadi. Bosqichda ekspertlarning fikrlari eshitiladi. O'zarlo fikr almashinib bo'lingan talabalar o'z xatti-harakatlari va xulosalarini himoya qiladilar.

Shunday qilib, tadbirkorlik va evristik o'yinlar bo'lg'usi mutaxassisining ilmiy-ijodiy tajribalarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

**Oliy maktab muammolarining tadqiqotchilari quyidagi tadbirkorlik va evristik o'yin turlarini farqlaydilar:**

**I. Mutaxassislar orasida o'z vazifalarini, dasturlar va rollarini taqdim qilish asosidagi tadbirkorlik va evristik o'yinlar. Bunday mutaxassislar sirasiga quyidagilar kiradi:**

- kelgusida ishlash kutilayotgan muassasada faol ijodiy ishlovchilarini va ularni ishlab chiqishda, aniqlash bilan band bo'lgan «vazifa tadqiqotchilar»;
- ijodiy guruhdag'i barcha ishtirokchilarning faoliigi sathida shu guruhnинг o'ziga xos katalizatorlik vazifasini bajaruvchi «faollashtiruvchilar»;
- ilmiy muammoning yechimiga yordam beradigan yo'llar va betakror fikrlar taklif qiluvchi «g'oyalar ishlab chiquvchi» talabalar;
- g'oyalarning tug'ilishiga va ularning boshqa ijodiy guruh a'zolari tomonidan idrok qilinishiga yordam beradigan «rezonator» (targatuvchi) talabalar;
- muammoni yechishning eng maqbul (optimal) variantini qayta ishlab chiqish va topish bilan band bo'lgan «nazoratchi» talabalar.

Bunday o'yinlarni muayyan obyektda o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Rahbarlar va o'qituvchilar oldindan rollarni belgilab qo'yadilar. Masalan, bo'lsa, quyidagilar belgilanadi:

- «KB boshlig'i»;
- «Bosh konstruktor»;
- «Ixtirochi»;
- «Opponent»;

**Tadbirkorlik o'yinlarining texnologik sxemasi**

Tayyorgarlik bosqichi	O'yinni ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>• ssenariy yaratish</li> <li>• tadbirkorlik o'yini rejasি</li> <li>• o'yinning umumiyl tavsifi</li> <li>• yo'l-yo'riqlar mazmuni</li> <li>• moddiy ta'minot tayyorgarligi</li> </ul>
	O'yinga kirishish	<ul style="list-style-type: none"> <li>• muammo, maqsadni aniqlab olish</li> <li>• shartlari, yo'l-yo'riqlar berish</li> <li>• reglament, qoidalar</li> <li>• rollarga taqsim qilish</li> <li>• guruhi shakllantirish</li> <li>• maslahat (konsultasiya).</li> </ul>

O'tkazish bosqichi	Vazifani guruh bo'lib ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>• manbalar bo'yicha ishlash</li> <li>• trening</li> <li>• «fikrlash hujumi»</li> <li>• o'yin texnikasi ustida ishlash</li> </ul>
	Guruhalaro munozara	<ul style="list-style-type: none"> <li>• guruhlarning chiqishlari (fikrlari)</li> <li>• natijani himoya qilish</li> <li>• munozara qoidasi</li> <li>• ekspertlar ishi</li> </ul>

Tahlil va umumlashtirish bosqichi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• o'yinni to'xtatish</li> <li>• tahlil, refleksiya</li> <li>• o'yinni baholash va o'z-o'zini baholash</li> <li>• xulosalar va umumlashtirishlar</li> <li>• tavsiyalar</li> </ul>
-----------------------------------	---

- «chizmakash»;
- «tekshiruvchi»;
- «maslahatchi»;
- «nazoratchi» va b.

Shundan so'ng quyidagilar tuzib chiqiladi:

- *har birining egallaydigan vazifalari va xatti-harakatlari bahosi bo'yicha yo'rqnoma;*
- *o'yin jarayonining asosiy davriyligi bo'yicha dastur ishlab chiqiladi.*

O'yin jarayonida tortishish, musobaqalashish (bahs-munozara yuritish), ruhiyatining bo'lishini ta'minlash zarur.

O'yin o'tkazish chog'ida «buyurtmachi» rolini bajaruvchi rahbar u yoki bu tadbirdarning bajarilish sifatiga va bu tadbirdorda rol ijro etgan (qatnashgan, ishtirok etgan) talabalarga baho beradi. Shu baholar asosida butun guruhnинг hamda alohida talabalarning rol ijro etishi bahosi chiqariladi.

Bunday o'ylarni tashkil etish bo'lg'usi mutaxassis qobiliyatini diagnostika qilishni taqozo qiladi. Shu maqsadda talabalarni rol ijro etishlarini almashtirib turish ham tavsiya etiladi. Chunki har bir talaba u yoki bu rolda o'z imkoniyatlarini sinab ko'ra olsin, ya'ni «oddiy»dan «KB boshlig'i» darajasidagi rollarni ijro etishga imkoniyat berilsin.

2. Ijodiy faoliyatning biror bosqichida muayyan strategiya, taktika va metodlarni qo'llash malakasini shakllantirishga qaratilgan tadbirdorlik va rol o'ylari.

Masalan, «ilmiy-tadqiqot ishlarida ma'ruza, munozara» tarzidagi o'yin. Bu o'yindagi asosiy rollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

**«Boshlovchilar»** - o'qituvchi, ishlab chiqarish mutaxassis;

**«Peshqadamlar»** - muhokama qilinadigan muammoning muayyan masalasi bo'yicha vaziyatni tasavvur qila oladigan ma'ruzachilar;

**«Bezakchilar»** - peshqadamlarning ma'ruzalari va chiqishlarini ko'rgazmali tasavvur etishlari va tushuntirishlarini ta'minlovchi o'yin ishtirokchiları.

**«Assistantlar»** peshqadamlar yordamchilari bo'lib, ular peshqadamlarga va opponentlarga ko'rgazmali chiqishlariga yordam beruvchi o'yin ishtirokchiları.

**«Rasmiy opponentlar»** - peshqadamlarning ma'ruzasi va boshqa materiallar bo'yicha rasmiy tanqidiy ruhda chiqish qiluvchilar;

**«Norasmiy opponentlar»** - muammo bo'yicha guruh bo'lib yoki mustaqil ilmiy-tadqiqot olib boruvchi barcha boshqa talabalar — o'yin ishtirokchiları;

**«Chalg'ituvchilar»** - korxona yoki ilmiy muassasada qo'shimcha salbiy hodisa, faktlarni bayon qilish asosida o'yin ishtirokchilarining faolligiga sabab bo'ladigan savollar qo'yishi lozim bo'lgan o'yin ishtirokchiları. Korxona yoki ilmiy muassasa mutaxassisları, olyi o'quv yurti o'qituvchiları, ilmiy xodimlari, aspirant, talabalari bu «vazifa»ni bajarishlari mumkin.

**«Registrarlar»** - munozaralarni yozib oluvchi o'yin ishtirokchiları;

**«Ekspertlar»** - ma'ruza muhokamasidagi chiqishlar va yechimning guruh bo'lib qabul qilinishi bo'yicha obyektiv baho beruvchi o'yin ishtirokchiları. Bu vazifada korxona va ilmiy muassasa mutaxassisları, olyi o'quv yurti o'qituvchiları va ilmiy xodimlari, aspirant va talabalar qatnashishlari mumkin.

Bunday o'ylarda quyidagi asosiy vazifalar hal qilinadi:

- *bo'lg'usi mutaxassisni axborotlar almashishga o'rgatish;*
- *ularda o'z nuqtai nazarlarini asoslash va himoya qilish, boshqa kishilarning g'oyalariga kirib bora olish, guruh bo'lib yechim qabul qila olish malakasini shakllantirish.*

O'yin-munozaralar bo'lg'usi mutaxassisda ilmiy-ishlab chiqarish muammosini qo'yta bilish va yechishga, mustaqil fikrleshishga, obyektivlikka nisbatan qiziqishni shakllantiradi hamda muammolarni qo'yish, uni muhokama qilish, ulami yechishda o'zini tuta bilish ko'nikmalarini hosil qiladi.

O'yin- munozaralar muayyan muammo bo'yicha bahslar tashkil etilishini ko'zda tutadi.

Bahs muammoni muhokama qilish jarayonidir. Uning usuli esa guruh bo'lib tadqiq qilishdir. Unda har bir ishtirokchi hamsuhbati (raqibi)ning fikrini asoslash, uni inkor etish orqali haqiqatni tiklashda o'z monopoliyasini o'rnatadi.

Bahs munozara borishining turli variantlari mavjud:

**Eristik** yondashuvda tomonlardan biri muammoning yechimi bo'yicha o'zining yondashuvini qabul qilishga urinmasdan ishontirish metodi, ichki tuyg'u, sog'lom aqidan foydalangan holda bahs ishtirokchilarini o'zining nuqtai nazariga og'dirib oladi.

**Mantiqiy** yondashuvdagagi bahsga o'ta mustahkam mantiqiy tahlil va dalil-isbotlar xarakterli bo'lib, uning vositasida ishtirokchilar yakuniy xulosalarga keladilar.

**So'siyona** yondashuv. Unda tomonlardan biri o'z raqibini donolik qilib mag'lub qilishi ham mumkin.

**Avtoritar** yondashuv. Unda tomonlardan biri o'zining obro'sidan foydalaniib, o'z nuqtai nazarini o'tkazishi mumkin.

**Tanqidiy** yondashuv. Bahs ishtirokchilaridan ba'zilari o'z raqibining faqat kamchiligi, kuchsiz o'rni va mavqeiga diqqatni jalb qiladi va, aksincha, raqibining fikridagi ijobjiy unsurlarni ko'rishga intilmaydi va muammoning vechimi bo'yicha o'z takliflarini ham bera olmaydi.

**Dogmatik** yondashuv. Unda tomonlardan biri bahsni haqiqatni o'z manfaati uchun o'zining shaxsiy maqsadlariga muvosiq keladigan tomonga boshlab ketadi.

**Pragmatik** yondashuv. Ishtirok etuvchilardan biri va har bir tomon faqatgina haqiqatni o'rnatish uchungina bahs yuritmaydi, balki undan o'zlarining yashirin va bahs ishtirokchilariga ma'lum bo'lmagan amaliy manfaatlari burish uchun foydalananadi.

Bahsni o'tkazishda quyidagi qoidalarga ahamiyat berish lozim:

- *opponentining o'z fikrini asoslovchi so'zini tinglab, kuzatib borishi;*
- *opponentini so'zlashdan to'xtatib qo'yishga shoshilmasligi;*
- *mayda-chuyda detallarga e'tibor qaratmasligi, eng muhimini ko'rishga, tushunishga harakat qilishi;*
- *kuchsiz o'rinalar, dalil-isbotlar, misollarni topish va tahtil qilish;*
- *opponentini o'zidan kuchli deb hisoblamaslik;*
- *o'ziga haddan tashqari bino qo'yish va ishonishga ruju bermaslik;*
- *qo'rqish raqib oldida mag'lubiyat ekanligini esda tutish.*

Namuna «Bahsda g'olib kelish san'ati» (P.I. Pidkasistoy tomonidan ishlab chiqilgan) o'yini.

Bu o'yin 2,3 soatga mo'ljallangan.

O'yinning maqsadi – talabalarning bahs-munozara olib borish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish va baholash.

Munozara – bahsning muammolari. Bahs-munozaraga olib chiqiladigan muammo talabalar uchun dolzarb va qiziqarli bo'lishi kerak.

Namuna tariqasida quyidagi savollarni qo'yish mumkin:

1. Mening ijodiy, raqobatbardoshlik shaxsiyatim g'oyasi qanday?
2. Shaxsnинг ijodiy, ziyorilik, raqobatbardoshlik xususiyati nimalarda ko'rnadi?
3. Shaxsnинг mustaqil rivojlanish jarayonini men qanday tasavvur qilaman.
4. Bozor iqtisodi munosabatlari sharoitida o'zimni qanday unga bahshida qilaman.

#### **O'yin ishtirokchilarining rollari va vazifalari.**

**Boshlovchi** – o'qituvchi o'yinning ma'nosi, asosiy bosqichlari va ishtirokchilarining vazifalarini aytib beradi.

Ikki raqobatbardosh 7-10 kishidan iborat guruhlar yuqoridaq savollar bo'yicha munozaraga kirishadilar.

Boshlovchi-o'qituvchi o'yinni lozim topgan oqimga yo'llab turadi, uning a'zolari faolligini ta'minlab turadi, munozaraning to'g'riligini kuzatadi, unga yakun yasaydi.

Ekspert – talabalar munozara ishtirokchilariga baho beradi, guruhga va uning a'zolariga quyidagi me'yorlarga asoslangan holda baho qo'yadi:

- a) ifodaning mantiqiyligi va asoslanganligi;
- b) nutq madaniyati, notiqlik san'ati usullarini egallaganligi;
- v) xulosalarining isbotiligi;
- g) bahs usullaridan rang-barang va samarali foydalanishi;
- d) savollar qo'ya olishi va b.

#### **O'yin bosqichlari**

Birinchisi bosqich tashkiliy bosqichdir. Unda raqobatga kirishuvchi jamoalar

va ekspertlar guruhi shakllantiriladi. O'qituvchi o'yinning maqsadi va qoidalarini bayon qilib beradi.

**Ikkinchisi bosqich** o'yin jarayonidir. O'yin davomida jamoalar tashabbusni qo'lga olishlari mumkin va unda munozarani kutilmagan darajada yangi o'ylash va topish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

**Uchinchi bosqich** o'yinda yakun yasashdir. Bu bosqichda ekspertlarning har biriga o'z mulohazalarini bildirish uchun imkoniyat beriladi, ular esa o'z baholarining me'yorlarini hamda bahs-munozara ishtirokchilarining chiqishlarini natijalarini asoslab beradilar.

#### **Ekspertlar vazifasi:**

- *jamoaning g'alabasini asoslash;*
- a) o'yin ishtirokchilaridan eng xushmuomala; b) eng aqli; v) eng obro'li; g) eng ijodkorlarini aniqlab beradi.

O'yin yakunida o'qituvchi o'yinni tahlil qilib beradi va yakun yasaydi. Ayniqsa, o'qituvchi o'yinning borishi, uning muvaffaqiyati va kamchiliklariga urg'u berishi lozim. Shuningdek, istiqbolda e'tibor berilishi kerak bo'lgan muvaffaqiyatli, munozarali, ijodiy vaziyatlarni farqlab berishi kerak.

O'yinli texnologiyalarni amalga oshirish bo'lg'usi mutaxassisning ijodiy faoliyatini rivojlantirish metodlaridan foydalanishni taqozo qiladi.

Ijodiy faoliyat tajribasini rivojlantirish metodlariga ilmiy tafakkurni jondorish, yangi muammolarni yechish malakasini ishlab chiqishga, muammolarni yechishda ongli izlanishga olib keladigan metodlar taalluqlidir.

Ijodiy faoliyatni rivojlantirish metodlari G.S. Altshuller, O.G. Bogdanova, A.V. Brushlinskiy, G. Melxorn, B.Mironov, P.Yakobson va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan.

Ular quyidagilar:

#### **Sharoitni (muhitni) murakkablashtiradigan metodlar**

**1. Vaqt jihatdan chegaralangan metodlar.** U muvafaqiyat faktorning konstrukturlik faoliyatiga sezilarli ta'sir etishni qayd qilishga asoslanadi: ba'zilarda vaqt jihatdan chegaralash faollikni oshiradi va sokinlik holatiga qaraganda, yanada vuqori natijalarini ko'rsatadi. Boshqalarida (ko'pincha) turli darajada o'z xulqini o'zgartiradi, natijalari kamayib ketadi va hamma vaqt ham oxirgi yechimiga erishilmaydi. Uchinchilarida, vaqt jihatdan chegaralash ularni jitovlaydi, talvasaga iushiradi, ular parokanda bo'ladilar, vasvasaga beradilar, ko'pchiligi yoki bir qismi vazifani yechishdan bosh tortadilar.

**2. To'satdan ta'qilash.** Jarayonning u yoki bu bosqichida xattiharakatlarning qandaydir detallar mexanizmi ta'qilanganadi. Bu bilan shtamplar, konstrukturlik faoliyati, moslamalar, qismlar, detallarning mashhur tiplarini qo'llash imkoniyatlari buzilishining oldi olinadi.

**3. Tezlikda esklizlash metodi.** Talabalarning konstrukturlik faoliyatining u yoki bu paytida rasm chizish talab qilinadi. U o'z faoliyatini bevosita nazorat qilinishiga konstrukturlik ijodi jarayonini obrazlar vositasida

boshqarishiga, yordam beradigan miyasiga (hayoliga) kelgan barcha konstruksiyalarni tasvirlaydi.

**4. Yangi variantlar metodi** vazifani, boshqacha bajarishni talab qilishda, ya'ni yechimning bir necha variantlari bo'lgan holda, uning yangi variantini topish va bajarishda ko'rindadi.

**5. Axborotlar tanqisligi metodi** konstruktorlik faoliyatining birinchi bosqichlarida alohida faoliik vazifasi qo'yilganda qo'llanadi. Bunda vazifaning boshlanishida ma'lumotlar juda oz bo'ladi.

**6. Axborotlar mo'lligi metodi** vazifa qo'yilgan sharoitda, ortiq darajada ma'lumotlardan foydalanishga asoslanadi.

**7. Rema'ni metodning mohiyati shundaki, unda mutlaqo bajarib bo'lmaydigan konstruktorlik vazifasi** (abadiy dvigatelni yaratishga o'xshash) qo'yildi.

**8. Rekodifikasiya metodi.** Uning mohiyati shundaki, hodisalarni «ko'chirish» faktlari bilan bog'liq yangi va betakror g'oyalarni ishlab chiqish maqsadida hodisalarni boshqacha ifodalashdir. U «kashfiyotlar (maydoni) matrisa» siga asoslanadi. Rekodifikasiyanı bir tildan ikkinchi til (sanda ko'pincha matematika tiliga o'tkazish deb tushunsa ham bo'ladi. Biroq u barcha rekodifikasiya tili bo'lishi mumkin emas, grafik ifodalar, sxemalar, tablisalar, diagrammalar ham rekodifikasiya vazifasini bajarishi mumkin.

Ijodiy vazifalarni guruh bo'lib yechish metodlari:

Delfi metodi – tavsiya etilgan seriyadagi muqobillardan eng yaxshisini tanlab olishga yordam beradi.

Guruhi a'zolaridan har bir muqobilga muayyan izchillikda baho berish talab qilinadi. Tadbirni o'tkazish tartibi quyidagicha. Masalan, statistik metodlar orqali 5ta kamchilik (defekt) sababi aniqlangan. Qaysi biri muhim kamchilik. Muhokama ishtirokchilar muammoni avvalo muhimlik darajasiga ko'ra saralab chiqadilar. O'zlarini uchun multim hisoblangan muqobilni birinchi o'ringa, ikkinchi darajalarini beshinchi o'ringa qo'yadilar. Shundan so'ng har bir muqobilga har bir ishtirokchi kamchiliklarning sabablariga to'xtalgan holda 10 ballik tizim asosida baho qo'yib chiqadi. Bunda eng yuqori ball sisatida 1 va eng pasti 10 ball etib belgilanadi. Uchinchisi bosqichda muqobillarning har biri o'zaro ko'paytiriladi va hosila raqam topiladi. Eng kam raqam tezlikda va birinchi navbatda burtarid qilinadigan sababni bildiradi. Hisoblashni osonlashtirish uchun maxsus jadval (4.03) yasalishi mumkin.

**2. «Qora qutি» metodi.** Bu metod asosida yechiladigan muammolar aniq vaziyatni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi, ya'ni tahlil davomida ishtirokchilar beinxiyor kamchiliklar (defektlar)ning yuzaga kelishi masalalari to'xtadiladi. Ishtirokchilarni bunga maxsus, maqsadga muvofiq qo'yilgan savollari sindaydi. Masalan, «Bu vaziyat nimaga olib keladi?» yoki «Bu holatda nesrimiz/mttar ishi qay darajada barqaror?» va b. «Qora qutি»

## Muqobiillarni baholash

M.Q	Muqobiillar														
	1			2			3			4			5		
	T	B	H	T	B	H	T	B	H	T	B	H	T	B	H
A	4	7	28	3	4	12	1	1	1	2	3	6	5	10	50
B	5	2	10	3	6	18	2	7	14	1	10	10	4	4	16
V	2	8	16	1	1	1	4	3	12	3	4	12	5	2	10
G	5	10	50	4	5	20	3	4	12	2	3	6	1	1	1
Hosila				10			51			39			34		77
				4											

Izoh:

T- toifa bahosi (1 dan 5 gacha)  
B- ball bo'yicha baho (1 dan 10 gacha)  
H- hosila (ya'ni T+B)  
MQ- muhokama qatnashchilari

metodining mohiyati shundaki, unda kamchiliklar sababi yo'l-yo'lakay aniqlanadi. Bunda kishilarning ijodiy tashabbuslari rivojlantiriladi.

**3. Kundalik tutish metodi.** Guruhning har bir a'zosiga yon cho'ntak daftarchasi tarqatiladi. Unga, aytaylik, bir hafta davomida muhokama qilinadigan muammo bo'yicha tug'ilgan fikrlar qayd qilib boriladi. Barcha ishtirokchilarning yozib borgan fikrlari peshqadamlar tomonidan tahlil qilinib, tayyorlangan material oxirgi muhokamaga olib chiqiladi. Bu metod quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi: birinchidan, tug'ilgan g'oya, aniq ratsional taklif o'sha guruhning fikri darajasiga ko'tariladi, ikkinchidan, turli xildagi tortishuvular, nuqtai nazarlar guruh majlisigacha hal qilinadi, keskinlashgan nuqtai nazarlar ham tekislanadi.

**4. 6-6 metodi:** Olti kishidan kam bo'Imagan guruh 6 minut davomida guruh oldida turgan muammoni yechishga yordam beradigan aniq g'oyani shakllantirishga harakat qiladilar. Har bir ishtirokchi alohida sahisalarga o'z fikrlarini yozib boradi. Bu juda ixcham tarzda amalga oshiriladi: ji psliklarning buzilishi va materiallarning buzilishi, texnologiyalarning buzilishi tarzida. Shundan so'ng guruhda barcha tayyorlangan ro'yxatlar muhokama qilinadi.

Muhokama jarayonida o'ta xato qarashlar chiqarib tashlanadi, munozarali masalalarga aniqlik kiritiladi, boshqa barcha aniqlangan xususiyatlar gunuhlashtiriladi. Vazifa – bir necha muhim muqobillarni saralab olish. Binobarin, ularning miqdori ishtirokchilar miqdoriga nisbatan kam bo'lishi lozim.

**5. Bevosita jamoa bo'lib «Fikrlar hujumi» («Mozgovaya ataka») olib borish.** Bu metoddan maqsad mumkin qadar katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, talabalarni ayni bir xil fikrash inersiyasidan holi qilish, ijodiy

vazifalarini yechish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni yengishdir. Bu metod A.E. Osborn tomonidan tavsija etilgan. Bu metodning asosiy tamoyili va qoidasi bahs ishtirokchilar ishlab chiqqan g'oyalalar tanqidini mutlaq taqiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoibani rag'batlantirishdir. Bu metoddan foydalanishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchi — mashg'ulot rahbariga bog'liq. «Fikrlar hujumi» ishtirokchilar miqdori 15 kishidan oshmasligi kerak. Mashg'ulotning davomiyligi bir soatgacha.

**6. Yalpi «Fikrlar hujumi».** Bu metod J.Donald Fili ps tomonidan ishlab chiqilgan. U katta guruhlarda (20dan 60tagacha bo'lgan) yangi g'oyalalar ishlab chiqish samaradorligini sezilarli darajada oshirishni ta'minlaydi. Barcha ishtirokchilar kichik-kichik 5-6 kishidan iborat guruhlarga bo'linadi va har bir kichik guruh hal qilinadigan ijodiy vazifa va muammo bo'yicha 15minut davomida mustaqil ravishda to'g'ri «Fikrlar hujumi» o'tkazadi. Shundan so'ng har bir kichik guruh vakili o'z guruhlarida ishlab chiqilgan g'oya haqida axborot beradilar va o'qituvchi rahbarligida jamoa bo'lib unga baho beradilar va ulardan eng yaxshilari, betakrorlari tanlab olinadi.

**7. «Fikrlarning shiddatli hujumi» - destruktiv berilgan baho bilan dialog.** Bu metod ye.A. Aleksandrov tomonidan taklif qilingan va G.Ya. Bush tomonidan o'zgartirilib yo'nga qo'yilgan. Dialogning mohiyati shundaki, jamoa bo'lib g'oyalalar ishlab chiqishda ishtirokchilarning ijodiy imkoniyatlari faollashtiriladi va unga zid g'oyalalar qo'yiladi.

Mashg'ulot bosqichma-bosqich quyidagi tarzda o'tkaziladi:

1- bosqich. Miqdor va psixologik muloqoti jihatidan maqbul kichik guruhlarni shakllantirish;

2- bosqich. Vazifa, muammodan kelib chiqadigan maqsadlarni ifodalash;

3- bosqich. To'g'ridan-to'g'ri «Fikrlar hujumi» qoidasiga asosan har bir guruhda g'oyalalar ishlab chiqish;

4- bosqich. G'oyalarni tartibga solish va tasniflash;

5- bosqich. G'oyalarni destruktivlash, ya'ni amalga oshishi imkoniyatiga qarab baholash;

6- bosqich. Avvalgi bosqichlarda bildirilgan tanqidiy mulohazalarga baho berish.

Ishtirokchilar: 1) g'oyalalar ishlab chiquvchi; 2) muammoli vaziyatni tahlit qilish va g'oyalarni baholovchi; 3) zid (qarshi) g'oyalarni ishlab chiquvchi guruhlarga bo'linadigan bo'lsa, samarali natijaga erishish mumkin.

8. Keyingi davrlarda «Yashirin fikrlarning shiddatli hujumi» shaklidagi metod keng rivojlanniyoqda. Bu metodning kelib chiqish mohiyati shunday: har bir kishi ham ijodiy mehnat qila olmaydi, begona shaxstar oldida, ayniqsa, begona shaxstar bahsga aralashib turganda g'oyalalar ishlab chiqqa olmaydi. Lekin ularning g'oyalalar ishlab chiqishga uquvlarini bor, balki ular yolg'izlikka va sekimlikka muhtoj bo'ladilar. Shu tufayli «yashirin fikrlar hujumi» da ikki g'oya ishlab chiquvchi guruhcha: biri- odadtagi fikrlarning

shiddatli hujumi davomida g'oyani olg'a survuchilar; ikkinchisi – yashirin, ya'ni ular birinchi guruh muhokamalarida qatnashmaydilar, ular uchun «yashirin xona» tashkil etiladi va joylashtiriladi. Ular telemonitor vositasida birinchi guruhning bahslarini kuzatadilar hamda yuzaga kelgan g'oyalarni o'z daftarchalariga yozib boradilar va ularni «ekspert»larga uzatadilar.

**9. Sinektika metodi.** U 1960 yilda AQShda U.Gordon tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metod talabalarga muammoning unsurlarini ifodalashga, ijodning bosh maqsadini ajratib olishga, turli xil xarakterdag'i vazifalarni yechishning har xil nusxalarini izlashga yordam beradi va ular quyidagi shaklga ega bo'ladi: bevosita (ma'lum bir vazifaning yechilishiga o'xshatib yechiladi), shaxsiy (obyektdagi berilgan vazifa obraziga kirishga urinib ko'rish va shu nuqtai nazardan fikrlashga harakat qilib ko'ring), ramziy (ikki jumla bilan vazifaning obrazli mohiyatini aytib bering), xayoliy (go'yoki ertaklardagidek bu vazifani yechadilar). Bu bilan bo'lg'usi mutaxassisda abstraksiyalash malakasi, muhokama predmetidan o'zini fikran olib qochish, aql yuritish moyilligi, xayolot, bahslarga kirishib keta olish, bog'lanib qolish havfi bo'lg'an g'oyalardan uzoqlashish, boshqalar fikrini tinglash, safdoshi bildirgan g'oyalarga nisbatan chidamli bo'lish, odatdagilar ichidan g'ayri odatiyalarini va g'ayri odatiyalar ichidan odatdagilarini topish hamda analoglardan unumli foydalanish kabi sinektik fikrlashga bo'lg'an qobiliyat shakllanadi.

**10. Texnik yechimlarning morfologik tahlili va sintezi.** Bu metod shveysariyalik astrofizik Svikki tomonidan ishlab chiqilgan. O'rganilishi lozim bo'lg'an texnik tizim tarkibiy qismi yoki funksional morfologik belgilardan iborat bo'lg'an tarkibning ro'yxatidan aniq muqobillari, texnik ifodalari ajratib olinadi ular morfologik quti yoki matrisa deb nomlanadigan jadvallar shakliда joylashadi va ajralib turgan belgilarni birlashtirib saralab olish orqali yangi vazifalar yechimi aniqlanadi. Morfologik tahlilda bo'lg'usi mutaxassislar texnik vazifalar yechimi unsurlarining har tomonlama kombinasiyasini yasashga o'rganadilar. Chunki bu metod quyidagi tamoyilga asoslangan: texnik xarakterdag'i ijodiy vazifalarni yechishda muvosiqlashtiruvchi o'qlar yordamida obyektning muhim tavsiflarini farqlab oladilar. Unga quyidagilar kiradi:

- vazifalarni aniq ifodalash, yangi ifodalarni topishga urinish, ikkinchi darajali va o'xshash vazifalarni aniqlash hamda ulardan eng muhimini ajratib olish;

- yechimlardagi mavjud kamchiliklar, ularning asosiy tamoyillari va yangi takliflarni sanab ko'rsatish;

- xayoliy, biologik, iqtisodiy, molekulyar va boshqa analoglarni xomaki rejalashtirish;

- matematik, gidravlik, elektron, mexanik va boshqa modellarni yasash (ular aslida analoglarga qiyoslangan g'oyalarni ifoda qiladi);

- variantlar, tobekliklar, bo'lg'usi aloqalar, mantiqiy o'xshashliklari o'rnatish;

- bu ishdan mutlaqo xabari yo'q ba'zi kishilarning fikrlarini bilish.

**11. Funksional – foydali tahlil metodi.** Bu metodning yaratuvchi sifatida Permilik muhandis Yu.M. Sobolev va L.Mayez boshchiligidagi Amerikaning «Jeneral elektrik» firmasining muhandislaridir.

Bu texnik obyektlarning texnik-iqtisodiy metodi bo'lib, ularning iste'molchilik o'ziga xosligi va bu o'ziga xoslikni ta'minlovchi chiqishini o'rtaisdagi munosabatlarni yaxshilashga xizmat qiladi. Bu metodning mamlakat shundaki, ijrochi obyektga bajarilishi lozim bo'lgan amallar va iste'molchiliklarning qurilishi uchun yordam berish, ularning texnologikligi, samarasiz chiqishini qarshi «markazlashgan hujum» tashkil etish, moddiy va mehnat omillarini samarali foydalanishni oshirishni hal qilishda iqtisodiy samarador modellarni hisoblanadi. Mamlakatimizdagi ilmiy tashkilotlar va korxonalarning xo'sha hisobi va o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlashga o'tilishi bu metoddan kengaytiriladi. Shuningdek, funksional-foydali tahlil metodining yaratuvchi sifatida asoslari oliy mакtabda bo'lg'usi mutaxassis-tadqiqotchilarga (konstruktory, texnologlar) dars sifatida o'tilishi lozim. Bu esa oliy o'quv yurtini bitirganda so'ng borib ishlaydigan ilmiy tashkilot (korxona)da mahsulotlarning konstruksiyasini, uni tayyorlash texnologiyasini yaxshilashning konkret yo'llarini aniqlashga yangi imkoniyatlardan kelib chiqib ishlab chiqarish va uskunalarini ishlatalish hamda ortiq darajadagi sarf-harajatlarni bartaraf qilishiga imkon beradi. Masala shundaki, funksional-foydali tahlil nuqtai nazardan qaralganda, mahsulot ishlab chiqarishning barcha sarf-harajatlari foydali va foydasiz hamda ortiqcha deb taqsim qilinadi. Keyingilari yaqqol ko'rinishi turgan va behuda sarflardir. Bu metod bo'yicha o'qitishning samaradorligini oshirish uchun mamlakat oliy o'quv yurtlarida to'plangan tajribalardan foydalaniib, funksional-foydali tahlil va konstruksiyalarning texnologikligi bo'yicha maxsus kurslar ishlab chiqish zarurdir.

**12. «ARIZ - TRIZ» metodi.** G.S. Altshuller va uning maktabi tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodlar sinov va kamchiliklar hamda boshqa ularning modifikasiyalardan sezilarli farq qiladi. Ular ko'r-ko'rona qidirishdan ko'ra texnik tizimlarni rivojlantirish qonuniyatlariga bo'ysungan mantiqiy operasiyalar tizimi asosiga qurilgan. Nazariyaning asosiy g'oyasi: texnik tizimlar o'z holicha emas, balki yaratuvchilik vazifalarini ongli va maqsadga muvofiq yechishda foydalanish mumkin bo'lgan muayyan qonunlar asosida yuzaga keladi va rivojlanadi.

Bu vazifalarini yechish jarayonini texnik ziddiyatlarni aniqlash, tahlil etish va yechish deb qarash lozim bo'ladi. Belgilangan vazifalarini qo'llash metodikasi esa texnika va texnologiyani yaratishdagi ilmiy-teknik ziddiyatlarni ajratib olish, aniqlash va hal qilish bo'yicha muntazam ravishda muayyan

ziddiyatlarni bajarishdir. Tizim o'z ichiga bunday ziddiyatlarni hal qilishga beruvchi o'ziga xos yangilovchi operatorlarning 40 ta usullarini qurilishini amalga soladi. Ulardan ayrimlari quyidagilar:

1. «Laysim qilish»: a) obyektni mustaqil qismalarga bo'lish; b) obyektni tashkilotga bo'lib bajarish; v) taqsimlash darajasini kengaytirish.

2. «Butlash»: ayni yoki yondosh operasiyalar uchun mo'ljalangan qismlarni birlashtirish; b) ayni va yondosh operasiyalarni birlashtirish.

3. «O'nalik»: a) bir obyektni ikkinchi obyekt ichiga va o'z navbatida ikkinchi obyektni birlashtirish; b) bir obyektni to'g'ridan ikkinchi obyektni ikkinchi obyekt orasidan o'tkazish.

4. «Chappalik»: a) obyektning harakatdagi qismini yoki tashqi muhitni qo'shishda holatga olib kelish, aksincha, muqim holatni harakatdagi holatga olib kelish; b) vazifa shartlari talab qilgan harakatlar o'rniga teskari harakatni amalga oshirish; v) obyektning «oyog'ini osmonga qilib qo'yish» va uni qo'ng'ish.

5. «Zararni foydaga aylantirish»: a) zararli faktorlardan (masalan, muhitga qo'shishda yetkazadigan) ijobji samara berishda foydalanish; b) zararli faktorlarni boshqa zararli faktorlar bilan qo'shish asosida uni bartaraf etish; v) zararli faktorlarni ortiq darajada kuchaytirish asosida uni bezarar qilish.

Xotima. Talabalarning o'quv faoliyati shaxsiy mohiyat sifatida qabul qilinadigan o'quv maqsadlariga ongli ravishda qaratilgan bo'lishi lozim. D.B. Elkonin ta'kidlaydiki, o'quv faoliyati eng avvalo shunday faoliyatki, uning natijasida talabaning (o'quvchida) o'zida o'zgarish yuz beradi. Bu faoliyat o'z holicha o'zgarishdir. Uning mahsuli, subyektning o'zida yuz beragan o'zgarishlardir.

O'quv faoliyatining asosiy motivlari bu – ichki o'quv-bilish motivlari. O'quv faoliyatining eng muhim motivatsiyasi esa talabaning bo'lg'usi kasbiiga bo'lgan qiziqishi va moyilligidir.

Talabaning o'quv jarayonidagi egallagan bilimlaridan, kasbiy malakalari va ko'nikmalaridan hissiy qoniqish va undan quronch hissini hosil qilishi lozim.

Bunday vazifalarni hal qilishda o'qitish jarayonida o'yinti texnologiyalardan foydalanish ulkan ahamiyat kasb etadi. O'yinti texnologiyalarda o'qitishning faol metodlaridan foydalanish mulogotning demokratik uslubi yutuqlaridan foydalanishga xizmat qiladi. Bu talabalarning ijodiy kuchlari va qobiliyatini o'stradi.

#### 4.4. Tanqidiy fikrlashni o'stiruvchi faol metodlar.

Tanqidiy fikrlashni o'stirishga xizmat qiladigan metodlar «Demokratik ta'lim uchun» konsorsiumi tomonidan amalga oshiriladigan «Tanqidiy fikrlash uchun o'qish va yozish» loyihasi doirasida ishlab chiqilgan.

Konsorsiumning a'zolari: Xalqaro o'qish assotsiasiysi, Xobart va Uilyam Slins kollejlari va Shimoliy Ayova shtati universiteti. Bu loyihani Nyu – York Ochiq jamiyat instituti va Markaziy Osiyo to'g'risidagi Markaziy va Sharqiy yevropadagi Soros fondi mablag' bilan ta'minlaydi.

Bu paragrifda metodlar mazmuni mazkur loyiha materiallarga muvosiq ravishda yoriladi.

Tanqidiy fikrlashning faol metodlarini ishlab chiqishda quyidagi asoslardan kelib chiqadilar: **Tanqidiy fikrlash nima?**

**Fikrlash** – o'qish, yozish, so'zlash va eshitishga o'xshash jarayon. U faol, muvofiglashtiruvchi shunday jarayonki, unda u o'zida biror haqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab oladi.

Fikrlash kontekstidan tashqarida hosil qilinadigan ko'nikma emas.

Tanqidiy fikrlash ta'llimi dastur yoki kundalik hayotning umumiy kontekstidan yiroqlashgan sharoitda o'rganilishi lozim bo'lgan hodisa ham emas.

Braun (1989) ta'kidlaydiki, vazifa va real hayot maqsadlaridan ajratilgan o'quv ko'nikmalari ta'llim oluvchilarga obyektiv testlarni yaxshi topshirish imkoniyatini berishi mumkin, lekin ular bu ko'nikmalarni yangi vaziyatlarda qo'llay olmaydilar.

Rixer ta'biri bo'yicha o'rganish va fikrlashning ta'rifi kognitiv psixologiya, falsafa va multimedia madaniyati ta'llimi sohasidagi tadqiqotlar natijalariga asoslanadi.

Bu tadqiqotlarning asosiy natijalari:

1. Samarali va muttasil o'rganish asosida talabalarning axborotlarni o'zlashtirish, sintezlash va ularni to'la egallash faolligi yotadi (Anderson va unga hammulliflar, 1985).

2. *O'rganish jarayoni fikrlash faoliyatini rivojlantirishning turli tuman strategiyalaridan foydalangandagina muvaffaqiyatliroq bo'ladi. Bunday strategiya o'rganish jarayonini yanada onglashtiradi* (Palinskay va Braun, 1989).

3. *O'rganish va tanqidiy fikrlash talabalarning aniq vazifalarga nisbatan yangi bilimlarni qo'llash imkoniyatlariga ega bo'lgan taqdirda rivojlanadi* (Resnik, 1987).

4. *O'rganish talabalarning oldingi bilimlari, tajribalariga tayangandagina mustahkamlanadi. Bular talabalarning bilgan bilimlarini yangi axborotlar bilan bog'lash imkoniyatini beradi* (Ros, 1990).

5. *Tanqidiy fikrlash va o'rganish g'oya va tajribalarning turli-tumanligini pedagoglar tushungan va qadrlagan vaqt dagina amalga oshadi. Tanqidiy fikrlash «yakkayti yagona to'g'ri javob»ni qabul qiladigan mentalitet jarayonida yuz bermaydi.*

#### **Tanqidiy fikrlashning rivojlanish muhitini yaratish**

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh

davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo'l ham yo'q.

Lekin tanqidiy fikrlovchilarning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlari to'plami mavjud. Uning uchun:

- *talabalarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;*
- *turli-tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish;*
- *talabalarning o'kuv jarayonidagi faolligini ta'minlash;*
- *talabalarni kulgiga qolmasliklariga ishontirish;*
- *har bir talabaning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch hissini uyg'otish;*
- *tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.*

#### **Shu munosabat bilan talabalar:**

- *o'ziga ishonchni orttirish va o'z fikri hamda g'oyalarining qadrini tushunish;*

• *o'quv jarayonida faol ishtirok etish;*

• *turlichcha fikrlarni e'tibor bilan tinglash;*

• *o'z hukmlarini shakllantirishga hamda undan qaytishga tayyor turishi.*

**Vaqt.** Tanqidiy fikrlash vaqt talab qiladi.

Pirson, Xansen, Gordon (1979)lar ta'kidlashadiki, o'z fiklarini ijod qilish go'yo avalgi g'oya, tasavvur, uchrashuvlar va tajribalarni arxeologik jihatdan tadqiq qilishga olib keladi. Shuning uchun ham:

- *fikrlarini o'z so'zlarini bilan ifodalash;*
- *o'zaro tanqidiy fikrlar almashish;*
- *o'z g'oyalarini ifodalay olish va konstruktiv takliflarga javob ola bilish;*
- *fikrlarni muayyan g'oyalar qiyofasida, qulay muhitda amalga oshira olish va o'z g'oyalarini to'la va aniq ifodalay olish.*

**Izn.** Tanqidiy fikrlashda erkinlik bo'lishi uchun talabalar ma'qui va nomal'qul narsalarni aytish, ular haqida fikrlash, ijod qilish uchun ruxsat olishlari lozim. Talabalar yo'l qo'yiladigan holatlarni anglab olishgach, tanqidiy tahlil qilishga faol kirishadilar.

Tanqidiy tahlilga izn olish ongliklik tamoyiliga asoslanadi. Bunda tahlil va haddan oshish orasidagi farq aniqlab berilishi lozim. Tanqidiy fikrlashga izn fikrlash uchun chinakam maqsad bo'lgan va do'stona hamda samarali sharoitda beriladi.

**Rang-baranglik.** Talabalarning fikrlash jarayonida turli fikrlar va g'oyalar paydo bo'ladi.

Rang-barang fikr va g'oyalar yakkayu-yagona javob mavjudligi haqidagi tasavvur bartaraf qilingan chog'dagina yuzaga keladi. Fikrlarni ifoda qilish chegaralanganda talabalarning fikrlashiga chek qo'yiladi. Faqat biringa javob mavjud bo'lgan taqdirda xilma-xil vosita va jarayonlardan foydalanish joizki, uning yordamida talabalar ana shu javobni topa olsin.

**Faollik.** Tanqidiy fikrlash talabalarning faolligi bilan bevosita bog'langan. Odadta, talabalar sustkash tinglovchilar bo'lishadi. Chunki ularda o'qituvchi bilimli yoki matnda uning bu bilimlari aks etgan, shu tufayli ularning bilim olishlariga o'qituvchi masul degan ishonch shakllanib qolgan. O'quv jarayonidagi talabalarning faol ishtiroti va o'qishlariga o'zlarining mas"ul ekanligiga tayyorligi tanqidiy fikrlashda kutilgan natijalarni beradi. Talabalarni fikr yuritishga, o'z g'oyalari va fikrlari bilan o'zaro o'rtoqlashishga da'vat etish kabi pedagogik yondoshuv ularning faolligini o'stiradi.

Mixali Chikjentmixaliy (1975) ta'kidlaydiki, talabalar o'sha murakkab darajadagi o'kuv jarayonida faol ishtirot etishsa, bilish jarayonida qatnashganligidan katta bahra oladilar va o'zlarida chuqur qoniqish hissini sezadilar.

**Tavakkalchilik.** Erkin fikrlilik tavakkalchilikka asoslanadi. Uning bilim faoliyatida qo'rqnay tavakkal qiluvchi insonlarni rag'batlantirib turish joizdir. Fikrlash jarayonida «ahmoqona g'oyalari» aql bilan tuzilmagan birikma va tushunchalar ilgari surilgan holatlar ham bo'lishi mumkin. O'qituvchi uni o'quv jarayonini tabiiy holati sifatida talabalarga tushuntirishi lozim.

Talabalarni tavakkaldan holi bo'lgan, ya'ni g'oyalari qadrlangan, talabalarning fikrlash faoliyatida faol ishtirotini yuqori motivatsiyalash imkonii bo'lgan muhitda o'yash lozimligi haqida ularda ishonch hosil qilish zarur.

**Qadrlash.** Tanqidiy fikrlashning omillaridan biri talabalarning fikrlash jarayonini qadrlashdir. Tashkil etilgan fikrlash jarayonida talabalar o'z g'oyalari, tasavvurlarining o'qituvchi tomonidan qadrlanayotganini tushungan chog'dagina chuqur ma'suliyat va e'tiborga yarasha javob qaytaradilar.

Talabalar o'z fikrlash jarayonini qadrlashni namoyish qilishga harakat qiladilar. Unga va uning oqibatlariga nisbatan jiddiy munosabatda bo'la boshlaydilar.

**Qimmatlilik.** Fikrlash jarayonini tashkil etish davomida talaba ularning fikrlari, o'z tanqidiy tahlili natijalari qimmatli ekanligini ularning oniga singdirish zarur. O'qituvchi talabalardan muayyan materialni shunchaki qaytaishlashni tatab qilganda tayyor qoli ptardan, andozalardan holi bo'lishi lozim. Bu esa talabalarda o'zgalar g'oyalarini mexanik tarzda qayta ishlab chiqish eng muhim va qimmatli ekanligiga ishonch hosil qilishga olib keladi. Aslida talabakunga o'z fikri, o'ziga taalluqli bo'lgan g'oya va tasavvurlar qimmatli ekanligini ko'rsata olish zarur. Talabalarning o'zlarini ham o'z fikrlarining qimmatbaho ekanligiga ishonch hosil qila olishlari zarur. Ular o'z fikrinning tushunchasi va masakni muhokama qilish jarayonida o'ta muhim, shuningdek, katta hissa bo'lib hisoblanishini tan olishlari kerak.

**O'zaro fikr olishuv.** Fikrlash jarayoni talabalarning o'zaro fikr olishuvini ko'zda tutadi. Talabalarning o'zaro fikr olishishi ularning bir-biridan o'rganishdagiligi o'rtoqlanligiga asos soladi. Talabalardan fikrlovchi sifatida o'zlarida bo'lgan yirik fikr va oddiy xatoga bo'lgan qobiliyatlarini boshqalarga oshib berish talab etiladi.

O'zaro fikr olishishda talabalardan diqqat bilan tinglash, o'zining qurashlar tizimini so'zlovchiga zo'r lab o'tkazish va boshqa so'zlovchilarni uozatib turishdan o'zini tiyib turishi ham talab etiladi. Bunga javoban talabalar boshqalarning yalpi fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Keng doiradagi munozara oqibati o'laroq talabalar o'zlariga tegishli bo'lgan g'oyalarni tahlii qilish va uni aniqlashga yanada qobiliyati orta boradi hamda ularni o'z bilimlari va hayotiy tajribalarida yaratgan g'oyalari tizimiga tirkab boradi. Fikrlash jarayonini tashkil etishda uni o'tkazishning bir necha modellari mavjud. Ular:

- o'ziga ishonch hosil qilish;
- ishda faol ishtirot etish;
- o'riqolar va o'qituvchi bilan fikr olishish;
- o'zgalar fikrini tinglay olish.


**Tanqidiy fikrlashni ta'minlovchi savollar.** Tanqidiy fikrlash jarayonida axborotni tahlil qilish va izohlash, g'oyalarini tahlil qilish, o'rganilayotgan hikoyalarni o'z taxminiy rejalar bilan qayta tuzib chiqishga qaratilgan savollardan foydalaniladi. Qo'llanmada tahlil qilinayotgan bu masalalar Senders (1969) ifodalari va Blum tizimli savollaridan olindi. Bu savollar turli sathdagi qiyinchilikda fikrlashning turli ko'rinishlarini ta'minalashda vosita bo'lib xizmat qiladi. Eslab qolishga xizmat qiladigan savollar yoki formal sathdagi savollar eng kuyi sathdagi savollarga taalluqlidir. Baholash yoki hukm chiqarish natijasida beriladigan savollar fikrlashni ta'minlaydigan ikkinchi sathdagi savollar sifatida qaraladi.

Formal sath savollari faktologik axborotlar olish maqsadida beriladi. Ular faqat mexanik eslashni va talabalarda yaxshi javob berish uchun qisqa muddatda ma'lum predmetlar bo'yicha bitim qismlari (fragment)ni talab qiladi.

Axborotlarni bir shakldan ikkinchi shaklga ko'chirish talabalardan uni ko'chim (transformasiya) qilishni talab qiladi. Ko'chirish savollari talabalarga o'rganayotgan, tavsiflagan va ko'rgan vaziyatlari, sahnalari va voqealarini o'zlarini namoyish eta olishlari uchun beriladi. Ko'chirish savollari talabalarni axborotlarni qayta ishlash yoki boshqa shakllarga ko'chim qilishga ilhomlantiradi. Talabalarga sezish, ko'rish (sensor) tajribasini yaratish, shundan so'ng esa boshqalarga o'z ko'rganlarini yetkazish uchun uni e'lon qilish zarur. Bu fikrlashga tortishning faol ijodiy jarayonidir.

Talabalarga g'oyalari, faktlar, qaydlar va qadriyatlar orasidagi bog'lanishlarni ochish uchun izohlashga qaratilgan savollar beriladi. Sendis izohlashga qaratilgan savollarga nisbatan yuqori darajadagi fikrlashni talab qiladigan tayanch savollar, deb qaraydi. Boshqalar esa (Vogn va Estes) tushunishning o'zining izohlashdir, deb hisoblaydilar.

## Tanqidiy tekshirib ko'rish



Tatbiq qilishga qaratilgan savollar o'qish (talaffuz) jarayoni yoki o'rganish tajribasida uchraydigan mantiq muammolarini yechish va chuqur o'rganish uchun imkoniyat beradi.

Tahlil etishga qaratilgan savollar talabalardan u yoki bu voqeanning ahamiyati yetarli darajada yaxshi yoritilganmi, yo'qmi degan savolga javob berishga undaydi.

Sintez qilishga qaratilgan savollar yangicha fikrlash asosida ijodiy muammolarni hal qilishga da'vat etadi. Sintez savollari talabalarga o'zining barcha bilim va tajribalarini muammoning ijodiy yechilishida foydalanishiga imkon beradi. Sintez savollari muqobil ssenariylar yaratishni ham taqozo qilishi mumkin.

Baholash savollari yaxshi va yomon, adolatli va adolatsizlik to'g'risida hukm chiqarish uchun beriladi.

Baholash savollari talabalar, axborotlar sifatini, yangi axborotlarga nisbatan o'z munosabatini baholay olishi hamda ularni qadrlay olishi uchun beriladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mualliflari fikrlash jarayonini tashkil etishda idrok qilishning 4 tipini farqlaydilar:

*Yaxlitligicha idrok etish.* Mavzu yoki fan to'g'risida umumiyl bilim beradigan idrokning shaklidir.

*Izohli idrok etish.* Bu Blum izohlari darajasiga aynandir. Idrokning bu tipidatalabag'oyavahodisalarining o'zaro aloqalarini yoritadi, uning mohiyatini muhokama qiladi, fanning turli sohalariga oid g'oya va axborotlarni hatto tashqi jihatdan bog'liq hodisalarini birlashtiradi.

*Shaxsiy idrok etish.* Talabalar o'zlarida avvaldan mavjud bo'lgan shaxsiy tajriba va bilimlar tuzilmasini yangi bilimlar bilan bog'lab tushunish jarayoni aks ettiradi.

*Tanqidiy idrok etish.* Mazmunni bir tomonga qo'yib, uni tahlil qilish, uning nisbiy qimmatini, to'g'riligini, foydaliligini va talabalarning bilishi, tushunishi va qabul qilishi doirasida uning ahamiyatini baholashdir.

Shunday qilib, axborotlarni chorlash, o'ylab ko'rish va fikrlash metodikalaridan foydalanish quyidagi muhim vazifalarni yechish imkoniyatini beradi:

- talabalarga maqsadlarini anglab olishga yordam beradi;
- mashg'ulotlarda faoliigini ta'minlaydi;
- samarali munozaraga chorlaydi;
- talabalarning o'zlarini savollar tuzishlari va uni savol tarzida berishlari uchun yordam beradi;
- talabalarga o'z shaxsiy bilimlarini ifoda qilishga yordam beradi;
- talabalarning shaxsiy mutolaasi motivatsiyasini qo'llab-quvvatlaydi;
- har qanday fikrlarga bo'lgan hurmat kayfiyatini yaratadi;
- talabalarda personajlarga bo'ladigan iztirobni o'stirishga yordam beradi;
- talabalar qadrlanadigan fikrlashga sharoit yaratadi;
- talabalarning tanqidiy jaib qilinishiga bir qator umidlar bildiriladi.

*Klasterlarga bo'lish.* Bu pedagogik strategiya bo'lib, talabalarning u yoki bu mavzu bo'yicha erkin va bermalol o'yashga yordam beradi. U faqat g'oyalar orasidagi bog'lanishlarni fikrlashni ta'minlash imkoniyatini beradigan tuzilmani aniqlab olishni talab qiladi. U fikrlashning oddiy shakli emas,

balki miya faoliyati bilan zid bog'lanadi.

Klasterlarga bo'lishdan axborotlarni chorlash bosqichida ham, fikrlash bosqichida ham foydalaniлади. У muayyan mavzu sinchiklab o'рганилгунча fikrlash faoliyatini ta'minlashda foydalanilishi mumkin. Klasterlarga bo'lish talabalarning tasavvurlarini yangi bog'lanishlari yoki ularning grafik ifodalari ko'rinishlarini ta'minlovchi sifatida ham o'tganliklarini yakunlash vositasи sifatida qo'llanilishi mumkin. Bu o'z bilimlariga, muayyan mavzu to'g'risida tasavvuriga va uni tushunishga yo'l o'chadigan nazardagi strategiyadir.

Klasterlarga bo'lish quyidagi usullarda amalga oshiriladi:

1. Hushingiza kelgan barcha fikrlarni yozib olish. Bu fikrlarni muhokama qilmang, shunchaki yozib olavering.
2. Xatni (matnni) kechiktiradigan imlo va boshqa omillarga ham parvo qilmang.

3. Sizga berilgan vaqt nihoyasiga yetmagunga qadar yozishdan to'xtamang. Miyangizga fikr kelishi to'xtab qolsa, toki yangi fikrlar kelgunga qadar qog'ozda nimalarni chizib o'tiring.

4. Imkonli boricha, bog'lanishi mumkin bo'lgan g'oyalarni tizib chiqing. G'oyalarning oqimi sifati va ular orasidagi aloqalarni chegaralab qo'ymaning.

Klasterlarga bo'lish, Stil va Stil (1991)ning ta'bıricha, bu juda moslashuvchan strategiyadir. Uni individual tarzda ham guruhda ham qo'llash mumkin. Guruh faoliyatida u guruh g'oyalarning tirgovichi sifatida xizmat qiladi. Bu esa talabalarni har bir amalda bo'lgan bog'lanishlarga, aloqalarga yaqinlashtiradi.


**Sinkveyn.** Axborotlarni qisqacha bayon qilish, murakkab g'oyalarni, sezigilarni, tasavvurlarni bir necha so'zlar vositasida bayon qilish imkoniyati borasidagi muhim malakadir. Bu boy tushunchalar zahirasi asosidagi o'yangan refleksiyani talab qiladi. Sinkveyn bu she'r bo'lib, u biror voqeа munosabati bilan yoziladigan yoki refleksiya qilinadigan qisqa ifodalarda axborot va materiallarning sintezlanishini talab etadi.

**Sinkveyn** so'zi fransuzcha so'z bo'lib, besh degan tarjimani beradi. Demak, sinkveyn besh qator dan iborat she'rdir.

Sinkveynni yozib chiqish qoidasi quyidagicha:

1. Birinchi qatorda bir so'z bilan mavzu yoziladi (odatda ot turkumiga oid so'z bilan).
2. Ikkinci qatorda mavzu ikki so'z bilan taysif qilinadi (sifat turkumiga oid ikki so'z bilan).
3. Uchinchi qatorda ushbu mavzu bo'yicha xatti-harakatlar uch so'z bilan taysif etiladi.
4. To'rtinchi qatorda temaga aloqadorlikni ko'rsatuvchi 4 so'zdan iborat gap (ibora) yoziladi.

### Klaster namunasi



5. Beshinchchi qator mavzu mohiyatini takrorlovchi bir so'zdan iborat sinonimdir:

**Amaliyotda sinkveyn:**

- murakkab axborotni sintezlash quroli;
- talabalar tushuncha zahirasini baholash vositasи;
- ijodiy ifodalilik vositasи sifatida juda foydalidir.

Sinkveyn tushunchalar va axborotlarni refleksiyalash, sintezlash va umumlashtirishda tezkor, ayni zamonda qadratli quroq hisoblanadi.

#### 4.5. Mualliflik texnologiyasi

O'qitish texnologiyasi pedagogik strategiya sifatida talaba va o'qituvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish vositalariga ega bo'ladi. Bunday texnologiyalarga quyidagilarni keltirish mumkin:

- pedagogik jarayonda shaxsn Ko'zda tutishga asoslangan pedagogik texnologiya (Sh.A.Amonashvili texnologiyasi);
- o'quv materialini sxemalar va modellar ishorasi asosida o'qitishni jadallashtirish texnologiyasi (V.F.Shatalov texnologiyasi);
- o'quv jarayonini samarali boshkarish va tashkil etish asosiga qurilgan texnologiya (S.N.Lisenkova texnologiyasi va N.P.Guzikning o'qitish tizimini rejalashtirish texnologiyasi);
- o'qitishni individuallashtirish texnologiyasi (Inge Unt, A.S.Graniskaya va V.D.Shadrikovlar texnologiyasi);
- o'qitishni dasturlash texnologiyasi (B.P. Bespalko).

##### 4.5.1. Shaxsn Ko'zda tutishga asoslangan pedagogik texnologiyalar

Shaxsn Ko'zda tutishga asoslangan pedagogik texnologiya asosida insonparvarlik falsafasi, psixologiyasi va pedagogikasi yotadi.

Bu texnologiya shaxsga tayanadi. U o'zini namoyon qilishga, yangi tajribalarni idrok qilishga maqsad sari intilgan, ongli, ma'suliyatli shaxsdir.

Shaxsn Ko'zda tutish texnologiyasi har tomonlama rivojlanangan shaxs-sugaroning shakllanishi, ijodiy qobiliyatini namoyon qilish, ma'naviy-ahloqiy tarbiya bilan bevosita bog'langan intellektual rivojlanishga qaratilgan.

**Ta'lim mazmuni shaxsnинг shakllanishi yuz beradigan ayni muhitdir.**

##### Hamkorlik pedagogikasi

Hamkorlik pedagogikasi XX asrning 80-yillarida rivojlana boshladi va ta'limdagi ko'pgina innovatsion jarayonlarni hayotga chorladi. Bu texnologiya negizida taniqli rus va chet el pedagoglarining tajribasi yotadi. Ular K.D.Ushinskiy, N.P.Pirogov, L.N.Tolstoy, J.J. Russo, Ya.Korchak, K.Rodgers, E.Bern, S.T.Shaskiy, V.A.Suxomlinskiy va boshqalardir.

Hamkorlik pedagogikasi 4ta asosiy yo'naliш bo'yicha amalga oshiriladi:

- shaxsa inson, shaxs sifatida yondashuv;
- dialektik faollashtiruvchi va rivojlaniruvchi majmua;
- tarbiya konsepsiysi;
- atrof-muhitni ta'lim-tariyaga moslash;

Sh.A.Amonashvilining inson-shaxs texnologiyasi. Shalva Aleksandrovich Amonashvili taniqli pedagog olim va amaliyotchidir. U o'zining eksperimental mакtabida hamkorlik pedagogikasini, shaxsiy yondashuvni, til va matematika

o'qitishning ajoyib metodikasini ishlab chiqdi va hayotga tatbiq etdi.

Sh.A. Amonashvilining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- bolaning shaxsiy xislatlarni namoyon qilish orqali unda oljanob insonning shakllanishi, rivojlanishi va tarbiyalanishiga imkon tug'dirmoq;
- bolaning qalbi va yuragini ulug'lamoq;
- boladagi bilishga bo'lgan kuchlarni rivojlanirish va shakllantirish;
- keng va chuqur bilim hamda malaka olish uchun sharoit tug'dirmoq;
- ideal tarbiya – bu o'z-o'zini tarbiyalamoq.

Sh.A. Amonashvili o'zining texnologiyasini amalga oshirish uchun quyidagi metodika va metodik usullardan foydalandi:

- insonparvarlik;
- shaxsiy yondashuv;
- muloqot mahorati;
- oila pedagogikasining qo'shimcha imkoniyati;
- o'kuv faoliyati.

Sh.A.Amonashvili texnologiyasida bola faoliyatini baholash alohida ahmiyatga ega. Baholardan foydalanish o'ta cheklangan. Miqdoriy baholashdan ko'ra sifati baholashga urg'u beriladi, ya'ni tavsif, natijalar paketi va o'z-o'zini baholash.

##### 4.5.2. O'qitishni jadallashtirish texnologiyasi

Bu texnologiyani Viktor Fedorovich Shatalov ishlab chiqdi va hayotga joriy qildi. U o'qitishning an'anaviy sinf-dars usulining hali ochilmagan katta imkoniyatlarini ko'rsatib berdi.


V.F. Shatalovning maqsad-mo'ljali:

- bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish;
- har qanday individual xususiyatlarga ega bo'lgan barcha bolalarni o'qitish;
- o'qitishni tezlashtirish.

##### Tamoyillar:

- ko'p marta takrorlash, majburiy bosqichma-bosqich nazorat, qiyinchilikning yuqori darajasi, katta bloklarda o'rganish, faoliyatning dinamik qolipi, xatti-harakatning tayanchi, va uning mo'ljaldagi asosini qo'llash;
- shaxsn Ko'zda tutish asosida yondashuv;
- insonparvarlik;
- zo'rlab o'qitmaslik;
- o'quv vaziyatlarining konfliktsizligi, har bir o'quvchining muvaffaqiyatlaridan boxabarlik, tuzatish (yo'lga solish), o'sish va yutuqlarga

## Tayanch signallar konspekti



*istiqbolni ochish;*

- *o'qitish va tarbiyani bog'lash.*

**V.F. Shatalov metodining o'ziga xosligi:**

- materiallar katta hajmda kiritiladi;
- materiallar bloklar bo'yicha joylashtiriladi;
- *o'quv materiali tayanch sxema – konspekt ko'rinishida rasmiylashiriladi.*

**Jadvaldan ko'rinish turibdiki, tayanch konspekt ko'rgazmali sxemani tashkil etmoqda.**

V.F. Shatalov tayanch (tayanish) deganda bola harakatlarining taxminiy asosini, ichki sikrlash faoliyatining tashqi tashkil qilinish usulini tushunadi.

Tayanch signal o'zaro uzviy bog'lovchi ramzlar (ishora, so'z, sxema, rasm va h.o) bo'lib, qandaydir ma'noli mohiyatni almashtiradi.

Tayanch konspekt - o'quv materiallari o'zaro bog'langan usullarining

butun qismlari sifatida faktlar, tushunchalar, g'oyalar tizimi o'mida qo'llana oladigan ko'rgazmali konstruksiyalardan iborat qisqacha shartli konspekt ko'rinishidagi tayanch signalar sistemasidir.

V.F. Shatalovning xizmatlari shundaki, u mashg'ulotlarda yetarli darajada va barchaning faolligini ta'minlovchi o'quv faoliyati tizimini ishlab chiqdi. V.F. Shatalovning o'quv jarayoni texnologik sxemasi tablisada ko'rsatilgan.

V.F. Shatalov metodikasi 4 bosqichdan iborat bo'lib, ular bir qancha usul va metodik yechimlarni o'z ichiga oladi:

1. Nazariyani sinda o'rganish: taxtada oddiy tushuntirish (bo'r, ko'rgazmali quroq, O'TV bilan); bo'yagan plakat – tayanch konspekt bo'yicha qayta tushuntirish; plakat bo'yicha qisqacha bayon qilish; o'quvchilarning o'z konspektlari ustida individual ishlashlari, konspekt bloklari bo'yicha keng mustahkamlash.

2. Uydagи mustaqil ishlar: tayanch konspekt+darslik+ota-onalar yordami. O'quvchilarga uqtirish: konspektidan foydalangan holda o'qituvchining tushuntirganlarini esla, berilgan materialni kitobdan o'qi; o'qiganlaringni konspekt bilan qiyosla; konspekt yordamida darslik materiallarini so'zlab ber (kodlashtirish-dekodlashtirish); konspekt ni so'zlab berish uchun tayanch sifatida yodda saqla; konspekt ni qayta ishlab chiqqish va namunaga qiyosla.


3. Birinchi takrorlash - konspekt ni o'zlashtirishni har tomonlama keng nazorat qilish: barcha o'quvchilar konspekt ni xotirasida qayta ishlab chiqadilar, o'qituvchi ularni peshma-pesh tekshirib boradi; bir vaqtning o'zida «asta» va magnitafon orqali so'rab boradi; yozma ishdan so'ng og'zaki so'rash boshlanadi.

4. Tayanch konspekt ni og'zaki so'zlab olish - o'zlashtirishdagi tashqi nutq (og'zaki) faoliyatining eng muhim bosqichi, u turli savol-javoblar jarayonida yuz beradi.

5. Ikkinci takrorlash-umumlashtirish va bir tizimga keltirish (tartibga tushirish): o'zaro nazorat darslari; oldindan sinov savollari ro'yxatini, nashr qilish; tayyorlash; barcha turdag'i nazoratlardan foydalananish (taxtada, astagina, yozma va b.); o'zaro so'rash va o'zaro yordam; o'yinli unsurlar (jamoalar bellashuvi, rebusni topishi va b.).

Nazorat, baholash. V.F. Shatilov o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmlarini bosqichma-bosqich nazorat qilishning bosh muammosini hal qildi. Doimiy tashqi nazoratni o'zini-o'zi nazorat qilish va o'z-o'zini baholash bilan bog'lash, har birini bosqichma-bosqich nazorat qilish, kuchi yetadigan darajada talab qilish, doimo tuzatishning imkoniyati mavjudligi, natijalar oshkorligi, ikki bahoning yo'qligi va past bahodan qo'rqishning yo'qligi.

## V.F. Shatalov tizimining texnologik sxemasi



Nazorat shakllari: tayanch konspekt bo'yicha yozma ish, mustaqil ishlar, baland ovozda so'rash, magnitafonda, justlikda o'zaro nazorat, guruhdagi o'zaro nazorat va uy nazorati, o'z-o'zini baholash.

O'quvchi tomonidan olingan har bir baho bilimlar uchun maxsus ochilgan ko'zguga qo'yib boriladi. U go'yo o'quvchiga xizmat qiladigan ro'yxat vazifasini bajaradi. Baholar esa ijobjiy shifrlangan tavsifnomasi ahamiyatiga ega bo'ladi. Bunday tavsifnomani e'lon qilish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi. Bu tavsifnomaning eng muhim tomoni shundaki, unda o'quvchi xohtagan vaqtida har qanday bahoni nisbatan yuqori bahoga o'zgartirishi mumkin. Ochiq imkoniyat tamoyilining mohiyati ham shunda. Har bir baho, - deb ta'kidlaydi V.F. Shatalov, avvalambor, o'quvchida ijobjiy e'tiborni qo'zg'atadigan vosita, turki bo'lib xizmat qilishi lozim. Ikki baho salbiy hislarga sabab bo'ladi hamda o'qituvchi va fan bilan ziddiyatni keltirib chiqaradi. Shatalov bunday konfliktli vaziyatlarni bartaraf qiladi.

Metodik usullar (pedagogik mikrounsurlar) tirkamasiga: uchirma takrorlash, releli (almashma) nazorat ishlar, desant metodi, zanjir metodi, vazifalar ichida «cho'milmoq», kitobdagi xatolarni topmoq, varaqchalarda misol-masala yechish,

tanlov asosida misol-masala yechish, 4 qo'lda yechish, tajriba darslari, «miyagi» niqtash, quyidan yuqoriga qarab yechish, aytib berganni rag'batlantirish, ochiq fikrlar darsi, oltinchi ball, ijodiy konspekt, tezaytish hamda keskinlikni yumshatish usullari (musiqa, yorug'lik, tanaffus va b.) va b.

V.F. Shatalov tomonidan ishlab chiqilgan o'quv faoliyati tizimi maktab o'quvchilarida eksperiment qilingan, lekin uning metodikasi matematika o'qitish doirasidan chiqib, nafaqat tabiiy fanlar, balki gumanitar fanlar: til, tarix kabi fanlarni o'qitishda ham keng tarqaldi.


V.F. Shatalov metodikasi olyi o'quv yurtlarida ham muvaffaqiyatli qo'llanmoqda.

### 4.5.3. O'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga qurilgan pedagogik texnologiyalar

G.K. Selevko pedagogik texnologiyani rejalashtiriladigan natijalar bilan birga boshqariladigan tizim deb ta'riflaydi.

Texnologik jarayon tuzilmasini axborotlarning uch asosiy harakat yo'nalishi bilan tavsiya etiladi.

### O'qitishning texnologik jarayoni tuzilmasi



Bu tuzilmada G.K.Selevko uch shahobchani belgilaydi:

1. **Asosiy shahobcha** – mazmunning harakati bo‘lib, u axborotning manba (o‘qituvchi)dan qabul qiluvchi (talaba)ga uzatish (o‘quvchilar e’tiboriga uzatish, o‘quv-bilish faoliyatiga rahbarlik qilish, o‘quvchilar tomonidan bilimlarni idrok etish, o‘zlashtirish va mustahkamlash). Unda axborotlarni qo‘srimcha boshqarish manbalari – kitoblar, texnik vositalar, kompyuterlar va o‘quvchi tomonidan ularni mustaqil idrok etish (o‘z-o‘zini boshqarish jarayoni) muhim holat hisoblanadi.

2. **Boshqarishga ta’sir o‘tkazish shahobchasi**. U o‘z ichiga rejalashtirishni (strategik va taktik), ta’limiy axborotlarning asosiy psixologik harakati korreksiyasini qamrab oladi.

3. **Jarayonlar haqidagi** (qayta bog‘lanish, nazorat, baholash, qo‘srimcha axborotlar shahobchasi) **axborotlar o‘qituvchidan o‘quvchiga uzatilish shahobchasi**.

O‘quv jarayonining samaradorligi:

- o‘quv axborotlari mazmunining eng maqbul tuzilmasi;
- boshqarish samaradorligi va bilish faoliyatini tashkil etish;
- axborotlarni o‘zlashtirishda individual o‘z-o‘zini boshqarish imkoniyatlaridan foydalanish;
- axborotlarni o‘zlashtirishning samarali nazoratini tashkil etishga bog‘liq.

Tayanch sxemalar izohidan foydalangan holda istiqbolli o‘qitishni boshqarish S.N.Lisenkova texnologiyasi. Bu texnologiya asosida quydagilar yotadi:


- hamkorlik pedagogikasiga bo‘lgan shaxsiy yondashuv;
- o‘zlashtirish (muvaffaqiyat) - o‘qitish jarayonida bolalar rivojlanishining eng muhim sharti;
- sinfdagi fayz: xayriyohlik, o‘zaro yordam;
- xatolaridan ogoh qilish, lekin xatolar ustida ishlash emas;
- o‘quv materialining ketma-ketligi, izchilligi;
- vazifaning har bir o‘quvchiga qulayligi va ularga alohida-alohida bo‘lib berilishi;
- asta-sekin to‘liq mustaqillikka o‘tish;
- bilag‘on o‘quvchi vositasida bilmaydigan o‘quvchilarни o‘qitish;

S.N.Lisenkova metodikasining xususiyati shundaki, qiyin mavzular dasturda belgilangan soatlarda emas, balki undan oldin o‘rganila bosilanadi. Bu istiqbolli tayyorgarlikdir.

Istiqbolli tayyorgarlik o‘rganilishi yaqinlashib kelayotgan qiyin mavzularni yo‘l-yo‘lakay o‘tishning bosilanishidir.

Umumlashtirish bu muayyan bilimlar asosidagi mavzuni umumlashtirishdir.

### S.N. Lisenkova texnologiyasi



S.N.Lisenkova metodikasi asosida materialni o‘zlashtirish uch bosqichda kechadi:

1. Kelgusida o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilimlarni oldindan kichik hajmlarda berib borish;
2. Yangi tushunchalarni aniqlashtirish, ularni umumlashtirish va qo‘llash;
3. Fikrlash usullari va o‘quv xatti-harakatlarining rivojlantirish.

#### 4.5.4. O‘qitishni tabaqaqlashtirish

G.K.Selevko tadqiqotlarida o‘qitishni tabaqaqlashtirish o‘quv jarayonini tashkil etish shakli sifatida izohlanadi, o‘zida bilim darajasi bir xil bo‘lgan, u yoki bu jihatdan o‘quv jarayonida umumiyligini sifatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar guruhi bilan o‘qituvchi ishlaydi. O‘qitishni tabaqaqlashtirish o‘quv jarayonidagi ta’lim oluvchilarining turli guruhlarini ixtisoslashtirishini ta’minlaydigan umumiyligini didaktikaning bir qismi sifatida ham belgilanadi.

O‘qitish tiziminining qurama texnologiyasi (N.P. Guzik).

«O‘qitish tiziminining qurama texnologiyasi» savyasiga va darslarda mavzu bo‘yicha davriylikni rivojlantirishga ko‘ra sind ichidagi o‘qitishning tabaqaqlashtirilishi deb qaraladi. Darslar har bir mavzu bo‘yicha ketma

ket joylashgan besh tipdan iborat bo‘ladi:

- 1) mavzuni umumiy tahlil qiluvchi darslar (ular leksiyalar deb yuritiladi);
- 2) ta‘lim oluvchilarining mustaqil ishlari jarayonida o‘quv materialining chuqurlashtirib ishlab chiqishini ko‘za tutgan, tuzilgan seminar mashg‘ulotlari (bunday darslar uchtadan beshtagacha bo‘lishi mumkin);
- 3) bilimlarni umumlashtirish va tartibga tushirish (guruhash) darslari (mavzular bo‘yicha sinovlar);
- 4) fanlararo materiallarni umumlashtirish (mavzular bo‘yicha vazifalarni himoya qilish);
- 5) dars-praktikumlar.

Keyingi bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarining saviyalariga ko‘ra tabaqlashtirish ishlarini tashkil etadi. Bu ish yangi materialni berish, uni mustahkamlash va takrorlash, bilim, malaka va ko‘nikmalarni nazorat qilish orqali amalga oshiriladi.

Bu texnologiyada uchta tabaqlashtirishning turli darajadagi qiyinchiliklari: «A», «V», «S» dasturlari ajralib turadi.

Dasturlar quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- muayyan darajadagi bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallahni ta‘minlaydi;
  - ta‘lim oluvchilarining ma‘lum darajadagi mustaqilligini ta‘minlaydi;
- «S» dasturi tayanch standart sifatida qayd qilinadi. Uni bajarish orqali ta‘lim oluvchilar fan bo‘yicha o‘quv materialini, uni qayta tiklay olish darajasida o‘zlashtiradilar. «S» dasturi vazifalarini nisbatan qiyin dasturga o‘tmasdan oldin har bir o‘quvchi bajara olishi lozim.

«V» dasturi mavzuni qo‘llash bilan bog‘liq masalalarni yechish uchun zarur bo‘lgan o‘quv va aqliy faoliyatning umumiy va o‘ziga xos usullari bilan birga egallahni ta‘minlaydi. Ushbu dasturga kiritiladigan qo‘shimecha ma‘lumotlar birinchi bosqich materiallarni kengaytiradi, asosiy bilimlarni isbotlaydi, namoyish etadi va oydinlashtiradi hamda tushunchalarining amal qilish va qo‘llanishini ko‘rsatib turadi.

«A» dasturi o‘quvchilarining bilimlarini to‘la anglash, ijodiy qo‘llash darajasiga ko‘taradi. Bu dasturda ijodiy qo‘llash istiqboli tobora takomillashtib boruvchi ma‘lumotlar, chuqurlashtiriladigan materiallar, hamda uning mantiqiy asoslanganligi joylashtirilgan.

Materialarni takrorlashda turli darajadagi vazifalarini erkin tiklash metodikasi qo‘llanadi.

Tabaqlashtirilgan vazifalarini nazorat qilishda individuallikka o‘tiladi va u chuqurlashtiriladi.

#### 4.5.5 O‘qitishni individuallashtirish texnologiyasi

Inge Unt, A.S. Graniskaya, V.D. Shadrikov tadqiqotlarda individuallit o‘qitish o‘quv jarayonini tashkil etish shakli, modeli sifatida belgilanadi. Unda:

- pedagog faqat birgina talaba bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi;
- bir talaba faqat o‘qitish vositalari (kitoblar, kompyuter va b.) bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi.

Individual o‘qitishda faoliyatning mazmuni, metodlari va sur‘ati talabaning xususiyatlarga moslashtiriladi.

Shaxsiy yondoshish deganda:

- u pedagogikaning tamoyili bo‘lib, unga ko‘ra pedagog o‘quv – tarbiya ishlari jarayonida talabalarning shaxsiy xislatlarini hisobga olgan holda ayrim talabalar bilan individual model bo‘yicha o‘zaro munosabatda bo‘lish hamda individual xususiyatlarga asoslanish;
- o‘quv jarayonida talabalarning individual xususiyatini hisobga olish;
- barcha talabalarning rivojlanishigina emas, balki har bir talabaga alohida rivojlanish uchun psixologik–pedagogik tadbirlar yaratish tushuniladi.

O‘qitishni individuallashtirish;

- o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘lib, unda o‘qitish usullari, sur‘atini tanlash talabaning individual xususiyatlari bilan bog‘lanadi;
- individual yondashuvni ta‘minlovchi turli o‘quv-metodik, psixologik–pedagogik va tashkiliy-ma’muriy tadbirlardir.

Shunday qilib, didaktika bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarga ko‘ra o‘qitishni individuallashtirish o‘quv jarayonining shunday tashkil qilinishi, unda individual yondashuv va individual shakl ustuvor hisoblanadi.

O‘qitishni individuallashtirish quyidagi mualliflik texnologiyalarida asoslab berildi:

- Inge Untning o‘qitishni individuallashtirish texnologiyasi;
- A.S. Gransikayaning moslashuvchan o‘qitish texnologiyasi;
- V.D. Shadrikovning individuallikka qaratilgan reja asosida o‘qitish texnologiyasi.

Inge Untning o‘qitishni individuallashtirish texnologiyasidagi asosiy konsepsiya hozirgi sharoitda o‘qitishni individuallashtirishning muhim shakli o‘quvchilarining maktabdagisi va uydagi mustaqil ishlari deb qoidalashtirilgan. Inge Untning mazmuni va metodikasi deb mustaqil ishlar uchun individual o‘quv vazifalari, joriy o‘quv adabiyotiga moslashtirilgan, individuallashtirilgan mustaqil ishlar qo‘llanmasi asosida nashr etilgan ish daftarlari tushunadi.

A.S.Graniskaya o‘zining moslashuvchan o‘qitish tizimini sind-dars tizimida tashkil etish va unda o‘qituvchi 60-80% vaqtini o‘quvchilar bilan individual ishlashtisha ajratish mumkinligini qayd qiladi. A.S.Graniskaya metodikasini

**o'ziga xosligi uning darsni muayyan g'ayriodativ qurilma asosida etishidir:**

- Birinchi qism – barchani o‘qitish;
  - Ikkinchi qism – ikki

V.D.Shadrikov gi potezasiga ko'proq qurilishlari haqida qo'shilgan qism - ikki parallel jarayon: o'quvchilarining mustaqil ishlari va o'qituvchining ayrim o'quvchilar bilan individual ishlashi, ya'n umumlashtirilgan sxemalardan foydalanish, almashinib turuvchi juft o'qituvchi bo'lib ishlash, moslashuvchan ko'p qirrali vazifalar va b.

V.D.Shadrikov gi potezasiga ko'ra agar bolaga murakkablashib boruvch vazifalarning tafsiloti berilsa, unga o'r ganish jarayonini motivatsiyalash taklifi, etilsa, lekin bolaga shu bugun uning uchun mumkin va qulay ishlash imkoniyati qoldirilsa, o'quvchilar qobiliyati samarali rivojlanadi deb hisoblanadi. V.D.Shadrikov metodikasi asosini har bir o'quvchining qobiliyatiga qarab o'qitishga imkon beradigan olti darajadagi o'quv rejasi, dastur va metodik qo'llanma tashkil etadi. Har bir fanning murakkablik darajasiga ko'ra kuchi yetgan variantni tanlab olib, o'quvchilar sifda tez-tez almashib turadi va fanning hajmi va mazmunini qo'ldan chiqarmay birligida o'quv dastunini o'zlashtirishga harakat qildilar. Murakkablik darajasini tanlash tezlikda amalga oshiriladi va «ba'zan» uni amalga oshirib bo'lmaydi. Chunki u sinfdagi o'quvchilarning tenglashish, qobiliyati holatiga bog'liq bo'ladi.

Murakkablikning olti darajasi amalda barcha bolalarga bog'liq bo'lib berishga, barchaning kuchi yetadigan hamda o'quvchining qobilivatiga qarab rivojilanishiga moslangan o'quv jarayani qaytarishga imaydi. Chunki u

Bu o'qitishni individuallashtirish mualliflik texnologiyasi negizida umumiy tamoyillar mavjud:

- individual ushtirish o‘qitish jarayoni strategiyasıdır;
  - individual ushtirish – individualikni shakllanitishning zaruriy omili;
  - barcha o‘rganiladigan fanlarda individual ushtirilgan o‘qitishdan dalanishning mumkinligi;
  - individual ishlarni o‘quv faoliyatining boshqa shakllari bilan grasiyalash;
  - individual surʼatda yahdida.

Individualsuradai, uslubda o'rganish.  
Individualschafts technologiyasining umumiy yususiviyatlari  
kiradi;

- o'zlashtira olmaslikka olib keluvchi omillarni qayd qilish;
  - fikrlash jarayonida bilim, malaka, ko'nikmalarini egallash asnosida individual kamchiliklarni tuzata olish usullari;
  - oila tarbiyasidagi motivatsiyaning bo'limmasligi hamda iroda sustligi kamchiliklarini qayd qilish va yenga olish;
  - qobiliyatli va iste'dodli o'quvchilarga nisbatan o'quv jarayonini optimallashtirish (ijodiy faoliyat, sinf va sinfdan tashqari ishlarni hisobga olish);
  - o'qitish jarayonini tanlash erkintigini berish;
  - umumiy o'quv malakalari va ko'nikmalarini shakllantirish;

- o‘quvchilarning o‘z-o‘ziga mos baho bera olishini shakllantirish;
  - o‘qitishning texnik vositalaridan, shuningdek, EHMdan foydalanish.

- O'qishning texnologik vositalaridan, shuningda, Lektsion jarayonidan, O'qitishni individuallashtirish texnologiyasiga quyidagilar kiradi: Batov tizimi, AQShda ishlab chiqilgan bu tizimda o'quv jarayoni ikki smoga bo'sinadi;

**Birinchi qism- butunicha sinf ishi.**

#### Ikkinchı qism- individual mashg'ulotla

Bunday mashg'ulotlar unga zaruriyat sezgan o'quvchilar bilan yo umum tomonidan qabul qilingan me'yordan orqada qolmaslik yoki nisbatan rivojlangan qobiliyatları bilan ajralib turganlar bilan bir qatorda bo'lishini ta'minlash maqsadida o'tkaziladi.

Yuqori qobiliyatli kategoriya o'quvchilar bilan o'qituvchi, nisbatan kamroq qobiliyatli va qoloq o'quvchilar bilan o'qituvchi yordamchisi shug'ullanadi.

**Tramp rejası** – bu texnologiya AQShda juda mashhur. Bu o'qitish shakllarining shunday tizimiki, unda katta auditoriyadagi mashg'ulotlar kichik guruhlardagi individual mashg'ulotlar bilan qo'shib olib boriladi.

Zamonaviy texnik vositalar yordamida 100-150 kishidan iborat katta guruhlarda yuksak malakali o'qituvchilar, professorlar leksiya o'qiydilar. 10-15 kishidan iborat kichik guruhiar esa leksiya materiallarini muhokama qiladilar, babs yuritadilar.

Individual ishlar esa maktab kabinetlerida, laboratoriyalarda o'tkaziladi. Leksiya mashg'ulotlariiga 40%, kichik guruhlardagi mashg'ulotlarga 20%, kabinet va laboratoriyalardagi individual ishlarga esa 40% ajratiladi. Ödatdagi sinf tushunchasi yo'q, kichik guruhlar ham doimiy emas.

#### **4.5.6. Dasturlashtirilgan o'qitish texnologiyasi**

Dasturlashtirilgan o'qitish XX asrning 50-yillari boshida paydo bo'ldi. U amerikalik psixolog B.Skinner nomi bilan bog'liq. U materialarning o'zlashtirilishini boshqarishning samaradorligini oshirishda, axborotlarni qismma-qism uzatishning muntazam programmasi asosiga qurish va uni nazorat qilishni tavsiya etdi.

N.Krauder tarmoqlangan dasturni ishlab chiqdi, unda nazorat natijalariga ko'ra ta'lim oluvchilarga mustaqil ishlar uchun turli xildagi materiallar taysiya etiladi.

G.K.Selevko dasturlashtirilgan o'qitishga quyidagi ta'rifni beradi, ya'ni dasturlashtirilgan o'qitish deganda o'qitish uskulunari (EHM, programmalashtirilgan darslik, kinotrenajer va b.) yordamida programmalashtirilgan o'quv materialining o'zlashtirilishini boshqarishni tushunadi. Dasturlashtirilgan o'quv materiali muayyan mantiqiy izchillikda

beriladigan nisbatan katta bo'lmagan o'quv axborotlari («kadrlar», «fayllar», «odimlar») seriyasidan iborat bo'ladi.

V.P.Bespalko bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish namunasidagi pedagogik texnologiya tasnifini tavsya etdi. U o'qituvchi va ta'lif oluvchi (boshqariluvchi) munosabatlarini quyidagicha belgilaydi:

• *berk-* (o'quvchilarining nazorat qilinmaydigan va tuzatilmaydigan faoliyati);

- *davriy* (*nazorat, o'z-o'zini nazorat qilish, o'zaro nazorat*);
- *tarqoq* – (*frontal*) yoki yo'nalganlik (*individuallik*);
- *qo'l* (*og'zaki*) yoki avtomatlar (*o'quv vositalari*) orqali.

V.P.Bespalko texnologiyasi turlari:

1. klassik leksiya metodida o'qitish (boshqaruv-berk, tarqoq, qo'lida);

2. audiovizual texnik vositalarda o'qitish (berk, tarqoq, avtomatlashtirilgan);

3. «Konsultant (maslahatchilar)» tizimi (berk, yo'naltirilgan, qo'lida);

4. o'quv adabiyotlari yordamida o'qitish (berk, yo'naltirilgan, avtomatlashtirilgan) – mustaqil ish;

5. «Kichik guruhlar» tizimi (davriy, tarqoq, qo'lida) – guruhlardagi o'qitishning tabaqalashtirilgan usuli;

6. kompyuter o'qitishlari (davriy, tarqoq, avtomatlashtirilgan);

7. «Repetitor» tizimi (davriy, yo'naltirilgan, qo'lida) – individual o'qitish;

8. «Dasturlashtirilgan o'qitish» (davriy, yo'naltirilgan, avtomatlashtirilgan), ular uchun oldindan programmalar tuzib qo'yiladi.

Dasturlashtirilgan o'qitishning beshta asosiy tamoyili farqlanadi:

1. **Boshqarish qurilmalarining muayyan bosqichliligi (ierarxiya) tamoyili.**

Bu programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasining ierarxiya tuzilmasida avvalambor pedagog turadi, va bu fanda dastlabki umumiy mo'ljal hisoblanadi; o'qitishning murakkab nostandard vaziyatlarida individual yordam va korreksiya o'rinn oladi.

2. **Qayta aloqa tamoyili.** U o'quv faoliyatining har bir tadbiri bo'yicha o'quv jarayonini boshqarishning davriy tashkil etish tizimini tafab qiladi. Bunda avvalo to'g'ri aloqa o'rnatiladi – zaturiy harakat obrazni to'g'risidagi axborot boshqaruvchi obyektdan boshqariluvchiga uzatiladi. Qayta aloqa, V.P. Bespalko ta'kidlashicha, pedagog uchungina emas, balki ta'lif oluvchiga ham zarur; birinchisiga korreksiya uchun, ikkinchisiga esa o'quv materialini tushunish uchun.

Ichki va tashqi qayta aloqa ham mayjud. Ichki qayta aloqa ta'lif oluvchilarining o'z natijalarini va o'zining aqliy faoliyati xarakterini mustaqil korreksiya qilish uchun xizmat qiladi.

Tashqi qayta aloqa ta'lif oluvchiga bevosita o'quv jarayonini

boshqaruvchi qurilmalar vositasida yoki pedagog tomonidan ta'sir etishda amalga oshiriladi.

3. **O'quv materialini yoritish va uzatishda amalga oshiriladigan odimlovchi texnologik jarayon tamoyili.** Odimlovchi o'quv tadbiri – bu texnologik usul bo'lib, unda o'quv materiali programmada axborot bo'laklari va o'quv vazifalari (bilim va malakalarni samarali o'zlashtirishni ta'minlashga xizmat qiladigan va ta'lif oluvchining bilimlarni o'zlashtirishning muayyan nazariyasini aks ettirgan)ning kengligi bo'yicha alohida, mustaqil, lekin o'zaro bog'langan va optimal bo'lgan qismlardan iboratdir.

To'g'ridan-to'g'ri va qayta aloqa uchun zarur bo'lgan axborotlar to'plami, bilish harakatlari va qoidalarining ta'limiyo programma odimini hosil qiladi. Bu odim tarkibiga uch o'zaro aloqador kadr (zveno) qo'shiladi: axborot, qayta aloqa tadbiri va nazorat. Odimlovchi o'quv tadbirlari izchilligi programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasi asosini tashkil etuvchi ta'limiyo programmani hosil qiladi.

4. **O'qitishda individual namuna va boshqarish tamoyili davom ettiriladi.** Bu tamoyil ta'lif oluvchining har biriga shunday axborot jarayonini yo'naltiradi va tavsya etadiki, u ta'lif oluvchiga mashq jarayonida, tezlikda oldinga siljishga imkoniyat beradi, chunki uning bilish kuchi unga muvofiq ravishda boshqaruvchi tomonidan uzatilgan axborotga, moslashishga qulay bo'ladi.

5. **Programmalashtirilgan o'quv materialini uzatish uchun maxsus texnik vositalardan foydalanish tamoyili.**


Programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasini ilmiy asoslash bir qator ta'limiyo programmalarni farqlash imkoniyatini beradi:

- *ravon programmalar;*
- *tarmoqlanuvchi programmalar;*
- *soddalashtirilgan programmalar;*
- *aralash programmalar;*
- *algoritm;*
- *blokli o'qitish;*
- *modulli o'qitish;*
- *bilimlarni to'la o'zlashtirish;*

**Ravon programmalar** – bu nazorat topshiriqlari va o'quv axborotlarining almashinib turuvchi u qadar katta bo'lmagan bloklari ketma-ketligidir.

Ravon programmada ta'lif oluvchi to'g'ri javob berishi shart. Ba'zan ehtimol deb topilgan javoblardan birini shunchaki tanlaydi. To'g'ri topilgan javobda u yangi o'quv axborotiga ega bo'ladi. Agar javob to'g'ri chiqmasa, axborotni qaytadan o'rganishga tavsya etiladi.

## Ravon programmalar



**Tarmoqlanuvchi programma.** Ta'lif oluvchi noto'g'ri javob berganda, unga qo'shimcha o'quv axboroti beriladi va u ta'lif oluvchiga nazorat topshiriqlarini bajarish, to'g'ri javob qaytarish va o'quv axborotlarining yangi bo'laklarini olish imkoniyatini beradi.

**Soddalashtirilgan programma.** U ta'lif oluvchiga yangi o'quv materialini murakkablik darajasiga qarab tanlab olish, uni o'zlashtirish jarayonida u yoki bu tarzda o'zgartirish, oddiy ma'lumotnomasi, lug'at va qo'llanmalardan foydalanish imkoniyatini beradi.

**Aralash programma.** U ravon, tarmoqlanuvchi, soddalashtirilgan programma bo'laklarini o'zida qamrab oladi.

**Algoritm.** U aqliy va amaliy tadbirilar izchilligini belgilovchi tafsilotdir. U o'qitishning mustaqil vositasi hamda ta'limiyo programmiarning qismi bo'lishi ham mumkin.

**Blokli o'qitish.** Bu moslashuvchan programma asosida o'quvchilarning turli-tuman intellektual tadbirilar va egallagan bilimlaridan o'quv vazifalarini yechishda foydalanish imkoniyatlarini ta'minlaydi.


Quyidagi izchil bloklar farqlanadi:

- *axborot bloki;*
- *test-axborot (o'zlashtirishni tekshirish);*
- *korreksion-axborot (noto'g'ri javob qaytarilganda qo'shimcha o'qitish);*
- *muammoli blok: olingan bilimlar asosida vazifalarini yechish;*
- *tekshirish va korreksiya bloki.*

**Modulli o'qitish.** U modullar bo'yicha tuzilgan o'quv programmalari asosida o'qitishni tashkil etishdir. Modul kurs mazmunini uch sathda qamrab oladi: to'la, qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan. Programma materiallari bir vaqtning o'zida barcha ehtimol ko'rilsan kodlarda: rasm, test, ramzlar va so'z bilan berilishi mumkin.

O'qitish modulli o'quv materialining avtonom (mustaqil) qismi bo'lib, quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

## Tarmoqlanuvchi programma



- aniq ifodaga ega bo'lgan o'quv maqsadi (maqsadli programma);
- axborotlar banki: o'qitish programmasi shaklidagi ayni o'quv materiali;
- maqsadlarga erishish bo'yicha metodik qo'llanma;
- zaruriy malakalarни shakllantirish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar;
- qo'yilgan modul maqsadiga qatyi muvoofiq ketuvchi nazorat ishi.

**Bilimlarni to'la o'zlashtirish texnologiyasi.** O'quv materiallari bir necha bo'laklarga bo'linadi: o'zlashtirilishi tegishli bo'lgan o'quv unsurlari, undan so'ng bo'limlar bo'yicha tekshirish uchun materiallar ishlab chiqiladi, undan so'ng o'qitish, tekshirish — joriy nazorat, korrektirovka va qayta, o'zgartirilgan tarzda ishlab chiqish - o'qitish.

**Xotima.** Hozirgi davr o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish bilan xarakterlidir.

**Pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lif texnologiyalarining ilmiy asoslarini ishlab chiqish, pedagogik innovatsiyalar, mualliflik maktablari va yangi texnologiyalarni eksperiment qilish bilan bog'liqidir. Bu tajribalar muayyan tizimni ishlab chiqish va umumlashtirishni talab etadi.**

**Pedagogik texnologiyaga yaxlit hodisa sifatida qaratadi. Texnologiyaning interfaol sifatlari, tarkibiy qismlari, tuzilmasi, funksional tavsifi, kommunikativ xususiyatlari, tarixiyligi va uzviyiliqi tadqiq qilinmoqda.**

«Texnologiya», «pedagogik texnologiya» tushunchalari hamon tadqiqotlar bo‘lishini taqozo etadi.

Pedagogik texnologiyalar tasniflarini asoslash, texnologiya turlari mazmunining yoritilishi, bu texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish yo‘llarini belgilash ta’limning barcha bosqichlarida uning samaradorligini oshirishga imkon beradi.

### O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar va vazifalar

1. Pedagogik texnologiyaga ta’rif bering.
2. Pedagogik texnologiyalarning tasniflarini asoslab bering.
3. Muammoli o‘qitishning mohiyati nimadao‘.
4. Muammoli o‘qitish metodikasining o‘ziga xosligini yoritib bering.
5. Siz o‘yinli texnologiyalarning qaysi turlarini bilasizo‘.
6. Pedagogik o‘yinlar tasnifini aytib bering.
7. Mualliflik texnologiyalari namunalarini aytib bering va ularning mohiyatini so‘zlab bering.

### ADABIYOTLAR

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии в подготовке учителя. Ташкент, 2000.
2. Аллаёров И.А. Дидактические основы активного обучения управлеченским дисциплинам. – Ташкент: Фан, 1994.
3. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М., 1995.
4. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М., 1989.
5. Бордовский Г.А., Извозчиков В.А. Новые технологии обучения: Вопросы терминологии// Педагогика. – 1993.-№5.
6. Гальперин П.К. К теории программированного обучения. – М., 1967.
7. Кларин М.В. Инновации в мировой педагогике. – Рига, 1995.
8. Кларин М.В. Педагогическая технология. – М., 1989.
9. Кудрявцев П.О. Проблемное обучение. Истоки и сущность.: Знание, 1991.
10. Молибог А.Г. Программирование обучения. – М., 1967.
11. Пилкасистый И.И. и др. Технология игры в обучении и развитии. – М.: РПА, 1996.
12. Самоуница Н.В. Организационно обучающие игры в образовании. – М.: Народное образование, 1996.
13. Селевко Г.К. и др. Дифференциация обучения. – Ярославль, 1995.

14. Селевко Г.К. Опыт разработки теории педагогики сотрудничества. Методические рекомендации. Ч. I, II. – Ярославль, 1988, 1989.
15. Селевко Г.К., Тихомирова Н.К. Педагогика сотрудничества о перестройке школы. – Ярославль, 1990.
16. Унт Инге. Индивидуализация и дифференциация обучения.- М: Педагогика, 1990.
17. Шаталов В.Ф. Педагогическая проза. – М.: Педагогика, 1980.
18. Эльконин Д.В. Психология игры.- М., 1979.
19. Юдин В.В. Педагогическая технология. – Ярославль, 1997.

## V BOB PEDAGOGIK MAHORAT ASOSLARI

O'qituvchilik kasbi o'z mohiyatiga ko'ra o'ta individualdir. Har bir o'qituvchining muhim hayotiy o'mni, uning o'z ishining ustasi bo'lishdir.

O'qituvchi mahorati uning faoliyatida ko'rindi. O'qituvchi avvalo pedagogik jarayonning qonuniyatlari va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo'lishi lozim. Shu ma'noda pedagogning umumlashgan malakalari va uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga molik bo'ladi.

Biroq mahorat – bu alohida qudrat. Yuqori va kichik darajada Usta bo'ishi mumkin emas. Mahoratga erishish ham, erishmastonik ham mumkin. Haqiqiy usta mehnat faoliyati chog'idagina go'zaldir.

Pedagogik mahoratga yetishish o'qituvchining muayyan shaxsiy sifatlari bilan amalga oshadi.

**Pedagogik mahorat yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqarolik va kasbiy mavqeini ifodalaydi.**

### 5.1. Pedagogik mahorat haqida tushuncha

«Pedagogik mahorat» bir kategoriya sifatida o'zining ilmiy asoslariga ega. 1987-1997 yillardagi ilmiy yondashuvlar bu favqulodda hodisaga nisbatan quyidagicha xulosa qilishga imkon berdi:

**Pedagogik mahorat kasbiy faoliyatdagagi individuallikning yorqin ko'rinishi sifatida tushuniladi.**

Pedagogik mahorat kategoriyasi kasbiy faoliyat nuqtai nazardan kishining individualligini xarakterlaydi.

Hozirgi tadqiqotlarda pedagogik mahoratning o'ziga xosligi quyidagi kategoriyalarda jamlanadi:

**Pedagogik mahorat** (A.S.Belkin, V.I.Zagvyazinskiy, N.P.Lebednik, I.A.Zyazyun, T.F.Kuzina, N.V.Kuxarev, S.B.Elkanov, A.K.Markova);

**Pedagogik ijod** (V.V.Belich, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.D.Nikandrov, A.K.Markova, T.V.Frolova, T.Kaloshina, G.F.Poxmelkina, S.Yu.Stepanova);

**Novatorlik** (V.I.Zagvyazinskiy, A.K.Markova);

**Kasbiy bilimdonlik** (I.A.Zyazyun, N.P.Lebednik, A.K.Markova);

**Faoliyat uslubi** (A.K.Markova);

**Innovatsion faoliyat** (E.P.Morozov, P.I.Pidkasistiy, N.V.Yusufbekova);

**Pedagogik texnologiya** (N.E.Shurkova, V.Yu.Pityukov, ye.A.Osipova);

**Mahorat** (N.V.Kuzmina, T.V.Frolova, T.Yu.Kaloshina, G.I.Poxmelkina, S.Yu.Stepanova).

Turli tadqiqotchilar ishlarida ayni bir hodisani tavsiflash uchun turlicha tushunchalardan foydalanish boshqacha ma'no va mazmun tomonlariga ega.

Turli muallif asarlarida pedagogik mahoratning yagona, tan olingen tajribuning yo'qligi uni tadqiqotning jonli jarayoni deb xulosa chiqarishga mos bo'ladi.

Tushunchalar, fikrlarning turli-tumanligi bu hodisaning murakkabligi va ko'p qirraligidan dalolat beradi. Barcha ta'riflarda urg'u shaxsga beriladi va shu tariqa ular pedagogik mahoratning sotsial mohiyatini aks ettiradi.

I.A.Zyazyun va N.A.Lebedniklar shaxsning sotsial yetukligi va kasbiy mahoratining o'zaro bog'liqligini isbotlab berdilar.

Mahorat talabalar tomonidan ularning sotsial yetuklikka erishish darajasiga qarab bosqichma-bosqich egallanadi. Sotsial yetuklik komponentlari pedagogik mahorat komponenti bilan quyidagi nisbatda bo'ladi.

Bo'lg'usi pedagogning sotsial yetuklik komponentlariga ushbular kiradi:

- *sotsial o'z-o'zini belgilash* – o'zining pedagogik qobiliyatları va e'tiqodini namoyon qilish;

- *sotsial faoliyk* – odamlar bilan ishlay olish va boshqalarni tarbiyalash tajribasini takomillashtirish;

- *sotsial ma'suliyat* – o'qituvchining bilimdonligiga aylanadigan bilimlar.

**Pedagogik mahorat komponentlari** N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin, I.A.Zyazyun, V.I.Zagvyazinskiy, G.I.Xozyainov, T.F.Kuzina, A.I.Myashenko, N.P.Lebednik, T.Noyner, Yu.K.Babanskiy, N.V.Kuxarevlarning tadqiqotlarida o'rganilgan. Ular pedagogik mahoratning asosiy yo'nalishlarini muayyan mantiqiy izchillikda belgilab berdilar.

Pedagogik mahorat asoslariga: kasbiy pedagogik bilimlar, insonparvarlikka yo'nalganlik, pedagogik texnika, kasbiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish tajribasi, pedagog shaxsi taalluqlidir.

**Mahoratning shakllanish bosqichlariga: reproduktivlik (boshlang'ich), ijodiylik, ijodiy-novatorlik** kiradi.

Pedagogik mahorat darajalari o'qituvchi ish darajasining davomi hisoblanadi:

- *reproduktiv (o'ta past)*;

- *moslashuvchan (past)*;

- *lokal (chegaralangan)- modellashtirish (o'rtacha goniqarli)*.

**Bu daraja talabalar bilan bo'ladigan o'quv-tarbiya ishlarining ayrim yo'nalishlarida yuqori sifati bilan xarakterlanadi:**

- *izchil modellashtirish* (yuqori). Bu bosqichda, pedagog faoliyatining barcha turlarida yuqori sifatga erishiladi;

- *izchil modellashtirish* (oliy). Bunda, faoliyatning barcha turlarida ijodiy munosabat namoyon bo'ladi, o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini

oshirish yo'llari izlanadi.

Pedagogik mahorat komponentlari kasbiy faoliyatga kasbiy vazifalarini bajarish uchun zatur bo'lgan malaka nuqtai nazardagi qarashlarni aks ettiradi.

Tadqiqotchilar malaka deganda xatti-harakatlar tizimini uni amalga oshirish maqsadi va shart-sharoiti bilan muvofiq ravishda samarali bajarish imkoniyatini tushunadilar.

Pedagogik mahorat komponentlarini hosil qiladigan quyidagi malaka guruhlari farqlanadi:

- *loyihalash;*
- *konstruksiyalash;*
- *tashkilotchilik;*
- *mulogot;*
- *bilish va reflektivlik.*

Keyingi yillarda pedagogik mahorat kategoriyasiga nisbatan yangicha qarashlar paydo bo'ldi. Pedagogik mahoratning an'anaviy izohlaridan bir qadar chekinish ham yuz berdi (**I.A.Zyazyun, N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin**).

Pedagog tadqiqotchilarning Sankt-Peterburg maktabi, pedagogik mahoratni kishining alohida holati – ya'ni uning kasbiy mashg'uloti keng ma'noda kishilar bilan ishlashning o'ziga xos sohasi bo'lgan pedagogika hisoblanadi, deb tavsiflaydi.

Pedagogik mahoratning asosi **pedagogik bilimdonlikdir**.

Pedagogik bilimdonlik, deganda konkret tarixiy davrda qabul qilingan me'yorlar (normalar), standartlar va talablarga muvofiq pedagogik vazifani bajarishga qobiliylik va tayyorlik bilan belgilanadigan integral kasbiy-shaxsiy tavsifnomasi tushuniladi.

Pedagogik bilimdonlik pedagogik sohada mahorat bilan ishlayotgan kishining ta'lif va tarbiya ishida insoniyat to'plagan barcha tajribalardan ratsional foydalanish qobiliyatini ko'zda tutar ekan, demak, u yetarli darajada pedagogik faoliyat va munosabatlarning maqsadga muvofiq usullari va shakllarini egallashi lozim bo'ladi.

Kasbiy-pedagogik bilimdonlikning bosh ko'satkichi bu insonga, shaxsga yo'nalganlikdir.

**Kasbiy-pedagogik bilimdonlik** pedagogik voqelikni izchil idrok eta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi. Bu xislat pedagogik jarayon mantig'ining yaxlitligicha va butun tuzilmasi bilan bingalikda ko'ra olish, pedagogik tizimning rivojlanish qonuniyatları va yo'nalishlarini tushunish imkoniyatini ta'minlaydi hamda maqsadga muvofiq faoliyatni konstruksiyalashni osonlashtiradi.

Bilimdonlik o'qituvchi uchun o'ta muhim bo'lgan uchta holat bilan bog'langan zamonaliv pedagogik texnologiyalarni egallashni taqozo etadi:

- *odamlar bilan o'zaro aloqada bo'lishda, madaniy mulogatda bo'lish;*
- *fani sohasi bo'yicha axborotlarni qabul qila bilish va uni o'qitish mazmuniga*

*moslab qayta ishlash va undan mustaqil tafsil olishda foydalana olish;*

- *o'quv axborotlarni boshqalarga bera olish.*

**Kasbiy-pedagogik bilimdonlik asosan to'rtta komponenti bilan xarakterlanadi:**

- *shaxsga, insonga yo'nalganlik;*
- *pedagogik voqelikni izchil idrok etish;*
- *fan sohasiga yo'nalganlik;*
- *pedagogik texnologiyalarni egallah.*

**Hozirgi ta'lif sharoitida kasbiy-pedagogik bilimdonlik yana uch komponent bilan to'ldiriladi:**

- *bilimdonlik, umuman, o'z faoliyatini jahon pedagogik madaniyati darajasida ishlab chiqilgan tajribalar asosida tashkil etish qobiliyati hamda unga va vatanimizdagagi pedagogikaga integrasiyalasha olish;*
- *o'z safdoshi tajribasi va innovatsion tajribalar bilan o'zaro samarali munosabat o'rnatish qobiliyati;*
- *o'z tajribalarini umumlashtirish va boshqalarga bera olish malakasida namoyon bo'ladi.*

**Pedagogning kasbiy bilimdonligi kreativlik bilan xarakterlanadi.**

**Kreativlik** – bu kasbiy hayot usuli, ko'p qirrali ta'lif jarayoni va tizimining maqsadlari, mazmuni, texnologiyalari sathida yangi pedagogik voqelikni yaratish istagi va malakasidir. Kreativlik o'qituvchiga innovatsion o'zgarishlar oqimiga moslashib olishiga yordam beradi.

Har qanday darajadagi kasbiy bilimdon pedagogik refleksiyaga qodirdir.

**Refleksiya** – fikrlashuning maxsus usuli bo'lib, pedagogik voqelikka, tarixiy-pedagogik tajribaga, muayyan kasbiy mavqening tashuvchisi bo'lgan o'z shaxsiyatiga qayta nazar tashlashdir.

Yuqorida kasbiy-pedagogik bilimdonlikni tashkil etuvchi barcha komponentlar murakkab tuzilmani hosil qilib, mutaxassisning «ideal modeli»ni shakllantira boradi va pirovard natijada zich birlashib ketadi hamda o'qituvchi shaxsi faoliyatini tavsifini belgilaydi.

Bilimdonlik faqat faoliyat jarayonida va faqat konkret kasb doirasida namoyon bo'ladi va baholanadi.

Pedagogik muhitda o'qituvchi faoliyatini baholashda, odatda, «**pedagogik madaniyat**» termini qo'llanadi.

Pedagogik madaniyat kasbiy faoliyatning individual mazmuni bilan bog'lanadi.

Pedagogik bilimdonlik o'qituvchining yuksak natijalarga erishishini ta'minlaydi.

Pedagogik madaniyat faoliyat va munosabatlarga estetik shakl beradi.

Pedagogik faoliyat pedagogik madaniyat tushunchasi tahlili omili bo'lib xizmat qiladi.

**Pedagogik madaniyat umuman madaniyatning namoyon bo'lishidir.**

Madaniyat faoliyat jarayoni va natijasi o'larq subyektning dunyo obyektlarini o'zlashtira borishdagi barcha xatti-harakatlarini qamrab oluvchi sotsial hodisani bildiradi. Madaniyat inson yaratgan, shuningdek, qanday vosita va metod bilan yaratgan barcha hodisalarini o'zida birlashtiradi.

Pedagogik madaniyatda, umuman madaniyatda bo'lganidek, predmet-hosila va texnik-texnologik jihatlar mavjud.

Pedagogik madaniyat bir qator tizim hosil qiluvchi unsurlarga ega. Ularga quyidagilar kiradi:

*Pedagogik loyihalash madaniyati.* U obyektiv imkoniyatlar bilan talab va istaklarni o'zaro nisbatlagan holda maqsadni to'g'ri tanlay olish, vazifalarni belgilab olish, ularning yechilish bosqichlarini rejalashtirish hamda zarur qurollarni tanlab olish malakasidir. Loyihalash madaniyatini namoyish qilish bu ijodga, ya'ni favqulodda yangini yaratish, o'rnatilgan me'yorlar va namunalar chegarasidan chiqib keta olish qobiliyati hamdir.

Bilimlilik madaniyati. U pedagogik bilimlarning turli-tumanligi va pedagog tomonidan bu bilimlarni egallanishini bildiradi.

Dunyoqarash madaniyati. Uning darajasini aksariyat hollarda pedagog va o'qituvchining o'zaro munosabatlari jarayoni va natijaiali belgilaydi.

Turli namunadagi dunyoqarashning mavjudligi, xususan, stixiyali, muntazam, ilmiy va mistik, irratsional, optimistik va pessimistik, dogmatik va tanqidiy, diniy, ateistik, ratsional va pedagogik faoliyat subyektining ham bir necha namunasi borligini taqozo qiladi.

Dunyoqarash madaniyati fan, falsafa, din kabi ma'naviy madaniyat unsurlari bilan tanishish chog'ida shakllanadi.

Pedagogik madaniyatning yana bir unsuri **fikrlash madaniyatidir**.

*Fikrlash madaniyati* ham kundalik hayot jarayonida odatdagি vositalar, ham maxsus vositalar (uning tarkibiga formal mantiqni o'rganish ham kiradi) da vujudga keladi.

*His etish madaniyati.* U insonlar oliy kechinmalarining keng uyg'unligi hosilasi bo'lib, ularsiz pedagogik jarayonda muloqotning bo'lishi mumkin emas.

*Baholash madaniyati* u yoki bu sabab va hodisalar bo'yicha axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, diniy yoki falsafiy xarakterdagi malakali hukm chiqarish qobiliyatidir.

*Muloqot madaniyati* pedagogik madaniyatning eng muhim komponenti bo'lib, u pedagogning o'quchilar, ota-onalar hamda rahbariyat yoki quiyi vazifa egallovchi shaxslar, shuningdek, pedagogik ish doirasidan tashqaridagi barcha insonlar bilan muloqot qilish madaniyatlarini qamrab oladi.

*Tashkiliy madaniyat* ham pedagogik madaniyat tizimiga kiradi va u o'qitish hamda tarbiya jarayonini pedagogik doiraning turli darajalarida

(uniyatda, o'quv yurtlarida, bolalar guruhlarida) tashkil etish imkoniyatini beradi.

Shunday qilib, pedagogik mahoratning tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

- har bir o'quvchi uchun dolzarb bo'lgan hayotiy mazmun rivojlanishini, o'quvchining shu rivojlanish kesmasida, harakat qila olishida, uning hayot mazmunining ochilishi va amalga oshishida o'qituvchi qanday bilim bilan unga yordam ko'rsata olishini «ko'ra olish» qobiliyati;

- ayrim o'qituvchilar rivojlanish mazmuni va kesmasi integrasiyasini hisoblangan hamda jonli organizm sifatida o'quvchilar (sinf va b.) guruhi ni uning rivojlanish va mazmun kash eta borish jarayonida «ko'ra olish» qobiliyati;

- sinfning integral mazmuni va integral rivojlanish kesmasini «ko'rish» va idrok etish malakasi;

- o'ziring organizmni yuksak darajada anglash. Sinf, o'quvchi o'z istaklari, morivlari, afzal ko'rishi jihatidan ular uchun bo'lgan haqiqiy axborotlarni ajrata olish malakasi;

- shaxsiy xususiyatlar oqibati sifatida vujudga keladigan turli buzilish vaziyatlaridan idrokni chaig'itish;

- o'z sezgilarining nozik farqlanish imkoniyatlari vositasida yuqori his bilan boshqarish;

- keng boshqaruv repertuari, boshqarishning xilma-xil uslublari, axborotlarni uzatish «qurollari»: ovoz, xattu-harakat, mimika va bosqalarni egallah;

- kasbiy usullar va metodlarning keng jamg'armasi;

- metodologiyani egallah.

## 5.2. Oliy maktab o'qituvchisining kasbiy-pedagogik faoliyati

Oliy maktab o'qituvchisining samarali faoliyati uning chuqur va rang-barang kasbiy bilimlari, dars berish metodikasini egallanganligi, o'z mehnatining psixologik asesiarini hisobga olishi bilan bog'langan.

Bu vazifalarning bat qilinishida pedagog shaxsiga muhim ahamiyat beriladi.

### 5.2.1. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar:

Oliy maktab o'qituvchisi shaxsiga jiddiy talablar qo'yiladi. Ular pedagoglar va psixologlar tomonidan chuqur o'rganilgan. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan eng muhim talab uning yuqori malakali bo'lishidir. Balki uningsiz pedagogik faoliyat yuritib bo'lmaydi. Oliy maktab o'qituvchisi ham shunday talablarga javob berishi kerakki, bunda talablar

uni yuksak darajada bo'lg'usi mutaxassisni shakllantiradigan shaxs darajasiga ko'tarsin.

Oly məktəb o'qituvchisiga quyidagi muhim va doimiy talablar qo'yiladi:

- jamiyat rivojlanishining siyosiy, sotsial va iqtisodiy yo'nalishlarini to'g'ri baholay olish;
- muayyan taraqqiyot davrida jamiyat uchun zarur bo'lgan bo'lg'usi mutaxassisni shakllantirish standartlarini egallagan bo'lishi;
- pedagogik faoliyatni sevishi;
- o'z sohasi bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lishi;
- zakovatli bo'lishi;
- pedagogik tuyg'u;
- yuksak yetuklik;
- umumiy madaniyat va axloqning yuksak darjasи;
- pedagogik texnologiyalarni mahorat bilan egallagan bo'lishi.

Pedagog shaxsiga qo'yiladigan qo'shimcha talablar: kirishib keta olish, san'atkorlik, quvnoqlig, yaxshi did va boshqalar.

Yuqorida sanab o'tilganlar, pedagog shaxsiga xos bo'lgan tug'ma xislatlar emas, balki ular pedagogning o'z usida muntazam va betinim mehnati, ulkan xizmatlari natijasida yuzaga keltiriladi.

### 5.2.2. Pedagogik qobiliyat

O'qituvchining kasbiy faoliyati favqulodda umumiy va xususiy qobiliyatlarini talab qiladi.

Kasbiy-pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati xususiy pedagogik qobiliyatlarga bog'liq bo'ladi. Pedagogik qobiliyatlarining quyidagi guruhlari farqlanadi:

- obyektga (talabaga) nisbatan sezgirlik;
- kommunikativlik – insonlarga yuz tutish, xayrixohlik, xushmuomalalik;
- perseptiv qibiliyatlar – kasbiy yetuklik, empatiya, pedagogik tuyg'u;
- shaxs dinamikasi – irodaga ta'sir eta olish va mantiqiy ishontira olish qobiliyat;
- hissiy barqarorlik – o'zini boshqara olish;
- kreativlik – ijodiy ish qobiliyat.

Pedagogning xususiy qibiliyatlariga bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash faoliyati va shaxsnı tarbiyalash qobiliyati ham tegishlidir.

O'qitish, o'rganish va o'retish bo'yicha qibiliyatlariga quyidagilar kiradi:

- talabani tushunishini ko'rish va sezish hamda bunday tushunishning darjasini va xarakterini o'rnatish qobiliyati;
- o'quv materialini mustaqil tanlab olish hamda o'qitishning samara beruvchi usul va metodlarini belgilash qobiliyati;
- materialni yetarli bayon qilish hamda uning barcha talabalarga

tushunarligini ta'minlash qobiliyati;

• talabalarning individualligini hisobga olgan holda o'qitish jarayonini tashkil etish qobiliyati;

- o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish qobiliyati;
- talabalarning katta odimlar bilan rivojlanishini tashkil etish qobiliyati;
- o'zining pedagogik mahoratini takomillashtirish qobiliyati;
- o'zining tajribasini boshqalar bilan baham ko'rish qobiliyati;
- mustaqil ta'lim olish va mustaqil takomillashish qobiliyati.

**Pedagogik jarayonga qaratilgan pedagogik qobiliyatlarga quyidagilar kiradi:**

- boshqa insonning ichki holatini to'g'ri baholash, unga hamdardlik bildirish, hamnafas bo'la olish qobiliyati (empatiya qobiliyati);
- taqlid qilish uchun namuna bo'lish qobiliyati;
- tarbiya jarayonida individual xususiyatlarni inobatga olish qobiliyati;
- muloqotning lozim topilgan uslubini hamda o'z o'mini topish, kelisha olish qobiliyati;
- hurmat qozonish, ya ni talabalar o'rtasida obro'ga ega bo'lish qobiliyati.

**Pedagogik qibiliyatlar ichida pedagogik muloqotga bo'lgan qobiliyat alohida ajralib turadi.**

O'qituvchining talabalar bilan davomiy va samarali aloqalarini tashkil etishni kommunikativ qobiliyat bilan bog'laydilar.

**Kommunikativ qobiliyat** – bu pedagogik o'zarbozaloqalar doirasidagi o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladigan muloqot qobiliyatidir.

Psixologiyaga oid adabiyotlarda kommunikativ qibiliyatlarining bir necha guruhlari farqlanadi:

1. *Kishining boshqa kishini bilishi.* Bu qibiliyatlar guruhida kishiga shaxs sifatida, shaxsning alohida qiyofasi, motivi va xatti-harakatlariga baho berish, kishining tashqi ko'rinishi, xulqi va ichki dunyosi nisbatiga baho berish; savlati, imo-ishora, mimika, pantomimikasini «o'qiy» olish kabilalar qamrab olinadi.

2. *Kishining o'z-o'zini bilishi.* U o'z bilimlarini, qibiliyatlarini o'z xarakteri va o'z shaxsining boshqa qirralarini hamda tashqaridan va uning atrofidagi kishilar unga nisbatan qanday baho berishi lozim bo'lsa, shunday baho berishni ko'zda tutadi.

3. *Muloqot vaziyatini to'g'ri baholay olish.* Bu vaziyatni kuzatish, uning ko'proq axborot beradigan belgilarni tanlash va unga diqqatni jalb qilish; yuzaga kelgan vaziyatning sotsial va psixologik mundarijasini to'g'ri idrok etish va baholash qobiliyatidir.

### 5.2.3. O'qituvchi faoliyati turlari

Oliy məktəb o'qituvchisining kasbiy faoliyati turli yo'nalişlarda bo'ladi. Ulardan eng muhimlari tubandagilar:

**O'quv pedagogik faoliyat.** Bu faoliyat jamiyat talablariga mos ravishda oliy məktəbdə o'quv jarayonini tashkil etishga yo'naltırıldı. Oliy məktəbdəgi o'quv jarayonı uchun o'quv va ilmiy-tadqiqot ishlarning uzviy bog'liqligi, talabalar faolligi va mustaqil ishlari ijodiy potensial bo'lgan shaxs ahamiyatini oshirish xarakterlidir.

Oliy məktəbdəgi pedagogik faoliyatda nazariy va amaliy faoliyat qo'shib olib borildi.

Nazariy faoliyat yangi qonuniyatlarni ochish bilan bog'lanadi.

Amaliy faoliyat muayyan vaziyatlarni yangilashga va pedagogik vazifalar tizimini hal qilishga yo'nalgan bo'ladi.

O'qituvchi konkret fanni boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro bog'lagan holda uning o'qitilish maqsad va vazifalarini belgilaydi. Talabaning o'quv-bilish faoliyatini jonlantirishni ta'minlaydigan o'qitishning mazmuni, zamonaviy shakl va metodlarini o'ylab topadi.

O'qituvchi o'quv-pedagogik faoliyatining o'ziga xosligi uning ilmiy-tadqiqot ishlarida faol ishtirok etishidir.

Oliy məktəb o'qituvchisining pedagogik faoliyati tafsifida olimlar, odatda, N.V.Kuzmina va Z.F. yesarova tadqiqotlariga tayanadilar. Ular quyidagi komponentlarni farqlaydilar:

- konstruktivlik;
- tashkilotchilik;
- ilmiy bilish;
- kommunikativlik.

**Konstruktivlik komponenti** ilmiy-tadqiqot, o'quv-tarbiya ishlarida loyihalash yoki o'z konstruksiyalash malakalarida ko'rindi.

**Loyihalash malakasi** – bu ilmiy izlanishni yoki o'quv-tarbiya jarayonini modellashirishning intellektual malakalaridir. O'qituvchining loyihalash malakasi Z.F.Esarova tomonidan tadqiq etilgan.

Oliy məktəb o'qituvchisi faoliyatini tafsiflash va baholash uchun quyidagi sathlardan foydalaniadi:

• **reproduktiv.** Bunda o'qituvchi saqat o'zining axborotlarini loyihalashiradi, lekin auditoriyadagi talabalarning saviyalarini hisobga olmaydi;

• **moslashuvchan.** Bu sathda o'qituvchi o'quv axborotlarini auditoriyadagi talabalarning saviyalariga mos qilib modellashiradi;

• **lokal-modellashirish.** Bu sathda o'qituvchi axborotlarni bayon qilibgina qolmaydi, balki ayrim masalalar bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalar tizimini modellashirira olishi lozim;

• **tizimli-modellashirilgan bilim.** Bu sathda konkret fanni o'zlashtirish

... hui zarur bo'lgan o'z faoliyati va talabalar faoliyati tizimini modellashiradi; • tizimli-modellashirilgan faoliyat. Bu sathda o'qituvchi talabalar bilan funqa barcha o'quv-tarbiya ishlari tizimini modellashirira oladi.

**Tashkilotchilik faoliyati.** Bunday faoliyat ilmiy izlanish va o'quv-tarbiya jarayonini aniq rejalashtirish va tashkil etish malakasida ko'rindi. Bu o'qituvchi, talaba va boshqa olimlarning o'zaro aloqador faoliyatidir.

Tashkilotchilik faoliyati o'zini, o'zining vaqtini; talabalarning individual, suruh, kollektiv ishlini; birgalidagi tadqiqotlarini amalga oshirish uchun foddalarini tanlab olish va ularning vazifalarini belgilab berishni tashkil etish malakasida namoyon bo'ladi.

Tashkilotchilik faoliyatining asosiy vazifasi shu faoliyat ishtiroychilarining xatti-harakatlarini integrasiyalashdir.

**Ilmiy-bilish faoliyati.** Bu faoliyat atrof-olamni va o'zini chuqr va hammonlama bilish malakasida ko'rindi.

O'qituvchi o'z tadqiqotlari, talabalar va aspirantlarning ilmiy faoliyati jarayoni va natijalarini tahlil qiladi.

**Kommunikativlik faoliyati.** Bu faoliyat safdoshlari va talabalar bilan maqbul o'zaro aloqalarini belgilash malakasini ko'zda tutadi.

Kommunikativlik faoliyati asosida o'qituvchining o'z-o'zini boshqarish qobiliyati yotadi.

Tadqiqotchilar pedagogik vazifani pedagogik jarayonning asosiy birligini namoyon etadigan o'ziga xos tizim sifatida izohlaydilar.

V.A.Slastenin pedagogik vazifa deganda, bilish, voqelikni yangilash (o'zgartirish) maqsadi bo'lgan o'ylangan pedagogik vaziyatni tushunadi.

O'qituvchining maqsadga yo'nalgan faoliyatida pedagogik vazifaning: **strategik, taktik va operativ** kabi uch katta guruhni farqlanadi.

**Strategik vazifa.** Bu o'ziga xos ulkan vazifa. Strategik vazifalar ta'limning umumiylaridan kelib chiqadi. U jamiyat rivojlanishining obyektiv ethiyojlarini aks ettiradi. Bu vazifalar pedagogik faoliyatning dastlabki maqsadi va yakuniy natijalarini aniqlab beradi.

Joriy pedagogik jarayonda strategik vazifalar taktik vazifalarga aylanadi.

**Taktik vazifalar** ta'limning yakuniy natijalarini ta'minlashga yo'nalgaligini saqlab qolgan holda strategik vazifalarning u yoki bu bosqichida hal qilinadigan vazifalardir.

**Operativ vazifalar** pedagog amaliy faoliyatida joriy va birinchi navbatda hal qiladigan vazifalardir.

Oliy məktəb o'qituvchisining kasbiy faoliyat tahlili shuni ko'rsatadi ki, bu kasb o'ta murakkab hamda o'ta ijodiy kasbdir.

Shunday qilib, o'qituvchining pedagogik mahorati pedagogik vazifalarni yuksak darajada yechish, o'qituvchining shaxsiy xislatlari sintezi, uning rang-barang ilmiy sohadagi va pedagogik faoliyatidagi bilim hamda malaka va ko'nikmalari bilan belgilanadi.

## ADABIYOTLAR

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии в подготовке учителя. Ташкент, 2000.
2. Аллаёрнов И.А. Дидактические основы активного обучения управлеченческим дисциплинам. – Ташкент: Фан, 1994.
3. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М., 1995.
4. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М., 1989.
5. Бордовский Г.А., Извозчиков В.А. Новые технологии обучения: Вопросы терминологии// Педагогика. – 1993.-№5.
6. Гальперин П.К. К теории программированного обучения. – М., 1967.
7. Кларин М.В. Инновации в мировой педагогике. – Рига, 1995.
8. Кларин М.В. Педагогическая технология. – М., 1989.
9. Курдяевцев П.О. Проблемное обучение. Истоки и сущность.: Знание, 1991.
10. Молибог А.Г. Программирование обучения. – М., 1967.
11. Пидкасистый И.И. и др. Технология игры в обучении и развитии. – М.: РПА, 1996.
12. Самоунина Н.В. Организационно обучающие игры в образовании. – М.: Народное образование, 1996.
13. Селевко Г.К. и др. Дифференциация обучения. – Ярославль, 1995.
14. Селевко Г.К. Опыт разработки теории педагогики сотрудничества. Методические рекомендации. Ч. I, II. – Ярославль, 1988, 1989.
15. Селевко Г.К., Тихомирова Н.К. Педагогика сотрудничества о перестройке школы. – Ярославль, 1990.
16. Унт Инге. Индивидуализация и дифференциация обучения.- М.: Педагогика, 1990.
17. Шаталов В.Ф. Педагогическая проза. – М.: Педагогика, 1980.
18. Эльконин Д.В. Психология игры.- М., 1979.
19. Юдин В.В. Педагогическая технология. – Ярославль, 1997.

## X U L O S A

Oliy ta'limdagи islohotlar zamonaviy bosqichi demokratik yuksak rivojlangan mamlakatlar darajasida O'zbekistonning ilg'or ilmiy-texnik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini ta'minlashga qodir va ma'naviy, madaniy va axloqiy sifatlarga ega yuksak malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni talab etadi.

Oliy maktabda ta'lim mazmuni mutaxassislar shaxsini rivojlantirish, ylarning chuquq fundamental bilimlarini va amaliy tayyorgarliklarining asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Oliy maktabda ta'limning yangi mazmuni zamonaviy bosqichda davlat standarti bilan belgilanadi.

Oliy ta'lim standarti kadrlar tayyorlash, ta'lim mazmuni sifatiga talablarni belgilaydi.

Davlat standarti me'yoriy hujjatlari asosida oliy maktabda o'qitish jarayonini takomillashtirish yo'llari belgilanadi.

Oliy maktabda o'qitish jarayoni ijtimoiy-pedagogik qonuniyatlar bilan belgilanadi va o'qitish tashkiliy shakllari va metodlari turli-tuman tizimlari doirasida amalga oshiriladi.

Oliy maktabda ta'lim mazmunini qayta tashkil qilish: mutaxassislarni tayyorlash yangi samarali shakllarini izlash bevosita talabalar bilim olish faoliyatlarini faollashtirish bilan bog'liq.

Bilim olish faoliyati nazariy asoslarini asoslash uchun yaqin sharq va Markaziy Osiyo qorusiy olimlarining pedagogik qarashlari muhim ahamiyatga ega.

Oliy ta'lim mazmunining sifatini takomillashtirish pedagogikadagi bugungi kunda yangi pedagogik innovatsiya yo'nalihisiz mumkin emas. Oliy maktabda innovatsiyon jarayonlar innovatsiyon xususiyati yangiliklar kiritish, o'qituvchilar kasbiy imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Oliy maktabda pedagogik innovatsiyalar pedagogik texnologiyalar muammolarini bilan uzviy bog'liqdir.

Pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim texnologiyalari ilmiy asoslarini, mualliflik matablarini va yangi tajriba texnologiyalarini ishlab chiqish bilan bog'liq.

Mazkur qo'llanmada pedagogik texnologiyalarni tizimlashtirish va umumlashtirishga urinishlar ushbu muammoni hal etmaydi. Ta'lim mazmunini yuandix takomillashtirish oliy maktabda o'quv jarayoni yangi texnologik muammolarni qo'yishni va hal etishni talab etadi.

## **Asosiy foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии в подготовке учителя. Ташкент, 2000.
2. Аллаёров И.А. Дидактические основы активного обучения управлеченческим дисциплинам. – Ташкент: Фан, 1994.
3. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М., 1995.
4. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М., 1989.
5. Бордовский Г.А., Извозчиков В.А. Новые технологии обучения: Вопросы терминологии// Педагогика. – 1993.-№5.
6. Н.В.Вишнякова. Креативная психопедагогика. - Минск, 1995.
7. С.М.Годник. О сущности профессионально-педагогической деятельности. Воронеж,1992.
8. Гальперин П.К. К теории программированного обучения. – М., 1967.
9. В.И.Загвязинский. Инновационные процессы в образовании и педагогическая наука. -Тюмень, 1990.
10. Инновационная обучение: стратегия и практика. - М., 1994.
11. Инновационные методы обучения в вузе. Сборник научных трудов. - Мурманск, 1993.
12. Кан-Калик В.А., Никандров Н.Д. Педагогическое творчество. - М.,1990.
13. Кларин М.В. Инновационные модели учебного процесса в современной зарубежной педагогике - М.,1994.
14. Кларин М.В. Инновации в мировой педагогике. – Рига, 1995.
15. Кларин М. В. Педагогическая технология. – М., 1989.
16. Кудрявцев П.О. Проблемное обучение. Истоки и сущность: Знание, 1991.
17. Молибог А.Г. Программирование обучение. – М., 1967.
18. Пидкасистый И.И. и др. Технология игры в обучении и развитии. – М.: РГА, 1996.
19. Самоунина Н.В. Организационно обучающие игры в образовании. – М.: Народное образование, 1996.
20. Селевко Г.К. и др. Дифференциация обучения. – Ярославль, 1995.
21. Селевко Г.К. Опыт разработки теории педагогики сотрудничества. Методические рекомендации. Ч. I,II. – Ярославль, 1988, 1989.
22. Селевко Г.К., Тихомирова Н.К. Педагогика сотрудничества о перестройке школы. – Ярославль, 1990.
23. Сластенин В.А., Кодымова Л.С. Педагогика: Инновационная деятельность. - М.: Магистр, 1997
24. Унт Инге. Индивидуализация и дифференциация обучения.- М.: Педагогика, 1990.
25. Шаталов В.Ф. Педагогическая проза. – М.: Педагогика,1980.
26. Эльконин Д.В. Психология игры.- М., 1979.
27. Юдин В.В. Педагогическая технология. – Ярославль, 1997.

## **PEDAGOGIK TERMINLARNING QISQACHA LUG'ATI**

**Avtokratlik** – hokimlik, kishining buyruqbozlik, ko‘rsatmalar berish va jazolash kabi shakllarda boshqalarga (masalan, o‘qituvchining talabaga) nodemokratik usullardan foydalangan holda ta’sir etishga moyilligi.

**Agressivlik** – dushmanlik, boshqalarga, atrofdagilarga zarar yetkazish, tajovuz qilish, noqulaylik tug‘dirish maqsadini amalga oshiruvchi shaxsnинг xususiyati.

**Dolzarblashtirish** – shaxsdagi mavjud bilim, malaka va ko‘nikmalarni turli axloqiy shakllar va hissiy holatlarni qayta ishlab chiqish va ularni botiniy holatdan zohiriylar harakatlarga aylantirish.

**Aksiologiya** – qadriyatlar to‘g‘risidagi falsafiy ta’limot, aksiologik qadriyatlar mohiyati.

**Aksiologik yondoshuv** – insonparvarlik pedagogikasiga xos bo‘lgan xususiyat, bunda inson ijtimoiy qadriyat va jamiyat rivojlanishining provard maqsadi sifatida qaraladi. Aksiologik tafakkur o‘zaro aloqadagi hamda o‘zaro harakatdagi dunyo konsepsiyasiga asoslanadi.

**Amaliy tadqiqotlar** – pedagogik jarayonning ayrim jihatlarini chuqur o‘rganishga qaratilgan ishlar, pedagogik amaliyat qonunlarini ochish.

**Anketalashtirish** – anketa yordamida ijtimoiy, iqtisodiy, demografik, psixologik pedagogik va boshqa tadqiqotlar uchun dastlabki materiallarni yig‘ish jarayoni.

**Antropologiya** – odamning biologik tabiatini har tomonlama o‘rganuvchi fan.

**Asotirlar** - ibtidoiy insonlarning koinot, tabiat hodisalarining mohiyati, paydo bo‘lish sabablari o‘zlaricha izohlash maqsadida yaratgan og‘zaki hikoyalariidir. Insoniyat tafakkurining ilk mevasi sifatida asotirlar qadimgi ajdodlarimizning atrofini o‘rab olgan borliqqa, turli- tuman narsa va hodisalarga, koinot va yer osti dunyosiga bo‘lgan qarashlar tizimididan iborat.

Asotirlar keyinchalik inson badiy tafakkurining rivoji, ilm-fan taraqqiyoti tufayli, tabiat hodisalari va turli narsalarning sir-asrорini tushunib yetishlari oqibatida afsona, rivoyat kabi janrlarga aylangan.

Asotirlar yer yuzidagi barcha xalqlarda mavjud, chunki barcha xalqlar o‘z taraqqiyotining ilk bosqichlarida asotirlar orqali fikrlash, dunyoga asotirlar nigohl bilan qarash bosqichini bosib o‘tgani.

**Assimilyatsiya** – yangi sharoitda tayyor malaka va ko‘nikmalardan jiodiy o‘zgarishsiz foydalananish

**Autotrening** - o‘zini-o‘zi ishontirish, shaxsnинг o‘zini-o‘zi boshqarishiga qaratilgan maxsus mashqlar to‘plami. Autotreningdan shaxsnинг o‘z ruhib holati va xulqini boshqarishda foydalaniadi.

**Axborotli malaka** – ta’lim va tarbiya masalalariga axborotlarni moslashtirish va talqin qilish malakasi.

**Axloq** – shaxsning jamiyatga va boshqa kishilarga nisbatan burchini belgilab beruvchi me’yorlar tizimi, ma’naviy xulq qoidalari, u ijtimoiy ong shakllaridan biridir.

**Bayon qilish** – o’qituvchi tomonidan o’tganilayotgan material mazmunini izchil so’zlab berish metodi.

**Bilish faoliyat** – idrok qilish hissi, nazariy fikrlash va amaliy faoliyat birligi.

**Boshqarish** – tashkil etish, qaror qabul qilishga qaratilgan faoliyat. Obyektni o’z xizmat vazifasi doirasida nazorat qilish, tartibga solish, ishonchli axborotlar asosida tahlil qilish va yakun yasash.

**Burch** – muayyan axloqiy majburiyatlarni his qilish, uning zarurligini anglash.

**Vazifa** – maqsad va uni amalga oshirish bosqichlarining oydinlashtirilishi.

**Verbal** – ifodali, og’zaki.

**Gumanizm** – 1) insonning insonga bo’lgan mehri-muhabbati, uning shani, qadrini hurmat qilish, kishi manfaatlari uchun qayg’urish g’oyalari bilan sug’orilgan va kishilar o’tasidagi tenglik, halollik, insoniy munosabat tamoyillariga asoslangan dunyoqarash; 2) insoniylik va insonparvarlik, insonlarning buniyodkorligiga ishonch.

**Davlat ta’lim standarti** – uzlusiz ta’limning muayyan bosqichida shaxs (mutaxassis)ning tayyorgartlik darajasi va mazmuniga qo’yiladigan minimum talablar.

**Didaktika** – ta’lim va o’qitish nazariyasi hamda o’qitish jarayonida tarbiyalash mazmunini ifodalovchi pedagogikaning tarkibiy qismi.

**Dolzarblikni asoslash** – ta’lim va tarbiya nazariyasi hamda amaliyotining istiqboldagi taraqqiyoti muammolarini o’z vaqtida o’tganish hamda hal qilish zarurligini ko’rsatish.

**Dunyoqarash** – shaxsning tafakkur tarzi va yo’nalishini aks ettiruvchi qarashlar, e’tiqod hamda fikr-o’ylar tizimi.

**Idrok etish malakasi** – boshqa subyektning xususiyatlarini – uning muloqoti va muloqotga hozirligini aniqlash uchun zarur bo’lgan kasbiy – pedagogik malaka.

**Ideal** – oliy maqsad, biror narsaning namunasi, shaxs, guruhlarning xatti-harakatlari, intilishlari intihosi.

**Ijtimoiy idrok etish** – kishilar tomonidan ijtimoiy obyektlarning idrok etilishi, tushunilishi va baholanishi.

**Izohlash, tushuntirish** – og’zaki izoh, yoritilishi lozim bo’lgan turli materiallarni izohlash, isbotlash, tahlil qilish.

**Ilmiy muammo (masala)** – fan orqali hal qilinadigan asosiy ziddiyatlar.

**Ilmiy yangilik** – muayyan davrga nisbatan ma’lum bo’lmagan va pedagogikaga oid adabiyotlarda qayd qilinmagan nazariy, amaliy xulosalar. Ta’lim qonuniyatları, uning tuzilmasi, mexanizmlari mazmuni, tamoyillari va texnologiyalari.

**Individuallik** – shaxsning betakror biososiologik xususiyatlari.

**Intellekt** – shaxsning turli faoliyat shakllarini muvaffaqiyat bilan o’zlashtirishini belgilaydigan tug’ma va o’zlashma barcha aqliy qobiliyatlar majmui.

**Ishontira olish** – axborot oqimining shaxs tomonidan tanqiddan holi, erkin ravishda o’zlashishiga erishishni ko’zlagan ruhiy ta’sir etish metodi.

**Ishonch hosil qilish** – shaxsning muayyan qoida va talablarini ongli ravishda o’zlashtirish vositasida tarbiyalash metodi. Tegishli ma’lumotlar va argumentlarga asoslanib, shaxsning o’z hukmi hamda xulosalari to‘g’riligiga ishonchni yuzaga keltirish jarayoni va natijalar.

**Ichiqoratlik** – o’zgalar iste’dodini ko’rolmaslik va ularning muvafaqqiyatsizligidan quvonish.

**Ichki pozitsiya (mavqe)** – shaxsning kundalik ehtiyoji bilan uzviy bog’liq va hayotining muayyan davri faoliyatining asosiy mazmuni va yo’nalganligini belgilovchi ijtimoiy ko’rsatkichlar tizimi.

**Istiqlolni belgilash malakasi** – ijtimoiy bilish jarayonlarini rejalashtirish va boshqarish.

**Kalokagatiya** – go’zallik, oljanoblik hamda jismoniy va ma’naviy boyliklar uyg’unligi.

**Kasbiy – pedagogik muloqot** – pedagog va tarbiyalanuvchining o’zaro zich ijtimoiy – psixologik aloqasi tizimi bo’lib, uning mazmuni axborotlar aryiboshlash, tarbiyaviy ta’sir o’tkazish, kommunikativ vositalar yordamida o’zaro munosabatlarni tashkil etish hisoblanadi.

**Kasbiy tayyorgarlik** – bo’lajak mutaxassisning psixologik, psixofiziologik, jismoniy hamda ilmiy-nazariy va amaliy tayyorgarligi.

**Kasbiy bilimdonlik** – pedagogik faoliyat yuritish uchun zarur bo’lgan nazariy va amaliy tayyortlik birligi.

**Kibernetika** – axborotlar almashish, ularni qayta ishlashni boshqarish haqidagi fan.

**Kognitiv** – bilish jarayoni.

**Kollektiv** – jamoa. Umumiy maqsad yo’lida shaxslarning o’zaro munosabatlari, tashkiliyligi va intilishlari bilan bir-biriga monand turg’un sotsial (ijtimoiy) guruh.

**Kommunikatsiya** – kishilarning o’zaro muloqotlarida axborotlar almashish tavsifi.

**Kommunikativ ko’nikma** – muomala qila olish, pedagogik texnika malaka va ko’nikma tushunchasi.

**Kommunikativ faoliyat** – pedagogning tarbiyalanuvchilar, boshqa

pedagoglar, jamoatchilik vakillari, ota-onalar bilan maqsadga muvofiq tarzda o'rnatgan munosabatlari.

**Konstruktiv faoliyat** – o'qituvchi faoliyatning asosligini va puhtaligini o'zida konstruktiv mazmun (o'quv materiallarini tanlash va joy-joyiga qo'yish, pedagogik jarayonni rejalashtirish va tashkil etish), konstruktiv – operativ (o'zining va talabaning xatti-harakatlarini rejalashtirish), konstruktiv – material (pedagogik jarayonning o'quv-material bazasini loyihalashtirish) ni birlashtiradi.

**Konflikt** – zid qarashlar, fikrlar to'qnashuvi, jiddiy qarshilik, qizg'in bahs.

**Kreativlik** – betakror qadriyatlar yaratuvchi, nostandard yechimlar qabul qiluvchi individning botiniy qobiliyati.

**Kuzatish** – biror pedagogik hodisa bo'yicha konkret faktik material olish maqsadini ko'zlagan idrok etishning shakli.

**Ko'nikma** – o'rganish natijasida qo'iga kiritilgan, beixtiyor, avtomatik tarzda bajariladigan harakat. Ko'nikmalar biror harakatni nazoratsiz, avtomatik tarzda bajarish qobiliyatlaridir.

**Ko'rsatma** – ehtiyojning mayjudligi va obyektiv vaziyat hamda uni qondirish bilan bog'liq ravishda oldindan shaxslarning ma'lum faolligini tayyorlash, ularni joylashtirish.

**Laboratoriya ishi** – asbob-uskunalar va boshqa texnik moslamalardan foydalangan holda talabalar bilan tajribalar o'tkazish, biror hodisani maxsus jihozlar yordamida o'rganish.

**Leksiya (ma'ruza)** – odatda oly o'quv yurtida biror fan mazmunini og'zaki bayon qilishga asoslangan o'quv jarayoni, metodi.

**Maktabning ichki boshqaruvi** – yuksak natijalarga erishish maqsadida bilishning obyektiv qonunlari asosida yaxlit pedagogik jarayon qatnashchilarining o'zaro maqsadli, ongli harakatlari.

**Malaka** – shaxsning o'zi egallagan bilimlari asosida ularning yangi sharoitdagи yangiliklar bilan birga, ma'lum bir faoliyatni samarali bajarish qobiliyati.

**Malaka tavsifnomasi** – o'qituvchining nazariy va amaliy bilimlariga qo'yiladigan umumiyl talablar.

**Matematik va statistik metod** – bu metod og'zaki so'rov va eksperiment natijalariga ishllov berishda, shuningdek, o'rganilayotgan hodisalar orasidagi miqdoriy aloqadorlikni o'rnatishda qo'llaniladi.

**Mafkura** – jamoat hayotining barcha sohalari uchun umumiyl bo'lgan g'oya va qarashlar tizimi.

**Mashq** – o'zining bilimlarini chuqurlashtirish hamda tegishli malaka va ko'nikmalar hosil qilish maqsadida harakatlarni og'zaki va yozma ravishda takroran amalga oshirish.

**Mashq qilish** – o'quvchining o'z qobiliyatlarini, bilim, malaka va

ko'nikmalarini o'stirishga qaratilgan harakatlari.

**Maqsad** – faoliyat natijasini oldindan sikran belgilash.

**Maqtov** – foydali ish qilgan shaxs va yoki, jamoani og'zaki taqdirlash.

**Menejment** – sotsial, shuningdek, ta'lim jarayonlarini boshqarish tamoyillari, metodlari, vositalari va shakllari majmuasi.

**Metod** – 1) tabiiy va ijtimoiy hayat hodisalarini tadqiq qilish, bilish usuli; 2) harakat qilish usuli, tarzi.

**Metodika** – biror ishni tashkil qilishda maqsadga muvofiq qo'llanadigan metodlar.

**Metodologiya** – 1) dunyoni ilmiy bilish metodi haqidagi ta'limot; 2) biror fonda, shu jumladan pedagogikada qo'llaniladigan metodlar.

**Misologiya** - Qadimgi dunyo xalqlarining dunyo, tabiat hodisalari, ularning paydo bo'lishi hamda, xudolar va qahramonlar haqidagi rivoyatlar, aforonalari. Bu aforonada qadimiy xalqlarning dunyo xamda xudolar haqidagi ibtidoiy tasavvurlari aks etgan bo'ladi.

**Motiv** – kishining ma'lum ehtiyojlarni qondirish uchun asos bo'ladigan kishining ichki faoliyat mazmuni.

**Motivatsiya** – shaxsni faol xatti-harakatlarga undovchi sabablar, asoslar to'plami bo'lib, u ayni zamonda kishi xulqini fiziologik va psixologik boshqarishning dinamik jarayonini ham bildiradi. U faoliyatning yo'nalishi, faoliyi, uyg'unligi hamda turg'unligini belgilaydi.

**Muammoli o'qitish** - o'quv mashq'ulotini tashkil etish shakli bo'lib, unda pedagog rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltiriladi va uning hal qilinishida ta'lim oluvchilar faol mustaqil harakat qiladilar.

**Muammoli vaziyat** - o'quv vaziyati bo'lib, u mashaqqat bilan hal qilinadigan masala tufayli yuzaga keladi.

**Muloqotning yetakchi tipi** – rivojlanishning ma'lum bir davrida atrofdagi kishilar bilan muomalada yetakchilik qiladigan muloqot tipi bo'lib, uning natijasida shaxsning asosiy sifatlari shakilanadi.

**Munozara** – 1) matbuotda, suhbatta biror bahsli masalani muhokama qilish, bahs; 2) muayyan muammo bo'yicha fikr almashishga asoslangan ta'lim metodi.

**Nazariy bosqich** - tadqiqot obyekti to'g'risidagi amaldagi va istiqboldagi tasavvurlar hamda ularga bo'lgan talab o'rtaisdagi ziddiyatni yengish.

**Nazariy tahsil** – pedagogik hodisalarning alohida jihatlari, belgilari, xususiyatlari o'ziga xosligini aniqlash va tahsil etish.

**Obyekt** – insонning, subyektning bilish predmeti va faoliyati.

**Odat** – kishining ma'lum e'tiqodlar, qadriyattar yoki axloqiy me'yordan kelib chiqib amalgaga oshiradigan ongli faoliyati.

**Pedagog** – tarbiyachi, o'qituvchi, dars beruvchi.

**Pedagogika** – yosh avlod ta'lim va tarbiyasi haqidagi fan.

**Pedagogikada antropologik yondashuv** – odam to'g'risidagi barcha fanlar

ma'lumotlaridan muntazam foydalaniш va pedagogik jarayonni tashkil etish hamda amalga oshirishda ularni hisobga olish.

**Pedagogikaning nazariy vazifasi** – ilg'or va yangi pedagogik tajribalarni o'rganish.

**Pedagogikaning texnologik vazifasi** – diagnostik sath – pedagogik hodisalar holatini aniqlash; bashorat qilish sathi – pedagogik faoliyatni eksperimental tadqiq qilish va shu asosda pedagogik voqeqlikni yaratish modellarini o'rnatish; loyiha sathi – pedagogik faoliyatning nazariy konsepsiysi, uning mazmuni va xarakteri asosida ularga muvofiq metodik materiallar (o'quv reja, dastur, darslik va o'quv qo'llanmasi, pedagogik tavsiyanomalar) ishlab chiqish; yaratuvchilik sathi – pedagogik fan yutuqlarini takomillashtirish va qayta rejalashtirish maqsadida ta'limga amaliyotiga tatbiq etish; reflektik tuzatma (korrektirovka) sathi – ilmiy tadqiqotlar natijalarining ta'limga amaliyotiga singib ketishini baholash.

**Pedagogika predmeti** – maxsus institatlarda (oila, ta'limga va tarbiya, madaniyat muassasalarini) maqsadga muvofiq tashkil etiladigan real, yaxlit pedagogik jarayon.

**Pedagogik jarayon** – ta'limga masalalari, uning taraqqiyotini hal qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarining maqsadli o'zaro munosabatlari.

**Pedagogik jarayon tamoyillari** – pedagogik faoliyatni tashkil etishning asosiy talablari bo'lib, u pedagogik jarayonning yo'nalishini ko'rsatadi va uning qonuniyatlarini ochib beradi.

**Pedagogik ixtisoslik** – ta'limga natijasi o'laroq bilim, malaka va ko'nikmalar majmuidan iborat bir kasbiy guruh doirasidagi faoliyat turi.

**Pedagogik ixtisoslashish** – pedagogik ixtisoslik doirasidagi faoliyatning bir turi.

**Pedagogik malaka** – muayyan toifadagi vazifalarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorgarligi darajasi.

**Pedagogik masala** – pedagogik jarayonning asosiy birligi, o'ziga xos tizimidir. U voqeqlikni bilish va qayta yaratish zaruriyati bilan bog'liq tafakkur qilinadigan pedagogik vaziyat hamda ta'limga qatnashchilarining ma'lum bir maqsadini ko'zlagan ta'limga va tarbiyadagi moddiylashtirilgan vaziyat xisoblanadi.

**Pedagogik mahorat** – U pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish (A.S. Makarenko), hamda pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezidir.

**Pedagogik muloqot** – ta'limga oluvchilarining maqsadlari hamda ularning birgalikdagi faoliyatlarini mazmunidan kelib chiqadigan o'zaro aloqalarni o'rnatish va rivojlanishini, bir-birini anglash va qo'llab-quvvatlashni tashkil etishning ko'p qirrali jarayoni.

**Pedagogik takt** – bolalar faoliyatining turli doiralarida ular bilan

muloqotda bo'lishning pedagogik tamoyili, o'chovi hamda o'quvchilar bilan ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda to'g'ri muloqotda bo'la olish malakasi.

**Pedagogik texnika** – 1) har bir ta'limga oluvchiga va jamoaga pedagogik ta'sir o'tkazishda samarali qo'llash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar majmuasi; 2) har bir ta'limga oluvchi va jamoaning faolligini pedagogik jihatdan ta'minlash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar.

**Pedagogik texnologiya** – 1) oldindan loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni amaliyotda rejali va bir maromda tatbiq etish yoki pedagogik masalani yechishga qaratilgan pedagogning uzluksiz o'zaro bog'langan harakatlari tizimi; 2) ta'limga va tarbiya metodlarining u yoki bu to'plamini qo'llash bilan bog'liq bo'lgan pedagogning uzluksiz, o'zaro shartlangan harakatlari tizimi; 3) pedagogning yutuqlariga kafolat beradigan aniq ishlab chiqilgan va qatyi ilmiy loyihalashtirilgan pedagogik harakat; 4) ta'limga shakllarini optimallashtirishga qaratilgan, texnika hamda inson omillari, uning o'zaro hamkorligi asosida o'qitish jarayoni va bilimlarni egallash, yaratish, qo'llash hamda belgilashning tizimli metodi.

**Pedagogik tizim** - shaxsni rivojlantirish va yaxlit pedagogik jarayonni birlashtirgan ta'limga o'zaro bog'langan tashkiliy tuzilmasi.

**Pedagogik faoliyat** – ta'limga maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi.

**Pedagogik o'yin** – bilim olishga qaratilgan va ma'lum bir pedagogik natijani ko'zlagan hamda ta'limga jarayonida muayyan maqsadni amalga oshiruvchi faoliyat turi.

**Pedagogning kommunikativ madaniyati** – pedagogning kishilar bilan qisqa muddatda muloqot o'rnatma olishi hamda ular bilan muloqot o'rnatishga bo'lgan doimiy intilishi.

**Pedagog nuqtai nazari (pozitsiyasi)** – pedagogning dunyoga, pedagogik voqeqlika va pedagogik jarayonga bo'lgan intellektual va hissiy munosabati.

**Pedagogik haqqoniylik** – o'qituvchinig obyektivlik mezoni va uning ma'naviy tayyorgarlik darajasi.

**Proektiv malaka** – malakaning maxsus turi bo'lib, kutilgan pedagogik natijalarni konkret ta'limga va tarbiya rejalarida aks ettiradi.

**Preskreptiv** – me'yoriy.

**Psixologiya** – 1) shaxsning obyektiv borliqni faol aks ettirish jarayonini o'rganuvchi fan; 2) ma'lum bir faoliyat turining o'zaro shartlangan psixik jarayonlar to'plami; 3) psixika, xarakter xususiyati va ko'ngil xazinasi.

**Ratsionalizasiya** – metodlarni yoki biror ish harakatni takomillashtirish.

**Releksatsiya** – kuchli hayajon va jismoniy zo'riqishdan so'ng yengil tortish hamda tinchlanishning umumiy holati.

**Retrospektiv** – o'tmishta murojat etish.

**Refleksiv malaka** – pedagogga nisbatan qo'llanadigan nazorat - baholash

ma'lumotlaridan muntazam foydalanish va pedagogik jarayonni tashkil etish hamda amalga oshirishda ularni hisobga olish.

**Pedagogikaning nazariy vazifasi** – ilg'or va yangi pedagogik tajribalarini o'rGANISH.

**Pedagogikaning texnologik vazifasi** – diagnostik sath – pedagogik hodisalar holatini aniqlash; bashorat qilish sathi – pedagogik faoliyatni eksperimental tadqiq qilish va shu asosda pedagogik voqelikni yaratish modellarini o'rnatish; loyiha sathi – pedagogik faoliyatning nazariy konsepsiysi, uning mazmuni va xarakteri asosida ularga muvofiq metodik materiallar (o'quv reja, dastur, darslik va o'quv qo'llanmasi, pedagogik tavsiyonomalar) ishlab chiqish; yaratuvchilik sathi – pedagogik fan yutuqlarini takomillashtirish va qayta rejalashtirish maqsadida ta'lim amaliyotiga tafbiq etish; reflektik tuzatma (korrektirovka) sathi – ilmiy tadqiqotlar natijalarining ta'lim va tarbiya amaliyotiga singib ketishini baholash.

**Pedagogika predmeti** – maxsus institatlarda (oila, ta'lim va tarbiya, madaniyat muassasalarini) maqsadga muvofiq tashkil etiladigan real, yaxlit pedagogik jarayon.

**Pedagogik jarayon** – ta'lim masalalari, uning taraqqiyotini hal qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarining maqsadli o'zaro munosabatlari.

**Pedagogik jarayon tamoyillari** – pedagogik faoliyatni tashkil etishning asosiy talablari bo'lib, u pedagogik jarayonning yo'nalishini ko'rsatadi va uning qonuniyatlarini ochib beradi.

**Pedagogik ixtisoslik** – ta'lim natijasi o'laroq bilim, malaka va ko'nikmalar majmuidan iborat bir kasbiy guruh doirasidagi faoliyat turi.

**Pedagogik ixtisoslashish** – pedagogik ixtisoslik doirasidagi faoliyatning bir turi.

**Pedagogik maiaka** – muayyan toifadagi vazifalarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorgarligi darajasi.

**Pedagogik masala** – pedagogik jarayonning asosiy birligi, o'ziga xos tizimidir. U voqelikni bitish va qayta yaratish zaruriyati bilan bog'liq tafakkur qilinadigan pedagogik vaziyat hamda ta'lim qatnashchilarining ma'lum bir maqsadini ko'zlagan ta'lim va tarbiyadagi moddiylashtirilgan vaziyat xisoblanadi.

**Pedagogik mahorat** – U pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish (A.S. Makarenko), hamda pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsnинг ish sifati va xususiyatlari sintezidir.

**Pedagogik muloqot** – ta'lim oluvchilarining maqsadlari hamda ularning birlgiligidagi faoliyatlarini mazmunidan kelib chiqadigan o'zaro aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishni, bir-birini anglash va qo'llab-quvvatlashni tashkil etishning ko'p qirrali jarayoni.

**Pedagogik takt** – bolalar faoliyatining turli doiralarida ular bilan

muloqotda bo'lishning pedagogik tamoyili, o'chovi hamda o'quvchilar bilan ularning shaxsiy xususiyatlari hisobga oлган holda to'g'ri muloqotda bo'la olish malakasi.

**Pedagogik texnika** – 1) har bir ta'lim oluvchiga va jamoaga pedagogik ta'sir o'tkazishda samarali qo'llash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar majmuasi; 2) har bir ta'lim oluvchi va jamoaning faoliyini pedagogik jihatdan ta'minlash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar.

**Pedagogik texnologiya** – 1) oldindan loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni amaliyotda rejali va bir maromda tafbiq etish yoki pedagogik masalani yechishga qaratilgan pedagogning uzluksiz o'zaro bog'langan harakatlari tizimi; 2) ta'lim va tarbiya metodlarining u yoki bu to'plamini qo'llash bilan bog'liq bo'lgan pedagogning uzluksiz, o'zaro shartlangan harakatlari tizimi; 3) pedagogning yutuqlariga kafolat beradigan aniq ishlab chiqilgan va qatiy ilmiy loyihalashtirilgan pedagogik harakat; 4) ta'lim shakllarini optimallashtirishga qaratilgan, texnika hamda inson omillari, uning o'zaro hamkorligi asosida o'qitish jarayoni va bilimlarni egallash, yaratish, qo'llash hamda belgilashning tizimi metodi.

**Pedagogik tizim** – shaxsni rivojlantirish va yaxlit pedagogik jarayonni birlashtirgan ta'limning o'zaro bog'langan tashkiliy tuzilmasi.

**Pedagogik faoliyat** – ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi.

**Pedagogik o'yin** – bilim olishga qaratilgan va ma'lum bir pedagogik natijani ko'zlagan hamda ta'lim jarayonida muayyan maqsadni amalga oshiruvchi faoliyat turi.

**Pedagogning kommunikativ madaniyati** – pedagogning kishilar bilan qisqa muddatda muloqot o'rnata olishi hamda ular bilan muloqot o'rnatishga bo'lgan doimiy intilishi.

**Pedagog nuqtai nazari (pozitsiyasi)** – pedagogning dunyoga, pedagogik voqelikka va pedagogik jarayonga bo'lgan intellektual va hissiy munosabati.

**Pedagogik haqqoniylik** – o'qituvchinig obyektivlik mezoni va uning ma'naviy tayyorgarlik darajasi.

**Proaktiv malaka** – malakaning maxsus turi bo'lib, kutilgan pedagogik natijalarni konkret ta'lim va tarbiya rejalarida aks ettiradi.

**Preskreptiv** – me'yoriy.

**Psiyologiya** – 1) shaxsning obyektiv borliqni faol aks ettirish jarayonini o'rganuvchi fan; 2) ma'lum bir faoliyat turining o'zaro shartlangan psixik jarayonlar to'plami; 3) psixika, xarakter xususiyati va ko'ngil xazinasi.

**Ratsionalasiya** – metodlarni yoki biror ish harakatni takomillashtirish.

**Releksatsiya** – kuchli hayajon va jismoniy zo'triqishdan so'ng yengil tortish hamda tinchlanishning umumiylari.

**Retrospektiv** – o'tmishta murojat etish.

**Refleksiv malaka** – pedagogga nisbatan qo'llanadigan nazorat – baholash.

faoliyati.

**Refleksiya** – takrorlash, aks ettirish, o‘z harakatlari va holatlarini tahlil qilish.

**Rivojlanishning ehtimollik nazariyasi** – shaxs psixikasi rivojlanishining har bir davrini tasodifly faktlar yig‘indisiga ko‘ra belgilashga asoslangan nazariya bo‘lib, u avvalgi rivojlanish davridagi erishilgan sathga nisbatangina bog‘liq bo‘ladi.

**Rol ijro etish** – qatnashuvchilarning yakka va guruh bo‘lib turli rollarda sahnaga chiqishi, obrazga kirishi.

**Ruhiy pedagogik tayyorgarlik** – pedagogikaning metodologik asoslari va kategoriyalarini, shaxsning ijtimoiylashuvi va taraqqiyoti qonuniyatlarini hamda ta’lim va tarbiyaning mohiyati, maqsadi va texnologiyalarini bilish.

**Sardor** – guruh a’zolariga lozim bo‘lgan vaziyatlarda sezilarli ta’sir o’tkaza oladigan shu guruhning a’zosi.

**Suggestiya** – uqtirish, to‘la ishonch hosil qilish.

**Suhbat** – kuzatuv chog‘ida yetarli darajada aniq bo‘Imagan zarur axborotni olish uchun qo‘llanadigan tadqiqot metodi.

**Tadqiqot obyekti** – ziddiyat va muammoli vaziyat tug‘diruvchi, bilishga qaratilgan ilmiy tahliliga muhtoj obyekt.

**Tadqiqot predmeti** – bevosita o‘rganilishi lozim bo‘lgan va amaliy yoki nazariy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadigan obyektning mohiyati, xususiyati.

**Tazyiq o’tkazish** – uyaltirish, aybdorlik hissi bilan ko‘ngli cho‘kkalarning fikri, hissiyoti, intilishi va maylini ularning ongidan xalos qilish.

**Talqin qilish** – biror hodisa yoki narsani izohlash, tushuntirish.

**Takabbur** – o‘z mansafatlarini yuqori qo‘yuvchi, manman shaxs.

**Takt** – misli ko‘rilmagan tarzda o‘zini tuta bilish.

**Ta’lim** – 1) shaxsning jismoniy va ma’naviy shakllanishining yagona jarayoni, sotsial etalonlarning ijtimoiy ong sisatida u yoki bu darajada qayd qilingan hamda tarixan shartlangan ideal timsollarga ongli yo‘naltirilgan ijtimoiylashish jarayoni; 2) muayyan bilimlarni egallash g‘oyaviy-axloqiy qadr, malaka, ko‘nikma, axloq me’yorlariga qaratilgan jamiyat a’zolarining ta’lim va tarbiyasi vazifasini bajaradigan nisbiy mustaqil tizim.

**Ta’limning madaniy insonparvarlik vazifikasi** – U kishining hayot to‘silqlarini yengishga yordam beradigan ma’naviy kuchi, qobiliyati, malakalari, tabiat va ijtimoiy hayotga moslashish vaziyatidagi xarakteri, ma’naviy masuliyatining shakllanishi, shaxsning, kasbiy takomilli hamda shaxsning o‘zi tomonidan amalga oshirilishini ta’minlovchi imkoniyatlari kabilarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, u yana shaxsning intellektual va axloqiy erkinlikka, shaxsiy muxtoriyatga hamda baxtiga erishish uchun zarur bo‘lgan vositalar va shaxsning individual ijodiy taraqqiy etishi borasidagi ma’naviy

imkoniyatlarining ochilishi uchun sharoitlar yaratishi kabilarni ham nazarda tutadi.

**Ta’lim turlari** – sokratcha suhbat metodi, an’anaviy ta’lim, izohli-namunalni (illyustrativ) ta’lim, bilimlarni mustaqil egallash, dasturlashtirilgan ta’lim, ta’limni algoritmlash jarayoni, differensiasiyali, individual ta’lim va boshqalar.

**Tarbiya** – 1) shaxsning ma’naviy va jismoniy holatiga muntazam va maqsadga muvofiq ta’sir etish; 2) pedagogik jarayonda ta’lim maqsadlarini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati.

**Taqlid qilish** – biror harakat, qiliq, ahd, fikr va hissiyorotni takrorlash, aynan o‘zlashtirish.

**Tafakkur** – U inson aqliy faoliyatining oliy shakli bo‘lib, insonlarni o‘rab olgan dunyodagi o‘zaro bog‘langan narsa va hodisalarini bilish jarayonidir. Shuningdek, u yana muhim hayotiy jarayonlarni his qilish va muammolami hal qilish, ma’lum bo‘Imagan voqeа hodisalarini qidirish hamda, kelajakni ko‘ra olish degani hamdir. Tafakkur, tushuncha, hukm, xulosa shakllarida namoyon bo‘лади.

**Temperament** – 1) shaxsning psixik faoliyati dinamikasining turli jihatlarini bildiradigan turg‘un individual xususiyatlarining qonuniy munosabatlari; 2) shaxsning dinamik xususiyatlari: intensivlik, tezlik, temp, psixik jarayonlar va holatlar ritmi.

**Test** – 1) standart shakldagi topshiriqlar bo‘lib, aqliy taraqqiyot, qobiliyat, bilim va malakani aniqlash maqsadida o’tkaziladigan sinovdir; 2) aniq sotsiologik tadqiqotlarda foydalaniладigan tarqatma material, savlonoma; 3) shaxs ruhiyati va xulqining aniq miqdoriy va ma’lum sisat baholarini oldindan berilgan ba’zi standart – test me’yorlari bilan qiyosiy o‘rganishga mo‘ljallangan psixologik tadqiqotlarning standartlashtirilgan metodi.

**Testdan o’tkazish** – ta’lim otuvchining bilim va malakalarini, psixik rivojlanishi va ijtimoiy tajribasini aniqlash uchun savollar tizimining qo‘yilishidir.

**Texnologiya** – ishlab chiqarish jarayonida ashyolar, materiallar, yarim tayyor mahsulotlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ashyoning holati, xususiyati, shaklini o‘zgartirish metodlari to‘plami.

**Tizim** - 1) yaxlit ta’limni, uning birligini belgilovchi bir-biri bilan qonuniy bog‘liq aksariyat unsurlar (predmetlar, hodisalar, qarashlar, bilimlar va boshqalar); 2) qismlarning ma’lum bir bog‘lanishlarda, harakatlarning o‘ta izchillikda rejali, to‘g‘ri joylashish tartibi.

**Turtki (stimul)** – shaxs psixikasi motivlarining shakllanishini ta’minlovchi tashqi ta’sir.

**Tushuncha** – atrof-muhitdagи hodisalar, predmetlarning muhim xususiyatlarini, ular orasidagi aloqa va munosabatlarni bilish.

**Faoliyat** – 1) ongli maqsad bilan boshqariladigan kishining ichki (ruhiy), tashqi (jismoniy) faolligi; 2) atrof-muhitning kishilar tomonidan maqsadga muvofiq qayta bunyod etilishi.

**Faoliyatning yetakchi turi** – bola hayotining muayyan davridagi psixik rivojlanishini yetarli darajada ta'minlovchi hamda keyingi taraqqiyotiga asos bo'luvchi faoliyatdir.

**Fundamental** – asosiy, fundamental

**Xayrixohlik** – kishilarga ochiq ko'ngilli bo'lish, iltifotli, marhamatliz bo'lish.

**Shaxs** – 1) kishilarning ijtimoiy xulqi, insonlar orasida o'zini tutishini aks ettiradigan ruhiy sifatlari majmuuni bildiruvchi tushuncha; 2) turli-tuman sifatlar tizimidagi kishining ruhiy, ma'naviy mohiyati; 3) ijtimoiy mohiyat kasb etgan va o'z-o'zini anglash qobiliyatiga ega bo'lgan kishi.

**Shaxs dinamikasi** – kishining ontogenetik rivojlanishini o'z ichiga oлган holda subyektning xususiyatlari va sifatining vaqtga nisbatan o'zgarish jarayoni.

**Shaxsiy fazilat** – shaxs tomonidan o'zining axloqiy, ruhiy va ishchanlik qobiliyatining ijtimoiy ahamiyatini, jamiyatdagi o'rnni anglay olish xususiyati.

**Etiqod** – shaxs amal qiladigan bilim, tamoyil va ideallarning haqqoniyligiga qalban va asosli ishonch bilan bog'langan, uning atrof-muhitga hamda o'zining xatti-harakatlariga bo'lgan subyektiv munosabati.

**Evrustika** – ilmiy taddiqotning mantiqiy usullari va metodik qoidalari tizimi.

**Empirik** – tajribaga asoslangan.

**Empirik bosqich** – taddiqot obyekti to'g'risida har tomonlama tasavvur hosil qilish, ta'limga amaliyoti, ilmiy bilimlari saviyasi va hodisalar mohiyatiga erishishga bo'lgan talab o'tasidagi ziddiyat, ilmiy muammoni nomlash.

**Estetik tarbiya** – go'zallikni his qilish, atrof-muhitdagi go'zallikni payqay olish va tushunishga bo'lgan qobiliyatni tarbiyalash.

**Ehtiyoj** – individning biror narsa-hodisaga muhtojligi va kishining ruhiy quvvati hamda faoliigli manbai hisoblanadigan asosiy xususiyati.

**Ehtimollik** – tasodiflylik, pedagogik hayotdagi o'zgarishlarni aniq aytib berish mumkin bo'lmagan, ehtimol kutilgan jarayon.

**O'yin** – faoliyatning bir turi bo'lib, ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va bunyod etishga hamda, o'z xatti-harakatlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'sadi.

**O'z-o'zini baholash** – shaxsning o'z psixologik sifatlari, xulqi, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari, qadr-qimmati hamda, kamchiliklarini baholay olishi.

**O'z-o'zini tarbiyalash** – 1) shaxsga xos bo'lgan madaniyatning shakllanishi va rivojlanishiga qaratilgan izhil va ongli faoliyat; 2) shaxsning o'z jismoniy, ruhiy va axloqiy sifatlarini tinmay amalgalashish.

**O'qitish** – ta'limga oluvchining bilish faoliyatini boshqarishga qaratilgan o'qituvchining faoliyati.

**O'qitish** – 1) ta'limga o'ziga xos usuli bo'lib, unda shaxsga nazariy va amaliy bilimlar berish jarayonida uning rivojlanishi ta'minlanadi; 2) o'quvchi va o'qituvchi, o'quvchining boshqa o'quvchilar bilan aloqasi natijasi o'laroq atrof-muhit, uning qonuniyatlari, taraqqiyot tarixi va ularning o'rganilish usullarini bilishning mutazam boshqarilish jarayoni.

**O'qituvchining innovatsion faoliyati** – sotsial ijtimoiy pedagogik fenomen bo'lib, ijodiy imkoniyatni aks ettirish hamda, kundalik faoliyatdan chetga chiqishdir.

**O'qitish vazifasi** – ta'limi, tarbiyaviy va rivojlanish vazifalari.

**O'qitish turlari** – sokratcha suhbat metodi, qoloq ta'limga, izohlash-namoyish etish asosida o'qitish, bilimlarni mustaqil egallash, dasturlashtirilgan ta'limga, o'quv jarayonini algoritmlash, differensiasiyali hamda individual ta'limga boshqalar.

**O'qish** – o'quvchining o'z qobiliyati, bilimi, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan harakati.

**O'quvchilarni kasbga yo'naltirish** – o'quvchi-yoshlarga kelajakda o'z kasblarini aniqlab olish uchun yordam ko'rsatishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tibbiy-biologik va ishlab chiqarish – texnik tadbirlarning asoslangan tizimi.

**O'quv-bilish faoliyati** – insoniyat tomonidan to'plangan madaniy boylikni egallash bilan bog'liq faoliyat.

**O'quv faoliyati** – shaxsning yangi bilim, malaka va ko'nikmalarini egallash jarayoni.

**Qanoat** – ma'lum maqsadga erishish yo'tida ijobiy tuyg'u bilan bog'langan shaxsning psixologik holati.

**Qiziqish** – shaxs harakatiga sabab bo'ladigan faoliyat yo'nashining ongli shakli.

**G'ayri ixtiyoriylik** – tashqi holat yoki shaxsiy kayfiyatlar ta'sirida dastlabki ishonchlarga moyil kishi xulqining xususiyati.

**Halollik** – shaxsiy va ijtimoiy majburiyatlarni, axloqiy me'yormoni rostgo'ylik bilan saqlash.

**Hasad** – o'zgalarning muvaffaqiyatlarini ko'ra olmaslikdan kelib chiqadigan tuyg'u.

**Yaxlitlik** – pedagogik jarayonning sintezlashgan sifati bo'lib, uning oliy darajadagi taraqqiyotini, unda faoliyat ko'rsatayotgan subyektlar hamda obyektlar faoliyatini ta'minlovchi jarayondir.

**Yaxlit pedagogik jarayon** – tarbiya jarayonida ta'limga va ta'limga jarayonida tarbiya berishning o'zaro singib ketgan, yaxlit holga kelgan jarayoni.

N.N. AZIZXO'JAYEVA

## PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT

### O‘quv qo‘llanma

*Nashr uchun mas‘ul:*

*O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi*

*Adabiyot jaung‘armasi direktori*

*Qurbanumarod Jumayer*

*Muharrir:*

*Nodir Ramozonov*

*Musavvir va texnik muharrir:*

*Nodir Ortikov*

*Dilnoza Jumayeva*

*Terishga berildi 04.07.2006 y. Boshishiga ruxsat  
etildi 20.07.2006 y. Qog‘oz formati 60x84 ¼  
Offset bosma usulida bosalidi. Hajmi 10.0 bosma  
tobog. Ikkinchili nashr. Nusxasi 1000.*

*Buyurtma № 30*

*O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot  
jaung‘armasi nashriyoti, 700000, Toshkent,  
J-Neru ko‘chasi, 1-uy.*

*«AVTO-NASHR» sho‘ba korxonasi  
bosmaxonasida chop qilindi.  
700005, Toshkent shahri, 8-mart ko‘chasi, 57-uy.*